

MEHRI NORBOSHEVA

BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA PSIXODIAGNOSTIKASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

NORBOSHEVA MEHRI ACHILOVNA

Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi

O'quv qo'llanma
5111800-maktabgacha ta'lim yo'nalishi uchun

Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi., Norbosheva Mehri Achilovna
Детская психология и психодиагностика., Нарбашева Мехри Ачиловна

Ushbu o'quv qo'llanma 5111800- maktabgacha ta'lim bakalavrlar uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2018 yil 25 avgustdagi 744-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va tub islohotlar bo'lg'usi tarbiyachilar, pedagoglar, amaliyotchi psixolog mutaxassislarning bolalar psixologiyasini va uning amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganishni, malakali kadr sifatida zamonaviy tashxis metodikalarini qo'llashni amalga oshirishlarini talab etmoqda. Bugunning dolzarb vazifalaridir biri bola shaxsiga individual yondoshuv bo'lib, har bir bolada o'ziga xos qobiliyatni aniqlash orqali ta'lim-tarbiyani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilar "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" fanini chuqur o'rganish talab etilmoqda. O'ylaymizki, mazkur qo'llanma bu borada talabalarga yordamchi bo'la oladi.

Taqrizchilar:

Umarov Baxriddin Mengboyevich	Toshkent Xalqaro islom universiteti professori, psixologiya fanlari doktori,
Qodirov Umarali Do'stqobilovich	Surxondaryo viloyati xalq ta'limi pedagog xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash hududiy markazi rahbari, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jo'rayev Toshpo'lat Saxiyevich	Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrası dostenti v.b., psixologiya fanlari nomzodi

Termiz davlat universiteti Kengashining 2019 yil 26 sentyabrdagi 2-yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan

MUNDARIJA

Kirish	6
Bolalar psixologiyasi o'quv fani sifatida.	8
Bolalar psixologiyasi fanining metodlari	16
Bolalar psixologiyasi muammolarini o'rganilishi	24
Chaqaloqlik davrining psixologik xususiyatlari	38
Go'daklik davrining psixologik xususiyatlari	52
Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot va diagnostikasi	58
Maktabgacha yosh davri va taraqqiyot psixodiagnostikasi.	73
O'yin bog'cha yoshida etakchi faoliyat sifatida	90
Maktabgacha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti(sezgi, diqqat)	109
Maktabgacha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti(xotira, idrok)	117
Maktabgacha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti(nutq, tafakkur, xayol)	124
Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining kommunikativ vosita sifatidagi rivojlanishi	143
Maktabgacha yoshidagi bola shaxsining rivojlanishi va psixodiagnostikasi	149
Maktabgacha tarbiya yosh davrida o'quv faoliyati	158
Maktabga psixologik tayyorgarlik diagnostikasi	163
Maktabgacha yosh davrda psixodiagnostikaning o'ziga xos jihatlari	178
Diagnostik vositalar bilan ishlash texnologiyasi	189
Adabiyotlar	198
Ilovalar	199

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение	6
Детская психология как учебный предмет	8
Методы детской психологии	16
Изучение проблемы детской психологии	24
Психические особенности детей в период новорожденности и диагностика психического развития	38
Психические особенности детей в период младенчества	52
Психические особенности детей раннего возраста и диагностика психического развития	58
Особенности психического развития в дошкольном возрасте и диагностика психического развития	73
Игра как ведущая деятельность в дошкольном возрасте	90
Развития психических процессов в дошкольном возрасте (ощущения, внимание)	109
Развития психических процессов в дошкольном возрасте (память, восприятие)	117
Развития психических процессов в дошкольном возрасте (речь, мышления, воображения)	124
Развития речи у дошкольников как коммуникация	143
Развития личности в дошкольном возрасте и их психодиагностика	149
Учебная деятельность в дошкольном периоде	158
Диагностика психологической готовности к школе	163
Особенности психодиагностики в дошкольном возрасте	178
Работа с диагностическими средствами	189
Литература	198
Приложения	199

KIRISH

Ma'lumki, 2016 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi PQ-2707-sonli qarorining e'lon qilinishi sohani tubdan isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalari ishini har tomonlama takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini qayta ko'rib chiqish vazifasini qo'ydi. Shunga ko'ra qisqa muddat ichida soha mutaxassislari xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganib chiqishdi. Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviytizim yaratish masalasiga to'xtalib o'tdi. Bolalarning qiziqish vaintilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda hartomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masaladir.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va tub islohotlar bo'lg'usi tarbiyachilar, pedagoglar, amaliyotchi psixolog mutaxassislarning bolalar psixologiyasini va uning amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganishni, malakali kadr sifatida zamonaviy tashxis metodikalarini qo'llashni amalga oshirishlarini talab etmoqda. Bugunning dolzarb vazifalaridir biri bola shaxsiga individual yondoshuv bo'lib, har bir bolada o'ziga xos qobiliyatni aniqlash orqali ta'lim-tarbiyani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilar "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" fanini chuqur o'rganish talab etilmoqda.

O'quv qo'llanmada fan dasturi asosida mavzular ketma-ketlikda izchillik bilan yoritib borilgan. Bolalar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, fanning asosiy kategoriyalari, boshqa fanlar bilan aloqasi, ilmiy tadqiqot metodlari

¹ <http://www.lex.uz>

va ulardan foydalanish, bola psixikasini o'rganish tamoyillari atroflicha keltirib o'tilgan.

Shuningdek, fan rivojlanishi tarixi, bolalar psixologiyasi muammolarining o'rganilishi masalasi turli olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari asosida keng yoritilganligi talabalar tomonidan fanning metodologiyasini chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi.

Muallif tomonidan chaqaloqlikdan maktabgacha yoshgacha bo'lgan davrdagi psixik taraqqiyot muammolari, shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari, bilish jarayonlarining rivojlanishi, bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligi kabilar har bir davr uchun mukammal tarzda materiallar berilib, diagnostik vositalar ham keltirib o'tilganligi talabalar uchun qo'yilgan malaka talablarini bajarishda asqotadi.

O'quv qo'llanmada sohaga oid ilmiy, o'quv adabiyotlar ro'yxati, bola psixik taraqqiyotini o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan diagnostik vositalar ham berilganligi talabaning mustaqil ta'lim topshiriqlarini qiziqish bilan bajarishiga yordam beradi degan umiddamiz.

Bolalar psixologiyasi o'quv fani sifatida.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda, bolani dunyoga kelganidan boshlab to voyaga etguniga qadar bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota – onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bolaning psixik taraqqiyoti haqidagi bilimlarni esa psixologiyaning maxsus sohasi – bolalar psixologiyasi fani o'rganadi.

Bolalar psixologiyasi – psixologiya fanining alohida tarmog'i bo'lib, bolaning tug'ilganidan to maktabga chiqqunga qadar bo'lgan davrida psixik taraqqiyotini, turli yosh davrlardagi bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarni, rivojlanishining turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e'tibori tug'ilganidan etuklik davrigacha inson psixikasi va ongining qanday rivojlanishiga qaratilgan, ya'ni har bir shaxs uzoq bolalik davrini boshdan kechiradiki, bu davrda unda alohida psixik jarayon va xususiyatlar yuz beradi. Shuning uchun ham bu davrni fanda alohida ajratib o'rganiladi va uni ontogenetik (tug'ilgandan ulg'aygungacha o'sib yetilish davri) taraqqiyot yo'li deyiladi.

Bolalar psixologiyasi bola psixikasining taraqqiyoti hamda shaxsiy xususiyatlarining yuzaga kelishiga ta'sir qiluvchi omillarni ham o'rganadi. Bolalar psixologiyasi bu muammolarni hal qilishda mustaqil fan sifatida o'ziga xos vazifalarni hal etmog'i lozim.

Bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining oldida bir qancha muhim nazariy va amaliy vazifalari turadi. Bolalar psixologiyasining nazariy vazifalari uning nazariy muammolarini echishga qaratilgan. Jumladan, uning nazariy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1)Turli yoshdagi bolalarga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni, ya'ni bolalarning idrokiga, sezgi – tuyg'ulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga, irodasiga xos xususiyatlarni o'rganish;

- 2) I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti asosida turli yoshdagi bolalar psixik jarayonlari xususiyatlariniing nerv– fiziologik asoslarni o'rganish;
- 3) Bolaning psixik taraqqiyotiga faol ta'sir kiluvchi omillarni aniqlab berish;
- Turli yoshdagi bolalarning rivojlanishiga xos bo'lgan qonuniyatlarni o'rganish;
- 4) Bola shaxsi va shaxsiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rganish;
- Bolani maktab ta'limiga tayyorlash;
- 5) Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bolaning aqliy jarayonlarini faollashtirish;
- 6) Ta'lim jarayonida bolaning mustaqil, ijodiy, faol tafakkurini shakllantirish;
- 7) Ta'lim – tarbiya jarayonida bolaning maxsus qobiliyatlarini shakllantirish;

Ta'lim – tarbiya ishlarini psixologik mazmunini ochib berishdan iboratdir. Uning amaliy vazifalariga turli yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti xususiyatlariga doir bilimlarni tarbiyachilar, o'qituvchilar, ota – onalar ya'ni jamoatchilik o'rtasida keng yoyishdan iborat. Bolalar psixologiyasining amaliy vazifasi - keng jamoatchilikni bola ruhiy taraqqiyotiga, yoshlik xususiyatlari orasidagi farqlar va ularga individual munosabatda bo'lish yo'llariga doir, ruhiy taraqqiyot qonunlariga doir psixologik bilimlardan bahramand bo'lmoqlarini ta'minlashdan iborat. Jamoatchilikni psixologik bilimlardan xabardor qilish, ommaviy axborot vositalari orqali turli eshittirishlar, ko'rsatuvlar tashkil qilish, ota–onalar bilan suhbatlashish, mahallalarda bola tarbiyasi haqida ma'ruza, suhbat va bahslar uyushtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish komil insonni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bolalar psixologiyasini boshqa fanlar bilan aloqasi

Bolalar psixologiyasi fani o'z predmetini o'rganishda falsafa, umumiy psixologiya, pedagogika, maktabgacha pedagogika, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, bir qator tibbiyot fanlari: bolalar gigienasi, pediatriya, bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Hozirgi kunda bolalar psixologiyasi fani predmetining kengayib borishi kuzatilmoqda. Bu hodisa bolaning homila davridagi rivojlanishini tobora chuqurroq o'rganish natijasida ro'y bermoqda.

Bolalar psixologiyasining tarixi va psixik taraqqiyot muammolari haqida

Har qanday fan, jumladan bolalar psixologiyasi ham ilmiy tushunchalar majmuasidan tarkib topgan. Bolalar psixologiyasining asosiy va markaziy muammosi bolaning psixik jihatdan o'sishi, unga xos xususiyat va qonuniyatlarini yoritib berishdan iboratdir. Bu muammoni to'g'ri hal etish bolalar psixologiyasining fan sifatida yanada taraqqiy etishi uchun ham, o'sayotgan avlodni komil inson qilib tarbiyalash amaliyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Hali psixologiya fani, jumladan bolalar psixologiyasi paydo bo'lmasdan avval bolani ruhiy taraqqiyoti haqidagi masalalarga katta e'tibor berilgan edi. Bolaning rivojlanishi haqidagi fikrlar juda sodda bo'lishiga qaramay, ular bola taraqqiyoti haqida muhim ahamiyat kasb etar edi. O'tgan ajdodlarimiz bolalar psixologiyasidagi muammolarni izchil va atroflicha o'rganmagan bo'lsalar ham, lekin ularning o'z asarlarida o'zining qimmatli fikrlarini bayon qilganlar.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari uzoq o'tmishga, ko'p asrlik tarixga, boy madaniy merosga ega edilar. O'rta Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston Sharqning eng qadimiy, madaniy uchoqlaridan biri bo'lib, u jahon fani tarixiga munosib hissa qo'shgan. Xorazmlik olim al Xorazmiy nomi «algoritm» degan termin orqali, Yevropada Alfrachanus nomi bilan mahshur bo'lgan olim Ahmad al Farg'oniy «Astronomiya asoslari» asari bilan bizgacha yetib keldi. Abu Rayhon Beruniy ijdodida «Tana va Rux» ga oid hodisalar talqin qilindi. U odamlar o'z tabiati jihatidan bir-biridan farq qilishini, bu farq uning mijozi, fe'l atvori va tabiiy xususiyatlarida namoyon bo'lishini ta'kidladi. U inson hayotini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi.

Uning zamondoshi Abu Nasr Farobiy insonning ruhiy jarayonlari bilan fiziologik jarayonlari orasidagi bog‘liqlik, dunyoni bilish haqidagi ta’limoti bilan shuhrat qozondi. U axloqiy sifatlar tug‘ma bo‘lmay, balki mashqlar, ko‘nikma va malakalar, odatlar natijasi deb uqtiradi. Bu yerda irodaning ahamiyati ulkanligini, uning yordamida kishi o‘zida hissiy va ma’naviy ehtiyojlarni ongli ravishda tanlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi deydi. Farobiyning ta’limoti Ibn Sino qarshilarining shakllanishiga kuchli ta’sir qiladi. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi asab va asab yo‘llari, fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq psixik jarayonlar haqida fikr yuritadi. U bola tarbiyasiga alohida e’tibor berdi va jismoniy tarbiya sog‘lom va tetik insonni shakllantirishning muhim omili ekanini, bolaning tug‘ilgandan boshlab, bolalikdan o‘smirlikka o‘tish davrida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni tavsiya etdi. Ibn Sino atrof-muhit va organizm orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olib, har bir a’zo uchun maxsus mashqlar majmuasini tuzdi.

Shuningdek, Yusuf Xos Xojib o‘zining «Qutadg‘u bilik» asarida eng komil, jamiyatning talablariga javob beradigan insonni tarbiyalash, A.Jomiy asarlarida («Tuxfatul axror») ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar o‘rgatish, yoshlarda yaxshi hislatlarni, odoblilikni shakllantirish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Axmad Yassaviyning mehr-sahovatli bo‘lish haqidagi qarashlari, Imom al-Buxoriy ijodidagi shaxslararo munosabatlar, Baxovuddin Naqshbandiy ijodida aql va dunyoqarashning shakllanishi, A.Navoiy faoliyatida ilmiy ta’lim – tarbiyaning asoslanishi kabilar boy meros sifatida ahamiyatlidir. Ular ijodida aynan bolalarda ruhiy jarayonlarning paydo bo‘lishi yoki shakllanib borishi haqida batafsil fikr yuritilmagan bo‘lsa ham ularning shaxs xalovati haqidagi fikrlari bolalarda ruhiy jarayon va xususiyatlarni shakllanishi uchun imkon yaratadi.

Turli yoshdagi bolalar psixologiyasi o‘z taraqqiyoti tarixida uzoq mashaqqatli davrni boshidan kechirdi. Turli yoshdagi bolalar psixikasi xususiyatlarini muayyan tartibga solish va uni ilmiy tarzda tushuntirib berish

bola psixikasi taraqqiyotining turli yosh davrlariga taalluqli xususiyatlarni, dalillarni to'plashni talab qilar edi. Bunday dalillar faqat fanni g'ayri ilmiy tarzda tushuntirishga olib kelar edi. Chunki olimlarning, pedagoglarning o'tmishdagi falsafiy yo'nalishlari g'ayri ilmiy ruhda bo'lgan edi.

Bolalar psixologiyasi fan sifatida XIX asrning o'rtalarida umumiy psixologiyadan ajralib chiqdi. Materialistik falsafa maydonga kelgan davrdan boshlab bolalar psixologiyasini fan sifatida yaratishi imkoniyati tug'ildi. Bolaning psixik taraqqiyotining qonuniyatlari, xususiyatlari o'rganila boshlandi. Bular asosida asarlar yaratildi. Chunonchi, bola psixikasining taraqqiyotining ilmiy kuzatishga dastlab mashhur tabiatshunos olim Charlz Darvin yo'l ochdi. U bola psixikasining taraqqiyotiga doir "Kundalik xotira" tipidagi asarini kashf qildi.

XIX asrning II yarmida tajriba psixologiyasining rivojlanishi bilan bola psixikasining ayrim tomonlarini (diqqat, xotira, tafakkur, nutq, iroda) o'rganila boshladi.

Bola psixikasining rivojlanishi muammosini o'rganishda K.D.Ushinskiy ko'rsatib bergan yo'li alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni u bola psixikasi taraqqiyotini har tomonlama o'rganadigan bir butun fan sifatida rivojlana boshladi. Rus pedagoglari Belinskiy va Dobrolyubovlar bola psixik taraqqiyotining bir butunligi, murakkabligi, ijtimoiy tarixiy sharoit bilan bog'liqligi, psixik taraqqiyotda ta'lim - tarbiyaning roli haqidagi fikrlari xatto hozir ham o'z qiymatini yo'qotmadi.

Shuningdek, chet el psixologlari ham ayrim psixik jarayonlar bo'yicha ilmiy tekshirishlar olib bordilar. Jumladan, bolalarning idroki bo'yicha Verner, Kans, xotira bo'yicha E. Meyman, V. Shtern, tafakkur bo'yicha Bine, Byuller, nutq yuzasidan Shtern, Mak-Karti va boshqalar ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar.

XIX asrning 60-yillarida rus fiziologi I.M.Sechenov (1829-1905) inson psixikasining ontogenezinini reflektor tabiati haqidagi ta'limotini yaratdi. U

o‘zining 1863-yili yozgan “Bosh miya reflekslari” nomli asarida odam psixik hayotiga, bolalar psixik hayotiga realistik nuqtai nazaridan yondoshishni asoslab berdi va psixik taraqqiyotining asosini reflekslar tashkil qiladi degan ta’limotni yaratish bilan fanga zid bo‘lgan qarashlarga zarba berdi.

I.M.Sechenovning ishini I.P.Pavlov davom ettirdi, u odam va hayvonlar oliy nerv faoliyatining xususiyatlari, qonuniyatlarini ochib berdi. Bolalarning shartli reflektor faoliyatlarini o‘rganish yuzasidan qimmatli ilmiy tadqiqot ishlari boshlab yuborildi.

Bolalar psixologiyasining rivojlanishiga birinchilardan bo‘lib hissa qo‘shgan olimlardan biri P.P.Blonskidir (1884-1941) U o‘zining “Psixologiya ocherki”, “Xotira va tafakkur“, “Maktab o‘quvchilarining tafakkurini rivojlanishi” kabi asarlarida psixologik hodisalarni tushuntirib bermagan bo‘lsa ham, ammo ularni shakllanishiga pedagogik yo‘l topib berdi. U bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanishi, kichik, o‘rta va katta maktab o‘quvchilarining assotsiatsiyalar doirasi, bolalar tafakkurida tushunchalarning paydo bo‘lishi, xotira va tafakkurlarni o‘quv faoliyatida rivojlanishi masalalarini ishlab chiqdi.

Bolalar psixologiyasini o‘rganishda oliy nerv faoliyatini bilish ahamiyatli edi. Shunga binoan 1920 yili Sank-Peterburgda psixiatr va nevrolog V.M. Baxterov (1857-1927) boshchiligida “Miya” instituti tashkil qilindi. Unda bolalarni tug‘ilgan kundan boshlab 3 yilgacha bo‘lgan vaqt mobaynida miya tuzilishidagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar psixologlar tomonidan bolaning psixik taraqqiyotini o‘rganishga tadbqiq qilindi.

1980 yillardan boshlab psixologiyaning nazariy rivojlanishini tarixiy – madaniy jihatini, uning (ildizini) asosini, ya’ni bolani dunyoga kelishi, uning biologik tipning oxiri ekanligini, sifat o‘zgarishlari jihatidan esa ijtimoiylikka aylanishini yoritib berdilar. L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida tashqi muhitning rolini va bolani muhit bilan effektiv munosabatini, ta’lim bilan rivojlanishining o‘zaro munosabatlari, murakkab psixik funksiyalar ta’lim

jarayonida shakllanishini, aktual taraqqiyot bosqichida mustaqil faoliyatni yaqin taraqqiyot bosqichi asosida bo‘linishini, psixik taraqqiyot qarama-qarshilik, ziddiyatlaridan iborat ekanligini ko‘rsatib berdilar. U kishilar o‘zining psixologik faoliyatida mehnatdan foydalanishi, turli belgilar orqali narsalarning nomlarini anglab olishi, belgilar bilan nomlar, atamalar orasidagi munosabatlarni paydo bo‘lishi yuksak psixik funksiyalarni rivojlanishiga olib keladi, deb ko‘rsatadi. Uningcha “Har qanday yuksak psixik funksiyalar o‘zini rivojlanishida tashqi ta’sirlar orqali rivojlanadi, chunki u ijtimoiy funksiyani boshlang‘ich ko‘rinishidir”. Vigotskiy buni bola nutqining rivojlanishida asosiy mexanizmdir deydi. Demak, oliy psixik funksiyalar insoning ijtimoiy munosabatlarida paydo bo‘lishini yoritib beradi.

Psixik rivojlanishda ong va faoliyatning birligi muammosi S.L.Rubinshteyn tomonidan, psixik taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch va sabablar, bolalarning yetakchi faoliyatlari va ularni taraqqiyotga ta’siri A.N.Leontyevning ilmiy tekshirishlarida o‘z aksini topdi.

Bola rivojlanishining biogenezatsiya va sotsiogenizatsiyasi muammosida A.S.Makarenko ham o‘z fikrlari bilan qatnashdi. U jamoada o‘zaro munosabatlar, bola shaxsini loyihalash, faoliyat motivlarini bola faoliyatidagi ahamiyati kabi qator masalalarini o‘rgandi va undan amaliyotda foydalandi.

XX asrning o‘rtalariga kelib bolalar psixologiyasi fani dunyo miqyosida keng tarmoqlarda rivojlandi. Hozirgi kunda bolalar psixologiyasini turli muammolari chet ellik psixologlar va jumladan O‘zbekiston psixolog olimlari tomonidan ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Odam psixikasining ontogenezida biologik va ijtimoiy sharoitning roli (A.I.Leontyev), ta’lim tarbiya va rivojlanishning o‘zaro munosabati (D.N. Bogayavlenskiy, L.V. Zankov, N.A. Menchinskaya), tashqi (materiya) va ichki (aqliy) ta’sirlarning o‘zaro munosabati, bola faoliyatining mazmuni va uning shakllanishi (A.V.Zaporojets, A.N.Menchinskaya); bola idrokiga faoliyat sharoitining ta’siri (B.G. Ananyev, A.V. Zaporojets, A.N. Leontyev, A.R Luriya, D.B.

Elkonin, V.V. Davidov); esda saqlash jarayonlari (L.V.Zankov, A.A.Smirnov, L.I Zinchenko) tekshirila boshlandi va ko'plab ilmiy –uslubiy maqolalar chop etildi.

Bolalar faoliyati turlariga xos xususiyatlar (o'yin – D.B. Elkonin, Slavina, o'qish – B.G. Anayev, A.N. Leontyev, L.I. Bajovich, mehnat – A.A. Smirnov, Guryanov va uning bolani psixologik tomondan rivojlanishiga ta'siri, qobiliyatlarning rivojlanishi (N.S. Leytes) o'ziga ongli munosabatda bo'lish (B.G. Ananyev), xarakter, qobiliyatlarni shakllanishi masalalari o'rganiladi.

G'arbiy Yevropa va AQShda shaxsning individual xususiyatlari va psixik jarayonlarning shakllanishiga yo'nalgan ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Jumladan, bolalar psixologiyasining rivojlanishida Shveytsariya psixologi J.Piajening roli kattadir. U bola aqliy tomondan rivojlanishi, ko'nikma va malakalarni ta'lim jarayonidagi roli masalasini amerikalik psixolog Dj.Bruner, Anno Frakl bolalarda tafakkurining rivojlanishi, Fransiyada A.Vallon, R.Zazzo, Angliyada B.Saymon, O.Konnor va boshqalar bolalarning psixik taraqqiyotini ilmiy jihatdan asoslab berishga harakat qildilar.

Hozir ko'pchilik olimlar bolaning psixik taraqqiyoti muammolarini, unga ta'sir etuvchi faktorlarni, ta'lim jarayonini faollashtirish, qobiliyatlarini shakllantirish muammolarini nazariy jihatdan ishlab chiqdilar. Jumladan, P.I.Ivanov psixologiya fanining umumiy masalalari, ta'limning psixologik asoslari, turli yosh davrlarda psixik jarayon va xususiyatlarning rivojlanishi muammolarini, M.G.Davletshin o'quvchilarda texnik qiziqishlar, qobiliyatlarini shakllanishi, yoshlar mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish, kadrlar tayyorlash samaradorligi oshirish yosh va pedagogik psixologiya, qobiliyat psixologiyasi kabi masalalarni keng yoritib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. E.G'oziyev ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining rivojlanishi, ularning aqliy taraqqiyoti, o'quv faoliyatini boshqarish, komil inson tarbiyasining psixologik muammolarini, B.R. Qodirov yoshlarning individual xususiyatlari, ularning faoliyatga yo'nalishlari, layoqat va birlamchi

qobiliyatlarning shakllanishi, iqtidorli o'quvchilarning xususiyatlarini, kasb tanlash va boshqa katta muammoni ilmiy jihatdan asoslab berdilar. O'zbekistonlik psixologlar ham psixologiyaning rivojlanishida ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. P.I.Ivanov psixologiyaning umumiy masalalari, psixik hodisalarning bolalarda rivojlanishi, ta'lim psixologiyasi sohasida ("Umumiy psixologiya", "Ta'limning psixologik asoslari"), M.G. Davletshin "Qobiliyatlarni rivojlanishi", "Texnik qiziqishlar", "Qiziqish va ta'lim", kabi ko'plab ilmiy-uslubiy qo'llanmalar, M.Vohidov "Bolalar psixologiyasi", E.G'oziyev "Tafakkur psixologiyasi", "Xotira psixologiyasi", "Shaxs psixologiyasi", "Ontogenez psixologiyasi", "Bolalar psixologiyasi" (SH.Samarova bilan), B.Qodirov "Qobiliyat va iqtidor", G'.Shoumarov "Oila psixologiyasi", Z.Nishanova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi", R.Sunnatova "Bola psixik taraqqiyoti psixodiagnostikasi", SH.A.Dustmuxamedova, Z.Nishanovalar tahriri ostida "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" va boshqa shu kabi ko'plab darslik va qo'llanmalar yaratdilar.

Ammo, bugun bolalar psixologiyasida psixodiagnostika masalalari ham o'rganilishi nazarda tutilganligi dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Bolalar psixologiyasining nazariy vazifalari
2. I.M.Sechenov inson psixikasining ontogenezini reflektor tabiati haqidagi ta'limoti
3. Bolalar psixologiyasini boshqa fanlar bilan aloqasi
4. L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishi haqida

Bolalar psixologiyasi fanining metodlari

Xar bir fanning o'z predmetiga qarab bir qancha o'rganish va tekshirish metodlari bo'ladi. Metod lotincha «methodas» so'zidan olingan bo'lib, ma'lum bir

fanning predmetini tekshirish, o'rganish va tushuntirib berish usullarining yoki vositalarining yig'indisidir.

Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiya maxsus sohasi bo'lgani tufayli u o'z predmetini o'rganishda umumiy psixologiya deyarli hamma metodlaridan foydalanadi. Lekin umumiy psixologiya metodlaridan bolalarning asosiy faoliyatlariga moslashtirib qo'llaniladi.

Bolani o'rganish 2 asosiy shaklda: "ko'ndalangiga kesim" va "uzunasiga kesim" metodi deb nomlangan tadqiqot shakllarida amalga oshiriladi.

Tadqiqot "ko'ndalangiga kesim" shaklida o'tkazilganda turli yoshdagi bolalar guruhlarida muayyan psixologik jarayon, holat yoki xususiyat o'rganiladi va har xil yosh bosqichida bolalar ustidan olib borilgan tadqiqot natijalari o'zaro solishtiriladi. Masalan: D. B. Elkonin kichik, o'rta va katta maktabgacha yoshdagi

bolalarning syujetli – rolli o'yinlariga xos xususiyatlarni o'rganib, o'zaro solishtirib bolalar o'yinlari taraqqiyotiga xos umumiy qonuniyatlarni aniqlagan. Ko'ndalangiga kesim shaklidagi tadqiqotga asosiy e'tibor sinaluvchi bolalar yoshidagi farqlarga qaratilishi kerak. Farq qanchalik kichik bo'lsa, psixolog tadqiqotchi bola psixikasi va shaxsidagi muhim o'zgarishlarni payqash uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Tadqiqot "uzunasiga kesim" shaklida o'tkazilganda bir yoki bir necha bolaning muayyan vaqt oralig'idagi hayoti o'rganiladi. Tadqiqotchi uzluksiz ravishda bir yosh bosqichidan ikkinchisiga o'tishda bola psixikasi va xulq – atvorida ro'y beruvchi o'zgarishlarni aniqlab boradi. Masalan: maktabgacha ta'lim muassasalarida yangi dastur bo'yicha ish boshlangan bo'lsa, muassasaga endi qabul qilingan bolalarni 4 – 5 yil uzluksiz o'rganish orqali dasturning bola taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash va u haqida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. "Uzunasiga kesim" shaklidagi tadqiqot shuningdek, ayrim bolalarda longityud tadqiqot ham deb ataladi. Tadqiqotning bu shakli ancha murakkab va ko'p vaqt talab etadi. Longityud metodi orqali bir jinsli (Xasan – Xusan, Fotima – Zuhra) yoki aralash jinsli (Xusan – Zuhra) egizaklar kuzatiladi. Shuning uchun bir qator tadqiqotlarning "Ona kundaligi" deb nomlanishi bejiz

emas. Longityud metodi yordamida subyektiv omillarning o'ziga xosligi, obyektiv shart – sharoitlar va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'siri o'rganiladi. Masalan; egizaklarning o'xshashligi va tafovuti; ta'sirlanishi, his – tuyg'ularning o'zgarishi; hulq – atvordagi illatlar, individual farqlar o'rganiladi.

Bola psixikasini o'rganish tamoyillari

Bola psixikasini o'rganishda tadqiqotchi bir qator tamoyillar – qoidalarga tayanishi, ularga rioya etishi lozim bo'ladi.

Bu qoidalar quyidagilardan iborat;

1). Obyektivlik tamoyil – bu tadqiqotchidan ma'lumotlar bilan ularning talqinini aralashtirib yubormaslikni talab qiladi. Masalan: mashg'ulot davomida “ bola oynadan tashqariga qarayotgan edi” – deb aytilsa, bu muayyan hodisa haqidagi ma'lumot bo'lib hisoblanadi. Lekin, “bola e'tiborsiz” – deb aytish hodisaning talqinidir. Hodisaning o'zi bilan uning talqinini aralashtirib yubormaslik kerak chunki yuqoridagi misolda ham bola oynaga qarab turgan bo'lsada, tarbiyachining so'zlariga katta e'tibor berayotgan bo'lishi mumkin.

2). Sababiylik tamoyil – bu bola shaxsi va ongida yangi sifatlarning hosil bo'lishini ta'minlovchi barcha shart – sharoit va omillarni imkon qadar o'rganishni talb qiladi. Masalan: mashg'ulot davomida bola tez – tez oyna tarafga qaragan bo'lsa, bu hodisaning iloji boricha sababini aniqlash kerak: ko'chadagi biror narsa bola e'tiborini o'ziga tortdimi? Mashg'ulotda bola charchab qoldimi? O'tilayotgan material bolaga yaxshi tanishmi? va h.k;

3). Sinchkovlik va muntazamlilik tamoyil– bu bola psixikasini shakllanishi jarayoni, bunda psixolog va pedogoglar ta'siri sinchkovlik bilan kuzatib borishni talab qiladi.

Ushbu tamoyillarga muvofiq oldindan;

a) tadqiqot joyi va qilaladigan ish mazmuni aniqlanishi kerak:

b) tadqiqotda o'rganiladigan sinaluvchilar tanlanmasi tuzilishi lozim:

s) tadqiqot qaysi vaqtda va qanday vaqt oralig'ida o'tkazilishini belgilash zarur.

Ushbu bandlar belgilangach, ulardan chetga chiqmaslik kerak, ya'ni qandaydir

subyektiv sabablar bilan shoshilinch xulosalar chiqarmaslik, tadqiqotni bevaqt tugatish hollariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Aks holda obyektivlik prinsipi buzilgan bo‘ladi.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy metodlaridan biri kuzatish metodidir. Kuzatish metodi 2 ga bo‘linadi:

1) obyektiv; 2) subyektiv kuzatish metodi.

Bolalar psixologiyasida subyektiv, ya’ni o‘z-o‘zini kuzatishdan foydalanilmaydi. Bolalar psixologiyasining asosiy metodlaridan biri subyektiv, ya’ni bolalarni tashqaridan kuzatib o‘rganish metodidir. Obyektiv kuzatish metodi har doim ma’lum maksadga qaratilgan bo‘lib, uning yordamida kishilarning turli psixik jarayonlari hamda shaxsiy psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Bunda tarbiyachi va tekshiruvchi psixolog bolalarning xulq – atvorlari va xatti harakatlarini ularning turli – tuman faoliyatlarida tabiiy sharoitda mavzuli tarzda kuzatadi. Obyektiv kuzatish metodi quyidagi koidalarga asoslanib tashkil qilinishi kerak:

- 1) Har qanday kuzatishning aniq maqsadi, rejasi bo‘lishi kerak. Masalan: bolalar diqqatining barqarorligini yoki tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan tahlil qila olish qobiliyatini kuzatish.
- 2) Bola shaxsining yaxlitligi tamoiliga asoslanib, ya’ni analitik – sintetik nuqtai nazardan kuzatish.
- 3) Bolani jamoada va jamoa a’zosi sifatida o‘rganish;
- 4) Kuzatish tabiiy sharoitda olib borilar ekan, bolalar o‘zlarining kuzatilayotilganlarini mutlaqo bilmasliklari kerak.
- 5) Kuzatishdan yaxshi natijalar olish uchun, ularni turli sharoitlarda (shaxsning xislatlarini turli xilda namoyon bo‘lishni nazarda tutib) tizimli tarzda davomli o‘rganish kerak.

Kuzatish metodidan foydalanilganda bolalar turli o‘yin faoliyatlari, ta’limiy mashg‘ulotlar, mehnat faoliyatlarida xilma–xil psixik jarayonlarning va individual xususiyatning namoyon bo‘lishini o‘rganish mumkin.

Kuzatish metodi uzluksiz yoki faoliyatni tanlab vaqti – vaqti bilan o‘tkazilishi mumkin. Bolalar uzluksiz kuzatish metodi bilan o‘rganilganda ularning barcha fe‘l – atvorlari va xatti – harakatlari kundalik faoliyatlari davomida kompleks holda o‘rganiladi. Uzluksiz kuzatish bir necha kun yoki bir necha oy davom etgandan so‘ng to‘plangan ma‘lumotlar tahlil qilinib, bolaga psixologik tafsif(xarakteristika) tuziladi, vaqti – vaqti bilan tanlab kuzatilganda bolaning barcha xulq – atvori va hatti – harakatlari emas, balki faqat ma‘lum bir hatti – harakatlari (diqqati yoki xotirasi) bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlari o‘rganiladi.

Bolalar psixologiyasida kuzatish metodining alohida turli bolalar taraqqiyotini sermazmun qirralarini kuzatish va unda olingan dalillarni kundaliklarga yozib borib o‘rganishdan iboratdir. Bola taraqqiyoti haqidagi birinchi kundalik XIX asrning ikkinchi yarmida Ch.Darvin tomonidan nashr etilgan. Undan so‘ng I.Madiginakote, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinalar bolalar psixik taraqqiyoti yuzasidan tizimli tarzda olib borgan kuzatishlari aks etgan o‘z kundaliklarini nashr etganlar.

Bolalar psixologiyasida keng qo‘llaniladigan yana bir asosiy metod – eksperiment metodidir. Eksperiment metodi kuzatish metodiga nisbatan faol metod hisoblanadi. Eksperiment metodida u yoki bu psixik jarayonni qachon yuzaga kelishini kutib o‘tirmay, bu jarayonni eksperimentatorning o‘zi yuzaga keltiradi. Shuningdek o‘rganilayotgan psixik jarayonni bolalarda bir necha marta takrorlab o‘rganish mumkin, yana qulay tomoni shundaki, bu metod kuzatish metodi singani ko‘p vaqt talab qilmaydi.

Eksperiment metodi uchga bo‘linadi:

- 1) laboratoriya eksperimenti,
- 2) tabiiy eksperiment.
- 3) pedagogik- psixologik eksprement metodi.

Laboratoriya eksperimenti maxsus tashkil qilingan laboratoriyalarda turli asboblardan yordami bilan o‘tiladi. Tabiiy eksperimentda biror psixik jarayon o‘rganilayotganda maxsus sharoit yuzaga keltiriladi. Bolalar psixologiyasida

eksperimentning har ikkala turidan keng foydalaniladi. Biroq bu metodlardan bolalar psixologiyasida foydalanishning o'ziga xos tomoni shundaki, bog'cha yoshidagi bolalar laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan eksperimentlar bilan tabiiy sharoitda o'tkaziladigan eksperimentlarning farqiga bormaydilar.

Har ikkala holda ham, tajribalar vazifa tarzida emas, balki o'yin tarzida o'tkazilsa yaxshi natija beradi. Eksperiment metodidan guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar paytida keng foydalanish mumkin. Masalan: turli yoshdagi bog'cha bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik mashg'ulotlarda tabiiy eksperiment metodini qo'llash mumkin. Bunda bolalarga xar xil hayvonlar, parrandalar, mevalar, sabzavotlar tasvirlangan rasmlari kartochkalarni aralash holda berib, ularni guruhlariga ajratish topshiriladi. Bolalar bu narsalarni qanday belgilariga qarab guruhlariga ajratishlarida ularning umumlashtirish xususiyatlarini o'rganish mumkin. Odatda, guruh sharoitida o'tkaziladigan bunday eksperimentni tabiiy eksperiment deb yuritiladi.

Bolalar psixologiyasida tarkib toptiruvchi eksperiment metodidan ham foydalaniladi. Bunda bolalarning u yoki bu xususiyati (psixologik xususiyati) tarkib toptiriladi va mustahkamlanadi. Masalan: bog'cha yoshidagi bolalar ayni bir vaqtning o'zida butunni va uning tarkibiy qismlarini to'la idrok qila olmaydilar. Ular o'z diqqatlarini yoki bir butun narsaning o'ziga yoki uning bo'laklariga qarata olmaydilar.

Tarkib toptiruvchi eksperiment orqali bolalarni bir butun narsani uning qismlari bilan bir paytda idrok qilishga o'rgatiladi. Buning uchun bolalarga bir butun narsaning obrazini yarata olish mashq qildiriladi. (turli geometrik figuralar – doira, kvadrat, kub, foydalaniladi)

Pedagogik eksperiment orqali biron ta'lim–tarbiya metodining samaradorligi aniqlanadi. Masalan: Biron tadqiqotchi bolalarni son–sanoqqa o'rgatishning qandaydir yangicha metodini ishlab chiqqan bo'lsa, uni pedagogik eksperiment metodi orqali sinab ko'radi. Buning uchun oldindan ta'lim tashkiloti ma'muriyati bilan kelishib 1 ta tajriba(eksperimental) va 1 ta nazorat guruhini belgilab oladi.

Shundan so'ng tadqiqotchi tajriba(eksperimental) guruhda yangicha metod bilan elementar mavhum tasavvurlarni o'stirish mashg'ulotini o'tkazadi. Nazorat guruhida esa bu mashg'ulotlar odatdagi doimiy(eskicha) metod bilan davom ettirilaveradi. 1-2 oydan so'ng har ikkala guruhdagi bolalarning o'zlashtirishlari taqqoslab ko'riladi. Agarda eksperimental guruh bolalar yangicha metod bilan o'zlashtirishlari nazorat guruhdagi bolalarning o'zlashtirishlaridan anchagina samarali bo'lib chiqsa, bu metod boshqa hamma bog'chalarga ham ommalashtirilishi tavsiya etiladi. Bordi-yu, agar natija nazorat guruhdagi bolalarning o'zlashtirishlaridan yomon, ya'ni past bo'lib chiqsa, yangicha metod bilan mashg'ulot o'tish darhol to'xtatiladi.

Bolalar psixologiyasida asosiy metodlardan tashqari yordamchi metodlardan ham keng foydalaniladi. Bolalar psixologiyasining yordamchi metodlaridan – faoliyat mahsullarini o'rganish metodidir. Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma'lum faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Faoliyatlari jarayonida turli narsalarni, mahsulotlarni yuzaga keltiradilar. Ana shu narsalarda, mahsulotlarda bolalarning psixik jarayonlari va psixologik xususiyatlari o'z aksini topadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning faoliyatlari – o'yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron narsa yasash, applikatsiya, qurish –yasash kabilardan iboratdir. Ana shu faoliyatlarining natijasiga qarab bolalarning mayl va istaklari, ehtiyoj va qiziqishlari, qobiliyat va layoqatlarini o'rganish mumkin. Masalan: bolalarning chizgan rasmlarida ular idrokining xususiyatlari va atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarini ko'rish mumkin. Shu sababli bu metoddan bolalar psixologiyasida keng foydalaniladi.

Bolalar psixologiyasi so'rash – suhbat metodidan keng foydalaniladi. Bu metodni 5-6 yoshli bolalarga nisbatan qo'llash mumkin. Bunda bolalarga turli mavzularga doir savollar beriladi va ulardan og'zaki suhbatning mavzui va suhbat paytida bolalarga beriladigan savollar oldindan yaxshilab uylab olinadi. Suhbat jarayonida javoblarni yozib olib, keyinchalik javoblarni taxlil qilish mumkin. Suhbat metodini o'tkazishda quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

Suhbatning mavzusi va mazmuni bolalarning taraqqiyot darajalariga va yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Savollar rejali va maqsad asosida tuzilishi kerak. Suhbat paytida «ha» yoki «yo'q» demay, tuliq javob olish kerak. Suhbatni haddan tashqari cho'zib yubormaslik kerak.

Suhbat orqali bolalarning bilishlari, narsa va hodisalar haqida tasavvurlari, qiziqishlari va odamlar bilan bo'lgan munosabatlarni o'rganish mumkin.

Bolalar psixologiyasida so'nggi yillarda test metodi qo'llanila boshlandi. Test so'zi inglizcha bo'lib, o'lchash degan ma'noni bildiradi. Test metodi orqali bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari va ayrim psixik jarayonlarining (tafakkur, xayol, xotira) qanchalik rivojlanganlik darajasi aniqlab taqqoslanadi. Test metodi yordami bilan bolalarning o'z yoshlariga nisbatan normal taraqqiy etganliklari yoki orqada qolganliklarini ham aniqlash mumkin. Qo'llaniladigan testlar orasida intellektual testlar deb (ataladigan) testlar katta ahamiyatga ega. Intellektual testlar – bolalarning umumiy aqliy taraqqiyot darajalari aniqlanadi.

Test vazifalari bolalarning uyin faoliyatlari bilan bog'lansa, bolalar bunday vazifalarni bajonu dil bajaradilar. Masalan: biron butun narsaning mayda bo'laklarga ajratib tashlangan qismlarini birlashtirish, mayda bo'lakchalardan murakkab va chiroyli animatsiyalar yasay olish, turli labirintli suratlardan tug'ri yulni topa bilish vazifalaridan foydalanish mumkin.

Masalan: test metodida bolalarga topshiriladigan vazifalar bir necha variantda bo'lib, ular kuchlari yetgan variantlardagi vazifalarni bajaradilar. Xar bir bajarilgan vazifaga ball tizimida baho qo'yib boriladi. Vazifalardan qanchasini bajarganligi va to'plagan baliga qarab, bolalarning o'rtacha taraqqiyot darajasi belgilanadi, aniqlanadi.

Bolalar psixologiyasida so'nggi yillarda sotsiometriya metoddan foydalanila boshlandi. Sotsiometriya metodi yordamida shaxslarning jamoadagi munosabatlari masalasi o'rganiladi. Bolalar psixologiyasida esa sotsiometriya metod yordami bilan xar bir guruhda bolalarning o'z tengqurlari o'rtasida yuzaga kelayotgan o'zaro munosabatlari va ularning guruhda tutgan o'rni va mavqeilari o'rganiladi.

Bolalar psixologiyasida tadqiqot metodlari bilan tanishish tarbiyachilar va pedagoglar uchun amaliy ahamiyatga egadir. Bu metodlardan ta'lim – tarbiya ishlarida bolalarning psixik jarayonlarini taraqqiyotini bilib olish uchun, shuningdek bolalar bilan individual munosabatda bo'lishda, ularning individual – psixologik xususiyatlarini bilib olishda keng foydalaniladi. «Agar pedagogika odamni har jixatdan tarbiyalamoqchi bo'lsa, u oldin o'sha odamni har jixatdan bilib olishi kerak» - deb yozgan edi K.D.Ushinskiy. Shuning uchun ta'lim – tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish uchun bu metodlar bilan tanish bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar psixologiyasi muammolarining o'rganilishi.

Bolaning psixik rivojlanishi qanday bo'ladi, u qanday shakllanadi va unga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat degan muammo juda qadim zamonlardan beri psixolog va pedagoglarning diqqatini jalb etib kelmoqda.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy masalasi bola psixik taraqqiyotini o'rganishdan iborat ekan, bu masalani hal qilishda, uni tushuntirib berishda turli xil qarashlarni o'rganish, tahlil qilish muhimdir.

Bolalar psixikasini taraqqiy etishini tushuntirib berishga uringan ilk nazariya “Bola katta yoshli kishining kichik nusxasi” degan fikr bilan ta'riflanadi. Bu nazariya tarafdorlari bola sifat e'tibori bilan katta yoshli kishidan hech bir farq qilmaydi. Bola bo'yi, shuningdek tasavvurlari, xotirasi, diqqati, tafakkuri va boshqa jarayonlaridan anchayin kichkina bo'lgan katta yoshli kishilardir deb ko'rsatishga urinadir. Lekin bola psixikasining sifat jihatidan o'ziga xosligini tushuntirib bera olmaydilar va taraqqiyotning asosiy sabablarini yoritib bera olmaydilar.

XVII asrdan boshlab falsafiy va psixologik yo'nalishlarda bolaning taraqqiyoti haqida kurash boradi: psixologik yo'nalish tarafdorlari psixik taraqqiyot butunlay muhitga va turmush tajribasiga bog'liq deyдилar. Xo'sh odam psixikasi va xatti harakatlarida bor bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni nima

bog'laydi –tabiiy, tug'ma xususiyatlarmi yoki hayot davomida orttirgan xususiyatlarmi? degan muammoda turlicha qarashlar maydonga keldi .

“Ideyalar tug'ma bo'ladi” degan nazariyaning yorqin namoyodasi Dekart(1596-1650) edi. Uning fikricha, tug'ma ideyalar intellektda boshlang'ich xolatda bo'ladi bu ideyalar moyillik sifatida “tug'ma bo'lib, faqat keyinchalik to'la anglanguncha sekin asta taraqqiy etadi, shu bilan birga, tashqi tajriba ideyalar faoliyati uchun faqat turtki bo'lib xizmat qiladi, ularning yanada takomillashuvi uchun, material hisoblanadi deb ko'rsatildi. Keyinchalik bunday qarashlar falsafa doirasidan chiqib, burjuaziya ideologlari tomonidan keng foydalanila boshlandi.

Psixikasining tabiati biologik omillarga bog'liq degan nuqtai nazarda turdilar, ya'ni psixik xususiyatlar tug'ma paydo bo'ladi, ularning inson dunyoga kelishidan oldinroq unda bo'lgan biologik imkoniyatga bog'liq deb ko'rsatdilar. Ular inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, biologik tuzilishiga joylashtirilgandir, psixik taraqqiyot esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib organizmga joylashtirilgan shu xususiyatlarning pishib yetilish jarayonidan iborat emish. Jumladan, har bir odam qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (imkoniyatlarning nixoyasi, eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan, “qobiliyatlarning tabiiy fondi” tomonidan ilgaridan belgilab qo'yilgan deyiladi.

So'nggi vaqtlarda mikrobiologiyani nasliy xususiyatning gen bilan bog'liq bo'lgan mexanizmini yoritishdagi yutuqlari munosabati bilan “gen aslohalarining tug'ma darajasi”, shaxsning xususiyatlari va qobiliyatlari genlarda rejalashtirilganligi haqida fikr yuritila boshladi. Angliyalik genetik Sh.Auerbax bu fikrni nihoyatda aniq va obrazli qilib ifodalab berishga urindi.

“Har bir odam, - deb yozgan edi u, - xuddi karta boz qo'liga karta olib o'yin boshlagani kabi, o'z hayotini, qo'liga genlarni olib boshlaydi. Ba'zan karta shunchalik yomon suziladiki, hatto sal-pal yutuqni ham, orzu qilish qiyin bo'ladi. Ayrim hollarda karta shunday ajoyib suziladiki, muvaffaqiyat qozonish uchun hech qanday harakat qilmasa ham bo'laveradi.”

Uning fikricha “Aqliy taraqqiyot darajasi, maxsus qobiliyatlar, shaxsiy sifatlar –genetik faktorlar bilan muhit faktorlari o‘zaro munosabatining natijasidan iboratdir”. (Genetika M.Atomidat, 1966, 157-158 bet) Bu fikrdan: yuksak iste’dodli kishilarning ko‘payishiga xayrixoxlik bildirish lozim; insoniyatning eng yaxshi namoyondalarini ko‘paytirish kerak “iste’dodsiz” kishilar esa ko‘payishdan o‘zlari saqlashlari kerak” – degan xulosa chiqadi. Ideyalar tug‘ma bo‘ladi degan nazariya bir tomomnlama nazariyadir, chunki bu nazariya bolaning psixik jihatdan o‘shish sabablarini faqat irsiyatda deb biladi. Bu nazariya texnik taraqqiyotini oddiy takrorlanishdan iborat qilib qo‘yadi. Ular har bir yangi avlod nega oldinga siljishini, bilimlar, qobiliyat va imkoniyatlari kengaytib va chuqurlashib borish sabablarini, irsiyat esa ajdodlardagi sifatlarning faqat mustahkamlanib va takrorlanib qolishiga sabab bo‘lishini tushuntirib bera olmaydi.

XIX asrda biologiya fani tez rivojlandi. Texnika taraqqiy qilib, nozik va aniq asboblarni vujudga kela boshlaydi. Mikroskopning takomillashtirilishi mikroorganizmlar dunyosini o‘rganish imkonini berdi. Biologiyaning embriologiya hayotini o‘rganadigan yangi sohasi – embrion maydonga keldi. Olimlar yuksak darajadagi hayvonlarning embrionlari bir-biriga o‘xshashiga, ular urug‘lanish (otalanish) paytiga qancha yaqin bo‘lsa, ushancha ko‘p tafovut qilishiga e’tibor berishdi.

E. Gekkel va F. Myuller biologiyada ontogenezi filogenezni qisqacha takrorlaydi degan “biogenetik qonun” ni ta’riflab berishdi. Bunga muvofiq individning taraqqiyot tarixi avlodning taraqqiyot tarixini qisqacha va tez takrorlaydi. Biologiyada bu qonun tariflab berilishi bilanoq uni amerikalik psixolog Stenli Xoll, Bolduin bolalar psixologiyasiga ko‘chirishdi. Bu qonunga muvofiq yangi tug‘ilgan bolaning hamma harakati ongsiz reflekslar asosida bo‘lib, bu davrda unda kishilarga xos bo‘lgan xususiyatlar bo‘lmas emish. Bola 6 oydan 1 yoshgacha maymunlar davrini (yer kovlash) kechirib, ularga o‘xshab narsalarga ergashar emishlar va 4 oyoqlab yuradilar deb uqtiradilar. 1-2 yoshgacha 2 oyoqlab tikka yuradilar va unda bola ibtidoiy

insonlar hayotini kechiradilar, 3-7 yoshgacha afsonalar davrini, maktab yoshiga yetganda qadimgi asr davrini, o'smirlar esa xristianlik davrini, o'spirinlar "irqlar o'tmishining kashfiyotchilari" bo'lishda davom etadi, ya'ni 15 yoshgacha o'rta asrlar davrini, 15 yoshdan keyin hozirgi zamon madaniyatiga o'tishi boshlanadi deb qaraydilar.

Amerikalik psixolog olim Stenli Xoll tomonidan kashf qilingan bu nazariya bola ona qornida hayvonlarning ota-bobolari bosib o'tgan davrlarni qisqacha takrorlashi to'g'risidagi "biologik qonunga mexanik ravishda asoslanishdan kelib chiqdi. Bu nazariya din va kapitalistik mafkurani bolalar uchun tabiiy bir narsadir deb isbot qilishga urindilar. Biogenetik qonun keyinchalik pedalogiya (bolalar haqidagi fan) ning asosiy "qonuni" bo'lib qoldi. Pedalogiya XIX asrning oxirida AQSHda maydonga keldi va bola taraqqiyotida tarbiyaning rolini kamsitdi. Ular bolaning psixik taraqqiyotini biologik va bola psixik muhiti faktlarga bog'liq deb ko'rsatdilar.

1. Biologik faktor bu nasldan-naslga o'zgarmasdan o'tadigan xususiyat bo'lib, bundan qutilish mumkin emas emish. Ularning fikricha irsiyatni ta'sirini o'zgartirish mumkin emas, u bola taqdirini belgilaydi deb uqtirishga harakat qiladilar.

2. Bolaning yashash muhiti va bolaga bo'lgan ta'sir faktorida muhit va uning ta'sirini o'zgarmaydigan narsa deb hisoblaydilar. Ular ishchi sinfining bolasi yashagan muhit bilan xususiy mulkchining bolasi yashagan muhiti o'ziga xos xususiyatni saqlab qoladi va bu xususiyatlar har ikkala sinf bolasining psixik taraqqiyotini qat'iy belgilaydi. Shuning uchun mehnatkash bolalarining psixik taraqqiyoti past darajada qoladi deb da'vo qiladilar bu bilan ular bola taraqqiyotida ta'lim tarbiyaning va bolani faoliyatdagi faolligini psixik taraqqiyotga ta'sirini rad qiladilar. Ular ekspluatator sinflar va "oliy irqlar"ning alohida iste'dodli va maxsus yashash huquqi borligini ikkinchi tomondan, mehnatkash sinflar va "tub irqlar"ning jismonan va ruhan qashshoqligini isbot etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Pedagoglarning bu ta'limoti tezda Rossiya va boshqa mamlakatlarga tarqaldi va ularga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilindi. Bunday g'ayri tabiiy xol Markaziy Komitetning 1936 yil 4 iyulda chiqargan "Narkomros tizimidagi pedagogik buzg'unchiliklar haqida" degan qarori bilan fosh qilinadi. Bu esa pedagogika va psixologiya faniga shifobaxsh ta'sir ko'rsatdi va bolaning psixik jixatdan o'sish muammolarini ilmiy asosda ishlab chiqish imkonini beradi. Keyinchalik bolalar psixologiyasi fanida realistik ta'limotlar vujudga kela boshlaydi va bolaning psixik taraqqiyotidagi noto'g'ri nazariyalar fosh qilinadi. Bolalar psixologiyasi turli nazariyalarni analiz qilib, o'ziga tegishli xulosalar chiqardi va psixologiya fani ilmiy tekshirish ishlari bilan faktlarni boyita boshladi.

Bolalar psixologiyasi qobiliyatlarning taraqqiyotini tevarak –atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntirishga asoslana boshladi. Bu ta'limot o'z zamonasi uchun progressiv hisoblangan XVIII asr fransuz filosofi K.A. Gelvetsiy tomonidan ilgari surildi. Uning ta'limotiga ko'ra, hamma odamlar aqliy va axloqiy taraqqiyot uchun tug'ilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar. Shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu konsepsiya odamlarning psixik-ruhiy va ijtimoiy tengsizligi ularning tug'ma xususiyatlari degan va o'sha davrlarda xukmron bo'lgan nazariyalarga qarshi qaratilgan edi. Bu yo'nalishning namoyondalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar. Biroq ijtimoiy muhit qandaydir o'zgarmaydigan, inson taqdirini ilgaridan belgilab beradigan bir narsa tarzida tushuniladi, insonga esa muhit ta'siri ostida bo'lgan obyekt sifatida qaraladi.

Har ikkala yo'nalishning qarashlari bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, insonning psixik xususiyatlari yo nasliy biologik imkoniyatlar ta'siri ostida yoki o'zgarmas muhit ta'siri ostida ilgaridan belgilangan o'zgarmas

narsa deb, e'tirof etiladi. Bunday fikrlash bola taraqqiyotining asl sabablarini, unga ta'sir etuvchi omillarning rolini ilmiy jihatdan yoritib bera olmaydi. Chunki, 1-nchidan irsiyat taqdirni belgilaydigan kuch emas;

2-nchidan irsiyatni inson hayotidagi rolini hisobga olish lozim;

3-inchidan, irsiyatning u yoki bu ko'rinishlari ijtimoiy-tarixiy hayot sharoitiga, bolalarni o'qitish va tarbiyalash sharoitiga bolaning faolligiga bog'liqdir.

Irsiyat shaxs taqdirini belgilamaydi. Agar bola sog'lom irsiy xususiyatlar bilan tug'lsa-yu, lekin noqulay muhit va noqulay ta'lim tarbiyaviy sharoitga tushib qolsa komillik darajasiga yetisha olmaydi. Aksincha, qulay muhit va ta'lim tarbiyaviy sharoit bo'lsa-yu, lekin bola nosog'lom irsiy belgilar (genlar) bilan tug'lsa, unda ham inson har tomonlama komillik darajasiga yetmaydi. Shuning uchun ham biz "irsiyat o'zgarmas xususiyatdir" degan fikrini rad qilamiz va "u bola taqdirini belgilamaydi" –deb hulosasi chiqaramiz.

Shuningdek, muhitning ta'sirini o'zgartirish mumkin emas" degan fikrni rad qilamiz, lekin uni "ta'lim –tarbiya jarayonida o'zgartirish mumkin" –degan fikrga asoslanamiz.

Bolaning psixik taraqqiyotidagi qarama-qarshiliklar va rivojlanish qonuniyatlari.

Bolaning psixik taraqqiyoti murakkab jarayondir. Buni xalq etishda bolalar psixologiyasi, avvalo hayotda sinalgan, tajribalarda pishib yetilgan quyidagi asoslarga suyanadi:

1) Taraqqiyot, o'sish, rivojlanish qarama-qarshiliklar kurashi va ziddiyatlardan iboratligi;

2) bolalar kamoloti haqidagi fanga xilof nazariyalarni, qarshiliklarni tanqidiy taxlil qilinganligi;

3) hozirgi kunga qadar bolalar psixologiyasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, tajribalarning natijalari;

4) komil insonni tarbiyalashda erishilgan amaliyot natijalari.

Bularga asoslanib bolaning psixik taraqqiyoti qanday rivojlanadi, unga ta'sir etuvchi omillar nimadan iborat, unda biz nimalarga e'tibor berishimiz lozim degan murakkab masalalarni xal qilishimiz mumkin.

Ma'lumki bola psixikasining taraqqiyoti (o'sish-miqdoriy jihatdan ortish; taraqqiyot ham miqdor, ham sifat jihatidan o'zgarishdir . bola jismonan o'sadi, psixik jihatdan taraqqiy qilishi) haqida 2 xil qarashlar mavjud.

1-qarashlarga muvofiq, taraqqiyot avvalgi narsaning oddiy takrorlanishidan, organizmida mavjud bo'lgan muayyan sifatlarning shunchaki ko'payishi yoki kamayishidan iborat. Bunday yo'nalish tarafdorlari o'z-o'zidan shaxs taraqqiyotining tub sabablarini ochib bera olmaydilar.

2- qarashlarga muvofiq, taraqqiyot ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar kurashidan iboratdir. Bu ilmiy yo'nalish bo'lib, bola taraqqiyotini organizmning xususiyatlari bilan tashqi muhit sharoiti organizmga tobora yangi talablar qo'yadi; organizm yangi sharoitga moslashar ekan, yangi sifatlar hosil qila boshlaydi va taraqqiy qiladi.

Demak, psixik taraqqiyot ham qarama-qarshiliklar kurashidan iboratdir. Bu qarama-qarshiliklar:

1-dan bolaning shu choqqacha erishgan taraqqiyot darajasi, imkoniyatlari bilan yangi ehtiyojlariga orasidagi qarama-qarshiliklar, unda ehtiyoj oldin paydo bo'ladi, lekin imkoniyat yetarli bo'lmaydi. Misol: xali yurishga o'rganmagan bola yurib ketishiga ehtiyoj sezadi, lekin bola o'z muvozanatini saqlay olmagan, oyoqda tik tura olmagan uchun u yura olmaydi.

2-dan bolaning eski xulq –atvor shakllari bilan yangi hatti-harakatlari, yangi tashabbuslari orasidagi qarama-qarshilk (taqlid-tashabbus). YA'ni bunda tashabbus oldin paydo bo'ladi va boladan mustaqillikni talab qiladi, lekin mustaqil harakat qilish uchun bola kattalarga taqlid qilishdan voz kechishi va mustaqil harakatlanishi kerak.

3-dan, bolaning hayot mazmuni bilan uning shakli o'rtasidagi qarama-qarshilik. Hayot mazmuni ilgari, hayot shakli esa keyin shakllanadi. Misol: maktab

hayotini mazmuni hammaga tanish. 1- sinfga qadam qo'ygan bola maktab qoidalarini xali yaxshi tushunmaydi. Lekin maktabda tizimli ta'lim jarayoni bolani o'z talablariga ko'nikтира boshlaydi, bunda bolada ko'pgina psixologik qiyinchiliklar ro'y beradi. Bola esa avvalo qiynalib, keyinchalik unga o'rganib, yangi hayot shakliga o'rganadi.

Bolalar hayotida uchraydigan turli qiyinchiliklar, qarama-qarshilik va ziddiyatlar bolani psixologik tomondan rivojlanib, shakllanib borishiga sabab bo'ladi.

Bolani psixik taraqqiyoti qanday shakllanishidan qat'iy nazar, u mo'ayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Lekin muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar (keng ma'noda olganda) ikkilamchidir. Chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatiga va tarbiyaga bog'liqdir.

Psixik taraqqiyot qonuniyatlariga **notekistlik qonuni, psixika integratsiyasi qonuni, plastiklik va kompensatsiya qonuni** kiradi.

1. Psixik rivojlanishning notekisligi shundan iboratki, har qanday sharoitda, xatto ta'lim tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, psixik funksiyalari va psixik xususiyatlari rivojlanishining bitta darajasida to'xtab turmaydi. Bolalarga bir xil tarbiya berilsa ham bolalar uni turlicha qabul qiladilar. Chunki ularning o'ziga xos individual xususiyatlar mavjud, nerv tizimining xususiyatlari, tiplari turlicha, yashasha sharoiti tarbiyaviy ta'sirlar turlicha bo'lgani uchun ham psixik taraqqiyot yo tezlashib, yo sekinlashib ba'zan to'xtab tutilib qolishi mumkin. Shu sababli psixik taraqqiyotni notekis rivojlanishi mumkin deb e'tirof etiladi.

2. Integratsiya qonuni – inson psixikasini o'z taraqqiyoti davomida tobora ko'proq yaxlitlik, birlik, mustaqillik va doimiylik xususiyatlarini kasb eta borishidir. Bunda yoshlikda hosil bo'lgan psixik xususiyatlar taraqqiyot davomida bora -bora kishining asosiy xususiyatiga, yoki xarakter xislatiga aylanadi va bu xislat shu kishining hayotida yaqqol ko'zga tashlanadigan bo'lib qoladi. Bu

qonunga binoan psixik rivojlanish psixik xolatlarning asta-sekin o'sib, shaxs xislarlariga aylanishdan iborat bo'lgan qonundir.

3. Plastiklik va kompensatsiya imkoniyati qonuni. Bu qonun asab tizimining plastiklik xususiyati bilan bog'liqdir. Yosh bola ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan u albatta ularni o'ziga o'zlashtiradi, tahlid qiladi. Natijada u ham aqliy tomondan shakllanadi. Ta'lim–tarbiya sharoitida bolani, maktab o'quvchisining psixikasini maqsadga muvofiq o'zlashtirishning boy imkoniyati asab tizimining ana shu plastikligiga asoslanadi. Plastiklik kompensatsiya (to'ldiruvchanlik, tovon, badal) uchun ham yo'l ochib beradi: bir xil psixik funksiyaning rivojlanishi zaif yoki nuqsonli bo'lsa, uning faoliyatini zo'r uyushganligi va aniqligi bilan kompensatsiya qilish mumkin, ko'rishdagi nuqsonlar, qisman, eshitish analizatorining o'tkir darajada rivojlanishi bilan kompensatsiya qilinadi(to'ldiriladi). Tarbiyachi va o'qituvchilar bolaga ta'lim–tarbiya berish jarayonida psixik taraqqiyotning qonunlariga amal qilishlari va bolaning taraqqiyot xususiyatlarini bilgan holda ularga ta'lim va tarbiya berishlari maqsadga muvofiqdir.

Bolalikni davrlarga ajratish muammolari

Bolalikni yosh davrlarga ajratish, uni tabaqalash bolalar psixologiyasida juda qadimiy muammolardan biridir. Bolaning aql-idroki, fe'l-atvori, voqelikka munosabati, jismoniy va psixik o'sishi, rivojlanish xususiyatlari uning taraqqiysi bilan o'zgarib turadi. Bu o'zgarish uning faoliyati va hayot kechirishidagina emas, balki yoshiga ham bog'liqdir. Masalan: Hozir tug'ilgan bola bilan undan bir hafta ilgari tug'ilgan bola orasida ham farq bor. Yangi tug'ilgan bola gavdasining sondan bo'yingacha bo'lgan qismi uzun, oyoqlari kalta, boshi nisbatan katta, bo'yni qisqa, bosh suyagi esa hali qotmagan bo'ladi. U shartsiz reflekslar bilan dunyoga keladi va vaqt o'tgan sari u ham jismoniy, ham psixologik tomondan shakllanib boradi. Bunday o'zgarishlar turli oy va turli yoshlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'sib ulg'ayish bolaning jismoniy taraqqiyoti bilan bo'lsa, sifat o'zgarishlari

bolaning psixik taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bolada yuz beradigan sifat o'zgarishlari birdaniga sodir bo'lmaydi, asta –sekin yuzaga keladi. Bolalarni turli yosh davrlarga ajratishda ularning hayotida yuz beradigan sifat o'zgarishlari, ya'ni uni psixik taraqqiyoti jihatidan yangi bosqichga ko'tarishlari asos qilib olinadi. Bolalarni turli yosh davrlarga ajratishda turlicha fikrlar juda qadim zamonlardan beri fanga ma'lumdir. Ko'pchilik olimlar bolalarni turli yosh davrlarga ajratishda faqatgina jismoniy o'sishni asos qilib, uni:

- 1) chaqaloqlik davri,
- 2) balog'atga erishish davri,
- 3) balog'atga erishgandan keyingi davr deb tabaqalangan bo'lsalar, ba'zi birlari esa:

- 1) emish davri
- 2) emaklash davri,
- 3) ikki oyoqlab yurish davri deb davrlarga ajratishgan
yana ba'zi olimlar masalan P.P. Blonskiy

- 1) tishsiz bolalik davri
- 2) sut tish davri
- 3) doimiy tish davri
- 4) doimiy tishni tushish davri (qarilik) deb ajratganlar. Bunday bolalikni davrlarga ajratishda faqat ularni fiziologik va biologik belgilarigagina suyanib, psixik xususiyatlar hisobga olinmagan.

Sharq mutafakkiri **Abu Ali ibn Sino** ham bolalikni quyidagi davrlarga ajratgan:

podsholik davri 5 yoshgacha

qullik davri (6-12 yoshgacha)

O'rtoqlik do'stlik davri deb bolaning keyingi taraqqiyoti davrini nazarda tutgan.

Podsholik davrida bolaning yoshligi uni aytganini kattalar tomonidan bajarilishini, bola o'zini "shirin" qiliqlari, gaplari bilan kattalarni o'ziga rom qilishni e'tiborga oladi. 6-12 yoshgacha bo'lgan davrni qullik davri deb bejiz aytmagan, albatta Chunki bu davrda bolani xulq atvorga o'rgatish, kishilar bilan o'zaro munosabatlarda qoida –qonunlarga bo'ysunish, mehnatga o'rgatish, unga nisbatna ijobiy munosabatni shakllantirish, bilim olish o'qish, o'rganish, mehnat qilishda qiyinchiliklarga bardosh berish, milliy an'analarimizga sadoqatli bo'lish, kattalarni, mehnatini qadrlash kabilarga muhabbat ruhida tarbiyalashda bolaga nisbatan e'tibor qaratgan.

Do'stlik davri esa bolaga do'stlarga munosabatda bo'lish ularni xurmat qilish, qilgan ishlarini qadrlash, munosbatalarda samimiy bo'lish lozimligini nazarda tutadi.

Chet el psixologlari ham bolalikni davrlarga ajratish masalasiga katta e'tibor berilgan. Jumladan Shveytsariyalik psixolog **J. Piaje** bolaning aql idrokiga xos bo'lgan xususiyatlariga qarab:

- 1) sensomotor intellekti (0-2 yoshgacha);
- 2) operatsiyalardan ilgari tafakkur davri (2-7 yoshgacha)
- 3) aniq operatsiyalar davri (7,8-11,12 yoshgacha);
- 4) rasmiy operatsiyalar davri deb ajratadi.

Fransuz olmi, psixolog A.Valon bolaning jismoniy rivojlanishga qarab (xomilaning ona qornidagi davri, impulsiv harakat davri- 0-6 oygacha, xis-tuyg'u davri -6 oydan-1 yoshgacha sensomotor davri -1-3 yoshgacha; shaxsga aylanish davri -3-5 – yoshgacha; farqlash davri -6-11 yoshgacha; jinsiy yetilish va o'spirinlik davri (12-18 yoshgacha) deb ajratgan. Shuningdek chet el psixologiyasida bolani psixik rivojlanishi tomonidan davrlarga ajratish to'g'risida ko'pgina materiallar to'plagan. Bu materiallar asosida bolalikni 2 keskin davrga ajratilgan.

- 1) go'daklik davridan maktabgacha tarbiya davriga o'tishdagi inqiroz davri (3 yoshlik inqiroz davri deb ataladi);

2) kichik maktab davridan o'smirlik davriga o'tishi (balog'atga yetish inqirozi davridir)

Bu ikki davr o'rtasida juda katta farq va o'xshashliklar mavjud. Jumladan xar ikkala davr ham o'zining mustaqilligi va kattalar bilan o'zaro munosabati jihatidan farqlanadi.

Rus psixologlari P.P.Blonskiy va L.S.Vigotskiylar bolalikni davrlarga ajratishda bolaning yashash sharoitini o'zgarishi, ta'lim-tarbiya mazmuni va usullarini o'zgarishini ham taraqqiyotga ta'sir etishini alohida e'tiborga olish lozimligini ko'rsatadilar. Ular har bir yosh davr psixik rivojlanishda alohida sifat o'zgarishlariga, bola shaxsining tuzilishida turli xususiyatlarning shakllanishi bilan farqlanishiga asoslanadilar. Shuningdek L.S. Vigotskiy aqliy taraqqiyotni ikki bosqichini: uzoq o'sish bosqichi va eng yaqin o'sish bosqichini ajratadi. U yosh davrlarga ajratishning ilmiy manbai rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruxiy yangilanishlarga tayanib bolalikni quyidagi bosqichlarga ajratadi.

Chaqaloqlik davri -2 oygacha bo'lgan davr inqirozi.

Go'daklik davri -2 oylikdan 1 yoshgacha bo'lgan inqiroz davri.

Ilk bolalik davri 1-3 yoshgacha bo'lgan inqiroz davri.

Maktabgacha davr -33 yoshdan 7 yoshgacha inqiroz bo'lgan davr.

Maktab yoshi davri -8-12 yoshgacha inqiroz bo'lgan davr.

Pubertat (jinsiy yetilish) davri -14-18 yoshgacha bo'lgan inqiroz davri.

Keyinchalik, rus psixologi D.B.Elkonin bolalikni psixik taraqqiyot va bola faoliyati xarakteriga qarab 3 asosiy guruhga ajratadi.

I guruh: 1) bevosita hissiy aloqada bo'lish (0-1 yoshgacha);

2) predmetlarni qo'l bilan harakatga keltirish davri (1-3 yoshgacha

II guruh: 1) rolli o'yinla faoliyati davri (7-10 yoshgacha);

2) o'qish faoliyati davri (7-10 yoshgacha) ;

III guruh: 1) o'zaro samimiy , munosabatda bo'lish davri (10-15 yoshgacha);

2) o'quv professional faoliyat davri, kasb tanlash davri (17 yoshgacha)

D.B.Elkoninning yosh davrlarni tabaqalash haqidagi ta'limoti bolalar psixologiyasida muhim o'rin egallaydi. Bolalar psixologiyasi fanining yana bir namoyondasi **A.A. Lyublinskaya** ijodida ham yosh davrlarni tabaqalash malakasiga katta o'rin berilgan. Olima bola kamolotini uning faoliyatiga qarab davrlarga ajratadi.

1. Chaqaloqlik davr (0-1 yoshgacha).
2. Kichik maktabgacha davri –(1 oydan -1 yoshgacha).
3. Maktabgacha tarbiyadan avvalgi davri 1 yoshdan 3 yoshgacha.
4. Maktabgacha tarbiya davri (3-7 yoshgacha).
5. Kichik maktab yoshi davri (7-11-12 yoshgacha).
6. O'rta maktab yoshi davri (13-15 yoshgacha).
7. Katta maktab yoshi davri (15-18 yoshgacha).

Pedagogik psixologiya fanining namoyondasi **V.A. Krutetskiy** ham bola kamolotini quyidagicha ta'kidlaydi:

Chaqaloqlik (0-10 kungacha).

Go'daklik (10-kundan -1 yoshgacha).

Ilk bolalik (1-3 yoshgacha).

Bog'chagacha davr (3-5 yoshgacha).

Bog'cha yoshi (5-7 yoshgacha).

Kichik maktab yoshi (7-11 yoshgacha).

O'smirlik (11-15 yoshgacha).

Ilk o'spirinlik yoki katta maktab yoshi (15-18 yoshgacha).

Hozirgi zamon psixologiyasining ko'zga ko'ringan yirik psixologi **A.V. Petrovskiy** turli yosh davrlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olib, yoshlikni quyidagi davrlarga ajratadi.

Ilk bolalik (0-3 yoshgacha).

Bohcha davri (3-7 yoshgacha).

kichik maktab yoshi davri (7-11 yoshgacha).

O'rta maktab yoshi o'smirlik davri (11-15 yoshgacha).

Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri (15 yoshdan 17 yoshgacha).

A..V. Petrovskiy davrlarga ajratishda har bir yosh davr orasida bosqichlar o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib ifodalamagan.

Yuqorida keltirilgan ko'pchilik olimlarning bola kamolatini davrlarga ajratish muammolari o'zlariga xosligi bilan ajralib turadi. Oxirgi yillardagi adabiyotlarda bir qator olimlar tomonidan ularni ham fiziologik va ham psixologik taraqqiyoti, faoliyat turlarining o'zgarib turishi va organizmdagi sodir bo'ladigan xususiyatlarni hisobga olib bolalikni quyidagi davrlarga ajratish tavsiya etilgan:

Chaqaloqlik davri (0-1 yoshgacha);

Go'dalik davri (1 oydan -1 yoshgacha);

Ilk bolalik davri (1-3 yoshgacha);

Bog'cha yoshi davri (3-7 yoshgacha);

Kichik maktab yoshi davri (7-11 yoshgacha);

O'rta maktab yoshi yoki o'smirlik davri (12-15 yoshgacha);

Ilk o'smirlik (maktab, kollej, litsey) davri (15-18 yoshgacha);

Albatta bu davrlarni bir-biridan qat'iyon bir yosh bilan chegaralab qo'yish mumkin emas. Bola o'zining o'sishda shu davrlarni ertaroq yoki kechroq kechiradi, ammo bu davrlar bir-biriga tabiiy bog'laib boradi va oldingisi keyingisiga zamin hozirlaydi. Har bir davrda bolaning ayrim ruhiy tomonlarigina emas, balki uning umumiy siymosi, afti angori ham boshqacha ko'rinishda boshlaydi va ularning yosh belgilariga qarab ta'lim tarbiya muassasalariga qabul qilinadi.

Bolaning yosh belgisi uning taraqqiyoti darajasini ko'rsata olmaydi. Chunki ikkita bir yoshdagi bola belgisi jihatidan bir xil bo'lsa ham, taraqqiyot darajasi har xil bo'lishi mumkin.

Shunga binoan bola shaxsining individual xususiyati va yoshlik xususiyati deb ularni bir-biridan farq qiladi.

Har bir ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilar bola shaxsining xususiyatlarini bilishi va uning ko'ngliga yo'l topa olishi lozim.

Chaqaloqlik davri xususiyatlari va uni diagnostikasi

Bolaning chaqaloqlik davri jismoniy jihatdan juda tez rivojlanish davridir. Yangi tug'ilgan bola organizmining 75 % suvdan, 25 % qattiq moddalardan iborat bo'ladi uning bo'yi 48-52 sm, vazni 2800-3500 gr bo'ladi. uning suyaklari tog'aysimon moddadan iborat bo'lib, u bolaning o'sishi bilan rivojlanadi. Yangi tug'ilgan bolaning og'irligi yarim yilgacha 600-700 gr dan, ikkinchi yarim yilda 400-500 gr dan qo'shiladi. Bo'yiga har oyda 2-3 smdan qo'shiladi. Bir yoshli bolaning og'irligi 10-10,5 kg ga yetadi, bo'yi esa 74-75, 5 sm ga yetadi. Yangi tug'ilgan bola hatto o'zidan bir hafta oldin tug'ilgan boladan farq qiladi, shuning uchun ham har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib ular bilan munosabatda bo'lishi kerak.

Bu davrda bola deyarli faqat ona suti bilan ovqatlanadi, u xali gapira olmaydi va

mustaqil harakat qila olmaydi. Yangi tug'ilgan bolaning boshi gavdasiga nisbatan katta, bo'yni deyarli yo'q darajada qisqa, gavdasi uzun oyoq – qo'llari gavdasiga nisbatan qisqa bo'ladi. Chaqaloq bola 1 minutda 50-60 marta nafas oladi. Agar chaqaloq bola o'ringa o'ng'ay xolatda yotqizilmasa, siqib yo'rgaklansa va ochiq xavoga olib chiqilmasa, nafas olishida qiyinchiliklar bo'ladi.

Chaqaloq bolaning yuragi 1 minutda 120 marta uradi. Bundan tashqari chaqaloq bolalar yuragining nisbatan tez urishi ular organizmida moddalar almashinuvi intensivligi bilan ham bog'liqdir. Bu yoshdagi bolalarning har odatlari o'zgaruvchan bo'ladi. Bular bolaning ortiqcha harakati, ovqat yeyishi ham har odatiga ta'sir qiladi. Shuning uchun kun tartibining ahamiyati kattadir. Chaqaloqning ovqat hazm qilish a'zolari juda kichkina, oshqozon va ichak



muskullari rivojlanmagan, juda zaif bo'ladi. Shuning uchun bolalarning eng yaxshi ovqati ona sutidir. Chaqaloqning bir sutkasini 75 % i uyquda o'tadi (keyinchalik bu narsa kamayib boradi). Yangi tug'ilgan bolaning 15-20 kunga qadar eshitmasligi mumkin, chunki uning qulog'iga suyuqlik to'lib qolgan bo'ladi, bir necha kundan keyin bu suyuqlik yo'qolib quloq ochiladi va bola yaxshi eshitadigan bo'ladi, ko'rish analizatorlari ham murakkab yo'l bilan rivojlanadi. Yangi tug'ilgan bolada ko'rish analizatori mavjud bo'lib, u yorug'likni, qorong'ulikni sezadi. Lekin uning ko'rish sezgisi mukammal bo'lmaydi.

Chaqaloq bolalar asab tizimining hamma qismlari baravar rivojlanmaydi, ularda eng oldin asab tizimining quyi qismlari, ya'ni orqa miya, uzunchoq miya takomillashadi. Chunki asab tizimining bu qismlari tug'ma yo'l bilan o'tadigan shartsiz reflekslarning markazi hisoblanadi. Keyinchalik asab tizimining yuksak qismlari ya'ni oliy asab faoliyati bilan bog'liq bo'lgan katta miya yarim sharlari va po'stloq qismi takomillashadi. Chaqaloq bolalar bosh miya yarim sharlari po'stining burmalari sayoz bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq bolaning asab miya katta yarim sharlari po'stidan asab hujayralari 14-15 milliard bo'ladi, bu nerv hujayralarini birlashtiruvchi asab tolalarining usti mielin deb nom olgan maxsus parda bilan qoplanib boradi. Chaqaloqlarni yo'rgaklash oldidan bir oz harakatga solish, ya'ni qo'l –oyoqlarini harakatga keltirish lozim. Bu jarayonning tezlashuvi bosh miya po'stining jadal rivojlanishiga yordam beradi. Bola 1 yoshga to'lguncha jismoniy jihatdan tez o'sar ekan uning asab tizimi ham tez rivojlanadi. Chunonchi yangi tug'ilgan bola miyasining umumiy vazni 1 yoshga to'lguncha 600- gr ga ortadi. Bola teri ya'ni badan analizatorlari orqali haroratni, biror narsa tekkanini va og'riqni sezadi. Chaqaloq bolaning badani haroratga juda sezgir bo'ladi, shuning uchun tez sovqotadi. Agar bolaning yuzi yoki labiga qo'l tekkizilsa, u darxol o'z harakatlarini boshlaydi. Bola tug'ilgan kunidan boshlab hid va ta'm bilish analizatorlari normal ishlay boshlaydi. Agar uning og'ziga taxir suyuqlik tekkizilsa, u aftini burishtirib bezovtalanib, chiqarib tashlaydi. Bola

qo'lansa hiddan ham bezovtalanadi. Demak chaqaloqlarda analizatorlar normal holatda bo'ladi. Bularning hammasi psixik rivojlanishning asab –fiziologik asosi bo'ladi. Bir oylik bolani qo'lga olish bilan yig'isi to'xtab tinchib qoladi. Bu bolaning qo'lga o'rganib qolganligini ko'rsatadi. Noto'g'ri tarbiyalangan bolada bu refleks nihoyatda tez o'rnashib qolib natijada o'z o'rniga yotmaydi, faqat qo'lda uxlashni hohlaydi. Bu esa bolani normal o'sishiga zarar yetkazadi.

O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, hatto 8 kunlik bola qo'lga olish bilan yerga yotqizishni farqiga borar ekan.

Yangi tug'ilgan bolaning suyaklari deyarli yumshoq tog'aydan iborat bo'ladi. Keyingi taraqqiyot davrida, ya'ni 1 yoshga to'lguncha skeleti suyakka aylana boshlaydi. Unda bolaning terisi ham yumshoq bo'ladi. Agar qattiqroq joyga yotqizilsa yoki ta'sir o'tkazilsa muskul yumshoqligi va o'ta nozikligi uchun terida iz qoladi. Shuning uchun yangi tug'ilgan go'dak ehtiyotkorlik bilan yuvintiriladi va ehtiyotkorlik bilan ushlanadi. Chaqaloqning 20 kun o'tgach terisi taranglasha boshlaydi. Go'dakning yashash sharoitiga qarab suyak va muskullari o'sib boradi. Agar go'dak ko'p yotsa, bosh suyagi hamshunga mos ravishda rivojlana boshlaydi. Shuning uchun go'dak uxlaganda bir maromda uxlashi kerak. Agar go'dak ovqatlanish jarayonida noto'g'ri ushlansa yoki yotsa suyak sistemasi noto'g'ri rivojlanib qolishi mumkin. Chunki go'dak suyagida mineral moddalar unchalik ko'p bo'lmaydi.



Bolaning suyak va muskullari bilan uning suyak sistemasi uning uxlash jarayoniga bog'liq. Bola yurishni o'rganayotganda ham goh o'ng, goh chap qo'lidan ushlab unga yordam berish kerak. Shundagina suyak sistemasini nuqsonlardan saqlash mumkin. Bolaning suyak va muskullari uning barcha organlari, shu jumladan bolaning og'irligi 2800 gr dan 3500 gr gacha, uning

bo'yi 48 sm dan 52 sm gacha bo'ladi, bu xususiyatlar faqat yaxshi tug'ilgan bolalarga xosdir. Yangi tug'ilgan bolaning suyagini ohak va boshqa tuzlar kam bo'lib, u asosan tog'ay to'qimalaridan iborat bo'ladi, bosh suyaklar 2-3 oylik bo'lgandagina tutashadi. Yangi tug'ilgan bolani kalla suyagi ham yaxshi qotmagan bo'lib, u asosan tog'aydan iborat bo'ladi, uning oldingi qismida peshona liqildog'i va orqa qismida ensa liqildog'i bo'ladi. Liqildoqlarning biri 2-3 oy mobaynida, 2 –si 12-14 oylik bo'lganda tutashib bitib ketadi.

Chaqaloqning tug'ilishi sifat o'zgarish daqiqasi, ijtimoiy rivojlanishning yangi ko'rinishi boshlanadigan nuqta ekanligi bilan muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun tug'ilish tabiatning chaqaloq organizmini kuchli larzaga keltiruvchi mo'jizasidir. Bunda ona qornidagi barqaror muhitda yashagan jonzot favqulotda yangi sharoitga, son-sanoqsiz xossa va xususiyatlarga ega bo'lgan qo'zg'ovchilar doirasiga tushadi. Avval chaqaloq organizmining ona organizmidan ajralish sodir bo'lib, ijtimoiy tabiiy sharoitlarga moslashuvi boshlanadi. Uning murg'ak organizmida tub o'zgarishlar ro'y beradi, uning yangi sharoitlarga ko'nikish davri kurashlar ostida o'tadi. Chaqaloq organizmi miqdor va sifat o'zgarishlariga, tashqi olamning qarshiligiga, ta'siriga, tazyiqiga duch keladi: fazo, vaqt va harakat muammolari mutlaqo boshqacha tarzda uning bosh miya katta yarim sharlari po'stida aks eta boshlaydi. Chaqalokda ona organizmi bilan anatomik, morfologik va konstatsion bog'liqlik davri tugagan bo'lsa-da, biroq u dastlabki daqiqalardan boshlaboq mustaqil yashay olmaydi, onaga fiziologik jihatdan tobeligacha qolavermaydi. Chaqaloq yashashi uchun organizmi talab qiladigan ovqat, oqsillar, mazkur o'sish pallasida ona suti orqali borib turadi.

Tug'ilgan chaqaloq havo bo'shlig'i va havoning bosimiga duch kelishi sababli tabiiy talabga ko'ra uning nafas va nafas chiqarishi o'zgaradi. Salqin havo oqimiga tushishi bilan haroratning ta'siriga moslashish uchun harakat qiladi. Unda ovqatlanish usuli va vositasi ham o'zgaradi, ya'ni platsentar oziqlanish (ona organizmidan bevosita qonga moddalar so'rilishi) dan oral oziqlanish (orqali me'da-ichakka borishi) ga o'tadi. Tug'ilish arafasida chaqaloq nasliy yo'l bilan

mustahkamlangan ayrim mexanizmlar, shartsiz reflekslar paydo bo'ladiki, bular yangi hayot sharoitiga mos-lashishni birmuncha yengillashtiradi. Yangi tug'ilgan chaqaloq ovqatlanish reflekslari ma'lum darajada shakllangan, asosan, so'rish, emish reflekslari o'z vazifasini ado etishga tayyor bo'ladi. Chaqaloqning labiga va tilining shilimshiq pardasiga biror qo'zg'atuvchi tegishi bilan unda ixtiyorsiz ravishda so'lak ajrala boshlaydi. Ona ko'kragini emishda uning boshqa har qanday harakati sekinlashadi yoki mutlaqo to'xtaydi. Psixologlar M.P.Denisova va N.L.Figurinlar chaqaloqlardagi mazkur jarayonni chuqur tadqiq qilib "ovqatga yo'nalish" reaksiyasi deb atadilar. I.P.Pavlov ta'biricha, bunda shartsiz reflekslar vujudga kelib, u idrok qilinadigan narsaga idrok qiluvchi organni qo'zg'atuvchi eng qulay yo'nalishiga aks etadi. Natijada emish mexanizmining ta'siridagi xatti-harakatlar qisman yoki butunlay tormozlanadi.

Chaqaloqning yangi sharoitda yashashini ta'minlovchi asosiy omil tug'ilishda unda vujudga kelgan tabiiy mexanizmlardir. U tashqi sharoit va muhitga moslashish imkonini beradigan nisbatan yetilgan nerv sistemasi bilan tug'iladi. Tug'ilganidan boshlab mazkur reflekslar organiz-mida qon aylanish, nafas olish hamda nafas chiqarishni ta'minlaydi.

Birinchi kundalik kuchli qo'zg'atuvchilarga nisbatan ko'zni qisish, pirpiratish, uning qorachig'ini kengaytirish yoki toraytirish mexanizmlari ishlay boshlaydi. Bu reflekslar himoya reflekslari deyiladi.

Chaqaloqda himoya reflekslaridan tashqari,, qo'zg'atuvchilar bilan aloqa o'rnatishga xizmat qiladigan reflekslar ham bo'ladi. Bular oriyentir reflekslari deb ataladi. Ikki, uch kunlik bola xonaga quyosh nuri tushishi bilan boshini yorug'lik tomonga burishi, xonaga asta kirib kelayotgan nur manbaini ham sezish imkoniga ega.

Yuqorida aytilgan reflekslardan tashqari, bolada bir nechta tug'ma tabiiy reflekslar ham uchraydi: emish refleksi og'ziga tushgan narsani so'rishda o'z ifodasini topsa, qo'l kaftiga biror narsaning tegishi ushlash, chang solish reak-siyasining vujudga keltiradi. O'zidan narsani itarish, uzoqlashtirish refleksi mavjud bo'lib bu hol

tovonga qandaydir jism tegishi bilan uni o'zidan uzoqlashtirishda namoyon bo'ladi.

Psixolog V.S.Muxinaning fikricha, chaqalokda tug'ilish-ga qadar ham shartsiz reflekslar bo'lishi, unga homilalik paytidayoq o'z qo'lini so'rish imkonini yaratadi. Sharq allomalarining fikricha, chaqaloqda tug'ma reaksiyalarning boshqa guruhi ham mayejud bo'lib, beshik tebratilganda chaq loqning yig'idan to'xtashi, ixtiyorsiz harakati sekinla-shuvi shundan dalolat beradi. Qadim zamonlardan beri beshik, so'rg'ich va hokozolardan chaqaloqni yupatishning, uning ixtiyorsiz harakatini to'xtatishning, diqqatini ovqatga va favqulotda holatga to'plashning muhim vositasi sifatida foydalaniladi.

Qator tug'ma-tabiiy reaksiyalar chaqaloq hayoti uchun juda muhimdir. Ana shu shartsiz reflekslar tufayli u yangi ung'aysiz sharoitga ko'nikib boradi va o'z yashash tarzini mavjud yo'nalishda uyg'unlashtiradi. Uning yangi muhitda ovqatlanishi va nafas olishi ana shu reflekslarning bevosita funksiyasi hisoblanadi. Bola tug'ilgunicha undagi barcha jarayonlar onaning organizmi orqali amalga oshgan bo'lsa, tug'ilganidan keyin mutlaqo boshqacha tarzda amalga osha boshlaydi. Masalan, o'pka bilan nafas olish, oral (og'iz, ichak, oshqozon kabi biologik organlar orqali) ovqatlanish vujudga keladi. Bu psixologiyada refleksor moslashish deb ataladi.

Muskul tizimining ishtirokida nafas olishning ritmli harakatlari amalga oshadi. Bu jarayon ovqatlanish, emish (so'rish) reflekslari yordamida vujudga keladi. Chaqaloqning tug'ma reflekslari dastlabki paytlarda nomutanosib ishlashi sababli u tez-tez qalqib ketadi, jismonan darrov toliqadi (tez uyquga ketadi yoki uyg'o-nadi). Chaqaloqning butun faoliyati, faolligi organizmni oziq bilan ta'minlashga, tuyishga yo'nalgan bo'ladi. Organizmning termoregulyatsiyasi ham alohida ahamiyat kasb etib, bolani o'zgaruvchan mikromuhitga tobora moslashtirib boradi. Chaqloqlik davrida insonning kamol topishida xulq-atvorning tug'ma instinktiv ko'rinishlari: nafas olish, ovqatlanish, haroratdan ta'sirlanish va hokozolar sof holda namoyon bo'lishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur organik

(moddiy) ehtiyojlar chaqaloq uchun psixik o'sishning negizi vazifasini o'tay olmaydi, ammo ular birgalikda individning yashashini ta'minlaydi.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, qator tug'ma reflekslar bolaning o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmasa ham, uning tabiiy biologik ehtiyojlarini qondirishda ishtirok qiladi. Bularga ativistik, tirmashish, sudralish, emaklash kabi nasliy reflekslar kiradi va ayrim reflekslar (tirmashish, chang solish) borgan sari susayib boradi. Chaqaloqda ushlab, o'zini tutish reflekslarining paydo bo'lishi unga fazoda to'g'ri harakat qilishga imkon yaratadi. Tom ma'nodagi sudralish bolaning narsalarga qo'l cho'zishdan boshlab oldinga harakat qila boshlaydi. Bu jarayon keyinroq yanada taraqqiy etadi. Tug'ilishga yaqin chaqaloqda quloq va ko'z mexanizmlari o'z vazifasini o'tashga tayyor bo'ladi. Bundan tashqari, unda qator himoya va oriyentir (o'ta yorug'likka qarash natijasida ko'zni piriqtirish, boshini olib qochish, burish, kuchli tovushdan cho'chish kabi) ham mavjud bo'ladi. Ammo chaqaloqda "ko'rish" va "eshitish" apparatlari orqali o'z diqqatini biror obyektga to'plash imkoni bo'lmaydi. Chunki obyektni tanish, tovushni ajratish, sezish imkoniyati bolada keyinchalik vujudga keladi.

Chaqaloq uchun tug'ma mexanizmlar yangi sharoitga moslashish (ko'nikish) uchun kelmaydi. Shu boisdan uni, parvarishlashda qo'shimcha tadbirlar qo'llanmasa, chaqaloq o'sishdan orqaga qolishi mumkin.

Chaqaloq ona qornidagi yashash sharoitidan at-mosferada hayot kechirishga o'tgan dastlabki paytlarda uning uyqu va uyqusizlik hslatlari o'rtasida keskin chegara bo'lmaydi.

Tug'ilgan chaqaloqning vazni tez kamaya boradi. Buning sababi undan suyuqlik moddasining chiqib ketishi, vaznli holatidan atmosfera bosimiga, quyosh nuriga, turli xususiyatli moddalar ta'siriga, o'zgaruvchan havo haroratiga moslashish davrida ko'p kuch kuvvat sarflanishidir. Bu davr-ning kechishida chaqaloqlarning ham individual, ham jismoniy tafovutlari ko'zga tashlanadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay chaqaloq vaznining kamayishi tabiiy ravishda to'xtaydi va uning yangi muhitga moslashishi boshlanadi. Kindik tushishi davri organizmda keskin

o'zgarishlar yuz berish pallasini hisoblanib, murg'ak organning mustaqil yashayotganidan dalolat beradi, Chaqaloqning oldingi vazniga yetish davri hayotining birinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi. Chaqaloq organizmi anatomik-fiziologik, morfologik tuzilishi bo'yicha katta yoshdagi odamlardan farqi kam rivojlanganligi zaifligi, ish qobiliyatining kuchsizligidir. Uning suyak sistemasi, pay muskullari va tog'ay to'qimalarining o'sishi katta yoshdagi kishilarnikidan ham sur'at, ham sifat jihatdan farqlanadi. Chaqaloqdagi muskullarning takomillashishi harakat negizini vujudga keltiradi: shu bilan birga har bir biologik organning mustaqil harakati va faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bolada bo'yin muskullarining rivojlanishi kattalar yordamida ag'anash imkonini, qo'l va oyoq muskullarining yetilishi esa jismoniy harakat qilishi, jismlarga qo'l cho'zish uchun sharoit yaratadi.

Chaqaloqning anatomik-fiziologik tuzilishini tahlil qilsak, uning suyak sistemasida ohak moddasi va har xil tuzlar yetishmasligining guvohi bo'lamiz. Shu sababli suyak funksiyasini ko'proq tog'ay to'qimalari bajaradi. Bosh suyaklari bolaning ikki oyligida o'zaro qo'shib ketadi. Bosh suyakning peshona va tepa qismlari o'rtasida liqildoq deb ataladigan qalin parda va teri bilan qoplangan oraliq mavjud bo'ladi. U bola bir yoshdan oshganidan keyin suyak bilan qoplanib boradi, lekin u haqiqiy suyak bo'lmaydi.

Chaqaloq nerv sistemasining yuksak darajada rivojlangan qismi, ya'ni bosh miya katta yarim sharlari tashqi ko'rinishi bilan katta odamnikiga aynan o'xshasa ham, aslida undan ko'p farq qiladi. Odamlarni o'zaro qiyoslasak, ajoyib manzarani ko'ramiz: miyaning og'irligi chaqaloq tanasining sakkizdan bir va katta odamlarda esa qirkdan bir qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarda bosh gavdaga nisbatan kattaroq ko'rinsada, u hali juda bo'sh, mukammallashmagan bo'ladi. Ularning organizmi jadal sur'at bilan o'sish davridan o'tadi. Bu davrda chaqaloqning og'irligi 3-5 kg bo'lishiga qaramay, miyasining og'irligi 300-350 grammani tashkil qiladi, xolos. Chaqaloqning miyasi xujayralarining mikdori, "ariqchalar" ning

yaqqol ko'zga tashlanmasligi, nerv hujayralari tarmog'i jihatdan katta odamlarning miyasidan farq qiladi.

Yuqoridagi fikrlarni isbotlashga harakat qilgan psixolog YE.A.Arkinning ta'kidlashicha, bola tug'ilishga harakat qilayotgan paytda uning miyasini bir xil kulrang massa tashkil etadi, uning nerv tolalarida miyaning qobig'i bo'lmaydi.

Chaqaloq nerv tolalari bir-biridan ajralmagani sababli, tashqaridan kelgan qo'zg'atuvchilar muayyan qismga yo'nalgan bo'lsada, boshqa markazlarga ham ta'sir qilavermaydi. Shu sababdan bo'lsa kerak, uning bosh miya yarim sharlari qobig'i aniq, mustaqil va barqaror qo'zg'alish o'choqlari vujudga kelmaydi.

Chaqaloq tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga ixtiyorsiz ravishda qo'l-oyoqlari va boshini tartibsiz harakatlantirish bilan javob beradi. Katta yoshli kishining tik holatlari va o'ziga xos tipologik xususiyatlarini idora qilishda nerv sistemasining yuksak darajada rivojlangan qismlari yetakchi rol o'ynasa, chaqaloqning hayotiy faoliyatida bu vazifani bosh miya qobig'ining ostki markazlari bajaradi. Bosh miya yarim sharlarining durustroq rivojlangan bo'limlari chaqaloq uchun eng zarur jarayonlar: nafas olish va nafas chiqarish, emish, yutinish nerv tolalari chaqaloqning yashashi uchun yetarli miqdorda miya qobig'iga o'ralgan bo'ladi.

Chaqaloq boshqa yosh davrdagi odamlarga qaraganda kuchsiz, zaif, ojiz ko'rinsada, ba'zi jihatlari bilan kattalardan ustunlik qiladi. YE.A.Arkinning fikricha, chaqaloqlik davrining kuchli jihatlari ko'pincha uning o'sish quvvatida o'z ifodasini topadi. U har oyda ikki smdan o'sadi, uning og'irligi har kuni 1,6-2 grammdan ortib boradi. Uning shiddatli sur'at bilan o'sishi ko'proq individning vegetativ nerv sistemasi, ichki sekretiya (buyuk qalqon osti vausti) bezlarining faoliyatiga bevosita bog'likdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ichki sekretiya bezlari ishlab chiqargan maxsus garmonlar qonga so'rilib, organizmning jismoniy o'sishini belgilaydi. Chaqaloqning g'oyat jadal sur'at bilan o'sishi shu davrning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar ovqat, sof havo, quyosh nuri, nafas olish, parvarish va hokozolar.

Chaqaloqning asosiy xususiyatlaridan biri uning inson zotiga xos barcha xulq-atvor shakllarini va avlodlarning tajribalarini o'zlashtirish imkoniyatiga egaligidir. Tug'ma reflekslar chaqaloq hayotidagi yetakchilik rolini asta-sekin yo'qota boradi. Kundalik tartib va tarbiyaning o'ziga xos sharoitida ehtiyojning boshqa ko'rinishlari, jumladan, taassurot olish, ta'sirlanish, harakat, muloqot kabi shakllari vujudga keladi. Mohiyati va maqsadi jihatdan yangi ehtiyojlar zahirida psixik rivojlanish amalga oshadi.

Bolada taassurot olish ehtiyoji paydo bo'lishi bilanoq, oriyentir bilan aloqa o'rnatadi, hissiy bilish organlarining tayyorlik darajasiga muvofiq mavjud ma'lumotlarni qabul qiladi va shu jarayonda o'zi ham rivojlanadi. Chaqaloqning ko'ruv va eshituv apparati dastlabki kundanoq ishga tushsa ham ular hali yetilmagan bo'ladi. Shu sababli ko'rish sezgisini yorug'lik, eshitish sezgi-sini esa qattiqtovush vujudga keltiradi. Bola harakatdagi jismlarni kuzatishga intilsa, ham aslida qimirlamay turgan, narsalarga ko'proq diqqatini to'playdi. Uning ruhiy dunyosida ko'ruv va eshituv apparatlariga mos ravishda diqqatning muayyan obyektga to'planishi jarayoni asta-sekin vujudga keladi.

Chaqaloqning sezgi organlari uning harakatiga qaraganda durustroq rivojlangan bo'ladi. Masalan, chaqaloq achchiqni shirindan, issiqni sovuqdan, ho'lni quruqdan farqlay oladi. Uning hid bilish organlari juda zaif bo'lishiga qaramay, burniga yoqimsiz hidli modda yaqinlash-tirilsa, bezovtalanadi. Bola teri tuyush.harorati his qi-lish, sezish, ta'm bilish sezgilari ham yetarli darajada rivojlangan bo'ladi. Chaqaloqda jismlarni, odamlarni, atrof-muhitni kattalar kabi yaxlit va aniq idrok qilish imkoniyati bo'lmaydi. Chunki idrok qilish insonning boshqa psixik jarayonlari (xotira, tasavvur), ruhiy holatlari (his-tuyg'u, o'ng'aysizlanish) va o'ziga xos tipologik xususiyatlari bilan uzviy bog'likda amalga oshadi. Shuninguchun chaqaloqda mazkur imkoniyat o'ta cheklangan bo'lib, sezgi organlari oddiy aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi xolos.

Yangi tug'ilgan bolada kuchli yorug'likni aks ettirish imkoni bo'ladi va u yorug'likdan turli darajada va shaklda ta'sirlanadi, hatto, ko'zlarini yumib oladi.

Ko'rish mexanizmlari o'sib ulgurmagani sababli tinch holatdagi yoki harakati jismini idrok qila olmaydi. Goho o'n kunlik chaqaloq harakatdagi jismga nigoh tashlagandek ko'rinsada, aslida unga bir necha sekund termulishdan nari o'tmaydi. Chaqalokda eshitish sezgisi zaif rivojlangan bo'lsa ham, u hali o'zi eshitishga moslashmagan kuchli qo'zg'atuvchilarni (tovush, qichqiriqni) aks ettira oladi, biroq tovush kelayotgan obyektni aniq topa olmaydi. Ko'rish va eshitish organlarining muayyan obyektga yo'nalishi oyoq-qo'l va boshning harakatida bolaning yig'lashdan to'xtashida ko'rinadi.

Chaqaloq tashqi olam bilan aloqa bo'lishining markazi rolini bosh miya katta yarim sharlarining yuksak darajada rivojlangan qismlari bajaradi. Miya tobora takomil-lashuvining o'zi chaqalokdagi hissiy bilish organlarining rivojlanishini ta'minlay olmaydi. Bu organlar bola olayotgan taassurotlar natijasida rivojlanadi. Aslida taassurotlarsiz miyaning o'zi o'sishi mumkin emas. Miyaning rivojlanishida tashqi olamdan keladigan ko'zg'atuvchilar va signallarni qabul qiluvchi hissiy bilish organlari analizatorlarining ko'p ishlashi muhim rol o'ynaydi. Ilmiy manbalarda ifodalanganidek, chaqaloq sensor to'siqqa tushib qolsa, tashqi taassurotlarning yetishmasligi sababli o'sishdan vaqtincha orqada qoladi. Aksincha, taassurotning miyaga ko'proq kelib tushishi oriyentir reflekslarining rivojini tezlashtiradi. Ko'ruv va eshituv apparatini obyektlarga yo'naltirish vujudga keladi, natijada insoniy sifatlar, jarayonlar shakllanadi. Ko'ruv va eshituv organlari orqali to'planadigan taassurotlar manbai hamda nerv sistemasining muntazam o'sishini ta'minlash vazifasini katta yoshdagi odamlar bajaradi.

N.L.Figurin va M.P.Denisovning ta'kidlashicha, bolaning bir oylikkacha davridagi tetiklik holati (uyg'oqligi) ko'rish va eshitishga yo'nalgan shartsiz reflekslar tufayli faollashib boradi: tovush ta'siriga berilish 2-3 haftalik chaqalokda vujudga keladi. Shuning uchun bola surnay sadosiga quloq soladi va yig'idan yoki harakatdan to'xtaydi. Bir oylik bolada oriyentir refleksi namoyon bo'ladi (I.P.Pavlov). Shu sababdan chaqaloq gaplashayotgan odamga tikiladi va ixtiyorsiz xatti-harakatdan o'zini tiyib turadi.

Bola obyektni ko‘rish va tovushni eshitish uchun diqqatini to‘playdigan bo‘lgach harakatining faollashuvida ancha o‘zgarishlar ro‘y beradi. Odatda, uning harakati ixtiyorsiz va tartibsiz ravishda amalga oshib jismlarga ko‘z yugurtirish, boshini burish bilan tug‘ilsa ham, harakat hodisasi vazifasini bajaradi: o‘zida xulqning sodda ko‘rinishini ifodalab bolani voqealik, tashqi olam bilan uzviy bog‘laydi.

D.B.Elkonin fikricha, chaqaloq hayotining uchinchi haftasida onaning emizish holatiga moslashish bilan bog‘liq birinchi tabiiy shartli refleks vujudga keladi va keyinchalik esa ba‘zi qo‘zg‘atuvchilarga javob tariqasidagi alohida shartli reflekslar ham paydo bo‘ladi. D.B.Elkonin va uning shogirdlari ta’kidlaganidek, chaqaloq psixik hayotining mazmuni muammosi uzil-kesil hal qilinmagan va chaqaloqning psixik dunyosiga chinakam haqiqatga yaqin ilmiy obyektiv qarashlari. I.M. Sechenov asarlaridagina uchraydi. Psixologiya fani rivojining undan keyingi davrida shu muammoga taaluqli bir qancha tadqiqotlar olib borilgan, qator psixologik qonuniyatlar va mexanizmlar ishlab chiqilganki, bular to‘g‘risida yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyaga oid ilmiy va o‘quv adabiyotlarda boy ma’lumotlar berilgan.

Chaqaloqning hayoti qiyqiriq sadosi bilan boshlanadi va bu ko‘pincha shartsiz reflekslar xususiyatidan kelib chiqadi. Dastlabki qichqiriq tovush chiqarish oralig‘i qisilishining bevosita mahsuli sifatida, organizmning tabiiy ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Qisilish avval nafas olish refleksini ham boshqaradi. Shunga qaramay, mutaxassis olimlarning fikricha, birinchi, kichqiriq noxush his-tuyg‘uning namoyon bo‘lishidir. Qisilish tanglik (zo‘riqish) tuyg‘usini vujudga kelishidir. Shuning uchun chaqayaoqdagi muskul reaksiyasi bilan emotsional munosabatni farqlash ancha qiyin. Qichqiriq noxush kechinma va yeyezgilarga javob tariqasida vujudga kelib, issiqqa ochlikka va namlikka qarshilik vazifasini bajaradi. Chaqadoqni to‘g‘ri tarbiyalash jarayonida qichqiriq emotsional kechinmalarning yana bir turi yig‘lashga aylanadi. Yig‘lash barcha jismoniy og‘riqni, ruhiy qayg‘uni, iztirobni tabiiy aks ettirishning manbai hisoblanib tashqi olam bilan aloqa o‘rnatishning eng zarur vositasi sifatida chaqaloq faoliyatida

alohida ahamiyat kasb etadi. U noxush his-tuyg'ularnigina aks ettirib qolmay, tabiiy ehtiyejlarni qondirish mexanizmi sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Bola bir oyga to'lgach, o'zini parvarish qilayotgan odamga intiladigan, talpinadigan bo'ladi va buning misoli tariqasida uning kishilar orasida "o'z" kishisini tanishi va ajratishini aytish mumkin. Bolaning katta yoshdagi odam-larga o'z munosabatini bildirishi uning bundan keyingi o'sishini belgilovchi bosqich vazifasini o'taydi.

"Jonlanish" bolaning kattalar bilan o'ziga xos ravishda munosabatga kirishining yangi shakli sifatida vujudga keladi. Lekin tashqi qo'zg'atuvchilarning ta'siriga javob tariqasida namoyon bo'ladigan "jonlanish"ning tabiati hali ochilgani yo'q. Ehtimol, bu holat bolaning kattalar bilan muloqotning maxsus ko'rinishi va ovqatla-nish refleksining mustahkamlanishi yoki bolada ijobiy his-tuyg'ularni qo'zg'atish omilidir. Ba'zan bolada o'zini parvarish qiluvchi shaxsning muomalasi tufayli emotsional harakatlar vujudga keladi, natijada uning qo'l va oyoqlari harakati ildam va tez amalga oshadi. Bu jarayon intilish, iltijo talpinish kabi tashqi ifodaga ega bo'lgan ichki psixik kechinmalarda o'z aksini topadi. Psixolog YE.K.Kaverina bolaning tashqi ta'siriga javob bildirishni tadqiq qilib, unda odamlar va jismlarga munosabat bir xilligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonning afti-angoriga qarab ijobiy his-tuyg'ular uyg'onishi keyinchalik vujudga keladi. Ta'sirga berilish va ta'sirlanishning mazkur shakli bola bilan kattalar o'rtasidagi aloqaning boshlang'ich ko'rinishi hisoblanadi. Shaxslararo aloqaning bu shakli chaqaloqlik davrining tugashi va ilk bolalikning boshlanishidan dalolat beradi. Chaqalokda paydo bo'ladigan ijobiy his-tuyg'ularning oddiy tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan hech qanday bog'liqligi yo'q. Chunki psixik dunyoga o'zgarishlarni o'rgangan M.Y.Kistyakovskayaning uqtirishicha, uykusizlikdan qiynalish va ochlik uyg'otuvchi ko'zg'atuvchilarni bartaraf qilish salbiy kechinma va his-tuyg'uni pasaytiradi. Bolaning kattalar bilan ijobiy munosabatda bo'lishi zahirida tabassum, kulgi, ildam harakat, tovush chiqarish bo'lsa ham, bularning tabiiy-organik ehtiyojlarini qondirish bilan hech qanday aloqasi yo'q. Aksincha,

ijobiy emotsional holat yangi ijtimoiy ehtiyojning ko'rsatkichi bo'lib, bola katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishining motivi va imkoniyati rolini bajaradi. Psixolog M.I.Lisina va uning shogirdlari ta'kidlaganidek, mazkur yosh davrida bola ko'z qarashlari, ixtiyorsiz harakatlari, sharpaga javobi, tamshanishi orqali kattalar bilan aloqa bog'laydi. Ko'p marta takrorlanish natijasida shartli refleks shaklida vujudga kelgan ana shu jarayonlar muloqotga aylanadi. Chaqaloqning yangi sharoit va muhitga moslashishidan kelib chiquvchi bu holat ko'nikish ko'rinishida muloqot vazifasini o'tay boshlaydi. Biroq bu muloqot noverbal ravishda (so'zlar ishlatilmay) amalga oshadi va sodda shakldagi, tor ko'lamli shaxslararo muno-sabatni aks ettiradi.

Katta yoshdagi odamlarning chaqaloq bilan muloqotda bo'lishi unga o'yinchoq ko'rsatishi, termulishi, erkalashi unda tashqi ta'siriga javob reflekslarini faollashtiradi.

Psixolog D.B.Elkonin nazariyasiga ko'ra chaqaloqlik davridan ilk bolalik, go'dalik davriga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Bular:

1. Ko'z va quloq yordamida diqqatni muayyan obyektga qaratish (to'plash)ning paydo bo'lishi, bola harakat faoliyatining qayta qurilishi boshlangani, alohida namoyon bo'luvchi harakatning xulq hodisasiga aylanishi.

2. Sirtidan idrok qilinuvchi barcha obyektlarga (subyektlarga) yo'nalgan alohida qo'zg'atuvchiga nisbatan shartli reflekslar hosil bo'lishi.

3. Katta yoshdagi odamlarga (onasiga va yaqin kishilarga) nisbatan emotsional reaksiyalar (his-tuyg'ular, kechinmalar) yangi ehtiyoj paydo bo'lishining ko'rsatkichi ekanligi.

4. Bolaning (chaqaloqning) kattalar bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji uning keyingi psixik o'sishi negizini tashkil etishi va hokazolardir.

Nazorat savollari

1. Chaqaloqlikda jonlanish kompleksi va uning ahamiyati
2. Psixolog M.I.Lisina ning tadqiqotlari va fanga qo'shgan hissasi
3. Chaqaloqlik davrida ruhiy yangilanishlar

Go'daklik davrining psixologik xususiyatlari va uni diagnostika qilish

Go'dak har oyda 2-3 sm dan o'sib boradi. U 8 oylik bo'lganda bo'yi 2 baravarga, 9 oylik bo'lganda 14 martaga oshadi. Bola yoshiga to'lib yurib ketsa, u jismoniy jihatdan sog'lom bo'ladi. Bola psixik taraqqiyotining anatomik va fiziologik asosini tashkil etuvchi nerv sistemasining rivojlanishi bolaning bir yoshgacha bo'lgan davrida jadal bo'ladi.



Ilk yoshdagi bolalar jismoniy jihatdan tez rivojlanish bilan birga psixik jihatdan ham tez rivojlanadi. Chaqaloqlar psixikasining rivojlanishi 1 –dan analizatorlarni takomillashuvi bilan bog'liq bo'lsa, 2 –dan mustaqil harakatlarning o'sishi bilan bog'liq. Analizatorlarni tez takomillashuvi natijasida bir oylik bo'lgandan so'ng unda dastlabki shartli reflekslarning shakllanishi ideallashadi. Shu davrda bola psixikasining tez rivojlanishi yo'lga qo'yiladi. 2-3 oylik bolalarda analizatorlarni faoliyati takomillashuvi natijasida ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilarni farqlash qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Ovozlarini, so'ngra yorqin ranglarni, ta'mlarni farqlay boshlaydi. Bola bir oyga to'lgach, o'zini parvarish qilayotgan odamga intiladi, o'ziga yaqin insonini aft basharasiga qarab ijobiy his tuyg'ular uyg'onadi. Ta'sirga berilishi va ta'sirlanishning bu shakli bola bilan kattalar o'rtasidagi aloqaning boshlang'ich ko'rinishidir. Shaxslararo aloqaning bu shakli chaqaloqlik davrining tugashi va ilk bolalikning boshlang'ich davridir.



Chaqaloqda paydo bo'ladigan ijobiy tuyg'ularning oddiy tabiiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq emas. Chunki psixik dunyodagi o'zgarishlarni o'rgangan M.Y. Kityakovskayaning o'qtirishicha, uyqusizlikdan qiynalish va ochlik uyg'otuvchi va qo'zg'otuvchilarni bartaraf qilish salbiy kechinma va his –

tuyg'uni pasaytiradi.

Psixolog D.B. Elkonin nazariyasiga ko'ra chaqaloqlik davridagi ilk bolalik, go'daklik davriga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud: bular

- 1) ko'z va quloq yordamida diqqatni muayyan bir obyektga to'plashning paydo bo'lishi,
- 2) bola harakat faoliyatining qayta qurilishi boshlangani, aloxida namoyon bo'lishi, harakatning xulq hodisasiga aylanishi.
- 3) sirtidan idrok qilinuvchi barcha obyektlarga (subyektlarga) aloxida qo'zg'atuvchiga nisbatan hosil bo'lishi.
- 4) katta yoshdagi odamlarga (onasiga va yaqin kishilarga) nisbatan emotsional reaksiyalar (his –tuyg'ular va kechinmalar) yangi ehtiyoj paydo bo'lishining ko'rsatkichi ekanligi.

Bolaning kattalar bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji uning keyingi psixik o'zgarishi va negizida tashkil etishi.

Go'dakning bir yoshgacha davridagi psixologik xususiyatlarining o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjud. Shular orasida N.L. Figurin, M.P. Denisova, M.Y. Kityakovskaya, D.B. Elkonin, S.A. Arkin, S. Fayanslarning asarlari katta ahamiyatga ega, S. Fayans tajribasida go'dakka chiroyli va jozibador o'yinchoqlar 9 sm dan masofadan ko'rsatilgan, u butun vujudi bilan ularga intilgan, keyinchalik oraliq 60 sm bo'lganda bolaning intilishi sustlashgan va nihoyat ular 100 sm dan ko'rsatilgan bolaning intilishi mutlaqo o'chgan.

U o'yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga ham ana shunday befarq qaragan, masofa qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi shunchalik kuchaygan. Ko'pgina psixiologlar bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatda yuzaga keladigan emotsional reaksiyalarni jonlanish kompleksi deb ataganlar. Bunda bola uning bilan munosabatda bo'layotgan odamga muloyim tikilib jilmayadi, qo'l va oyoqlari bilan ovoz chiqaradi. Bolada qandaydir kuchli mamnunlik hissi yuzaga keladi.

Go'dak yoshiga to'lguncha juda ko'p harakatlarni o'zlashtiradi. Bolaning qiladigan turli tuman harakatlari orasida qo'l –harakatlari psixik taraqqiyoti uchun

muhim ahamiyatga ega. 4 oylik bola narsalarga qo'l cho'zadigan, ammo u xali o'zining qo'l harakatlarini idora qilolmaydi. 5 oylik bo'lgach narsalarni paypaslab ko'radigan bo'ladi.



Bolaning psixik taraqqiyotida murakkab harakatlarni egallab borish katta rol o'ynaydi. 6 oylik bo'lgach, mustaqil o'tira oladigan bo'ladi. 3-6 oylikacha bolalar katta yoshdagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo'ladi. Bolada yaqin kishilarga bog'lanish sodir bo'ladi, shu sababli ona yoki enagasini ko'rish bilan qichqirib qarshilaydi, talpinadi. Yarim yoshga to'lganida atrofdagilar qatori qarindoshlariga, qo'ni – qo'shnilariga ko'nikib boradi.

8 oylik bo'lgach yana bir murakkab harakatni - emaklashni o'rganadi. Bola psixikasining rivojlanishida bu yangi harakatning ahamiyati katta. Emaklay boshlagach, bolaning atrofdagi narsalar bilan munosabati kengayadi. U bir narsani olib ikkinchi narsaga o'rib taqillatadi va chiqayotgan ovozga quloq soladi. Bu yoshdagi bolalar biror narsaning qopqog'ini ochib yopishni yoqtiradilar. Bunday harakatlar bolaning qo'l muskullarini mustahkamlaydi. Og'ir kasallikka uchramay, jismoniy jihatdan sog'lom o'sgan bola 9 -10 oylik bo'lganda yura boshlaydi. Yura boshlagan bolaning faolligi kun sayin ortib, erkin harakat qila boshlaydi. Bemalol yuradigan bola tor uy doirasidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Xotiraning dastlabki ko'rinishlari. Tafakkur va nutqning o'sishi.

6-7 oylik bolalarda taqlid qilish harakatlari paydo bo'ladi. Bola psixikasining taraqqiyotida taqlidning roli katta, bola juda ko'p harakatlarni va nutqni asosan taqlid orqali egallaydi. Go'daklarda katta yoshdagi kishilarning faoliyatini tashkil qilish asosida unga atrofdagi olam haqida dastlabki tafakkur qilishning oddiy

formalari vujudga keladi. 6-7 oylik bola ismi aytilgan narsani ko'rsatadi. YA'ni harakat xotirasi paydo bo'ladi. xotiraning dastlabki ko'rinishlari asta –sekinlik bilan paydo bo'ladi. Masalan, go'dak o'yinchoqni o'ynayapti, o'yinchoq ovoz chiqaruvchi moslamaga biriktirilgan bo'ladi. Go'dak o'yinchoqni qo'llari



yordamida ezsa undan ovoz chiqadi. Bola oradan ancha o'tsa ham o'sha o'yinchoqni olib ezadi. Chunki undan tovush chiqishi mumkinligini biladi. Demak, xotirasida o'yinchoqni bosish harakati qolgan va u shu tufayli ham ezish harakatini bajaradi.

Go'dak shu tariqa kichik harakatlarni eslab qoladi va keyingi gal shu harakat orqali natijaga erishishi mumkinligini biladi. Masalan boladan "Qo'lingiz qani" deb so'ralsa, unga qo'l a'zosi qaysiligini tushuntirilsa va uni xotirasida qolishi uchun bir necha marta shu mashq takrorlanilsa, u qo'l a'zosi qaysiligini tushunadi. Kun sayin ham takrorlab beradi. Agar 10-11 oylik go'dak qizcha qo'lga qo'g'irchoq olsa albatta uni "tebratib" uxlatishga harakat qiladi. Bola harakatlanganda o'z xotirasida saqlab qolgan ko'nikmalardan foydalanadi. Uning harakati asosan xotiraning kuchli ishlashi orqali rivojlanadi. Masalan, bola issiq pechga bexosdan qo'lini tekkizib oldi va og'riq sezdi keyingi safar u pechga umuman yaqinlashmaydi. Chunki u avval pechga qo'l tekkanda, og'riq bo'lishini tushunadi. Bularan ko'rinib turibdiki, bolada tafakkur rivojlanadi. Go'dak 5-6 oyligidan "sermahsul" harakat natijasida ya'ni 2 ta jismdan foydalanish 7 oylikda uyg'unlikda fikrlashni yuzaga keltiradi. Emaklash orqali atrofda turgan o'yinchoqqa intiladi va uni olib o'ynaydi. Go'dakning jismlar bilan bevosita aloqaga kirishuvi ular yordamida harakatlanish narsalarning yangi xossa va xususiyatlarini bilib olishga imkon yaratadi.

Hayotining ikkinchi yarim yilligida bolaning predmetlar bilan har xil harakatlarning amalga oshirishdagi ildamligi faoliyatining murakkablashuvi fazoda o'rin almashtirishning yangi shakllari vujudga kelishi uni katta yoshdagi

odamlarga bog'laydi. U o'yin orqali fikrlagan narsalarini tashqariga chiqarishga harakat qiladi. Bu uning muloqotga kirishuvida ko'rinadi.



Go'dak yarim yoshida ular bilan muloqotga kirishish jarayoni ikki xil xususiyat kasb etadi. Avval muloqot bir tomonlama, faqat ta'sir o'tkazish bilan chegaralansa, endi teskari munosabat ham vujudga keladi. Bola kattalarning kiyimini tortqilaydi. Ularga qichqiradi va boshqa harakatlardir. Mazkur holat bolaning kattalar bilan muloqoti rivojlanishining yuqori bosqichga ko'tarilishidan dalolat beradi. Bola hayotining ikkinchi yarim yilligida kattalar nutqini idrok qilish va uni tushunishi rivojlanadi. Bolaning hamkorligidagi o'yin faoliyati ham his –tuyg'uga berilishi ham nutq va faoliyati bilan chambarchas bog'liq bola juda ko'p harakatlarni taqlid asosida egallaydi. Bolani 5-6 oylikdan nutqni tushunishga o'rgatish lozim. Buning uchun bolaga o'yinchoq yoki biror narsaning bir necha marta nomini aytib ko'rsatish kerak. Keyinchalik bolaga ba'zi narsalarning nomi aytilganda, u ko'zlari bilan shu narsani qidirib topadi. Masalan chapak –chapak deb, takrorlab turib chapak chalinsa bola shu so'z aytilishi bilan chapak chaladigan yoki bolaga “assalomu alaykum” ta'zim qilib ko'rsatilsa, bola so'zni eshitishi bilan ta'zim qiladigan bo'ladi.

Bola ayrim so'zlarga tushuna boshlagach, kattalar bilan ko'proq aloqada bo'lishni hohlaydi. Bundan foydalanib bola bilan ko'proq munosabatda bo'lishga uni nutqini o'stirishga harakat qilish kerak. Buning eng oson yo'li u bilan o'yin o'ynashdir. Masalan kuchukni rasmini ko'rsatib “mana vov-vov” , xo'roz yoki tovuqning rasmini ko'rsatib “Kuk-kuk” deyish mumkin, bunda bolalar shu kabi elementlarni ravon talaffuz qilishga o'rganadi. Bundan tashqari 9-10 oylik bolalarda o'z tana a'zolarining nomlarini o'rgatish lozim. Bolaga “mana og'zi, mana ko'zi” deb bir necha marta takrorlab ko'rsatilgandan keyin bola o'z a'zolarining nomini aytish bilan birin- ketin



ko'rsatadigan bo'ladi. Xali yoshiga to'lmagan bolalar har bir so'zni shu so'z orqali foydalangan aniq narsalar bilan bog'lay olmaydilar. Bunda nutqni assotsiativ tarzda bog'lash orqali emas, balki intonatsiya va imo –ishoralar orqali tushunadi. O'zgalar nutqini tushunish ko'rish idrokining zamirida vujudga keladi. Bunda katta odam o'zi jism va rasmlarga bolaning diqqatini jalb etadi.

Agar go'dak 3-4 oyligidan gu-gulashga intilsa 5-6 oyligida ayrim tovushlarni qiyqiriq orqali ifodalaydi. Nutqni idrok qilishni va tushunishni oxirgi bosqichi 9-10 oyligidan boshlanadi.

Tadqiqotchi F.I.Fradkina kattalarning go'dakka qaratilgan nutqidan quydagicha ta'sirlanish holatlarini aniqlagan:

- 1) nomi aytilgan buyumga javob tariqasida burilib qarash. (7-8 oyligida)
- 2) turmush tajribasida egallagan harakatlarini kattalar eslatishi bilan bajarishga intilish (8-9 oyligida)
- 3) kattalarning nutq orqali ko'rsatmasidan oddiy nutq topshriqlarini bajarish (9-10 oyligida)
- 4) kattalarning nutq orqali ko'rsatmasi bo'yicha zarur predmetni tanlab olish (10-11 oyligida)
- 5) mumkin emas ta'qiqlovchi so'z yordamida harakatni to'xtatish (12 oyligida)

Go'dakdan o'zgalar nutqini idrok qilish va unga javob berishga intilishi harakatni amalga oshirishi murakkablashib boraveradi. Bular aqliy imkoniyatlar darajasiga bevosita bog'liq. 1 yoshgacha davrni nutqqacha



davr deb atash odat bo'lib qolgan. Bu davrda go'dak bosh miya yarim sharlari po'stida ikkinchi signallar sistemasi faoliyati bilan bog'liq anchagina ishlarni ya'ni nutq taraqqiysi bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarni amalga oshiradi.

Nutqni tushunib idrok qilish kun sayin ortadi. U bir nimani olishni so'rashni, aytishni hohlaydi, asta- sekin birinchi so'zlar 10-12 ta gacha paydo bo'ladi.

Bolalar nutqining o'sishi ular idroki, xotirasi, tafakkuri, xayoli va irodasi kabi yuksak psixik jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi.




Go'daklik ma'lum bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyatida tom ma'noga ega bo'lgan irodasi bo'lmaydi. Go'dak harakatlari juda ixtiyorsiz bo'lib, unda harakatlarni nazorat qilish zaif holatda bo'ladi, lekin irodaviy harakatning ba'zi ko'rinishlari bor. Bolani mustaqil harakatlarini tashkil etishdan e'tiboran, unda irodaviy hislatlar tarbiyalana boshlaydi. Sochilgan o'yinchoqlarni yig'ishtirib, o'z joyiga qo'yishning o'ziyoq bola uchun muhim topshiriqdir. Shunga o'xshash topshiriqlar bolani mustaqillikka va matonatlilikka o'rgatadi.

Go'dakni o'z irodasini tarbiyalash uchun unga sharoit yaratish lozim. Unga irodaviy xislatlar faqat doimiy ravishda mashq qilish orqali tarbiyalanadi. Masalan, ovqatlanish, onasi alla aytganda orom olish, odamlar orasida o'z yaqinlarini yoki onasini ko'rganda unga talpinish kabilardir.

Shunday qilib, ilk yoshdagi bolaning psixikasining faol faoliyati, turli –tuman harakati o'z atrofidagi narsalarni ko'proq bilib olishi jarayonida rivojlanar ekan, uning erkin harakatlari uchun qulay sharoit yaratish lozim. Bola harakatlarini cheklash esa psixikasining normal rivojlanishiga ma'lum darajada zarar yetkazadi. Bu yosh davrida bolani ham jismoniy, ham ruhan sog'lom qilib o'stirish, keyingi davrlar psixik taraqqiyoti uchun muhim

Ilk bolalik davri va uning psixodiagnostikasi.

Go'daklik davri - bu bolaning himoyasiz, kam harakat, atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo'lgan boladan juda jadal ravishda rivojlanadigan, faol, tez ilg'aydigan, harakatchan, yordamga chaqira oladigan quvnoq bolaga aylanish davridir. Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi,



predmetlarni ushlashga va ulardan foydalanishga o'rganadi. U atrof-olamdagi narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab, ularni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlarni harakatlantirish yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. U o'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emotsional munosabatga kirishadi. Juda qisqa vaqt ichida, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi.

Ilk yoshdagi bolaning harakat faoliyati uning rivojlanish darajasini va nerv tizimining funksional holatini aks ettiradi. N.D. Levitovning ko'rsatishicha, yangi harakatlarni egallash analizatorlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'langandir, zotan kichkina bola olamni sezish yordami bilan biladigan mavjudot bo'lganligi sababli, harakatlarning o'z vaqtida taraqqiy etishi bolaning umumiy psixik taraqqiyotini ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ilk yoshdagi bolalarning muskullari juda bo'sh bo'ladi.

Ilk bolalik davri: go'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi bosqichi - ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi.

Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi. Tikka va to'g'ri yura olish imkoni bolani, doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga zamin bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z xatti-harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo'ladilar.

Yurishni o'rganish bolaning jismoniy o'sishi uchungina emas, balki uning psixik taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Bolaning mustaqil harakat qilishi – yurishi tufayli ko'plab predmetlarga duch keladi, ularning nimalarga ishlatilishini «amal»da ko'rib biladi va o'zi ham ulardan kerakli o'rinda foydalana boshlaydi. Bola yurishni o'rgangach, fazoni ham bila boradi. Kichkintoy bolalar «yaqindagi» fazoni qo'llarining harakati yordamida bilib oladilar, bunda ko'z ham

ishtirok eta boshlaydi. Bog‘chagacha yoshdagi bola «uzoqdagi» fazoni oriyentirovka qila boshlaydi. Bola yura boshlaganda, o‘z oyog‘i yordamida masofa va yo‘nalish bilan tanishadi, uning ko‘z, qo‘l va oyoqlarining o‘zaro kelishib harakat qilishi, boshlang‘ich ko‘z o‘lchovi o‘sadi hamda masofa va predmetlarning turgan joylarini birmuncha aniq aytib berish ko‘nikmasi vujudga keladi.

Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davrining birinchi yarmida bolalar predmetlar bilan harakat qilib, tanishib boradilar. Harakatlarning barcha koordinatsiyasi bolada barqaror diqqatning rivojlanishiga, idrokning aniq bo‘lishiga va iroda kuchining o‘shishiga olib keladi. Ammo bolalarning harakatlari kattalarning harakatlariga taqlid qilish xarakteriga ega bo‘ladi. Biror bir harakatni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi bilan bola uni asta-sekin mustaqil bajara boradi, bu harakat unda dadillik, ishonch va sabr-matонатlilik kabi ijobiy hislatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Bola hayotining uchinchi yilida, ya’ni organizmning intensiv o‘shishi va rivojlanishi davrida harakatlarning kam bo‘lishi bolaning umumiy o‘shishiga salbiy ta’sir etadi. Shu sababli asosiy harakatlar (yurish, yugurish, predmetlarga tirmashib chiqish) bilan birgalikda, qo‘l harakatlariining ham to‘g‘ri va o‘z vaqtida rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilish zarurdir. Bolaning harakatlarini asosan uning kundalik faoliyati jarayonida o‘stirib borishga e’tibor berish kerak. Masalan, mustaqil ravishda yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, gigiyenik mashqlar, o‘yin va boshqalar.

Hap xil harakatlarni bajarish va predmetlar bilan harakat qilish tevarak-atrofdagi olamni bilishga olib keladi. Bola predmetlarning fazodagi o‘rni, joylanishi, sifati, hajmi, shakli va holatlari bilan tanishadi. Bularning hammasi sezgi organlarining o‘shishiga ijobiy ta’sir etadi. Bir yoshlik bola nisbatan yaxshi rivojlangan sezgirlikka egadir. Bola bog‘cha davrining boshlanishida ba’zi tovushlarni, o‘ziga yaqin kishilarning ovoz tempini aniq ajrata oladi, ba’zi bir narsalarning ta’mi va hidini farq qiladi, ranglarni taniy boshlaydi. Bu yosh davrida ko‘rish va eshitish analizatorlarining rivojlanishi ayniqsa



yuksak darajaga yetadi. Bola asosiy ranglarni bir-biridan farq qiladi. Lekin bolaga ranglarning nomini aytishga qaraganda, ularni bir-biridan ajratish osonroqdir. Bolalar ranglarni bilsalar ham, bu sohadagi o'z bilimlaridan yetarli darajada yaxshi foydalana olmaydilar. Bolalar qizil rangni osonlik bilan ajrata oladilar-u, binafsha rangni ajratishda ko'pincha yanglishadilar. Ko'pincha bolalar har bir rangning tusini, tovlanishini yaxshi ajrata olmaydilar.

Bu yoshdagi bolalar uchun idrok qilinayotgan predmet obrazlarining bir-biriga o'xshashib ketishi xarakterlidir. Masalan, ular olmani biladilar, olma bolaga bir butunligicha tanish, lekin bola olmaning rangini ham, shaklini ham alohida holda ajrata olmaydi. Predmetni har tomonlama ko'ra bilish, ya'ni uni qismlarga ajratish, belgi va turlariga qarab farqlash — uni analiz qilish demakdir. Bu esa bolaga butunlikni tushunish imkonini beradi. Shu sababli, bolalarni yangi predmetlar bilan tanishtirganda, ularni bir-biridan ajratib turadigan shakli, rangi va qismlariga e'tibor berish lozim. Mana shunday tarbiyaviy ta'sir natijasida bolalarning predmetlar haqidagi tasavvurlari o'sadi. Bola bir yarim yoshga borganda, o'zlari tez-tez uchratib turgan predmetlarni, ularning rangi, hajmi, shaklining o'zgarishidan qat'iy nazar, xatosiz tanib oladilar. Bola ikki yoshga to'lay deganda, tanish kuy va tovushlarni bilib oladi. Borliqni bilish jarayonida bola o'z hayotida va tevarak-atrofidagi kishilar turmushida o'rnatilgan tartibni tushuna boshlaydi. Bu olamni bilishning eng muhim tomoni bo'lgan zamon - vaqtni bilib olishi uchun asos bo'ladi. Bolaning organizmi ma'lum tartibga ko'nika boshlaydi, bu vaqt bilan tanishishdagi dastlabki qadamdir. Keyinchalik bolalar tabiat hodisalari va odamlarning kundalik hayoti singari tushunchalarni anglay boshlaydilar. Albatta, buning uchun kattalar bolalarning e'tiborini hayotning muhim belgilariga qaratishi lozim. Bolaning har bir sezgan va idrok etgan narsalari o'ziga xos sezgilar bilan mustahkamlanishi kerak. So'z bolaning ko'rayotgan predmetlarini tushunib olishini osonlashtiradi, predmetni so'z yordamida bilib olish ko'z va quloq ishini kuchaytiradi.

Bolaning aqliy jihatdan o'sishida makon va zamon haqidagi tushunchalarni anglashga yordam beradigan so'zlarni o'zlashtirib olishi muhimdir. Predmetlar o'rtasida mavjud bo'lgan har xil fazoviy belgilarning (masalan, katta oraliq, tor oraliq) va turli fazoviy munosabatlarning nomlarini (o'ngda, chapda, orqada, bir qatorda) bilib olish natijasida bolalar predmetlar o'rtasidagi bu munosabatlarni ajratib olishga o'rganadilar. Shu tariqa, nutq predmetlarning belgilarini differensiyalash va umumiyalashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, shu bilan bir qatorda, so'z birinchi signal sistemasi bilan bevosita bog'lanmog'i lozim. Ikki-uch yashar bolalardagi idrok o'zining yetarli darajada o'smaganligi va beqarorligi bilan ajralib turadi hamda bir kuzatish obyektidan ikkinchi kuzatish obyektiga tez-tez ko'chib turishi bilan xarakterlanadi. Yaltiroq, chiroyli, ko'zga tez tashlanadigan predmetlar bola diqqatini o'ziga jalb qiladi. Bog'chagacha bo'lgan yosh davridagi bolalar idroklarini qo'yilgan vazifa asosida tashkil eta olmaydilar, ulardagi bu xil idrok juda qisqa muddatli bo'ladi. O'zlaridan uzoqda turgan predmetlarni idrok qilishda ayniqsa ko'p xato qiladila. Bolada idrok asta-sekin mustaqillashib, ma'lum maqsadga tayangan bo'ladi, kuzatuvchanlik rivojlana boradi. Bola o'zini qiziqtirayotgan narsaga uzoq vaqt qarab, uni kuzatishi, o'sha predmet to'g'risida biror narsani so'rashi mumkin.



Lekin bola hali predmet va hodisalarni har tomonlama kuzatib, uning asosiy, muhim tomonlarini ajratib, ayrim elementlarini o'zaro bog'lab olishning uddasidan chiqqa olmaydi. Bolada kuzatuvchanlikni o'stirishda sayr va ekskursiyalar muhim ahamiyatga egadir. Bunda bolalar kattalarning rahbarligida tevarak-atrofdagi predmet va hodisalarda o'zlari uchun yangi bo'lgan muhim va qiziqarli narsalarni aniqlashga o'rganadilar. Rasmlarga qarash, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish idrokning o'sishiga juda yaxshi ta'sir etadi.

Yurishni o'rganish bolaning jismoniy o'sishi uchungina emas, balki uning psixik taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Bolaning mustaqil harakat

qilishi – yurishi tufayli ko‘plab predmetlarga duch keladi, ularning nimalarga ishlatilishini «amal»da ko‘rib biladi va o‘zi ham ulardan kerakli o‘rinda foydalana boshlaydi. Bola yurishni o‘rgangach, fazoni ham bila boradi. Kichkintoy bolalar «yaqindagi» fazoni qo‘llarining harakati yordamida bilib oladilar, bunda ko‘z ham ishtirok eta boshlaydi. Bog‘chagacha yoshdagi bola «uzoqdagi» fazoni oriyentirovka qila boshlaydi. Bola yura boshlaganda, o‘z oyog‘i yordamida masofa va yo‘nalish bilan tanishadi, uning ko‘z, qo‘l va oyoqlarining o‘zaro kelishib harakat qilishi, boshlang‘ich ko‘z o‘lchovi o‘sadi hamda masofa va predmetlarning turgan joylarini birmuncha aniq aytib berish ko‘nikmasi vujudga keladi.

3. Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davrining birinchi yarmida bolalar predmetlar bilan harakat qilib, tanishib boradilar. Harakatlarning barcha koordinatsiyasi bolada barqaror diqqatning rivojlanishiga, idrokning aniq bo‘lishiga va iroda kuchining o‘shishiga olib keladi. Ammo bolalarning harakatlari kattalarning harakatlariga taqlid qilish xarakteriga ega bo‘ladi. Biror bir harakatni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi bilan bola uni asta-sekin mustaqil bajara boradi, bu harakat unda dadillik, ishonch va sabr-matонатlilik kabi ijobiy hislatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Bola hayotining uchinchi yilida, ya’ni organizmning intensiv o‘sishi va rivojlanishi davrida harakatlarning kam bo‘lishi bolaning umumiy o‘shishiga salbiy ta’sir etadi. Shu sababli asosiy harakatlar (yurish, yugurish, predmetlarga tirmashib chiqish) bilan birgalikda, qo‘l harakatlariining ham to‘g‘ri va o‘z vaqtida rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilish zarurdir. Bolaning harakatlarini asosan uning kundalik faoliyati jarayonida o‘stirib borishga e’tibor berish kerak. Masalan, mustaqil ravishda yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, gigiyenik mashqlar, o‘yin va boshqalar.

Ilk yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi - predmetlarni o‘rganish, predmetlar bilan manipulyativ harakat hisoblanadi. Go‘daklik davridagi bolalarga nisbatan, ilk bolalik davridagi bolalar atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan ko‘proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar, go‘dak bola qo‘liga

ushlagan narsani oddiy harakatlar bilan kuzatsa, 2-3 yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o'rganganidan so'nggina, o'z amaliy faoliyatida ishlata boshlaydi. Bolani dastlab, ayni shu predmetlarning qo'llanish vazifasi, mohiyati qiziqtirib, u o'z savoliga javob olish maqsadida ko'pincha kattalarga "Bu nima?" degan savol bilan murojaat qiladilar. 1-3 yoshdagi bola shakllanishda psixik rivojlanishning o'ta ahamiyatliligini inobatga olgan holda, ayrim psixologlar (R.Zazzo) inson tug'ilganidan to yetuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojlanish asosining taxminan o'rtalari, 3 yoshga to'g'ri keladi, degan mulohazani bildiradilar. Bu yoshdan boshlab, bolalar predmetlarni o'rganish olamiga qadam qo'yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bo'la oladi va sodda axloq qoidalariga amal qila boshlaydilar. Kattalar bilan bo'ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko'proq ma'lumot oladi. Nutq - bu yoshlarda nafaqat muloqot, balki bola tafakkurining rivojlanishi va o'zini-o'zi, shuningdek, bilish jarayonlarini boshqarish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Ilk yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyoti

Ilk bolalik davridan boshlab bola uni o'rab turgan predmetlarning xususiyatlarini va ular orasidagi oddiy bog'liqliklarni anglashga harakat qiladi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko'rinishlarini tashkil etadi. 1 yoshli bola predmetlarni izchil, tizimli ravishda ko'rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko'zga tashlanib turadigan belgisiga o'z e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko'ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarining egallanishi bolaning predmetli harakatlarini bajarishdan ko'z bilan chamalab, harakat qilishiga o'tishda namoyon bo'ladi, endi u predmetning bo'laklarini ushlab ko'rmasdan, balki chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 yoshli bola kattalarning ko'rsatgan namunasi, rangi, shakli va kattaligiga ko'ra, aynan shunday predmetlarni chamalab, idrok etgan holda to'g'ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jarayonda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar mavjudligini tushuna boshlaydi.

Lekin, bola rasm chizishni boshlash davrida predmetlarning rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (qizil, olov rang, sariq, yashil, ko'k, siyohrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning maqsadga muvofiq ishlatilishi jihatidan har xil narsalarda turlicha namoyon bo'lishi sababli, bu yoshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan nomlarini aniq bilishlari va o'z nugqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan rang va shakllarni eslab qolishlarini talab etishlari noto'g'ridir, buning uchun mos davr 4-5 yoshlar hisoblanadi.

Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va harakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatadi, bunda predmet yoki harakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini vazifalariga bog'lagan holda tez o'zlashtiradi. Idrok o'ssa, xotira takomillashadi. Xotira bolaning taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir.

Ilk yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Diqqatning ko'p chalg'ishi bu yoshdagi bolalar diqqatining xarakterli xususiyatidir, chunki psixik hayot doimiy ravishda tashqaridan bo'ladigan yangi o'zgaruvchilarga muhtoj bo'lib turadi. Ammo obyektga bo'lgan qiziqish qancha aniq va ravshan bo'lsa, bolaning ixtiyorsiz diqqati shuncha barqaror bo'ladi. Ixtiyorsiz diqqatning kelgusi taraqqiyoti qiziqishlarning boyib borishiga bog'liqdir. Bu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqat endigina vujudga kela boshlagan bo'ladi.

Uch yashar bolaning xayol obrazlari tevarak-atrofdagi predmetlarning ta'sirida tug'iladi va ma'lum maqsadga bo'ysunadi. Bola qo'g'irchoqni ko'rib bo'lgandan keyin, uni kiyintiradi va «uxlashga» yotqizadi. Bordi-yu, shu on «ayiqcha»ni ko'rib qolsa, diqqatini qo'lidagi qo'g'irchoq qolib, ana shu

«ayiqcha»ga qaratadi va u bilan «oʻrmonga sayr qilishga» ketadi. Bolada tajriba ortib borishi bilan xayol ham boyib boradi. Kichkina bolalarda xayol ancha rivojlangan boʻladi. Lekin bola xayoldagi obraz bilan borliqdagi idrok qilayotgan narsa va predmetlarni aralashtirib yuboradi. Shu sababli bola xayoliga taʼsir etuvchi vositalar ichida ertaklar muhim oʻrin egallaydi.

Ilk bolalik yoshidagi bolaning xayoli predmetlar bilan qilinadigan harakatlarga bogʻliqligi bilan farqlanadi. Bu yoshdagi bolalarda nutq va tafakkur xususiyatlari oʻz hayotining birinchi yilida sodda assotsiatsiya, yaʼni har xil tasavvurlarni bir-biri bilan bogʻlash qobiliyatiga ega boʻladi. Masalan, u sutli shishani koʻrishi bilan xursand boʻladi. Vaqt oʻtishi bilan bolaning assotsiatsiyasi murakkablashib boraveradi. Bola bir yoshga toʻlay deganda, onasining koʻchaga kiyadigan kiyimini olib kelayotganini koʻrib, xursand boʻladi. Vrachning tekshirishidan yomon taʼsirlangan bolalar xalatli odamlardan qoʻrqa boshlaydilar.

Bola oʻz hayotining ikkinchi yilida fazo munosabatlarini aniqlay boshlaydi, xonaning ichidagi predmetlar orasida oʻzini toʻgʻri tutish malakasini egallab boradi. Bolaning yoshi ulgʻayishi bilan unda tevarak-atrofga boʻlgan qiziqish ortadi. Kichkintoydagi sinchkovlik va har narsaga qiziquvchanlik uning kelgusi hayotida juda muhim rol oʻynaydi. Bola hamma narsani oʻzi koʻrishni va eshitishni istaydi. Lekin bolaning hayoti va rivojlanishi uchun koʻrish va eshitish sezgilari asosida vujudga keladigan taassurotlargina emas, balki hid va muskul-harakat sezgilari orqali oladigan taassurotlar ham juda muhimdir.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishga harakat qila olganidan soʻng, uni sinchiklab oʻrganishida koʻrishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, koʻrgazmali-harakatli boʻlib, u atrof olamdagi turli bogʻliqliklarni oʻrganishga xizmat qiladi. Oʻzidan uzoqroq turgan koptokni biron-bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini koʻrgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish

mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o‘rin tutadi. Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo‘l soatini yoki devordagi osma soatni ham tushunishi mumkin. Lekin, ular turlicha bo‘lganligi bois, ularda umumiylikni topish bola uchun qiyinroq hisoblanib, bu borada fikrlash 2-3 yoshli bolalar ma‘lum bir predmetlarning o‘rniga ularning o‘rnini bosishi mumkin deb hisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o‘yin jarayonida bola cho‘pni qoshiq yoki termometr o‘rnida, yog‘ochdan yasalgan krovat yoki mashina o‘rnida foydalanishi mumkin.

Bola ikki yoshlarga borib, amaliy tafakkurdan birinchi marta foydalana oladi, uchinchi yoshida esa ba‘zi tanish harakatlardan qonkret masalalarni hal qilishda mustaqil foydalana boshlaydi. Masalan, bu yoshdagi bola vazadagi tugmachani qo‘li bilan solib, ololmasa, u vazachani to‘ntarib olaveradi. Tafakkurning bu boshlang‘ich shaklini ba‘zan «qo‘l tafakkuri» ham deyiladi. Tafakkurning bu shaklii bola aqliy tarqqiyotining kelgusi bosqichi uchun juda zarurdir.



Uch yoshli bolalarda hukmning oddiy turlarini ko‘rish mumkin. Bu hukm turlari doimo faqat o‘zi bevosita idrok qilayotgan va yakka predmetlarga taalluqli bo‘ladi. Bola 2,5 yoshga yetganda savollar bera boshlaydi. Avval savollar ko‘proq predmetlarning nomi to‘g‘risida bo‘lsa, keyinchalik savollar asosan predmetlarning qanday maqsadlarda qo‘llanilishi va nimalarga ishlatilishi to‘g‘risida (masalan, bu nima?, bu bilan nima qilinadi?, bu nimalarga ishlatiladi? kabi) bo‘ladi. Hozirgi zamon, o‘tgan zamon va umuman vaqt to‘g‘risidagi aniq tasavvur tushunchasi fazoviy tasavvurlarga nisbatan ancha kech paydo bo‘ladi. Bola predmetlar bilan ko‘proq aloqa qilishi, ular bilan munosabatda bo‘lishi va ularning xususiyatlarini tekshirib ko‘rishi kerak. Bu bilan unda dastlab ayrim predmetlar va hodisalar haqida tasavvurlar to‘plana boradi va keyinchalik

shular zaminida umumiy tasavvur va tushunchalar hosil bo'ladi, mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi. 2-3 yoshli bola ko'p narsani ko'rishni, ko'p narsani bilishni va tushunishni istaydi, bu uning qiziquvchanlik va sinchkovlik xususiyatidan kelib chiqadi. U hamma joyga «tiqiladi», kattalarga halaqit berib, ularning tinkasini quritib juda ko'plab savollar beradi.

Kattalar mana shu savollarning hammasidan bolalarda tafakkurni o'stirish va tevarak-atrofdagi olamni turli tushunishni tarbiyalash maqsadida foydalanishi g'oyat muhimdir. Bola o'z savollariga tushunarli javob olganidan keyin, bu ma'lumotlarni o'z o'yinlarida aks ettiradi va shu yo'l bilan ularni xotirasida mustahkam saqlanib qoladi. Bola tevarak-atrofdagi olamni kattalarning tushuntirishi bilan bir vaqtda kuzatsa, atrofdagi olamni yaxshiroq tushuna boshlaydi, narsa va hodisalarni solishtiradi, ularning ayrimlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni va buning sabablarini aniqlaydi. Mana shuning o'zi bolada ancha umumlashgan tafakkur paydo bo'layotganidan darak beradi.

Bola tafakkurining rivojlanishi nutqning o'sishi bilan mustahkam bog'langandir, nutqning o'sishi tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi, chunki so'z narsa, predmet va harakatlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. O'z navbatida, tafakkurning rivojlanish darajasi so'z zaxirasining oshishiga, umuman, nutqning o'sishiga yordam beradi.

Bu yoshdagi bolalarning yana bir muhim yutug'i, ona tilini o'zlashtirib olishlaridir. Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davr nutqning jadallik bilan o'sish davri hisoblanadi.

Nutq bola hayotining ikkinchi yilida ikki bosqichda tarkib topadi. Dastlabki bosqich birinchi yoshning oxiridan bir yarim yoshgacha bo'lgan davr bo'lib, bolada bu davrda asosan kattalarning unga murojaat qilib aytgan gapini tushunish qobiliyati o'sib boradi. Bolaning lug'at boyligi ayniqsa bir yoshdan keyin, ya'ni yurishni o'rganib, tobora ko'p predmetlarga duch kela boshlagan davridan boshlab tez o'sa boradi. Bola predmetlarning nomini tez bilib oladi.

Bola ikki yoshga to'lganda, harakatlarning ham nomlarini bilib oladi. Bu harakatlarga bolaning o'zi bajaradigan yoki kattalar tomonidan bajarilgan, nomi aytilgan va bola kuzatib borgan harakatlar kiradi. Bu «passiv» nutq hisoblanadi, chunki bola so'zlarni tushunadi-yu, lekin ularni talaffuz qila olmaydi.

3 yoshlar arafasida predmetlarning vazifalarini to'la o'zlashtirgan bolalar, o'z o'yinlarida, shu predmetlardan maqsadsiz foydalanib qolmay, balki ularni o'z vazifalariga ko'ra ishlatadilar. Bolaning nutqi u 1,5 yoshga yetgungacha birmuncha sekinlik bilan rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 ta so'zdan, to 100 tagacha so'zni o'zlashtiradi, lekin ularni amaliyotda juda kam qo'llaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa, uning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. Endi bola predmetlarning nomlarini aytishlarini so'ragina qolmay, balki bu so'zlarni o'zi talaffuz etishga ham harakat qiladi. Nutqining rivojlanish darajasi jadallashadi. 2 yoshlarning oxirlariga borib, bola 300 tagacha, 3 yoshlarning oxirlariga borib esa, 500 dan to 1500 tagacha so'zni o'z nutqida ishlatadi. Shuningdek, so'zlarni ham aniq talaffuz etib, jummalarni to'g'ri tuza oladilar. 1,5 -3 yoshlar nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola bilan so'zlashayotganda kattalar so'zlarni aniq talaffuz etishlari va boladan ham aniq talaffuzni talab etishlari lozim.



Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llash mumkinligini anglash, bola uchun atrof-olamni bilish, o'rganishidagi ahamiyatli burilish hisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarini yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi, asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea yoki hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertaklarni eshitish jarayonida bola ertak kahramonlarini kimgadir o'xshatishga harakat qiladi, ba'zida esa u o'zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to'qiy olishi ham mumkin. Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy vazifa hisoblanib, u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi jadal rivojlanadi.

Bolaning hayotiy tajribalarni o'zlashtirishida dastlab harakatli, emotsional va obrazli xotira ishtirok etadi. Bu borada harakatli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bu davrdagi bolalarga ko'p kitob o'qib berish natijasida ular ertak, she'r va hikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo'lgan nerv tizimining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O'zi va atrof hayoti haqidagi voqea va hodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni hali to'liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi.

Ilk bolalik davrida bola shaxsining rivojlanishi

Bu davrdagi bolalarning xatti-harakatlari ularning xohish va hissiyotlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, bolaning yig'lashi hamda yig'idan to'xtashi juda tez o'zgaradi. Ilk davrda bolada o'z yaqinlariga: onasi, otasi, buvi-bualari, tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Bola o'z yaqinlaridan maqtov olishga harakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baholari ularda o'zlarining layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchini shakllantiradi. U o'z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq harakat qiladilar va atrof muhitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini himoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala-munosabati uning o'zini alohida shaxs sifatida anglashini boshlanishiga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab uning o'z «Men»ini anglay boshlashi birmuncha avvalroq yoki kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o'zini, o'z xohish va ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan manba deb biladi va bu uning «Menga bering», «Ko'taring», «Men ham boraman» kabi

talablarida ko‘rinadi. Uch yoshli bolalar o‘zlarini o‘zgalar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o‘z-o‘zini baholash vujudga keladi. Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo‘lish ehtiyoji yuzaga keladi va bu ularning «o‘zim qilaman» qabilidagi so‘zlarida namoyon bo‘ladi.

3 yoshdagi inqiroz: 3 yoshga kelib bola o‘zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo‘lgan (huquqi bo‘lgan), ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. “Men katta bo‘lsam mashina haydayman”, «Men sizga katta tort olib kelaman», «Mening yuzta qo‘g‘irchog‘im bo‘ladi» kabi xohishlarini o‘z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham o‘zining barcha xohishlarini shu bugun amalga oshirishga harakat qiladi. Ko‘pincha bunday xislat qat‘iylik va qaysarlik bilan namoyon bo‘ladi. Bu qaysarlik asosan bolaning kattalarga bildirgan salbiy xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Bola o‘zini mustaqil harakat qila olishini anglagan vaqtdan boshlab, unda «o‘zim qilaman» boshlanadi va bu yana kaysarlik va o‘jarlik tarzida ko‘rinadi. 3 yoshdagi inqiroz bola shaxsining ma’lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila olmayotganligini anglashi natijasi hisoblanadi. Inqiroz davrida yuzaga keladigan iroda, layoqat va boshqa bir qancha xususiyatlar uni shaxs bo‘lib shakllanishiga tayyorlaydi.

Uch yoshgacha bo‘lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy yangi o‘zgarishlar

	Bilishi	Harakati	Muloqoti
3 yosh	Nutqning shakllanishi. Ko‘rgazmali harakat tafakkurning rivojlanishi. Obrazli tafakkurning dastlabki nishonalari. Atrof -muhitdan o‘zini ajratishi; qat‘iylikni anglashi	Qo‘l predmetli harakatlarning rivojlanganligi o‘z xatti-harakatlarini irodaviy boshqarishning ko‘rinishlari	O‘z-o‘zini anglashning yuzaga kelishi. Dastlabki axlokiy qoidalarini egallashi

2 yosh	Faol nutqni tushunishi va o'zida yuzaga kelishi	Qo'l va funksiyalarining aniq belgilanishi	Xarakter asoslarini shakllanishi
1 yosh	Nutqni tushunishning dastlabki belgilari	Mustaqil holda tik turish va	Nutqni qo'llashning dastlabki belgilari
10 oylik	Sensomotor intellektning rivojlanishi	Mustaqil holda tik turish va yurishga harakat	Bog'liqlik reaksiyasining yuzaga kelishi, begona muhit
8 oylik	Sensomotor intellektning yuzaga kelishi	Tayanib yurishi	Jest, mimika va pantomimika yordamida noverbal
7 oylik		Yordam bilan turishi	
5 oylik	Sezgilarning rivojlanishi	Yordam bilan o'tirishi	
3 oylik	Ko'rish qobiliyatining shakllanishi	Yon tomoniga o'girilishi	Onaning jilmayishiga javob
2 hafta	Onaning tovushini boshqa tovushlardan farqlashi	Qo'l va oyoq harakatlarida qat'iylik	
1 hafta	Harakatlarni kuzatishi	Qo'l va ovodlarning	

5. Diagnostik vositalar va ulardan foydalanish. Ilk yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar.

3 yoshli bolalar uchun.

“Rangli gilamchalar” (rang)

“Doirachalar” (o'lcham)

“Figuralar” (shakl)

“Namuna bo'yicha tuzish” (ko'rgazmali-harakatli tafakkur)

Tekshirish psixolog tomonidan o'tkazilib, bitta bola uchun 5-7 minut ajratiladi.

“Rangli gilamchalar”-ko'ruv idrokining xususiyatlarini aniqlash, asosiy ranglarni ajratish

Materiallar: 6 ta rangli kartochka (qizil, ko'k, sariq, yashil, havorang, jigarrang. Bolaga navbat bilan rangli (qizil, ko'k, sariq, yashil) kartochkalarni tanlash taklif etiladi. So'ngra tarbiyachi kartochkalarni bolaga ko'rsatib ularning rangini aytib berishni so'raydi. 3 yoshli bola uchun 3 ta yoki 4 ta rangni aytib berishi meyor hisoblanadi. 4 yoshli bola 4-6 ta rangni ajrata bilishi kerak bo'ladi.

“Doirachalar” - predmetlarni o‘lchamini idrok qilish xususiyatlarini aniqlash.

Bolaga bir xil rangdagi 3 ta doira ko‘rsatilib, eng kattasi va eng kichigini aytib berishi so‘raladi. Uch yoshli bola mustaqil ravishda vazifani bajarishi meyor hisoblanadi.

“Figuralar” predmetlarning shaklini idrok qilish xususiyatlarini aniqlash

Materiallar: bir xil rangdagi geometrik shakllarning (doira, kvadrat, oval, uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak) 2 ta komplekti.

Bolaning oldiga beshta shakldan ixtiyoriy ikkitasi qo‘yiladi. So‘ngra ikkinchi komplektdan bitta shakl ko‘rsatilib, uning qo‘lidagi shaklning qaysi biri o‘xshashligini aytib berishi so‘raladi. Masalan, bolaning oldiga birinchi komplektdan doira va kvadrat qo‘yiladi, so‘ngra ikkinchi komplektdan kvadrat va hok.

Uch yoshli bola oval va doirani, kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchakni adashtirishi mumkin hisoblanadi.

“Namuna bo‘yicha tuzish” fazoviy va ko‘rgazmali-harakatli tafakkurning xususiyatlarini aniqlash.

Materiallar: 2 ta nusxada turli shakldagi qurilish detallari

Tekshiruvchi bolaga qurilish detallaridan biror bir narsani yasab beradi, so‘ngra xuddi shunday yasab berishi so‘raladi.

Uch yoshli bola mustaqil ravishda vazifani bajarsa qoniqarli hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davr taraqqiyoti va psixodiagnostikasi.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3-4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog‘cha yoshi), (4-5 yosh) o‘rta maktabgacha davr, (o‘rta bog‘cha yoshi) , (6-7 yosh) katta maktabgacha davr (katta bog‘cha yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan

munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'liga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq meyorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi, u yangiliklarni egallashga nisbatan o'z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

-predmetlarni o'rganishi;

- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhij ijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog'chadagi o'rtoqlari va qo'ni-qo'shnilarining bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. 3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqa ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib

boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bu yoshdagi bolalarning o'yinlarini uchga bo'lish mumkin:

- 1) predmetli o'yinlar(15-20 minut o'ynaladi);
- 2) syujetli-rolli o'yinlar (30-60 minut o'ynaladi);
- 3) qoidali o'yinlar (1soatdan -2kunga davom etishi mumkin).

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, xaqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- ikkinchidan, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga

aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda katgalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir. Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik harakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki,

bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi.

Ushbu yosh davri taraqqiyot uchun zarur bo'lgan ikkita faoliyat turining boshlanishi bilan bog'langan: mehnat va o'qish. Bu yoshdagi bolalarning o'yin, mehnat va o'qishni o'zlashtirishlarini ketma-ketligi bosqichini aniqlash mumkin, bunda maktabgacha yosh davri tahlil maqsadida shartli ravishda 3 ta davrga bo'linadi: kichik maktabgacha yosh davri (3-4 yosh), o'rta maktabgacha yosh davri (4-5 yosh) va katta maktabgacha yosh davri (5-6 yosh). Ushbu bo'lish yosh davrlari psixologiyasida bolalarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi jadal va sifatiy o'zgarishlarni qayd etish uchun o'tkaziladi.

Kichik maktabgacha yoshdagilar hali, qoidaga muvofiq, yolg'iz o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va qonstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Ushbu yoshdagi bolalar syujetli-rolli o'yinlarida odatda kundalik hayotlarida kuzatadigan kattalarning harakatlarini qayta namoyon etadilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish xususiyati shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari musobaqa o'yinlaridagi yutish va muvaffaqiyatlaridir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta bog'cha yoshida konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi, o'yinda bola sodda mehnat ko'nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

-predmetlarni o'rganishi;

-individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;

-individual va guruhiiy ijod;

-musobaqa o'yinlari;

-muloqot o'yinlari;

-uy mehnati.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadi.

3. Bog'cha yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi

Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli xalqalar, qutichalar va shu singari o'yinchoqlar berish maqsadga muvofikdir.

Bog'cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

- 1.Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
- 2.Suratning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
- 3.Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrazli bo'lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko'proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so'zlarni hech qanday ma'nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta'sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi.

Uch yashar bola taassurotlarini bir necha oy davomida esda saqlab tura olishga qodirdir. Xotiraning o'sishiga o'yinlar, turli mashg'ulotlar, she'r yodlash, ertak va hikoyalar aytish hamda sayr paytida kuzatish ishlarini olib borish yordam beradi. Ushbu yoshdagi bolalar yangi so'zlarni ham, hatto chet tillardagi so'zlarni ham osongina eslab qoladilar. Lekin, bolalar materialni oson esda qoldirsalar ham, ular ko'pining ma'nosiga yaxshi tushunmaydilar va ulardan nutqda foydalanishga qiynaladilar. Kattalarning vazifasi bolalarning mumkin qadar ko'proq so'zlarni va tasavvurlarni eslab qolishigagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bo'lgan turli bilimlarni egallashiga erishishdan iborat. Bolalar bu xildagi bilimlardan o'z o'yinlarida, rasmlarida, ustozlari yoki kattalar bilan suhbatda foydalanadilar, bu bilimlar ularning aqliy va axloqiy o'sishlari uchun xizmat

qiladi. Bog'chagacha bo'lgan yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi, ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qayerdan o'rganding», deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi

taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zahirasi 4000 taga yetadi. Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan buladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to'la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

birinchi davr - bu 3-4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;

ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish;

uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari - bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o'yinlarida asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga intilishda, musobaqaga kirishishga, nima bo'lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko'rinadi.

Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq meyor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish meyorini egallaydilar. Bunday meyorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e'tiborli, mehribon bo'lish xususiyati ham shakllanadi. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3-3,5 yoshlar oralig'ida bolalar o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o'zlariga beradigan yuqori baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday

bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan «Men kichkina paytimda qanday bo'lgan edim?», «Men katta bo'lganimda qanday bo'laman?» singari savollarida ko'rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlarga ega bo'lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog'cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o'rnatishda foyda keltiradi. Bolaning atrofidagi kishilar bilan bo'lgan munosabatlari, asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi hislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalarling xayollari turli xil mashg'ulotlarda ham o'sadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni

yaxshi ko'radilar, Ana shunday mashg'ulotlar bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar hakidagi turli ertaklarni eshittanlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari ko'p jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'aydi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarning burch hissi - «nima yaxshi-yu», «nima yomon»ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi.

Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon bo'lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

Diagnostik vositalar va ulardan foydalanish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning taraqqiyot darajasini aniqlash. Idrok va tafakkurning rivojlanish darajasini aniqlash.

Ushbu metodika maktabgacha yoshdagi bolalarning idrok va tafakkurining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun mo'ljallangan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari va psixologlari tomonidan o'tkaziladi.

Materiallar: 3 ta quticha, birinchi qutichaning yon tomonida kvadrat, ikkinchi qutichaning yon tomonida doira, uchinchi qutichaning yon tomonida uchburchak shakllari aks ettirilgan bo'lib, 8 ta kvadrat, 8 ta doira, 8 ta uchburchak shakldagi 24 ta predmetlardan iborat. Har bir shakllar katta va kichik hajmdagi predmetlarga bo'linadi(4 ta kichik va 4 ta katta).

- kvadrat shakldagi predmetlarga-kubik, gugurt qutisi, sovun, kitob va boshq;
- doira-tanga, tugmacha, shar, koptok.
- uchburchak-konus, kalit, archa, raketa.

Metodikaning o'tkazilishi: Bolaning oldiga qutichalar qo'yilib har bir predmet bittadan bolaga ko'rsatiladi va qanday shaklga o'xshashligi so'raladi. Bola javob bergandan so'ng predmet mos keladigan qutichaga solinishi so'raladi. So'ngra keyingi predmet ko'rsatiladi va savollar qaytariladi. Shu tariqa hamma 24 ta predmet bolaga birin ketin ko'rsatiladi va shakllarga mos ravishda qutichalarga joylashtiriladi.


Natijalarni baholash: har bir to'g'ri topilgan predmet uchun 1 ball beriladi. Maksimal ball 24 ball.

Eslatma: metodika har bir bola bilan alohida o'tkazilib, 15-20 minutdan oshmasligi kerak.

«Nima tasvirlanganini top» metodikasi.

Ushbu metodika maktabgacha yoshdagi bolalarning idrokini o'rganishga mo'ljallangan. Unda bola rasmning bir necha qismlari yordamida butun rasm qanday ekanini bilishi talab qilinadi.

Metodika quyidagicha o'tkaziladi: Bolaga rasmning A qismi ko'rsatiladi va shu asosda rasmda nima tasvirlanganini topish taklif etiladi. Buning uchun 10 soniya vaqt beriladi. Agar bolalar bu vaqt ichida nima tasvirlanganini topa olmasa yana 10 soniyaga unga rasmning B qismi ko'rsatiladi. Shu tariqa rasm qismlari to bola unda nima tasvirlanganini bilmaguncha ko'rsatiladi.



Natijalarni baholash:

10–ball– bola A qismdan 10 soniyadan kam vaqt ichida rasmda it tasvirlanganini topdi.

7–9 ball–bola B qismdan jami 11 – 20 sonli vaqt sarflab rasmda it tasvirlanganini topdi.

4 – 6 ball – bola V qismidan vaqt 21 – 30 soniyaga yetganda rasmda it tasvirlanganini topdi.

2 – 3 ball – bola G qismdan vaqt 30 – 40 soniyaga yetganda rasmda it tasvirlanganini topdi.

0 – 1 ball – bola jami 50 soniyadan ortiqroq vaqt sarflab A,B va V qismlarni ko‘rib ham it tasvirlanganini topa olmadi.

Rivojlanganlik darajasi:10 ball – juda yuqori, 8 – 9 ball – yuqori, 4 – 7 ball – o‘rta, 2 – 3 ball – past, 0 – 1 ball – juda past.

«Yil fasllari» metodikasi .

Ushbu metodika 3-4 yosh bolalar uchun mo‘ljallangan. Bolaga rasm ko‘rsatiladi va ushbu rasmlarga diqqat bilan qarab, rasmning har bir qismida yilning qaysi fasllari tasvirlanganligi haqida so‘raladi. Topshiriqni bajarish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu berilgan vaqt mobaynida bola nafaqat yil fasllarini aytib berishi, balki fasllarning belgilarini ko‘rsatib bera olishi va ushbu qism aynan mana shu faslga tegishli ekanligini asoslab berishi kerak.


Natijalarni baholash: 10 ball- berilgan vaqt mobaynida bola rasmdagi yil fasllarini bir biri bilan bog‘liq holda to‘g‘ri aytib bera olsa va har bir yil faslining ikkitadan belgisini ko‘rsatib bera olsa (jami har bir yil faslining 8 ta belgisini ko‘rsatib)

8-9 ball- bola rasmdagi har bir yil fasllarini bir-biriga bog‘liq holda to‘g‘ri aytib bersa va yil fasllarining umumiy olganda 5-7 tagacha belgisini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olsa:

6-7 ball- bola yil fasllarini to‘g‘ri aniqlab, ammo o‘z fikrini tasdiqlovchi jami 3- 4 ta fasllar belgisini ko‘rsata olsa;

4-5 ball- bola yil fasllarining faqat 2 tasini aniqlab bera olsa va o‘z fikrini tasdiqlovchi jami 1-2 tagacha yil fasllari belgisini ko‘rsatib bersa;


0-3 ball- bola yil fasllarining birortasini ham to‘g‘ri aniqlay olmasa va birorta ham fasl belgisini ko‘rsatib bera olmasa (ushbu ballar bolaning yil fasllarini topishga harakat qilganligiga bog‘liq holda qo‘yiladi).



Taraqqiyot darajasiga xulosa chiqarish: 10 ball - juda yuqori, 8 - 9 ball - yuqori, 6 - 7 ball –o‘rtacha, 4 -5 ball –past, 0 -3 ball -juda past.

«Konturlarni birlashtirish» metodikasi.

Bolalarga rasmlar ko‘rsatiladi va ushbu metodikadagi topshiriqning maqsadi tushuntirib beriladi, ya’ni qalam yoki ruchka yordamida imkoni boricha tez va aniq chap tomondagi konturlarni o‘ng tomonda berilgan kataklarga ko‘chirib chiqish zarur. Bunda bolani chiziqlarni to‘g‘ri chizganligiga va shakllarning burchaklarini aniq birlashtira olishiga e’tibor qaratish zarurdir. Topshiriq bajarib bo‘lingandan so‘ng vazifaning toza, aniq va tezligi baholanadi.



Natijalarni baholash: Topshiriqni bajarish tezligi va sifatiga qarab ballarda baholanadi.

10 ball - bola hamma topshiriqni bajarishga 90 soniyadan kam faqt sarflab, shakllarning burchaklarini to‘g‘ri va aniq birlashtira olsa hamda chiziqlar berilgan konturlarga aniq mos kelsa;

8-9 ball - topshiriqni bajarishga 90 soniyadan 109 soniyagacha vaqt sarflansa, ammo quyidagi kamchiliklarning birortasi mavjud bo‘lsa: bir yoki ikkita chiziqning to‘g‘ri emasligi; ikki yoki uchta chiziqlar shakl burchaklari noto‘g‘ri birlashtirilgan bo‘lsa; ikkitadan to‘rttagacha chiziqlar konturdan tashqariga chiqib ketgan bo‘lsa; to‘rttadan beshtagacha shakl burchaklarini birlashtirishda noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa;

6-7 ball-hamma topshiriqni bajarishga 105 dan 120 soniyagacha vaqt sarflansa, ammo quyidagi kamchiliklarning birortasi mavjud bo‘lsa: uch yoki to‘rtta chiziqning egriligi: to‘rttadan oltigacha shakl burchaklarini noto‘g‘ri birlashtirilganligi; beshtadan oltitagacha chiziqlar konturdan tashqariga chiqib ketganligi; oltitadan yettitagacha shakl burchaklarini birlashtirishdagi noaniqlik bo‘lsa;

4-5 ball-topshiriqni bajarishga 120 dan 135 soniyagacha vaqt sarflansa, ammo quyidagi kamchiliklarning birortasi mavjud bo‘lsa; besh yoki oltita chiziqning egriligi; yettitadan o‘ntagacha burchaklarni noto‘g‘ri birlashtirganligi; yettita yoki

sakkizta chiziqning konturdan chiqib ketganligi; sakkiztadan o'ntagacha burchaklarning noaniq birlashtirilganligi;

2-3 ball - topshiriqni bajarishga 135 dan 150 soniyagacha vaqt sarflansa. Quyidagi kamchiliklardan birortasi mavjud bo'lsa: 7 tadan 10 tagacha chiziqning egriligi; 11 tadan 20 tagacha burchaklarning noto'g'ri birlashtirilganligi; 9 tadan 10 tagacha chiziqlarning konturdan tashqariga chiqib ketganligi; 11 tadan 17 gacha burchaklarning noaniq birlashtirilganligi;

0-1 ball -topshiriqni bajarishga 150 soniyadan ko'p vaqt sarflansa. Bir yoki ikkita chiziqdan tashqari, qolgan chiziqlarning noto'g'ri chizilganligi; bir yoki ikkita burchakdan tashqari, qolgan burchaklarni birlashtirishdagi xatoliklar;

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish: 10 ball - juda yuqori, 8 - 9 ball - yuqori, 4 - 7 ball o'rtacha, 2 - 3 ball - past, 0-1 ball - juda past

O'yin bog'cha yoshida etakchi faoliyat sifatida.

Faoliyatning oddiy shakllaridan biri o'yin hisoblanadi, lekin u tobora takomillashib, sodda harakatlardan keyinchalik syujetli, roli o'yinlarga, hatto sportgacha murakkablashib boradi, atrof-muhitni aks ettirishida ishtirok eta boshlaydi.



Insonning borliqni in'ikos etishidagi dastlabki urinishni harakat orqali namoyon etadi. Harakatlar bolaning tabiatga, uni qurshab turgan kishilik dunyosiga nisbatan munosabatini, ular to'g'risidagi ilk taassurotlar, sodda tasavvurlar, bilimlarni o'zlashtirishni anglatib keladi. Keyinchalik oddiy harakatlar muayyan ma'no kasb etib, syujetli va rolli o'yinlarga aylanadi. O'yinlar milliy (etnik) va umumbashariy turkumlardan tarkib topgan bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini o'zida aks ettiradi. O'yinlar takomillashib borib sport turlariga, sport faoliyatiga o'sib o'tadi, jumladan, shaxmat, damino, futbol, shashka va hokazo. Sport o'yin faoliyati sifatida barcha yoshdagi insonlarga xos bo'lib hisoblanadi.

O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo'sinda atrof-muhit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali ijro qiladi. So'z bilan harakatning birikuvi natijasida o'yin faoliyat tusini oladi va muayyan ma'no, axborot berish, uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastlabki o'yin aynan kattalar xatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Syujetli o'yinlar borliqning goh anglangan, goho anglanmagan tarzda u yoki bu tomonlarini egallashga xizmat qiladi.

O'yin dastavval bola uchun vaqt o'tkazish, uni mashg'ul qilish funksiyasini bajarsa, keyinchalik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot namunalarini ifodalash darajasiga o'sib o'tadi. Rollar, ma'noli harakatlar, ibratli imo-ishoralar, tushunchalar bola shaxsini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bola tug'ilganidan to maktab ta'limigacha davrida uning uchun o'yin faoliyati yetakchi faoliyat rolini bajaradi, shuningdek, o'yin didaktik tus kasb etishi ham mumkin.

Bolalar o'yinlarining dastlabki ilmiy tahlili rus olimi Y.A.Pokrovskiy tomonidan 1887 yilda amalga oshirilgan. Uning fikriga ko'ra, "o'yin" to'g'risidagi tushunchalar o'ziga xoslikni va tafovutni u yoki bu xalqqa mansublikni bildiradi.

Oradan yarim asr vaqt o'tgandan keyin 1933 yilda "o'yin" tushunchasining etimologik tahlilini amalga oshirgan va uning o'ziga xos alomatlarini tasniflashga harakat qilgan golland olimi F.Boytendayk hisoblanadi. Boytendayk o'yinning alomatlari qatoriga quyidagilarni kiritadi: "u yoqqa va bu yoqqa" harakat, ixtiyorsizlik va erkinlik, quvonch va ermaklik. Bunday alomatlardan qanoatlanmagan muallif, uning fenomenini bolalar faoliyatini kuzatish orqali aniqlash mumkin, chunki o'yinning qiymati va ahamiyati ularning o'zlari tomonidan oqilona baholash, degan xulosaga keladi.

O'yinni vujudga kelish tarixiga ilmiy yondashish nemis psixologi V.Vundtga 1887 yilda nasib etdi. Uning mulohazalariga ko'ra, o'yinning manbai huzur qilish, rohatlanishdan iboratdir. V.Vundt bildirgan fikrlar yoyiq xususiyatga ega bo'lib, o'yinning u yoki bu jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Uning fikricha,

o'yin – bu bolalarning mehnatidir. Hech bir o'yin yo'qki, u jiddiy mehnatning u yoki bu shaklining prototipi bo'lmasin, hamisha uning vaqtdagi va fazodagi haqiqiy holatini o'zida aks ettirmasin. Yashash zarurati insonni mehnat qilishga majbur qiladi. Mehnat orqali inson o'z kuch-qudratini baholashga o'rgana boradi, huzur qilish va rohatlanishining manbai ekanligiga iqror bo'ladi. Uningcha, o'yin mehnatning foydali jihatini yo'qotib boradi. Shuningdek, mehnat jarayonidagi eng yoqimlilik, uning natijasi maqsadga aylanadi. V.Vundt mehnat predmetini harakat usullaridan alohida hukm surishiga ishora qiladi. Bu bilan u psixologiya tarixida ustunlik qilib kelayotgan “o'yin insonning biologik jabhasi” degan g'oyaga qo'shimcha tariqasida unga ijtimoiy-tarixiy jihatni kiritadi. V.Vundtning ushbu g'oyasi psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi va o'yinning tadqiqotiga keng imkoniyatlar ochadi.

Jahon psixologiyasi fanida o'yin nazariyasiga yirik ulush qo'shgan olimlardan biri – K.Gross hisoblanadi. Yigirmanchi asrlarning boshlarida o'yin nazariyasi uchun eng qulay va sermahsul davr bo'lgan. U o'z zamondoshlari D.A.Kolotssa va G.Spenserlarning fikr va mulohazalariga asoslangan holda o'yin nazariyasini yaratdi. K.Gross o'z g'oyasini umumlashtirib, uni “mashqlantirish nazariyasi” yoki o'z-o'zini tarbiyalash deb ataydi va uni quyidagicha tasniflashga harakat qiladi:

Har qaysi tirik mavjudod irsiy beriluvchanlik, mayl xususiyatiga ega bo'lib, uning xulq-atvorida maqsadga muvofiqlikni kasb ettiradi. Yuksak darajadagi jonivorlarning tug'ilishidan berilgan xislatlari qatoriga faoliyatga impulsiv intilishni kiritish mumkin, chunki u jismoniy o'sish davrida yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuksak darajadagi mavjudodda, xususan insonda irsiy javob harakatlari murakkab hayotiy muammolarni bajarishga yetarli emasdir.

Har qaysi yuksak taraqqiy etgan mavjudod hayotida bolalik davri mavjud bo'lib, u o'sish va rivojlanish xususiyatiga ega. Lekin mustaqil hayot va faoliyatni

ta'minlay olmaydi. Chunki unga bunday imkoniyatni ota-onaning parvarishi yaratadi va u tug'ma mayl va moyilliklarga asoslanadi.

Bolalik davri hayot uchun eng zarur shart-sharoitlarga va ularga moslashuvni egallash maqsadiga tabiiy ravishda yo'nalgan bo'ladi. Biroq irsiy javob harakatlariga bevosita asoslanmaydi. Inson zotiga uzundan-uzun bolalik davri beriladi. qanchalik faoliyat mukammal bo'lsa, unga shunchalik ko'proq tayyorgarlik joiz.

Bolalik xususiyatiga binoan hayotga ko'nikish yo'llari turli-tumandir. Ko'nikish yoki moslashish yo'lining eng tabiiysi va shuning bilan eng zaruri shundan iboratki, bunda faoliyatga nisbatan impulsiv ehtiyojning mavjudligi irsiy reaksiyalar o'z-o'zicha namoyon bo'lishiga zamin hozirlaydi. Bunday sharoit irsiy harakatlarga asoslangan holda yangi malakalarni egallashni vujudga keltiradi. Avvalo yangi odatiy harakatlar yaraladi.

Ko'nikish yoki moslashish yo'llari insonni taqlid qilishda o'z ifodasini topuvchi nasliy intilish, mayl orqali amalga oshiriladi. Bu narsa keksa avlodning qobiliyatlari va odatlari bilan uzviy bog'liq ravishda kechadi.

Shaxsiy ichki qo'zg'alish xususiyatiga ko'ra, rivojlanuvchi individuum hech qanday maqsadning tashqi ko'rinishisiz o'z mayli hamda intilishini namoyon qiladi, mustahkamlaydi va o'stiradi. Bu o'yinning dastlabki nishonalaridan dalolat beradi.

K.Byuler K.Grossning ogohlik nazariyasini tan olib, o'yin filogenezga taalluqli ekanligini ta'kidlab, uning dressura bosqichi uchun ogohlik ekanligini uqtiradi. U o'yinning mohiyati va tomonlarini ochishda o'zining gedonalogik (huzur qilish) reaksiyaning birlamchiligi nazariyasiga asoslanadi. K.Byuler Z.Freydning rohatlanishga intilishdan iborat g'oyasini e'tirof etsa-da, lekin inson faoliyati va rivoji uchun harakatlantiruvchi emas ekanligini uqtiradi.

O'yin nazariyasiga o'zining munosib hissasini qo'shgan olimlardan biri – bu Boytendaykdir. U K.Grossning ogohlik nazariyasiga ikki xil mazmunda e'tiroz bildiradi.

O'ynay bilmagan hayvonlar instinkt darajasiga ko'ra zaif deyishga hech qanday dalil yo'q. Chunki instinktiv faoliyatda mashqlanishning roli yetarli yuksak emas. Shuning uchun faoliyatning instinktiv shakllari mashqlanishga bog'liq bo'lmasdan, balki ulardan tashqari muhitda takomillashadi.



Mashqlanish o'yinning mohiyatida yotmaydi, lekin uning tayyorgarlik mashqlari mavjud bo'lib, ular o'yin deyilmaydi.

F.Boytendayk o'yin predmetining tanishligi yoki notanishligi o'rtasidagi munosabatini uning obrazlilik deb ataydi. Obrazning affektiv va gnostika munosabati (notanish yoki hayotiy) fantaziyani keltirib chiqaradi. Binobarin, antropomorfizm sahovati sifatida fantaziyalashgan obrazlar, tasavvurlar vujudga keladi.

O'yin nazariyasiga oid ilmiy qarashlar E.Klapared, Dj.Kollarits, X.Shlosberg, Dj.Bruner kabi xorijiy psixologlar asarlarida o'z ifodasini topgan. Psixologiyada o'yin faoliyati nazariyasini ishlab chiqqan tadqiqotchilardan biri E.A.Arkin bo'lib hisoblanadi. Uning fikricha, bolalar o'yini va o'yinchog'i o'yin nazariyasiga negiz bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'yinchoqlar tarixiga asoslanib, u ularni quyidagi turlarga ajratadi:

Ovozli o'yinchoqlar – tartarak, vizillagich, qo'ng'iroqlar, shaqildoqlar va boshqalar;

Harakatlanuvchi o'yinchoqlar – bizbizak, koptok, varrak, bilbok kabilar;

qurol (yarog', aslaha) o'yinchoqlari – kamalak (yoy), o'q, bumerang singari;

Obrazli o'yinchoqlar – hayvonlar, jonivorlarning tasviri va qo'g'irchoqlar;

Arqon o'yinlari – shakllar yasash, sakrash va hokazolar.

O'yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularni maxsus guruhlariga biriktirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, psixolog E.A.Arkin o'yinlarning quyidagi tasnifini taklif qiladi:

Ishlab chiqarishga (texnikaga): sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, kasb-xunarga oid o‘yinlar;

Maishiy va ijtimoiy siyosatga: bog‘cha, maktab, kundalik turmushga oid o‘yinlar;

Harbiy: urush-urush o‘yinlari;

Dramalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o‘yinlar.

D.B.Elkonin maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o‘yinlarning syujetiga ko‘ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

Maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar.

Ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o‘yinlar.

Ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

D.B.Elkonin harakatli o‘yinning qoidalari mazmuni o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib, ularni besh guruhga ajratadi:

Harakatga taqlid qilish: taqlidiy-jarayonual o‘yinlar.

Muayyan syujetni dramalashtirilgan o‘yinlar.

Syujetli o‘yinlar.

Syujetsiz o‘yinlar.

Aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o‘yinlari.

Boshqa xalqlardan, millatlardan o‘zbek milliy o‘yinlarning va o‘yin faoliyatini uyushtirishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

O‘yinda yoki o‘yin faoliyatida o‘zbek xalqining(hududiy xususiyatidan qat’i nazar) yashash tarzi, intilishi, xohishi, istagi, ezgu niyati, uning mavsumiyligi, kasb-korga taalluqli jihatlari, holatlari aks ettirilgan bo‘ladi. Emotsiya, hissiyot, xarakter, milliy qiyofa, ta’b, bilish jarayonlari, xulq-atvor, ularni namoyon bo‘lish tezligi (sur’ati), davomiyligi, kechishi milliy xususiyatga egadir. Nafaqat milliy o‘yinlar, balki xalqning (millatning, elatning) raqslari; ularning syujeti, tezligi, osoyishtaligi; uning qo‘shiqlari chastotasi, tembri, amplitudasi, badiiy ijodiyoti xususiyatlari umumiy milliy kaloriti bilan uyg‘unlashgandir.

Milliy harakatli va sport o‘yinlarining mohiyati, mazmuni, ma’no ifodalashi, manbai, negizi, ularning in’ikosi, ularda aks ettiriluvchi kechinmalari, syujetda

o'z aksini topgan shaxslararo munosabat, muomala, xarakterologik va shaxs xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik omil(sabab, faktor)lardan tashqari milliy o'yin faoliyati tabiiy, geografik qonuniyatlarga (iqlim, yog'ingarchilik, joylashish sathi, qulay va noqulayligi, shamol, ofatlar ehtimolligi), xossalari, ularga nisbatan xayrixohlik, qat'iy yoki beayov kurash yoki sajda, yolvorish, iltijo qilish milliy idrok, tasavvur, irodaviy kuchga asoslanadi.

Ijtimoiy tajriba va uni egallash, shakllangan etnik stereotiplarga asoslanish natijasidan kelib chiquvchi milliylik, umumiylik, xususiylik, alohidalik, yakkahollik, guruhiylik, jamoaviylik, tabiatga va jamiyatga munosabatni aks ettirish tarzida o'yin vujudga kelishi mumkin.

Tabiat mo'jizalari, ilohiy kuchlarga e'tiqod, aql-zakovatdan hayratlanishni ifodalovchi syujet va mazmundan iborat bo'lgan milliy o'yinlar.

Kasbni tasvirlovchi, unga barol tilovchi, uni takomillashtirishga olib boruvchi imkoniyat, intilishni harakat va his-tuyg'u yordamida namoyon etuvchi, qadriyat, ma'naviyat, ruhiyatga asoslanuvchi milliy o'yinlar.

Millatlararo ta'sir natijasida yaraluvchi, lekin milliylikning u yoki bu qirralarini saqlab qoluvchi baynalmilal xususiyatli o'yinlar.

Ijtimoiy garmoniya ta'siri, ijtimoiy ong rivoji, madaniyat, fan va texnika mahsulati sifatida tug'iluvchi yangi toifaga xos milliy o'yinlar.

Milliy o'yinlar hududiy ko'rinishlari, takomillashish imkoniyati, yosh davrlari xususiyati, jinsiy tafovuti,

mavsumiyliги, mavsumbopligi, rasm-rusumga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Milliy o'yinlar muayyan syujet, mazmun, qoida, muddatga asoslanadi. Ular unutilish, yangilanish, takomillashish xususiyatiga ega bo'lib, ko'nikma, malaka va odatlarni mashqlantirishni taqozo qiladi. Bu narsa ijtimoiy tajribani avlodlar tomonidan o'zlashtirish tariqasida yuzaga kelib turadi. Oqibat natijada mangu



xususiyatni kasb etadi, shaxsni u yoki bu yo'sinda kamol topishiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi o'yinlar tug'iladi.



Jahon psixologiyasi fanida o'yinlar yuzasidan mulohaza yuritilganda aksariyat hollarda ularni oilaviy turmushga, dehqonchilikka, qurilishga, sanoat sohasiga, siyosatga, harbiyga, kasbga taalluqli ekanligiga qarab guruhlarga ajratiladi. Eng qadimiy milliy o'yinlar qatoriga harakatli va sport o'yinlari kiritiladi hamda xalqning keng tarqalgan, sevimli o'yinlari bo'lib hisoblanadi. Ular o'zining syujeti, mazmuni, roli bilan bir-birlaridan keskin tafovutlanib turadi. Ba'zi hollarda harakatli o'yinlar bir davrning o'zida ham sport o'yinlari bo'lib hisoblanadi. Yoinki sport o'yinlari harakatli o'yinlar qatoriga kiritilishi mumkin.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'yinining psixologik xususiyatlari

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bu yoshdagi bolalarning o'yinlarini uchga bo'lish mumkin:

- 1) predmetli o'yinlar (15-20 minut o'ynaladi);
- 2) syujetli-rolli o'yinlar (30-60 minut o'ynaladi);
- 3) qoidali o'yinlar (1 soatdan -2 kungacha davom etishi mumkin).

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofda o'zining haddi



sigʻadigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub boʻlgan, oʻzining kuchi ham yetmaydigan, haddi sigʻmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda boʻlishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni oʻzi haydagisi, xaqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi boʻlib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner boʻlgisi keladi. Tabiiyki bola oʻzidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yoʻl bilan qondira olmaydi. Bu oʻrinda savol tugʻiladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari oʻrtasidagi qarama-qarshilik qanday yoʻl bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, yaʼni, bolaning oʻyin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- birinchidan, bolalarning oʻyin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni oʻyinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu oʻyin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bogʻliqdir;

- ikkinchidan, bolalar oʻyin jarayonida oʻz ixtiyorlaridagi narsalarni, oʻzlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub boʻlgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda boʻladilar. Bolalarning oʻyin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

Oʻyin bolalar hayotida shunday koʻp qirrali faoliyatki, unda katgalarga mansub boʻlgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi oʻyin faoliyatida aniq boʻladi. Shuni ham taʼkidlab oʻtish kerakki, oʻyin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli oʻyinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bogʻchadagi taʼlim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati koʻp jihatdan bolalarning

o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog‘liqdir. Shunday qilib, o‘yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o‘zi, o‘yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir. Shuni ham ta’kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go‘yo, bir mo‘jizadek ko‘rinadi. Natijada ular ham o‘zlarining turli o‘yinlari jarayonida o‘xshatma qilib (ya’ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o‘ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o‘ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o‘zlarining har turli o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o‘yin faoliyatlarida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o‘yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko‘pincha umumiylik harakteriga ega bo‘lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o‘zining



turli-tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks

ettiradi.


Bu yoshdagi bolalar o'z vaqtining ko'p qismini o'yin bilan o'tkazadi, ayniqsa 3 yoshdan 6-7 yoshgacha o'yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi: predmetli-boshqaruv va ramziy o'yinlardan tortib to qoidali syujetli-rolli o'yinlargacha. Bu yosh davrida barcha o'yin turlarini ko'rish mumkin.



Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o'yini, qonstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rolli o'yinlar, individual va guruhij ijdod, o'yin-musobaqa, o'yin-muloqot, uy mehnati. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetlar, turli xil o'yinchoqlar bilan yolg'iz o'zlari o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur jarayonlarini, shuningdek o'z harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida qonkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni). O'rta yoki katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik harakteriga ega bo'la boshlaydi. Sekin-asta o'rta maktabgacha davrga borib o'yin jamoaviy bo'lib boradi va unga ko'proq bolalar qo'shila boshlaydi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o'yinlari davomida kuzatish qulaydir. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko'proq ularning o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotij faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poyezd» o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, qontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi

jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yini, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan – rollariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlar asosida quriladigan rollarni va qoidalarni ajratadilar, o'yinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va o'zlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari turli mavzularda bo'lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bolalar tarafidan o'yinda qayta ijro etiladigan rollar –oilaviy (ona, ota, buvi, buva, o'g'il, qiz va h.k) yoki tarbiyaviy (enaga, bog'chadagi tarbiyachi,) yoki ertak qahramonlari (bo'ri, ayiq, tulki, quyon, echki,) yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar kattalar yoki bolalar yoki ularni o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin.



Ushbu yosh davri taraqqiyot uchun zarur bo'lgan ikkita faoliyat turining boshlanishi bilan bog'langan: mehnat va o'qish. Bu yoshdagi bolalarning o'yin, mehnat va o'qishni o'zlashtirishlarini ketma-ketligi bosqichini aniqlash mumkin, bunda maktabgacha yosh davri tahlil maqsadida

shartli ravishda 3 ta davrga bo'linadi: kichik maktabgacha yosh davri (3-4 yosh), o'rta maktabgacha yosh davri (4-5 yosh) va katta maktabgacha yosh davri (5-6 yosh). Ushbu bo'lish yosh davrlari psixologiyasida bolalarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi jadal va sifatiy o'zgarishlarni qayd etish uchun o'tkaziladi.

Kichik maktabgacha yoshdagilar hali, qoidaga muvofiq, yolg'iz o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va qonstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Ushbu yoshdagi bolalar syujetli-rolli o'yinlarida odatda kundalik hayotlarida kuzatadigan kattalarning harakatlarini qayta namoyon etadilar.

Sekin-asta o'rta maktabgacha davrga borib o'yin birgalikda bo'lib boradi va unga ko'proq bolalar qo'shila boshlaydi. Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan – rollilariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlarda quriladigan rollarni va qoidalarni ajratadilar, o'yinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va o'zlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar. Syujetli-rolli bolalar o'yinlari turli mavzularda bo'lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bolalar tarafidan o'yinda qayta ijro etiladigan rollar – bu qoidaga muvofiq, oilaviy rollar (ona, ota, buvi, buva, o'g'il, qiz va h.k) yoki tarbiyaviy (enaga, bog'chadagi tarbiyachi) yoki ertaknamo (echkicha, bo'ri, quyon, ilon) yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar odamlar, kattalar yoki bolalar, yoki ularni o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin.

O'rta va katta maktabgacha yosh davrida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, biroq kichik maktabgacha yosh davridan o'yinlarga kiritiladigan va amalga oshiriladigan mavzulari, rollari, o'yin harakatlarining qoidalari bilan katta turli-tumanligi bilan farqlanadi. Tabiiy xarakterdagi ko'pgina predmetlar shartlilariga almashtiriladi va ramzli o'yin boshlanadi. Masalan,

oddiy kubik o'yindan va unga ajratilgan roldan qat'iy nazar ramziy ma'noda mebellar va mashinalarni, odamlar va hayvonlarni namoyish etadi.

O'yinlarda asosiy rol qoidalarga rioya qilishga va munosabatlarga, masalan, subordinatsiyaga ajratiladi. Bunda birinchi marotaba liderlik paydo bo'ladi, bolalarda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

Shu bilan bir qatorda o'yinli individual faoliyatning ramziy shakllaridan yana biri rasm chizishdir. Unga sekin-asta ko'proq tasavvur, xayol va tafakkur qo'shib boradi. Bola ko'rganlarini tasvirlashdan vaqti bilan bilganlarini, xotirasidagi va o'zi o'ylab topganlarini chiza boshlaydi. O'yin-musobaqalar alohida sinfga ajratiladi, unda yutuq va g'oliblik bolalarni juda jalb qiladi. Taxmin qilinishicha, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta maktabgacha yosh davrida qonstruktorlik o'yini mehnat faoliyatiga aylana boshlaydi, o'yin jarayonida bola turmushda zarur bo'lgan nimanidir yasaydi, yaratadi, quradi. Bolalar bunday o'yinlarda oddiy mehnat ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ularda amaliy tafakkur faol rivojlanadi. Bola o'yinda ko'plab uy-ro'zg'or asboblari va predmetlaridan foydalanishni o'rganadi. Unda o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish qobiliyati paydo bo'ladi va rivojlanadi, ko'p harakatlari va aqliy operatsiyalari, tasavvur va xayoli takomillashadi.

Bu yosh davridagi bolalar ijodiy faoliyatdan tasviriy san'at ayniqsa, rasm chizishni yaxshi ko'radilar. Bolaning nimani va qanday ifodalashiga qarab, uning atrof olamdagi voqelikni qanday idrok qilishi, xotirasi, xayoli va tafakkurining o'ziga xosligi haqida mushohaza qilish mumkin. Rasmlar orqali bolalar tashqi olamdan olayotgan tassurotlari va bilimlarini yetkazishga harakat qiladilar. Rasmlar bolaning jismoniy va psixologik holatiga ko'ra o'zgarishi mumkin. (kasallik, kayfiyat). Aniqlanishicha, kasal bolalar chizgan rasmlar sog'lomlarnikidan ko'pgina jihatlari bilan farq qiladi.

Maktabgacha yosh davri badiiy-ijodiy faoliyatida musiqa muhim ahamiyatga ega. Bolalarga musiqiy asarlarni tinglash, musiqiy qatorlarni va tovushlarni turli asboblarda takrorlash quvonch bag'ishlaydi. Bu yosh davrida birinchi marotaba musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga qiziqish paydo bo'ladi, u keyinchalik haqiqiy qiziqishga aylanishi va musiqiy qobiliyatni rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar qo'shiq aytishga, musiqa ostida turli ritmik, raqs harakatlarini bajarishga o'rganadilar. Qo'shiq aytish musiqani anglash va vokal qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Hech bir yosh davri ushbu yosh davridagidek shaxslararo hamkorlikning turli shakllarini talab qilmaydi, chunki u bola shaxsining turli jihatlarini rivojlanishi zarurati bilan bog'liq. Bu tengdoshlari, kattalar bilan hamkorlik, o'yinlar, muloqot va birgalikdagi mehnatdir. Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o'yini, qonstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rolli o'yinlar, individual va guruhij ijdod, o'yin-musobaqa, o'yin-muloqot, uy mehnati. Maktabga chiqishdan bir yoki ikki yil avval ularga o'quv faoliyati qo'shiladi va 5-6 yoshli bola eng kamida faoliyatning 7-8 turiga tortiladi, ularning har biri bolani o'ziga xos ravishda intellektual va axloqan rivojlantiradi.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, xaqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli

ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- ikkinchidan, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda katgalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar

ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks etgiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida qonkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar holos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni). O'rta yoki katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega, o'zgacha qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya quroli hamdir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xususiyatlari (xarakteri, kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari,

ularni individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va qonstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoa shakliga ega bo'lib boradi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o'yinlari davomida kuzatish qulaydir. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko'proq ularning o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poyezd» o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, qontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yini, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog'cha yoshida syujetli-rolli o'yinlar esa o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shug‘ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san’atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko‘ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog‘cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o‘yin faoliyatining o‘ziga xos bir shakli bo‘lib hisoblanadi. Bola avvalo ko‘rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o‘zi biladigan, xotirasidagi va o‘zi o‘ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish xususiyati shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari musobaqa o‘yinlaridagi yutish va muvaffaqiyatlaridir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta bog‘cha yoshida konstruktorlik o‘yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi, o‘yinda bola sodda mehnat ko‘nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo‘lgan musiqa ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o‘rganadilar. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o‘rganishi;
- individual predmetli o‘yinlar, jamoa syujetli-rolli o‘yinlar;
- individual va guruhijod;

- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadi

Turli o'yinlar orqali bolalarning taraqqiyoti darajasi, bolalar guruhlarida o'zaro munosabatlar, shaxsiy xususiyatlari o'rganilishi mumkin. Masalan, "Kim chaqqon?", "Kim birinchi?", "Rangini top", "Juftini top" kabi musobaqa tarzida tashkil etiladigan o'yinlar orqali bolaning shaxsiy sifatleri, xususiyatlari o'rganilsa, "Oq terakmi, ko'k terak", "Ovozidan top", "Tapur-tupur qaldirg'och" kabi o'yinlar guruh bolalarining o'zaro munosabatlarini aniqlashda diagnostik vosita bo'la oladi.

Maktabgacha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti:

sezgi, diqqat

Sezgi o'z mohiyati jihatidan birmuncha sodda psixik jarayon (aks ettirish jarayoni) bo'lishiga qaramay, barcha bilimlarimizning asosiy manbaidir. Narsa va xodisalarning ayrim belgilari, xususiyatlarini aks ettirishdan iborat bo'lgan sezish jarayonining fiziologik mohiyati mashhur fiziolog M.Sechenov va I.P.Pavlovlarning analizatorlar haqidagi ta'limotlarida atroflicha ochib berilgan. Akademik N.P.Pavlov organizmning xissiy aks ettirish apparatlarini analizatorlar deb ataydi. Mana shuning uchun har bir sezgi organi analizatorlarning barcha qismlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, har bir analizator asosan uch qismdan iborat: 1) tashqi ta'sirlarni qabul qilib oluvchi periferik qism (bu odatda retseptor deb yuritiladi); 2) taassurotni markazga olib boruvchi (afferent) va markazdan tegishli javob reaksiyasini olib qaytuvchi

(yefferent) nerv tolalari; 3) analizatorning orqa yoki bosh miyadagi markaziy qismi. Sezgi mana shu qismlarning yaxshi va ravon ishlashiga bog'liqdir. Analizatorlarning birona qismi ishdan chiqsa, sezish bo'lmaydi. Demak sezishning fiziologik asosida analizatorlar ishidan iborat bo'lgan organizmning reflektor faoliyati yotadi.

Analizatorlarning asosiy vazifasi organizmga ta'sir etayotgan turli qo'zg'ovchilarni ayrim bo'laklarga ajratishda, ya'ni analiz qilishdan iboratdir. Shuning uchun ham sezgi organlari analizatorlar deb ataladi. Sezgi va idrok rivojlanishi boshqa, tobora qiyinroq bo'lgan bilish jarayonlarining (xotira, xayol, tafakkur) paydo bo'lishi uchun zamin yaratadi. Rivojlantirilgan sensorika zamonaviy odamning amaliy faoliyati takomillashuvining asosidir.

Bola xayotining dastlabki 1-yilida idrok rivojlanishi ancha murakkabdir. Bu davr mobaynida juda ko'p o'zgarishlar ro'y beradi, birinchi o'rinda bu o'zgarishlar sezgirlik sohasida sodir bo'ladigan rivojlanishga taalluqlidir.

Butun bog'cha yosh davri mobaynida ko'z sezgirligining o'tkirligi ortadi. Shuningdek, ko'z o'tkirligi darajasi faoliyat sharoitiga bog'liqligi ham aniqlangan - o'rinda o'tirgan vaziyatida tadqiqot o'tkazilganda ko'zning o'tkirligi sezilarli darajada ortadi. Bog'cha yosh davrida ranglarni farqlashda ham ancha o'sish kuzatiladi: aniq va tiniqligi ortadi. Z.M.Istominaning tadqiqotari bo'yicha bola xayotining ikkinchi yilida ixtiyorsiz tarzda to'rt asosiy rangni farqlaydi: qizil, sariq, yashil, ko'k. Oraliq ranglarni differensirovka qilishda, ya'ni qovoq rang, xavo rang va siyox ranglarni ajratishda biroz qiynaladi.

Eshitish sezgirligi ham bog'cha yoshidagilarda o'ziga xos tarzdagi xususiyatlarga ega. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eshitishning nozikligi 13 yoshgacha bo'lgan bolalarda kattalarnikiga nisbatan ancha past bo'ladi va bu yosh ortishi bilan o'sib boradi.

Bog'cha yosh davrida, shuningdek, tovushlarning balandligini farqlash qobiliyati ham rivojlanadi. Biroq, fonematik (og'zaki) va musiqani eshitish parallel tarzda shakllanmaydi. Fonetik eshitish birinchi yilning oxirlariga borib rivojlanib boradi

va bola bog'cha yosh davrining dastlabki bosqichlarida o'z ona tilining deyarli barcha tovushlarini amaliy farqlay oladi, passiv nutq bilan bir qatorda faol nutqni ham egallaydi.

Bu davrda hid bilish sezgisi ham rivojlanadi. Katta guruh bolalari hidlarni farqlashda kam xatoliklarga yo'l qo'yadi, aniqrog'i ularni aniq ayta oladi. Teri orqali tuyish hamda og'irlikni seza olish xususiyati ham rivojlanadi. 4 yoshdan 7 yoshgacha bolgan bolalarda bu qobiliyat taxminan ikki barobarga ortadi, A.Y.Xolodnayaning tadqiqotlari ko'rsatishicha, fazoda mo'ljal olishning rivojlanishi bolaning o'z tana a'zolari fazoviy munosabatlarini differensirovka qilishdan (o'ng va chap qolni, juft tana qismlarini ajratib nomlashdan) boshlanadi. Idrok jarayoniga so'zning qo'shilishi, mustaqil nutqning o'zlashtirilishi sezilarli darajada fazoviy munosabatlar, yo'nalishlar haqidagi bilimlarning mustahkamlanishiga yordam beradi (D.A.Lyublinskaya, A.Y.Xolodnaya, Ye.F.Ribalko va b.q.).

3.Bolalarda diqqatning rivojlanishi. Bolalarda diqqat juda erta rivojlana boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko'rinmasa ham, oradan sal o'tmay, ya'ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyoriy diqqat alomatlari yaqqol ko'rina boshlaydi. Demak, bolaning bir oylik davrida uning diqqatini har turli kuchli qo'zg'atuvchilar (qattiq tovush, ortiqcha yorug'lik kabi) ixtiyorsiz ravishda o'ziga jalb qila boshlaydi. Ikki-uch oylik bolalar esa, shaqir-shuqurga quloq soladigan (shaqildoqlarning tovushiga ovunadigan) bo'la boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqatlarini yorqin (yaltiroq) rangli narsalar ham beixtiyor jalb qila boshlaydi. Bolaning ko'z o'ngidagi narsa qanchalik rang-barang bo'lsa, bola unga shunchalik ko'p estetik beradi.

Maktabgachagacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqati nihoyatda beqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, bolaga yangi o'yinchoq bersangiz u o'yinchoqni juda qiziqib ko'ra boshlaydi. Lekin ayni shu paytda yana bir boshqa o'yinchoqni ko'rsatsangiz, birinchi o'yinchoqni tashlab, ikkinchisiga talpinadi. Yasli yoshidagi bolalar diqqatining beqarorligi fiziologiya nuqtai nazaridan ularda

hali tormozlanish jarayonlarining kuchsizligi bilan bog'liqdir. Tormozlanish jarayoni qo'zg'alish jarayonining keng yoyilib ketishini to'xtata olmaydi. Ana shuning uchun kichik bolalarning diqqati bir narsadan ikkinchi narsaga chalg'ib ketaveradi.

Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining g'oyat beqaror bo'lishi turmush tajribalarimng juda ozligi bilan ham bog'liqdir. Bolalarga hamma narsa yangilik bo'lib tuyulaverganidan ularning diqqatlari bir narsadan ikkinchi narsaga tez-tez chalg'ib ketaveradi. Bola ko'z o'ngidagi narsaning o'zi bolaga juda qiziq tuyulgani sababli ham diqqati chalg'ib ketadi. Masalan, N.M.Menchinskayaning hikoya qilishicha, Sasha (1 yosh 8 oylik) echki va uning bolalari haqidagi ertakni zo'r qiziqish bilan tinglaydi. Bo'ri kelib eshikni taqillatgani hikoya qilinganda, Sasha



bo'rining qanday taqillatganini ko'rmoqchi bo'lib, devorga tap-tap yetib uradi, lekin ba'zan taqillatishga shu qadar mahliyo bo'lib ketadiki, ertakni tamomila unutib qo'yadi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda diqqatning bo'linuvchanligi juda zaif, ko'lami esa tor bo'ladi.

Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini faqat ko'zlariga yaqqol ko'rinib turgan bir narsagagina qarata oladilar. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining rivojlanishida nutqning roli juda kattadir. Bolaning tili chiqib nutqni egallay boshlashi, katta kishilar bilan muloqotda bo'lishdan tashqari, ularning ko'rsatmalarini bajarish imkoniyatini ham beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kichik yoshli bolalar kattalarga qarashishni, imkoniyatlari boricha ularning mehnatlariga aralashishni juda yoqtiradilar. Kattalarning iltimos va topshiriqlarini bajonidil ado etadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid oddiy yumushlarni qiziqib bajaradilar, ota-onalarining uy-xo'jalik ishlarida qarashishga harakat qiladilar. Mana shularning hammasi, diqqatni ma'lum darajada to'plash va muayyan bir maqsadga qaratishni talab etadi. Bu esa bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga asos yaratadi.

Maktabgacha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq, kichik yoshdagi maktabgacha bolalarida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik yoshdagi maktabgacha bolalarida kun sayin paydo bo'ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o'yin faoliyatlarining xilma-xil bo'la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi. Maktabgachada jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblaiga bo'ysunish, qoidali o'yin shartlarini so'zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado yetish kabi hollar maktabgacha yoshidagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o'yinning roli juda kattadir. Chunki turli o'yinlar paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarni ilgari suradilar. O'yinlarning qanday qoidalar asosida yo'nalishini o'zlari mustaqil ravishda tanlab oladilar. O'yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o'z harakatlarini o'yin qoidalariga moslashtirishga va o'yinda qatnashuvchi o'rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga intiladilar. Ana shunday o'yinlarda ixtiyorsiz diqqat bilan birga ixtiyoriy diqqat ham faol ishtirok etadi, binobarin, bolalarning o'ymi uchun sharoit yaratib beradi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, ixtiyoriy diqqat iroda bilan bog'liq, shuning uchun ham ko'pincha bolalar diqqatning bu turini o'zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Dastlabki paytlarda diqqatning ixtiyoriy turini har xil savollar va topshiriqlar berish yo'li bilan rivojlantirib borish kerak. Maktabgacha yoshidagi bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya'ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o'rta va katta guruh bolalarining) bir ish ustida uzoq vaqt davomida o'tira olishlaridan, ba'zi o'yinlarni zerikmay soatlab o'ynay olishlaridan, ta'limiy mashg'ulotlarda chidam bilan o'tira olishlaridan bilishimiz mumkin.

Bola diqqatini barqarorlashtirish usul va vositalari. Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanishi faqat bog'chadagi sharoitgagina emas, balki ko'p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog'liqdir. Shuning uchun ham bolalarning diqqati bir tekisda va bir darajada rivojlanmaydi. Ayrim bolalar oilada tegishli nazorat ostida

bo'lmashligi, yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborilganligi sababli o'zlarining xatti-harakatlari, hulq-atvorlarini tartibga sololmaydilar. Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o'tira olmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga quloq solmaydigan bo'ladilar. Bunday bolalarda diqqat juda beqaror bo'lgani uchun ular hech bir narsa ustida qunt bilan mashg'ul bo'la olmaydilar. Diqqatni boshqara bilmaslik, ya'ni ma'lum muddat davomida bir narsaga yo'naltira olmaslik mashg'ulotlarda intizom buzish va boshqalarga xalaqit berishga olib keladi. Ana shuning uchun tarbiyachilar bunday bolalarga nisbatan individual munosabatda bo'lishlari (har xil mas'ulyatli topshiriqlar berish va hokazo), ularda diqqatning kuchini har onda barqarorlik xususiyatini tarbiyalab borishlari zarur. Maktabgacha yoshida bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan diqqatning ko'lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko'lami katta odamlarnikiga nisbatan hali ham juda tor bo'ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko'lami ayni vaqtda 5-6 narsani (bir-biri bilan bog'lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig'dira olsa, maktabgacha yoshidagi bolalar diqqatining kolami ayni bir vaqtda 1-2 narsanigina (kichik guruh bolalari 1 ta, o'rta va katta guruh bolalari 2 ta) sig'dira oladi. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo'lishga harakat qilsalar ham, ammo buning uddasidan chiqa olniaydilar, Masalan, 3 yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to'kib sochib olib keladi. Bu uning uquvsizligi, bo'shangligidan emas, balki olz diqqatini ayni bir vaqtda ikkita narsaga bo'la olmasligidandir. Bola o'zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to'kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo'la olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi.

Diqqat ko'laminig kengligi aniq idrok qilish bilan bogliq bo'lgan xususiyatdir. Bu xususiyat ayiiiqsa bola diqqatinig ko'lami o'qish faoliyati uchun zarur. Shuning uchun bolaning maktabgacha yoshidagi davrida barcha imkoniyatlardan keng foydalanib, diqqatning bu xususiyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bunda asosan, ekskursiyalar, inssenirovkalar, har sohaga doir rasmlar bilan

o‘tkaziladigan suhbatlar katta rol o‘ynaydi. Maktabdagi talim jarayoni uchun zarur bo‘lgan ixtiyoriy diqqat maktabgachada didaktik mashg‘ulotlar, hikoyalar o‘qib berish davomida rivojlantiriladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning diqqati ko‘pincha ko‘lami qiziqishi hamda hissiyotlari bilan bogliqligi sababli konsentrlashgan, ya’ni bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bola diqqatining bo‘linuvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo‘ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalar diqqati bo‘linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko‘lamining torligi sababli ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar. Masalan, maktabgacha yoshidagi bolalar, odatda, bir hikoyani qayta-qayta eshita beradilar. Bu hodisaning sababi shundaki, bolalar diqqatining ko‘lami hikoyaning syujetini va personajlarini birdaniga sig‘dira olmaydi. Shuning uchun ular hikoya va ertaklarni qayta-qayta aylantirib eshita beradilar.

Shunday qilib, bolaning maktabgachagacha va maktabgacha yoshidagi davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi ko‘proq rivojlanadi. Lekin bolaning maktabgacha yoshidagi faoliyat va xususan didaktik hamda mehnat mashg‘ulotlarining tizimli tarzda ortib borishi, ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, maktabdagi ta’lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljiy olmaydi. Shuning uchun maktabgachada turli majburiy mashg‘ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish kerak. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti maktabda ta’lim jarayonida amalga oshiriladi.

“Xotira o‘yini” . 1.Stol ustiga bir necha predmetni qo‘yib qo‘ying. Ular olti-yettitadan oshmasligi kerak. Bolalar bu predmetlarni ko‘rib olishiga bir necha daqiqa vaqt beringda, predmetlarni ustini yopib qo‘ying. Bolalar stol ustida qanday predmetlarning borligini bir necha soniyadan keyin aytishi kerak.

2.Bolalar predmetlarni bir necha daqiqa ko‘rib bo‘lgach, ko‘zini yumib turing va bir predmetni olib, qolganlarining joyini almashtirib qo‘ying. Bolalar olib tashlangan predmetning nomini aytib berishi lozim bo‘ladi.

3.Stol ustidagi predmetlarning birin olib tashlamasdan, aksincha, yana bir predmetni qo'shib qo'ying. Bu o'yin bolalarning nafaqat diqqatini oshirishga, balki xotirasini ham rivojlantirishga yordam beradi. Qiziqarli tamoni shundaki, bu o'yin usuli bilan nafaqat bolalarning, balki kattalarning ham diqqat-e'tibori, xotirasini tekshirish mumkin.

Kechqurun barcha oila a'zolari bir joyga to'planganida kattalar diqqatini, xotirasini ularning kichkintoylari ham tekshirishlari ular uchun juda maroqli bo'ladi.

“O'rningni top! ”. 1. Bu o'yin bolalarni predmetlarni qayerga tegishli ekanini aniqlashlariga yordam beradi. Buning uchun siz qoshiq, kitob, daraxt, likopcha, doska, qalam, porfel, javon, lampa va hokazolarning kichikroq rangli suratlari va kattaroq qilib chizilgan oshxona, tabiat va maktab suratlarini yonma-yon qo'yib chiqishingiz kerak. Shundan so'ng bolalar kichikroq hajmdagi predmetlar qayerga tegishli ekanligini topishi kerak.

2.Bolalarga bundan ham qiziqarliroq bo'lishi uchun o'rmon va hovlili uy-joy hamda uy va yovvoyi hayvonlar tasvirlangan suratlarni chizing. Barcha rasmlarni aralashtirib chiqing. Bolalar hayvonlar uyda boqiladimi yoki o'rmonda yuradimi, shuni topib o'rniga qo'yishlari kerak. Bu o'yin o'ynalayotganda o'rmonda va uyda yana qanday hayvonlar bo'lishi mumkinligi haqida aytib o'ting va iloji boricha ularning rasmlarini chizib ko'rsating. Keyingi safar yana shu o'yinni o'ynayotganingizda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning qanday ovoz chiqarishi, qanday yurishi haqida ham gapirib bering. Bu o'yin-mashg'ulot bolalarning hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlarini oshiradi.

“Bu nima?”. 5 yoshli bolalarga unchalik murakkab bo'lmagan shakllarni nuqtalar yordamida chizib chiqing. Bolaga esa bu nuqtalarni birlashtirish kerakligini tushuntiring. Bola nuqtalarni birlashtirib bo'lgandan so'ng uning nima ekanligini aytadi va ichini bo'yab chiqadi. Rasmni bo'yashdan oldin uning rangi qanday bo'lishi kerakligi haqida ham ma'lumot berib o'ting. Chizilgan shaklni u o'zi istagan ranglarda bo'yashiga ham imkoniyat bering. Muhimi, u turli ranglardan foydalanishi kerak.

Maktabgacha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti: xotira, idrok

Maktabgacha yoshidagi bolalarda xotiraning rivojlanishi. Odamning butun aqliy taraqqiyoti asosan xotiraning taraqqiyotidan iborat ekan, xotira bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlab rivojlana boshlaydi. Bolada xotiraning dastlabki alomatlari yaqin atrofidagi odamlarni va narsalarni tanishida ko'rina boshlaydi. Buni biz bola o'ziga tanish bo'lgan narsani ko'rganida qiladigan harakatlardan bilishimiz mumkin. Masalan, bola o'ziga yaqin odamlarni ko'rganida unga talpinadi yo notanish odamdan yotsiraydi. Kichik yoshli bolalarda tanib olish qobiliyatining borligi, idrok qilgan narsa va hodisalarini esda olib qolish imkonini beradi.

Yoshiga to'lgach, bolada xotiraning murakkab turlari, ya'ni eslash vujudga kela boshlaydi, Bolalar bu davrdan boshlab ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarni eslay oladigan bo'ladilar. Bunda bolalar tasavvurlarining roli nihoyatda kattadir. Tasavvurlari tufayli bolalar o'tgan narsalarni bemalol eslay oladilar, masalan, bolaga ko'z o'ngida bo'lmagan narsaning nomini aytsangiz, u ko'zlari bilan chor atrofga qarab shu narsani izlay boshlaydi.

Bola xotirasining rivojlanishida nutqining o'sishi juda katta ahamiyatga ega. Bu davrda bola narsa va hodisalarni faqat bevosita ko'rish orqali emas, balki shu narsa va hodisalarning nomlari orqali ham idrok qila oladigan bo'ladi. Bundan tashqari ular kattalardan so'rab bilib olish, eshitish orqali ham o'z xotiralarini boyitadilar.

Ilk bolalik davridagi bolalarda xotiraning barcha jarayonlari ko'rina boshlaydi. Masalan, kichik yoshdagi bola dastavval mexanik ravishda, ya'ni ma'nosiga tushunmasdan esda olib qolaveradi. Buning o'ziga xos jihati bor, albatta. Birinchidan, yuqorida aytib o'tganimiz kabi bolalarda turmush tajribasi juda oz bo'ladi, ular ko'p nomlarni hali mutlaqo bilmaydilar, lekin hayotda to'qnash kelganlari sababli eslarida olib qoladilar. Ikkinchidan, bolalar asab tizimining plastikligi, ya'ni juda egiluvchanligi kattalarnikidan ham ustunroq

bo'ladi. Ana shu sababli bolalarga mexanik esda olib qolish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

Bolalarda ma'nosiga tushunib esda olib qolish ham juda erta rivojlana boshlaydi. Masalan, ilk bolalik davridagi bolalar o'zlari yoqtirgan hikoyalarning ayrim qahramonlarini yaxshi ko'radilar, ba'zilarini esa yomon ko'radilar. Umuman, hikoyalarning mazmuni bolalarga ta'sir qilib, ularda ma'lum tuyg'u-hissiyotlarni uyg'otadi, bu esa bolalar hikoyaning mazmunini tushunayotganliklaridan darak beradi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda dastlab ixtiyorsiz esda olib qolish va ixtiyorsiz esga tushirish vujudga keladi. Ular o'zlarini biron jihatdan qiziqtirgan, diqqatlarini o'ziga tortgan narsa va hodisalarni beixtiyor ravishda eslarida olib qoladilar. Biron narsani eslash, esiga tushirish assositsiya tarzida namoyon bo'ladi. Ularni o'zlari ataylab esga tushirmaydilar. o'yin faoliyatida biron narsani eslash lozim bolib qolganda, assositsiya tariqasida boshqa shunga o'xshash narsalar ham beixtiyor eslariga tushaveradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar (xususan kichik guruh bolalari) o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymaydilar va hali maqsad qo'yishni uddasidan ham chiqa olmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bolishi tasodifiy bir hol emas. Buning o'z sabablari bor. Har bir tarbiyachi-pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Ana shunda bolalar xotirasini to'g'ri rivojlantirish mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasining katta odamlar xotirasidan keskin farqi, avvalo, ular oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqdir. Bir qator psixologlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi xususiyatlarga ega.

Birinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalarning nerv sistemasi xuddi ilk bolalik davridagi bolalar nerv sistemasi kabi juda plastik xarakterga egadir, ya’ni ularning nerv sistemalari haddan tashqari egiluvchan, ta’sirotda beriluvchandir. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtli bog‘lanishlar (assositsiyalar) juda osonlik bilan hosil bo‘ladi. Bolalar nerv sistemasining xususiyati ularning esda olib qolish qobiliyatlariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Shu sababli bog‘cha yoshidagi bolalar ashula, ritmli she’r, qiziqarli va chuqur ta’sir etadigan narsalarni beixtiyor hamda juda tez eslarida olib qolaveradilar.

Ikkinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalar nerv sistemasi yengil qo‘zg‘aluvchan bo‘lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog‘lanishlar (assotsiyatsiyalar) juda beqaror bo‘ladi, ya’ni mustahkam bo‘lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan turli narsa va hodisalar ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. Ular tez eslab qolishlari bilan birga tez unutib ham yuboradilar. Ko‘pincha narsa va hodisalarning bog‘cha yoshidagi bolalar xotiralarida mustahkam saqlanib qolishi shu narsa va hodisalarning bolaga qanchalik emotsional ta’sir qilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Uchinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalar nerv sistemasida qo‘zg‘alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo‘lganligi tufayli ular o‘xshash va birdaniga, ya’ni bir vaqtning o‘zida juda ko‘p idrok qilingan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular birdaniga idrok qilgan juda ko‘p narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. Agar bog‘cha yoshidagi boladan kechagi bayram kuni bolgan, ya’ni idrok qilgan narsalarini bir boshdan so‘zlab berish iltimos qilinsa, u ma’noli va sistemali qilib so‘zlab berolmaydi. Bola bunday holda gapni tasodifiy esiga tushib qolgan narsalardan boshlab ketaveradi. Chunki birdaniga ko‘rgan juda ko‘p narsalarini bola tamoman aralashtirib yuborgan bo‘ladi.

Bola esida olib qolgan narsalarida hali sistema yo‘q, shuning uchun bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya’ni esida chuqur o‘rnashib qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: agar

bog'cha yoshidagi bolaga bir vaqtning o'zida haddan tashqari ko'p narsalar ko'rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtaroq esda olib qololmaydilar.

O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, kichik bog'cha yoshidagi bolalarga nisbatan o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz va mexaniq ravishda esda olib qolish hamda esga tushirish qobiliyati biroz susayadi. Ammo bundan, bolalar ulg'aygan sari ularning xotirasi kuchsizlanadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu yerda gap shundaki, bolalar o'sib, turmush tajribasi ortgan va nutqi o'sgan sari ular narsa va hodisalar surunkasiga, ya'ni to'g'ri kelganicha emas, balki tanlab, ya'ni o'zlariga kerakligini esda olib qoladigan bo'la boshlaydilar.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, keyingi yillar mobaynida bog'cha yoshidagi bolalarda mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda olib qolishga nisbatan mexaniq esda olib qolish ustun bo'ladi, degan fikr mavjud bolib, shu bilan birga mexaniq esda olib qolish mantiqiy esda olib qolishga qarama-qarshi qo'yilar edi. So'nggi yillarda o'tkazilgan eksperimental tekshirishlar natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalarda ham narsa va so'zlarning ma'nosiga tushunib eslab qolish katta o'rin tutadi. Lekin bog'cha yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga to'la tushuniladigan material berilganda yaqqol ko'rinadi.

Bog'cha yoshidagi kichik bolalarda ko'proq obrazli xotira rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan ko'rgan narsalarni yaxshi eslarida olib qoladilar. Uning asosiy sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarning idroklari konkret obrazli xarakterga ega. Ikkinchidan, ularda hali nutq, to'la-to'kis shakllanmagan.

Bolalar yuqori guruhlarda nutqni anchagina egallab olganlaridan keyingina so'z bilan ifodalab olingan narsalarni esda yaxshi olib qoladigan bo'ladilar. Bolalar juda ko'p narsalarni asosan turli o'yin faoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar. Shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko'pincha epizodik va tasodifiy xarakterga ega bo'ladi, bu esa eslarida olib qolingan narsalarni ma'lum bir

sistemaga solishni qiyinlashtiradi. Shu tufayli bolalarning xotiralaridagi narsalar tartibsiz, bir-biri bilan aralashib ketadi. Natijada biron narsani esga tushirishlari qiyin bo'ladi, Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasiga xos bo'lgan tartibsizlikni yo'qotish va xotirasini o'stirish juda ko'p jihatdan tarbiyachilarga bog'liqdir. Tarbiyachi bolalarni esda olib qolishlari lozim bo'lgan materialni ularning yosh xususiyatlariga mos qilib tanlashi kerak. Bolalar xotirasini mashq qildirishda turli mazmunli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Umuman, bolaning materialni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Chunki bog'cha yoshidagi bola xotirasining barcha tiplari o'sa boshlaydi. Biroq shu narsa xarakterliki, xotiraning asosiy turlari orasida (masalan, obrazli, mexaniq, matniqiy kabi) harakat xotirasi nisbatan kuchliroq rivojlanadi. Shuning uchun ham turli harakatlarni hamda musiqa ohangida o'ynashni bu yoshdagi bolalar osonlik bilan o'zlashtiradilar. Mexanik tarzda o'zlashtiriladigan nutq materialini ham qisman harakat xotirasiga kiritadi. Shu sababli bog'cha yoshidagi bolalar tez aytiladigan turli ritmdagi she'rlarni bir-ikki qaytarishdayoq yodlab oladilar. Masalan, bekinmachoq o'yinini o'ynash oldidan aytiladigan "sanashlar". Bekinmachoq o'yinini o'ynashlarida hech qanday ma'no yo'q, lekin juda ifodali va jarangli ritmika bor.

Bog'cha yoshidagi bolalarda emotsional xotira yaxshi bolsa ham, lekin xotiraning bu turi bolalarga nisbatan katta odamlarda kuchliroq bo'ladi. Katta odamlar kuchli emotsional ta'sir qilgan ba'zi narsa va hodisalarni hech vaqt eslaridan chiqarmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar esa kuchli emotsional ta'sir qilgan narsalarni ham ba'zan eslaridan chiqarib qo'yishlari mumkin. Bolalar xotirasini o'stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bola bilan gaplashganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Xotiraning taraqqiyoti bolaning bog'cha yoshi davrida tugallanmay, bolaning bundan o'sib boradi.

2. Sezgilarning normal rivojlanishi bola idrokining taraqqiyoti uchun zamin bo'ladi bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolaning idroki ancha rivojlangan bo'lsa ham, xali

katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. birinchidan bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda turmush tajribasi yo‘qligi tufayli ularning idroklari ham anglashilmagan xarakterga ega bo‘ladi. Ular ko‘p narsalarga birinchi marta duch keladilar. Shuning uchun bolalar idrok qiladigan ko‘p narsalar ularga yengillik, ya’ni dastlabki taassurot kuchiga ega bo‘ladi. Ikkinchidan esa bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning idroki ko‘pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo‘ladi, ya’ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni ko‘zlash xali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko‘chib ketaveradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bo‘lgani uchun ular o‘zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg‘otadigan narsalarni idrok qiladilar. Masalan, yorqin rangli va tovushli o‘yinchoqlar suratlar va hokazolarga qiziqadilar. Odatda, affektiv holatga berilishini yoki affektiv ta’sirlanishi bola kattalar bilan muloqotda psixik jihatdan qoniqmaslik hosil qiladi. Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, “portlash”, “lov etish” xususiyatiga ega bo‘lgan affekt quyidagi sabablar bilan vujudga keladi:

- ✓ kattalar bolaning hohish-istaklarini tushunmasligini, imo-ishorasi va yuz-chehra harakatlariga, pantomimikasiga (yuz bilan tana harakatlari qo‘shilishi) e’tiborsizligi;
- ✓ bolaning ixtiyorsiz xatti-harakatiga batamom qarshilik ko‘rsatishi, shuningdek, uning talabini bajarmasligi, qoniqtirmasligi;
- ✓ boladagi o‘zgarishlarga oid bilimlardan bexabarligi, bu o‘zgarishlarni oldindan seza olmasligi va boshqalar.

Jazavaga tushishning xususiyati va darajasi bolaning yashash sharoiti hamda, kattalarning munosabatida o‘z ifodasini topadi va mahalliy mezonlar yordami bilan aniqlanadi, kattalar yordami bilan aniqlab boriladi.

Bir yoshli va undan sal oshgan bolaning har xil harakatli o‘yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ko‘zlangan ishni bajarishidagi noxush kechinmalar uning ruhiy dunyosida dastlabki jazava (affektiv) tuyg‘u va hisni vujudga keltiradi. Shuningdek, o‘z faoliyatida uchraydigan ko‘ngilsiz voqealarga shaxsiy

munosabatni bildirish aks ettirishning yangi shakli ta'sirlanish (reaksiyaga kirishni tarkib toptiradi. (yig'lashi, qaysarlik qilish, kulish, gapirish)

Achchiqlanish, jahl qo'zg'alishi, gapirishi, qahru-g'azab tuyg'ularining xususiyatini tadqiq qilgan T.YE.Konnikova ma'lumotlariga binoan, bir yoshli bolada ko'pincha bezovtalanish, xatti-harakatdagi "portlash", qahri qattqlik yuzaga keladi. Olimaning fikricha, uning psixikasida paydo bo'layotgan xulq hosilasi tirishqoqlikning o'ziga xos ko'rinishidan iborat bo'lib, u o'zi yoqtirgan narsani tezroq qo'liga olish hohishi bilan uzviy bog'liqdir.

Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning tili chiqishi bilan idrokida ham o'zgarish yuzaga keladi. Chunki bola atrofidagi katta odamlarning nutqini tushunib idrok qilish bilan narsalar haqidagi tajribasini oshiradi va shu yo'l bilan notanish narsalarni bilish imkoniyati kengayadi. Bolalar idrokining takomillashuvida so'zning ahamiyati shundan iboratki, so'z o'z mohiyati jihatidan umumlashgan xarakterga ega bo'lib, u narsalarni umumlashtirish imkonini beradi. Bola so'z yordamida o'xshash narsalarni oddiygina guruhlariga ajrata boshlaydi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqi chiqqan bo'lishiga qaramay, ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalarni to'g'ri idrok qila olmaydilar, chunki ularda xali turmush tajribasi yo'q. Bunday murakkab tushunchalar kundalik hayot davomida sekin-asta hosil qilib boriladi.

Shunday qilib, bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalar idrokining rivojlanishida nutqning roli nihoyatda katta. Ana shuni nazarda tutib, ota-onalar, tarbiyachilar kattalar nutqdan idrokni rivojlantiruvchi vosita sifatida keng foydalanishlari kerak. Buning uchun bolalar bilan ko'proq gaplashish, ularga erinmay tevarak-atrofdagi turli xil narsalar haqida so'rab berish, bolaning turli tuman savollariga tushunarli qilib javob berish kerak.

Maktabgacha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti:

nutq, tafakkur, xayol

Bola nutqni egallagan holda tug'ilmaydi. Bola nutqining taraqqiyoti uning atrofidagi katta odamlar tilining ta'siri ostida rivojlanib boradi. Bolaning atrofidagi katta odamlar onasi, otasi, akasi, ukasi kabi qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o'rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqa boshlaydi. Yangi tug'ilgan bolada nutq bo'lmasada ularda qandaydir ovoz chiqarish, ya'ni yig'lash xususiyati bo'lib, bu xususiyat tashqi va ichki muxitdan keladigan signallarga ochlik, tashnalik bog'liq bo'ladi. Ortiqcha qattiq tovushlar ham bolani cho'chitib yuboradi. Bola 2 – 3 xaftalik bo'lgach, unda tovushlarga nisbatan elementar tarzda bo'lsa ham reaksiya yuzaga kela boshlaydi. Unday keyingi davrda esa, ya'ni bola 2 – 3 oylik bo'lgach tovush bilan tovush chiqarayotgan manba o'rtasida assotsiatsiya maydonga keladi. Bunda bola tovush eshitilayotgan tomonga qarab boshini buradigan bo'ladi. Yasli yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishiga katta ta'sir qiluvchi momentlardan biri atrofidagi kattalarning nutq orqali qiladigan munosabatlariga ijobiy qarashlaridir. Bolalar borgan sari katta odamlar bilan ko'roq munosabatga bo'lishga intila boshlaydi. Katta odamlarning gaplariga taqlid qiladigan bo'ladi. Ana shu tariqa sekin – astalik bilan bolaning tili chiqa boshlaydi. Bola 6 oylik bo'lgach ayrim tovushlarni birlashtirib “aya”, “a – yya”, “da – da” kabi so'zlarni qayta – qayta aytadigan bo'ladi. O'tkazilgan tekshirishlarning ko'rsatishicha, bolalarning so'zlarini tushunishlari har bir so'zni ifodalab beruvchi tovushlarning aniq idrok qila olishlariga emas, balki tovushlarning intonatsiyalarini payqab ola bilishlariga asoslanadi. Masalan: kichik yoshdagi bolaga “chapagiga xo –xo chapagiga” deb, chapak chalishga o'rgatiladi. Ana shu so'z aytilishi bilan bola chapak chalaveradi. Bordi–yu ana shu so'zni boshqa so'z bilan almashtirib qo'ysak bola payqamaydi. Bolalar so'zlarni ifodalavchi tovushlarni sekin – astalik bilan farqlaydilar. Bolalar biladigan so'zlarni miqdori turli bolalarda turlicha bo'ladi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, O'zbekistondagi juda ko'p oilalarda katta odamlar ikki tilda rus va o'zbek gaplashadilar. Bu ikki tillik muhit, albatta bolaning tili chiqishiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola har ikkala tilni ham barobar egallay boshlaydi va qaysi tilda gapirishni bilmaydi. Ana shuning uchun bola yoshlik chog'ida o'z ona tilini egallashi kerak. Ikkinchi til ona tili o'zlashtirilgandan so'ng egallay boshlansa, yaxshi bo'ladi.

Bolalarning nutqni egallashlari ikki davrga ajratiladi. Birinchi davr bir yoshdan bir yarim yoshgacha davom etadi. Bu davrda bolalar yigirmata – o'ttiztacha so'zlarni biladilar. Masalan: “oyi”, “aya”, “bobo”, “dada” kabi. Ana shu so'zlar bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni ham biladilar. Chunonchi “ma”, “ol”, “ber” kabi so'zlar. Bola odatda afrim so'zlarni uzuk – yuluk, imo – ishora bilan bir amallab aytib beradi. Bunday nutqni “situativ nutq” deb ataladi. Chunki bunday chala – chulpa nutqning ma'nosini bolaga eng yaqin odamgina, ya'ni uning onasi yoki dadasigina tushuntirib bera oladi.

Bola nutqining taraqqiyotidagi bu davrning xarakterli belgisi shundan iboratki, bola aytib bera oladigan so'zlar miqdori juda kam bo'ladi. Chunki uning aktiv lug'ati juda sekinlik bilan boyib boradi. Bola kishilar nutqini tushunish qobiliyatining o'chishi yo'lidan boradi. Bola o'ziga qarata aytilgan so'zlarni yaxshiroq tushunadigan bo'ladi, ya'ni uning passiv lug'ati boyib boradi, lekin gapira olmaydi, boshqalarning so'zlarini kuo'proq eshitadi va nutq materiallarini singdirib borib shu materiallardan keyinchalik o'z nutqida foydalanadi. Madomiki, shunday ekan pedagog – tarbiyachining vazifasi bolalar idrok qiladigan nutq materiallarining mumkin qadar boy rang – barang va to'g'ri bo'lishga g'amxo'rlik qilishdir.

Nutqning o'sishidagi ikkinchi davr odatda bola bir yarim yoshga to'lgandan keyin boshlanadi. Bu davr asosan aktiv lug'atning tez o'sishi bilan xarakterlanadi. Bola aytadigan so'zlarning miqdori birdaniga ortib ketadi. Bolaning katta odamlar nutqiga taqlid qilishi yangi so'zlarni bilib olishga juda muhim rol o'ynaydi. Shuni aytish kerakki, bola dastlabki so'zlarni ham taqlid qilib o'rganadi. Lekin endigi taqlid xarakteri keskin o'zgardi. Ilgari bola ko'p jihatdan ko'r – ko'rona, ya'ni ongsiz ravishda taqlid qilar edi. Endi bolaning taqlidi aktivroq hamda

mustahkamroq bo'la boradi. Ilgari bola yangi so'zni anchagina qiyinlik bilan o'zlashtirgan bo'lsa, endi o'z lug'atini osonlik bilan boyitib boradi. Ikki yoshga to'lish oldidan bolaning nutqi ma'noli bo'lib boradi. Ilgari bolaning so'zlari asosan uning ehtiyojlarini ifodalagan bo'lsa, endi nutqning nom berishi funksiyasi tobora kuchayib boradi. Narsalarning o'z nomi borligiga bola tajribada ko'rib ishonadi. Bolaning o'ta sinchkovligi "bu nima?" "nomi nima?" degan savollarida yaqqol ko'rinadi. Bundan tashqari bolaning miyasida narsa bilan uning nomi ya'ni so'z o'rtasida yangi assotsiatsiyalar paydo bo'ladi. Birinchi va ikkinchi signallar sistemalarining o'zaro bog'lanishlari tobora mustahkamlanib boradi bog'chaga tarbiya yoshida bola nutqining grammatik tomoni ancha o'zgaradi. Dastlabki paytlarda narsalarning nomini bildiradigan otlar ko'proq ishlatiladi. Bola ikki yoshga to'lish oldidan ish – xarakterning nomini bildiruvchi fe'llarni ham to'g'ri ishlata boshlaydi. Ikki yoshga to'lib uch yoshga qadam qo'yganida esa bola fazoviy munosabatlarni bildiradigan ba'zi bir ravishlarni, masalan: "orqada", "yuqorida", "pastda" degan so'zlarni bilib ishlatadigan bo'ladi. Bola ikki yoshga to'lganda tili ancha rosa chiqib uning nutqida bosh va ergash gapdan tuzilgan dastlabki qo'shma gaplar ham paydo bo'la boshlaydi. Lekin bog'chaga tarbiya yoshidagi bolalarning gaplaridagi so'zlarning grammatik jihatidan bog'lanishi ancha noaniq bo'ladi. Biroq, grammatik formalarni shu tariqa bilishga intilish bola nutqining o'sishida sifat jihatidan yangi bosqich hisoblanadi. Bog'chagacha tarbiya yoshining oxirigacha borib tevarak atrofdagilarning nutqini tobora mukammalroq tushunadigan bo'ladi. Katta yoshli kishilarning aytib bergan hikoyalarini kichik she'rlarni, ashula va ertaklarni jon – dili bilan tinglaydilar. Bola o'ziga berilgan savollarni tushunib, ularga javob beradi. Bolaning o'zi ham kattalrga tobora ko'proq savol beradigan bo'ladi. Shunday qilib kattalarning ma'qullashi, maqtashi, koyishi va taqiqlashiga to'g'ri munosabatda bo'la boshlaydi. Bola bog'cha yoshiga yetgach, so'z boyligining ancha ortishi bilan birga ayrim jummalarni grammatik jihatdan to'g'ri ishlata boshlaydi. Agar 2 yashar bolaning so'z zapasi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 7 yashar bolaning so'z zapasi 4000 tadan 5000 tagacha

bo'lad, uch yashar bolaning so'z zapasi 1000 tadan 1200 tagacha bo'lad. Demak bog'cha yoshidagi davrda bolaning so'z zapasi juda tez ortadi. Bu yoshda bolaning nutqi faqat miqdor jihatdangina ortib bormay balki sifat jihatidan ham ancha takomillashadi. Masalan: yasli yoshidagi bolalar ancha so'z zonasiga ega bo'lishlarig qaramay, ayrim tovushlarni r, l, y, sh, z kabi yaxshi farqlay olmaydilar va shu tufayli so'zlarni noto'g'ri talaffuz etadilar. Bundan tashqari, bog'cha yoshidagi bolalar o'z ona tillarining grammatik tuzilishini amaliy tarzda o'zlashtira boshlaydilar.

So'z zapaslari miqdor jihatidan bog'cha yoshidgi bolalarning hammasida bir xil bo'lmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar so'z zapasining miqdori asosan bola tarbiyalanib o'sayotgan oilaning madaniy saviyasiga bog'liqdir. Bir xil oilalarda bola nutqining o'sishi bilan maxsus ravishda shug'ullaniladi. Boshqa bir oilalarda esa bola nutqining o'sishi bilan mutlaqo shug'ullanmaydilar. Ana shuning natijasida bog'cha yoshidagi bolalar so'z zapasi o'rtasida sezilarli farq yuzaga keladi. Agar yasli yoshidgi bolalarning nutqi asosan ular ayni shu chog'da idrok qilib turgan narsalar va harakatlar bilan bog'liq bo'lsa, bog'cha yoshidiga bolarning nutqi hozir idrok qilib turgan narsalardan tashqari ilgari idrok qilingan narsalar hamda hayoliy narsalar bilan ham bog'liq bo'lad. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalar katta kishilar aytib yoki o'qib borgan ertaklarni sistemali va izchil ravishda qayta aytib bera oladilar. bog'cha yoshida bolalar nutqni faqat og'zaki nutqni juda tez egallaydilar. Shuning uchun ular o'z ona tillarining grammatik tuzilishini ham faqat og'zaki tarzda o'zlashtiradilar. Biroq shuni aytib o'tish kerakki, bog'cha yoshidagi bolalarning o'z ona tillari grammatikasini ayrim tomonlarini o'zlashtirishlari maktab bolalarining o'zlashtirishlaridan batamom farq qiladi. Bog'cha yoshidagi bolalar grammatik qoidalarni o'qib o'rganib yodlarida saqlab qolmaydilar. Ular ot, fe'l, sifat, olmosh, suffiks, kelishik kabi grammatik kategoriyalarning borligini ham, nima ekanligini ham bilmaydilar. Shuning uchun ular grammatikaning juda ko'p qo'llaniladigan eng sodda qoidalarini kattalarning nutqlari orqali mazmunli o'yinlarda taqlidiy yo'llar bilan amaliy ravishda

o'zlashtira boradilar. Ma'lumki nutqning o'sishi jarayonida bolalar so'z turkumlaridan otlarni tez o'zlashtiradilar. Bunga asosiy sabab shundaki, bolalar narsalarning nomlarini otlarini o'z nutqlarida ko'proq ishlatadilar. Bog'cha yoshidagi bolalar so'z zapaslarining asosiy ko'pchiligi otlardan iborat ekanligi ajablanarli hol emas. O'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalari otlarni ko'plik, birlik, bo'lishli, bo'lishsiz shakllarida va turli kelishiklarda to'g'ri ishlatadigan bo'ladilar. Katta guruh bolalari so'zlarni to'g'ri talaffuz eta oladilar. Shuning uchun ular o'zlaridan kichik yoshdagi bolalar gaplarini grammatik jihatdan xat so'zlaganlarida, "bunaqa deb bo'lmaydi" deb ularning nutqlarini to'g'rilaydigan bo'ladilar. Otlardan so'ng bolalar so'z turkumlaridan fe'llarni va sifatlarni o'zlashtira boshlaydilar. Fe'llarning shaxs qo'shimchalarini osonlik bilan egallasalar ham, lekin fe'llarning zamonga qarab o'zgarishini hozirgi, o'tgan va kelasi darhol to'g'ri o'zlashtira olmaydilar. Bog'cha yoshidagi kichik bolalarda turmush tajribasi juda oz bo'lganligi tufayli ularda o'tgan va kelasi zamon tushunchalar xali shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular o'z nutqlarida fe'llarning zamon qo'shimchalarini almashtirib yuboradilar. O'rta va katta guruh bolalari fe'llarning tuslanishi va zamonga qarab o'zgarib borishini ham amaliy tarzda to'g'ri ishlatadigan bo'ladilar.

Tarbiyachi – pedagog bolalar nutqining rivojlantirish bilan shug'ullanar ekan, bog'cha yoshidagi bolalar ba'zi hollarda o'z nutq apparatlarini to'la idora eta olmasliklarini unutmaslik kerak. Bundan tashqari bog'cha yoshidagi bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir – biridan farq qilish qobiliyati xali to'la takomillashmagan bo'ladi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi ba'zi bolalar ayrim nutq tovushlarini buzib talaffuz etadilar. Odatda bunday bolalarni tili chuchuk bolalar deb ham yuritiladi. Tili chuchuklik nuqson emas. Buni asta – sekin tuzatish mumkin. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri bola bilan to'la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir. Tarbiyachi buni ota – onaga ham tushuntirishi kerak. Chunki, odatda ayrim ota – onalarga o'z bolalarini ortiq darajada erkalab, ular bilan bolalarcha, ya'ni bolaga o'xshab tilini

chuchuklantirib gaplashadilar. Tili chuchuk bolalarning “tili shirin” deb uning talaffuziga moslashishga harakat qiladilar. Bunday qilish aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan xatodir. Chunki bolalar talaffuzidagi nuqson maktabga borgunlaricha to‘g‘rilanmasa, bu narsa bolalar nutqining umumiy o‘shishiga ta’sir qilmasdan qolmaydi. Tili chuchuk bolalar nutqidagi bu nuqsonni tugatmay maktabga chaqirilsa, boshqa bolalar ularga “soqov” deb laqab qo‘yadilar. Natijada bunday laqabni xadeb eshita bermaslik uchun bunday bolalar kam gapiradigan, o‘zlarini chetga olib yuradigan bo‘lib qoladilar. Bog‘cha yoshidagi bolalarning nutqi yasli yoshidagi bolalar nutqiga nisbatan ancha taraqqiy etgan bo‘lsa ham xali ularning gaplashishlariga qarab turib nihoyat darajada so‘z yetishmayotganini payqash oson. Chunonchi kichik va o‘rta yoshdagi bog‘cha bolalarining jumllarida “anaqa”, “anu”, “nima”, “indin”, “keyin” kabi noaniq iboralar juda ham ko‘p bo‘ladi. Katta guruh bolalarida esa bunday iboralar kamroq uchraydi.

Shuni ham e’tirofdan chetga qoldirmaslik kerakki, nutq faqat boshqa odamlar bilan amalga oshiriladiganaloqa vositasigina bo‘lib qolmay, balki u bolalar uchun hulq – atvorlarini boshqarish vositasi hamdir. Turli yoshdagi bog‘cha bolalari o‘z hulq – atvvorlarini, ya’ni ma’lum ijtimoiy sharoitda o‘zlarini qanday tutishlarini tafakkur orqali o‘ylab idora qiladilar. Bunda nutqning roli birinchi darajali ahamiyatga egadir. Odatda kichik yoshdagi bog‘cha bolalarining nutqlari ikkinchi bir odamga emas, balki o‘zlariga qaratilgan bo‘ladi. Masalan: “Anvar uxlaydi”, “Anvarning qorni ochdi” deb gapiradilar.

Bolalarning ana shunday o‘zlariga qaratilgan nutqlarni egotsentrik nutq deb yuritiladi. Katta yoshli bog‘cha bolalarida egotsentrik, ya’ni o‘z – o‘ziga qaratilgan nutq tugallanib normal holga keladi.

Shunday qilib asosiy aloqa vositasi bo‘lgan nutq bola psixikasining taraqqiyotida benihoya katta rol o‘ynaydi. Bog‘chada va oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim – tarbiya va xususan, bog‘chada ona tilidan o‘tkaziladigan maxsus mashg‘ulotlar tufayli bola nutqini normal o‘stirish mumkin. Bola bog‘cha yoshining oxirgi bosqichiga kelganda og‘zaki nutqning hamma turlaridan erkin

foydalana oladigan bo‘ladi. Bola nutqining bunday keyingi taraqqiyoti maktabda o‘qish jarayonida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri rivojlanishi. Tafakkur ham boshqa psixik jarayonlar kabi bolalarda yoshligidan boshlab taraqqiy etib boshlaydi.

Bola tug‘ilishidanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Ayrim olimlar bola tafakkurini maymun tafakkuriga o‘xshatadilar psixologlarning maymun tafakkuri haqidagi nazariyasi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Bola tug‘ilishi bilan insondir, u insonlar jamiyatida yashaydi, insonlar bilan munosabatda bo‘ladi, ularning ta’sirida o‘sadi. Bola tafakkuri avval boshdan inson tafakkuridir. Boladagi tafakkur asta sekinlik bilan, bilimli va tajribani ortishi, yashash sharoiti va oladigan ta’lim – tarbiyasining ta’siri ostida o‘tib oradi. Bola dastlab tashqi olamni va uydagi narsalarni sezish, idrok qilish orqaligina bilib oladi.

Bola asta sekin yoshi orta borgan sayin narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlik tomonlarini payqay boshlaydi, so‘ngra o‘xshash narsalarni umumlashtiradi. Masalan: 6 – 7 oylik bola yolg‘iz qolgan paytida stol oldiga emaklab kelib, dasturxonni tortib o‘ziga kerakli narsani oladi, so‘ngra krovatni oldiga borib xuddi shunday yo‘l bilan choynab yoki odevalni tortib oladi.

Yasli yoshidagi bolalarning tafakkur stixiyali emas, balki kattalarning rahbarligida rivojlanadi.

Bolalar kattalar yordamida insoniyat yordamida yaratilgan bilim va tushunchalarni egallab oladilar. Bolalarda tafakkur 1 yoshga to‘lgandan so‘ng namoyon bo‘la boshlaydi. 1 yoshdan oshib tili chiqqach o‘ziga yaqin narsalarning nima uchun kerakligini tushunadigan bo‘lib oladi. 2 yoshli bola tafakkurining eng ko‘zga tashlangan xususiyati, ular analiz qilishi va umumlashtirishi.

Bu yoshdagi bolalar idrok qilayotgan narsalarni aks ettira olmaydi.

Shuning uchun narsalarni umumlashtirganda ko‘zga tashlanib turgan tashqi belgilarga asoslanadi. Masalan: 1,5 yoshli bola olmani, koptokni, yumaloq sharni umumlashtirib olma – deydi.

Tafakkur bolaning bog‘cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, 1 dan bog‘cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining anchagina ko‘payishi, 2 dan bu davrda nutqning yaxshi o‘sgan bo‘lishi, 3 bog‘cha yoshidagi bolalarning juda ko‘p erkin va mustaqil qilish imkoniyatlariga ega bo‘lishlaridir. Bolalar tafakkurining o‘shida nutqning roli juda katta. Chunki tafakkur nutq vositasi bilan amalga oshiriladi. Nutqi bor odamda so‘zlar vositasi tafakkur bo‘lmaydi. Tafakkurning realligi nutqda ko‘rinadi. Bolalar atroflaridagi turli – tuman narsa va hodisalarning nomlarini bilib olganlaridan so‘ng asta – sekin ularni umumlashtiradigan bo‘ladi. Oilada bog‘chadagi katta odamlarning bolalar bilan muomalalari orqali bolalar faqat ayrim tushunchalarnigina emas, balki tayyor holda berilgan mantiqiy nutq formalarni tez o‘zlashtirib oladilar. Bog‘cha yoshiga yetgan bolaning so‘z zapasi tezlik bilan orta boshlaydi.

Bog‘cha yoshi davrida bolaning nutqi faqat miqdor jihatdan emas, bola sifat jihatidan ham takomillashadi. (r, l, i, sh, z) tovushlarni talaffuz qiladigan bo‘ladilar.

Bola nutqining tobora takomillashib, borishi, uning tafakkurining o‘shishi bilan chambarchas bog‘liq. Bizga ma’lumki, bog‘chaning kichik guruh bolalarida konkret tafakkur xukmron bo‘ladi. Asta – sekin uning tafakkuri mantiqiy tafakkurga aylana boshlaydi. Buning uchun esa birinchi navbatda yetarli darajada so‘z zapasi talab etiladi.

Bola so‘z turkumlaridan otni, fe’lni, sifatni va olmoshlarni o‘zlashtirib oladi. Bu o‘z navbatida bolani fikr yuritishiga ta’sir etadi. Masalan: 3 yoshli bolaga qo‘g‘irchoq va qalamni ko‘rsatib, bu nima? – deb so‘ralsa, bola “bu qo‘g‘irchoq, bu qalam” – deb nomini aytadi, 5 yoshli bola – “bu qalam, u qora, qizil” qo‘g‘irchoqni o‘ynaydi – deydi: 6 yoshli bola esa, “qalamda yozadi, uning bo‘yi uzun, rangi qora”, “qo‘g‘irchoqni o‘ynaydi, uning boshi, qo‘llari, oyoqlari va sochlari bor” – deb javob beradi.

Bog‘ yoshi davrida erkin harakat qilish maydoni yasli yoshidagi davrga nisbatan juda ham kengayib ketadi. Bu esa bolalarga juda ko‘p narsalar bilan tanishish inkoniyatini beradi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining mustaqil analiz qilish va umumlashtirish kabi fikr qilish jarayonlarini vujudga keltiradi va taqqoslashtiradi. Bola o‘zining tajribasida ancha narsani bilib olganidan so‘ng, narsalarning ichki xususiyatlari bilan ham qiziq boshlaydilar.

Shuning uchun ularda (bu nima? Nega bunaqa? Nimaga kerak?) kabi savollar paydo bo‘ladi. Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biror narsaga tushuna olmaslik, biror narsadan tajjublanish xayron qolish va natijada turli savollarning tug‘ilishi tufayli paydo bo‘ladi.

Bola asosan o‘zlarining turmush tajribalari doirasidagi narsa va hodisalar haqida fikr yuritadilar. Shuning uchun ular juda qiziq savol beradilar. Masalan: bulutlar nega yuradi?

Yulduzlar nechta?

Qorbobo odammi?

Elektr toki qayerdan keladi?

Simga qo‘ngan chumchuqlarni tok urmaydimi?

Nega yomg‘ir yog‘adi?

Nega qor oq bo‘ladi?

Yuqorida keltirilgan savollardan ko‘rinib turibdiki, bolalar har sohaga doir savollar berar ekanlar ularning savollarini juda qiziq bo‘lishini bir nechta sabablari bor:

- ✓ Bolalar tevarak atrofdagi narsa va hodisalarni qanday bo‘lsa shundayligicha, ya’ni yaxlit holda aks ettiradilar:
- ✓ Ularda narsa va hodisalarni chuqur analiz va sintez qilish xususiyati o‘smagan bo‘ladi:
- ✓ Ularda tabiat va jamiyat hodisalariga doir ilmiy tushunchalar hali tarkib topmagan:

- ✓ Ularning turmush tajribalari oz bo‘ladi. Shuning uchun ular bilishga intilib savollar beraveradilar.

Ularning bu savollariga ahamiyat bilan qarash kerak. Bolalar o‘z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, boladagi qiziquvchanlik, sinchkovlik susayadi. Juda ko‘p ota – onalar va tarbiyachilar bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar “ko‘p mahmadona bo‘lma!” “Sen bunday gaplarni qayerdan o‘rganding?” deb jerkib beradilar. Natijada bola o‘ksinib, o‘z bilganicha tushunishga harakat qiladi. U albatta ko‘p narsalarni xato tushunadi va bu tushunish juda uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi.

Masalan: 6 yoshli bolalar endilikda hodisalarni sababini izohlashag urinadilar.

Yura ismli bola “menchi, yulduzlar nimadan paydo bo‘lganini bilaman – osmonda katta teshik – teshik to‘r bor. To‘r ustida katta gulxan yonib turadi. To‘rning teshiklaridan yulduzlar ko‘rinib turadi” – deb o‘zicha tushunishga harakat qiladi.

To‘g‘ri, bolaning bunday savollariga javob berish qiyin, chunki ular o‘zlari hali mutlaqo tushunmaydigan narsa va hodisalari haqida savol beradilar. Lekin tarbiyachi bolaning yoshiga mos qilib, yaxshilab tushuntirib berishi zarur. Masalan: “Yomg‘ir qayerdan yog‘adi?” degan savolga 6 yoshli bola: “Yomg‘ir osmonda yashaydi, uning uyi bulutlardan ham balandda. Bulutlar ochilib ketganda, yomg‘ir yiqilib ketadi” deb tushuntiradi. Shunday paytda tarbiyachi sovuq oynaga issiq par bilan ta’sir qilganda suv zarrachalarining yuzaga kelishini misol qilib ko‘rsatib, boladagi afsonaviy tushunchasini yo‘qotib, ilmiy tushunchani, yomg‘irning yuzaga kelishini sodda va tushunarli qilib tushuntirishi zarur.

Ma’lumki, ayrim bolalar haddan tashqariko‘p savollar beradilar, boshqa bir bolalar esa deyarli xech bir savol bermaydilar.

Bolalar har sohaga doir juda ko‘p savol berishi ijobiy xarakterga ega bo‘lib, bolaning qiziquvchanligi, aktivligi va mustaqilligidan darak beradi.

Odatda juda passiv va tortinchoq bolalar hech bir savol bermaydilar.

Bunday bolalarga turli mashg'ulotlardan, ekskursiyalar paytida tarbiyachining o'zi savol berishi va shu bilan ularni aktivlashtirishi lozim.

Bog'cha yoshi davriga kelib bolada tafakkur turlari ham taraqqiy eta boshlaydi. Bog'chaning kichik guruhlarida (3-4) bolaning tafakkuri – ko'rgazmali harakat tafakkuridan iborat bo'ladi. Bola bilayotgan obyektlarni o'z qo'llari bilan timirskilab, “amaliy harakat” orqali bo'laklarga ajratib quradi, idrok qilayotgan narsalarni birlashtiradi, solishtiradi va taqqoslaydi, analiz, sintez qiladi. Masalan: bola o'z o'yinchog'ini “ichida nima borligini” bilish maqsadida bo'lak – bo'lak qilib sindirib, uni analiz qiladi: kubiklardan “uy” yasab sintez qiladi. Bog'cha yoshi bolalarida ko'rgazmali, obrazli – tafakkur xukmron bo'ladi.

Bolalar faqat o'zlari idroq qilgan va tasavvur qilishi mumkin bo'lgan to'g'risidagina tushunchalarga ega bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalar konkret narsalar to'g'risidagina fikr yurita oladilar. Shuning uchun ham ularda mavhum tafakkur bo'lmaydi. Bola o'zining fikr yuritishidan konkret faktlarda asoslanganligi uchun, u narsalarning rangiga alohida e'tibor beradi. Masalan: o'tkazilgan tajribalar shunpi ko'rsatadiki, bolalarga “Qizil shapkacha” ertagini o'qib berilgandan so'ng, ulardan tarbiyachi: “bolalar, qizil shapkacha cho'g'dek qizil va xavo rang shapkacha kiyib olgan edida?” deb so'raganida, bolalar: “yo'q, yo'q xavo rang ko'ylakda va qizil shapkachada edi” – deb e'tiroz bildirishadi. Bu misoldan ko'rinib turibdiki, bolaning tafakkuri konkret, ko'rgazmali obrazli xarakterga ega ekan. Shuning uchun tarbiyachilar buni hisobga olgan holda ta'limiy mashg'ulotlarni doimo ko'rgazmali asosda o'tkazishlari zarur.

Bog'cha yoshi bolalarida mantiqiy tafakkur hali o'sa boradi. Ayrim g'arb olimlari bolalarda 7 yoshgacha mantiqiy fikr yuritishga mutlaqo qodir emaslar” – deb ta'kidlaydilar. Shuning uchun ular bolalar tafakkuridan rivojlantirish ustida ishlashning hech keragi yo'q deb da'vo qiladilar. Bu fikrlar mutlaqo noto'g'ri chunki bola o'zining o'tkir va aniq mulohazalari bilan kattalarni xayratda qoldiradi. Bundan tashqari bola o'zi tushuna oladigan materiallar doirasida to'g'rini noto'g'ridan farq qiladi, u o'zi idrok qilayotgan so'zlarning real voqelikka

mofiq kelishi kelmasligini aytib bera oladi: masalan: 5 yoli qiz suvratga tushib turib, bundaydeydi: “O‘rmondan archa olib kelishyapti, nega archada yulduz bor: yulduz archaga uyda taqilladiku? Yoki yana bir misol: Otasi qiziga poyezdning suvratini chizib berdi. Vagonning eshigini sur‘atini chizdi-yu, ammo zinaning suvratini solmadi. Qiz otasidan so‘radi: “Vagonning zinasi qani?” – “Narigi tomonda” – “undoq bo‘lsa nega bu yerda eshigi bor?” bu misollardan ham ko‘rinib turibdiki, bola mantiqiy fikr yuritib, to‘g‘rini noto‘g‘ridan ajrata olar ekan. Bola endilikda bog‘cha yoshiga yetganda mantiqiy tafakkurning formalari – xukm va xulosa chiqarishning asosiy turlarini o‘zlashtirib oladilar. Bog‘cha yoshidagi bolaning tafakkurida boshqa kishilardan tayyor oladi. Bu yoshdagi bolalarda hali mantiqiy tafakkur o‘smaganligi uchun, ular kattalarning fikrini chin deb qabul qiladilar va “Oyim shunday degan edi” – vajni keltiradilar. Bog‘cha yoshidagi bolalarning tafakkuri cheklanmagan bo‘lganligi uchun, ular asosan o‘z turmush tajribalarini umumlashtirib, narsa va hodisalar to‘g‘risida noto‘g‘ri xukm va xulosalar chiqaradilar. Masalan: 6 yoshli qizchadan: “Nima uchun tarelkadagi nonni stolning utiga qo‘yiladi” – deb so‘ralganda – “tarelka yerga tushib ketmasligi uchunda!” – deb javob bergan. Bog‘cha yoshidagi bolalarning tafakkurlari ularning idrokiga bevosita bo‘ysingan bo‘ladi, shuning uchun bolalar fazoda ortiqroq o‘rin egallagan narsani kattaroq bo‘ladi, deb noto‘g‘ri xulosa chiqaradilar. Masalan: Fransuz psixolog J. Piaje quyidagi tajribani o‘tkazadi. Bolalarga hamirdan qilingan mutlaqo bir xil va xajm jihatdan baravar soqqalarni ko‘rsatadi. Har bir bola diqqat bilan qarab, soqqalarni, o‘zaro bir – biriga teng deb aytadi. Shuning uchun bolalarning ko‘zlari oldida soqqaning bittasini ezib, non shaklidagi hamir stol ustida ko‘proq joy egallab turganini darhol ko‘radilar va soqqaga qaraganda non shaklidagi hamir ko‘proq degan xulosaga keladilar. Bog‘cha yoshining katta guruhlariga kelib, bolalar narsa va hodisalar o‘rtasidagi sabablarni tushuna boshlaganlaridan so‘ng, shu hodisalar haqida mulohaza yuritib, induktiv va deduktiv yo‘llar bilan to‘g‘ri xulosalar chiqara boshlaydilar. Masalan: “Temir og‘ir narsa bo‘lgani uchun suvda cho‘kadi, yog‘och yengil bo‘lgani uchun u oqadi”,

“urug‘ni yerga eksa, ko‘karib chiqadi” – degan xulosalar chiqadilar. Bu yoshdagi bolalar o‘zlarining tafakkur jarayonlarida ilgari idrok qilgan narsalariga tayanib ham xulosa chiqaradilar. Masalan: 6 yoshli boladan: “Yong‘oq suvda cho‘kadimi yoki oqadimi?” – deb so‘ralganda u “oqadi” deb javob bergan, bolaning to‘g‘ri javob berganligini sababi, u o‘zining tajribasida yong‘oqning suvga tashlab ko‘rgan. Bolalar juda qiziquvchan bo‘lganliklari sababli o‘z mulohazalarida aniq xulosalar chiqara boshlaydilar. Masalan: Gulnora (5 yosh 8 oy) “Otam uzoq muddatli komandirovkaga ketdi” – deb aytadi. “Sen qayerdan bilasan” – deb so‘rashsa, “Otam katta chamadonni oldi” – deb javob bergan. (haqiqatdan ham otasi qisqa muddatli komandirovkaga ketsa odatda kichik chamadonni oladi). Bog‘cha yoshi davriga kelib, bolaning tushunchalari konkret va sermazmun bo‘la boradi. Endilikda bolaning tushunchalari yasli yoshidagi bolalar tushunchasida sermazmun bo‘ladi, ya’ni bog‘cha bolalari tushunchasida narsalarning belgilari ko‘proq aks etgan bo‘ladi. Odatda ular narsalarning istemol qilishini va nima uchun kerakligini shu narsaning eng muhim belgisi deb biladi. Masalan: “Piyola nimaga kerak?” “piyolada choy ichiladi”, “O‘t nimaga kerak?” “O‘tni sigir va qo‘y yeydi”. “sigir qanday xayvon?” “Sigir sut beradigan xayvon”. “Ot qanday xayvon?” “ot miniladigan xayvon”. Bog‘cha yoshi bolalarining tushunchalari konkret bo‘ladi., obstrakt tushunchalar bo‘lmaydi, bolalar faqat o‘zi idrok qilgan va o‘zi tasavvur qilishi mumkin bo‘lgan narsalar to‘g‘risidagina tushunchalarga ega bo‘ladilar. Masalan: bu yoshdagi bolar yaxshi buvi to‘g‘risida, chiroyli gul to‘g‘risida, bir – biriga teng kubiklar to‘g‘risida fikr yuritishi mumkin, lekin ular yaxshilik, go‘zallik, tenglik to‘g‘risida fikr qila olmaydilar. Demak, bu yoshdagi tushunchalari konkret bo‘lar ekan. Shuning uchun ular obstrakt tusda berilgan oddiy vazifalarni hal qila olmaydilar. Bog‘cha yoshiga kelib, bolalarning fikrlash (protseklari) qobiliyatlari ham takomillashib boradi. Bola endi narsa va hodisalrni analiz va sintez, narsalarni muhim belgilariga qarab umumlashtiradi. Bir – biriga taqqolab o‘xshash va farq tomonlarini aniqlay boshlaydi. Masalan: Bolaga qo‘g‘irchoqni ko‘rsatsak, u shunday analiz qiladi. “Bu qo‘g‘irchoq, uning ikkita

ko‘zi, ikkita qo‘li va oyog‘i, bor: ko‘zlari qora rangda. Quydagi ham chiroyli ekan, manga yoqdi” – deydi. Bolalarda narsalarni muhim belgilariga qarab umumlashtirish qobiliyati ham yuzaga keladi. Masalan: bola – “Olma, o‘rik, non, olcha, uzum, anor, behi, shaftolilarni” meva”. Deb ataydi. Bola endi “meva” degan umumiy tushunchalardan o‘z nutqida erkin foydalana oladi. Shuningdek, bola narsalarni bir – biriga taqqolab, o‘xsha va farq tomonlarini ajrata boshlaydi.

Masalan: “Kvadrat va to‘rtburchakni taqqoslab, kvadrat va to‘rtburchakni to‘rt tomoni bor, shuning ular o‘xshash. Lekin farqi shundaki, kvadratni to‘rtala tomoni va to‘rt burchagi teng, to‘rtburchakning esa qarama – qarshi tomonlari teng.” Bog‘cha yoshi davrida bolalar oddiy masalalarni yechish haqida fikr yuritishga va u haqida so‘zlab berishga imkon beradi. To‘rt besh yoshli bola masalani amaliy harakat bilan yechadi va u haqida nutqi orqali so‘zlab beradi. Masalan: 4 yoshli bola kuch bilan ilinib qolgan, turbadan bayroqchali tayoqchani tortadi, lekin chiqara olmaydi. Shunda bola truba ichiga yuqoridan qarab tayoqchani ehtiyotkorlik bilan aylantiradi va bayroqchani chiqarib oladi. Masala hal etildi. Demak kichik guruh bolalari masalani amaliy harakat orqali yechadilar va bajarilgan ishga nutqlari bilan yakun yasaydilar. 5 – 6 yoshli bolalar oldiga qo‘yilgan masalani oldindan o‘ylab, uning rejaini tuzib oladilar. Bu ichki, ovozsiz nutq orqali amalga oshiriladi. Masalani og‘zaki yechadilar: Masalan: “Daraxtga 7 ta qushcha qo‘nib turibdi. Ulardan ikkitasi uchib ketdi, daraxtda nechta qushcha qoldi?” Hozirgi kunda xalqimiz oldiga har tomonlama garmonik rivojlangan kishini tarbiyalashdek muhim vazifani qo‘ydi. Mustaqil davlat quruvchisi aqliy jihatdan yetuk bo‘lishi lozim, bu esa kishi tafakkurini yuksak darajada o‘sgan bo‘lishini talab etadi. Tafakkur esa ma’lumki, bolaning juda yoshligidan, ya’ni bog‘cha yoshi davridan rivojlantirib boriladi. Shuning uchun ham bu davrda bolani tafakkurini o‘stirishga alohida e’tibor berish zarur. Bola tafakkurini o‘stirishda turli xil ta’limiy mashg‘ulotlarni roli katta. Mashg‘ulotlar bola aqlini o‘stirishda, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Bolaning tafakkurini o‘stirishda birinchi navbatda tushunchalar hosil qilishdan boshlanadi. Dastlab, bog‘chaning kichik guruhlarida

bolalarda konkret tushunchalar hosil qilinadi. Masalan: stol, qo'g'irochq, daraxt, tarelka, shuningdek yakka tushunchalar ham hosil qilinadi. Masalan: Lekin bobomiz haqida. Bog'chaning katta guruhlariga kelib bolalarda umumiy tushunchalar hosil qilinadi. Masalan: "o'simlik:", "meva", "transport", "mebel" kabilar, bundan tashqari bolalarda hosil bo'lgan abstrakt tushunchalarni predmetlarga bog'langan holda konkretlashtirib boriladi. bolalarning fikr yuritish qobiliyatlari bog'chada o'tkaziladigan ta'limiy mashg'ulotlar, sanoq va nutq o'stirish mashg'ulotlari yordamida o'stirib boriladi. Masalan: kubiklardan uy quriladi, peramidani bo'laklarga ajratadi. Narsalarning umumiy belgilariga qarab bir guruhga kiritadi. Stol, divan, shakar, krovat, stullarning rasmini to'plab, bir guruhga kiritadi va "mebel" deb ataydi. Yoki palto, ko'ylak, jemfer, kostyum shimni bir guruhga kiritib, "kiyimlar" deydi. Bolalar umumiy tushunchalardan (mebel, kiyimlar) foydalana oladigan bo'ladilar.

Tarbiyachi bolalarga turli rasmlar solingan kvadrat lotolarni o'ynatish bilan ularning umumlashtirishga o'rgatib borish kerak. Elementar matematik tasavvurlarni o'stirish mashg'ulotlar yordamida bolalarda taqqolash qobiliyati o'stiriladi: ularni xulosalar chiqarishga va sodda masalalarni yechishga o'rgatib boriladi. Kubiklar doirachalar, kvadratlar va poloskalar yordamida bolalarga narsalarni taqqoslashga, o'xshatish va farq tomonlarini ajrata olishga, ayrim narsalardan guruh tuzish va guruh orasidan bittasini ajratib olishga narsalarni bir necha teng qismga ya'ni 2 ga va 4 ga bo'lishga o'rgatish va ularni taqqoslashga o'rgatib borish zarur.

Tayyorlov guruhlariga borganda o'n ichida tartib bilan sanashga va og'zaki masalalar yechishga o'rgatish bilan bola tafakkurini o'stirish mumkin.

Bolalar tafakkuri turli hil sayr va ekskursiyalar yordamida ham o'stirib boriladi. Ekskursiyalar bolalarda tafakkur jarayonini aktivlashga va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar ekskursiya va sayllar paytida kuzatuvchanligi ortadi, ular turli narsalarni taqqoslashga, analiz – sintez qilishga o'rganadi. Masalan: boqqa ekskursiyaga chiqqan bolalar bog'ning bir chekkasiada yer kovlayotgan toshbaqani

oyoqlarini belkurakka o'xshatsa, ikkinchi bola ekskavatorning kovushiga o'xshatadi. Bunday taqqolovchi mulohazalar bolalar tafakkurini o'stirishga aktiv ta'sir etadi.

Har bir ekskursiya ma'lum maqsadda o'tkazilishi kerak. Bizga ma'lumki, bolalar juda qiziquvchan bo'ladilar. Ular hodisalarning sababini bilishga, hamma narsaning siridan habardor bo'lishga intiladi. Bu ularning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlaridir. Ulug' rus pedagog K. D. Ushinskiy aytganidek: "Qiziqish – bu to'la fikrlashdir. Bolalar tafakkurini o'stirishda ana shu qiziqishlardan ham foydalanish lozim, chunki qiziqish bolaning bilimlarini chuqurlashtiradi. Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning tafakkuri tez suratlar bilan o'sib borar ekan, uni yanada taraqqiy ettirish va rivojlantirish hozirgi kunda bolalar muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Didaktik o'yinlar ham tafakkurni o'stiradi.

Xayolning bolalarda rivojlanishi. Yangi tug'ilgan chaqaloq bolalarda hali xayol bo'lmaydi. Hayoning rivojlanishi uchun bolagaturmush tajribasi, tasavvur zonasi hamda juda ko'p bo'limlar kerak bo'ladi. Tajriba esa bolaning tashqi olamidagi narsa va hodisalarni o'zi kuzatishi, voqeylik hamda turli sohalarga doir tasavvur hosil qilish katta odamlar bilan keng munosabatda bo'lishi natijasda ortib boradi.

Xayol jarayonining dastlabki ko'rinishlari bolada 2 yoshga bo'lib, 3 yoshga qadam qo'yganda ko'rina boshlaydi. Ikki yoshli bolalarda ko'rinadigan dastlabki xayol ma'lum bir maqsadni ko'zlamaydigan ixtiyorsiz xayoldir.

Tish chiqishi bolalarda xayol jarayonini o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu davrdan boshlab bola tevarak – atrofdagi kishilarni so'zini yaxshi tushunadigan bo'lib o'zidagi tasavvurlar zapasini bevosita idrok qilingan narsalar orqaligina emas, balki katta yoshli odamlar nutqi orqali ham to'ldirib boriladi. Bola o'ziga tushunarli mavzulardagi hikoya va ertaklarni qiziqib tinglaydi. Bunday hikoya bolaga juda tushunarli bo'ladi, chunki bola hikoyani eshitib turib bevosita, o'zining idrokiga tayanadi. Bolaning hikoya va ertaklarni, eshitishga juda ham qiziqishi va hikoya, ertaklarni tinglayotganida bolalarning tajribasini orttiradigan va xayolini

o‘stirishga yordam beradigan xilma – xil va aniq tasavvurlar hosil bo‘lishini ko‘rsatadi. Bolalar xayolining o‘shida nutqning ahamiyati yana shundaki, nutq bolaning yangi taassurotlari hosil qilishi va uni boyitish bilangina cheklanib qolmay, balki nutq miyada hosil bo‘lgan yangi – yangi obrazlarni so‘zlar bilan ifodalashga yordam beradi. “Qarang, oyi, go‘yo dengizga o‘xshaydi. Men cho‘milyapman...” deydi. Bola nutqida shu go‘yo so‘zining paydo bo‘lishi juda ham xarakterlidir. Bola xayolidagi vaziyatni shu so‘z bilan ifodalaydi, real narsalar bilan xayolidagi narsalarni bir – biridan ajratadigan bo‘ladi. Bolalar xayolining dastlabki rivojlanishida ular o‘yinining roli juda kattadir. 2 yoshga to‘lishi oldidan bolalar o‘yinida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bola turmushda ko‘rgan ish – harakatlarini o‘z o‘yinida aks ettiradi. Masalan, bola qo‘g‘irchog‘ini “ovqatlantiradi”, “yotqizib uxlatadi”, uni “erkalaydi”, “arg‘imchoqda” uiradi. Kichik yoshdagi bog‘cha bolalarining erkin xayoliy o‘yinlar tasvirlangan bunda bolalar qo‘g‘irchoqlarini xayolan arg‘imchoqda uchirmoqdalar, bir – birlari bilan gaplashtirmoqdalar. Bola katta bo‘lgani sayin o‘yinida katta yoshli kishilarning xarakterlariga taqlid qilish tobora ko‘p o‘rin egallaydi. Masalan, bola o‘ziga g‘amxo‘rlik qilayotgan onasining harakatlariga, duradgorlik, shofyor, sartaroshning harakatlariga taqlid qila boshlaydi. Bog‘chaga tarbiya yoshidagi bolalarning harakatlarida tasviriyl faoliyat elementlarining paydo bo‘lishi xayolning o‘satganidan dalolat beradi. Masalan, bola bir nimalarni qog‘ozga chizib, nimanidir tasvirlashga urinib ko‘radi. Lekin dastlab bo‘nday chizmakashlik faoliyati almoyi – aljoyi chiziqlar chizishdangina iborat bo‘ladi. Ikki yoshga to‘lganda bog‘chaga tarbiya yoshdagi bolaning tasviriyl faoliyatida yangi muhim element paydo bo‘ladi. U endi o‘zi chizayotgan rasmga nom beradigan bo‘ladi. Tasviriyl faoliyatni yuzaga kelishi bog‘chaga tarbiya yoshdagi bolaning tasavvur xayolini o‘stirishga yordam beradi. Ammo bu yoshda xayolning dastlabki nihollarigina paydo bo‘la boshlayydi, bu nihollarni diqqat – e‘tibor bilan doimo parvarish qilib turish tarbiyachi va ota – onalarning vazifasidir. Bog‘cha yoshdagi bolalar xayol bir xilda rivojlanmaydi. Agar kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida

asosan tiklovchi xayol o'sgan bo'lsa, o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida xayolning ijodiy turi ham o'sa boshlagan bo'ladi. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, ayrim burjua olimlari xayol jarayonini noto'g'ri talqin etadilar. Ularning fikrcha, xayol bolalarning yoshlik davrida juda yuksak darajada o'sgan bo'lib, bola ulg'ayib, o'sa borgan sari xayolning kuchi pasayib, uning o'rini tafakkur egallay boshlaydi. bu batamom xato fikrdir. Xayol ham boshqa psixik jarayonlar kabi bolalarda asta – sekinlik bilan, turmush tajribasining orta borishi davomida o'sadi. Lekin xayol xech vaqt bolalik chog'ida o'zining yuksak ijodiy taraqqiyoti cho'qqisiga ko'tarilmaydi. buning dalili sifatida katta odamlarning xayol qilish (xususan ijodiy xayol) qobiliyatini bolalarning xayol qilish qobiliyati bilan taqqoslab ko'rishni o'zi kifoya. Bolaning bog'cha yoshida harakat doirasining kengayishi, bilimlarining ortishi, turli xil yangi ehtiyoj va birmuncha tez sur'at bilan rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalarning xayol qilish qobiliyatlari bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalar xayolidan har tomonlama ustun turadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan ixtiyorsiz va tiklovchi xayol bo'lib, ularning turli – tuman o'yin faoliyatlarida o'sib boradi. Biroq shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyatlari ularni turli xil o'yinlar o'ynashga undasa o'yin o'z navbatida ularning xayolini o'stiradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli mashg'ulotlarda ham o'sib boradi. Masalan, bolalar loy o'ynashni, ya'ni loydan turli narsalar qurishni, yasashni (shu jumladan, plastilindan ham) qumdan turli narsalar qurishni, rasm chizishni yaxshi ko'radilar. Bu mashg'ulotlar, ayniqsa, rasm chizish mashg'uloti bolalar xayolini o'stirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshdagi bog'cha bolalarida hali ijodiy xayolning yo'qligi ularning rasm chizishda yaqqol ko'rinadi. Masalan, kichikyoshdagi bog'cha bolalarning chizgan rasmlari hamma vaqt uy ro'zg'or mavzularidan nariga o'tmaydi.

Chunki bu yoshdagi bolalar har kuni ko'rib turadigan narsalari haqidagina xayol qila oladilar. O'rta va xususan, katta guruhbolalarining rasm chizishlarida

ijodiy xayolning yuzaga kelishi aniq ko‘rinadi. Ular rasm chizishda tor uy – ro‘zg‘or mavzulari bilan cheklanib chizmay, uzoq o‘tmishi va kelajakdagi narsalarga oid rasmlar ham chizadilar. Bu yoshdagi bolalar o‘z o‘yinlarida va solgan chizmalarida katta odamlarning turli – tuman faoliyatlarini mustaqil tavirlashga intiladilar. Bunday paytda ular faqat xayoliy tasavvur etish yoki taqlid qilish bilan cheklanib qolmay, balki o‘zlari ijodiy ravishda yangiliklar ham qo‘shib beradilar. Masalan, ular syujetli o‘yin o‘ynaganlarida yangi – yangi rasmlarni o‘ylab chiqadilar (“poyezd” va “vokzal” o‘yinida poyezdda yoki vokzalda xizmat qiluvchi qishilardan tashqari passjirlarni vokzalga olib keluvchi transport, ya’ni taksi shofyor rollarini o‘ynaydilar).

Katta yoshdagi bog‘cha bolalari uylarining mavzutik rasmlarida xayoliy obrazlarni (xatto orzularni) aks ettiradilar. Shuning uchun ular ko‘pincha erkin mavzuda o‘zlarini qiziqtirgan va ayni chog‘dagi ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan narsalar haqida rasm chizadilar. ana shunday erkin mavzuda rasm chizish jarayonida bolalarning ijodiy xayol qilish qobiliyatlari o‘sib boradi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar xayolining rivojlanishiga turli xil hiqoya va ertaklar ham ta’sir ko‘rsatadi. Xalq turli qiziqarli, ibratli va ta’limiy ertaklar ijod etishda bog‘cha yoshidagi bolalarni ham unutmagan. O‘zbek xalqining og‘zaki adabiyotida yosh bolalarga tushunarli, sodda til bilan yaratilgan ertaklar mavjud. Bulardan tashqari, rus va boshqa xalqlarning tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qiligan ertaklar ham ko‘pdir. Bog‘cha yoshidagi bolalar uchun yaratilgan ertaklarning ko‘pi atropomorfizm xarakteriga egadir. Buning ma’nosi shuki, ertaklarning qaxramonlari odamlarga o‘xshab “gapiradigan” hayvonlardan iboratdir. Bolalar bunday ertaklarni juda yoqtiradilar va har doim maroq bilan tinglaydilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklaridan ularda shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma’lum munosabat yuzaga keladi. Masalan: doim yozuvlik qiladigan bo‘ri obrazini, haddan tashqari ayyor tulki obrazlarini bolalar sevmaydilar. Ularga qo‘rqoq quyon, xo‘roz, g‘oz, echki, beozor hayvonlarning xayollariga to‘g‘ridan – to‘g‘ri ta’sir etadi. Ular ertaklaridagi turli obrazlarning

qiyofasiga kiradilar. Boshqacha qilib aytganda, eshitgan ertaklari ular o'yinining mazmuniga ham ta'sir etadi.

Bolalar uchun chiqarilgan turli ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutib, pedagog – tarbiyachilar bolalarga ertak aytib berish va o'qib berishga alohida etibor bilan qarashlari lozim.

Shunday qilib, xayol bog'cha yoshidagi bolalarning taraqqiy etishlarida katta o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham bog'cha yoshidagi davrda bolaning xayoli yetarlicha o'sgan bo'lishi kerak, chunki maktabdagi o'qish birinchi kundan boshlab bolalardan xayol qilish qobiliyatining, xususan, tiklovchi xayolning yaxshi o'sgan bo'lishini talab qiladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining kommunikativ vosita sifatidagi rivojlanishi

Ilk bolalik davrida bolalar kattalarga qaram bo'ladilar, chunki ularning mustaqil harakat qilishlari qiyin bo'ladi. Hatti-harakat xulq normalarini bolalar kattalar orqali o'rganadilar. Bu davrda bola xulqining motivi anglanilmagan bo'ladi. Bolaning ichki dunyosi shakllanishi kattalarga bog'liqdir. Chunki bola kattalar kutgan muloqotni darhol bera olmaydi. Bola predmetlarga bo'lgan qiziqishini avvalo kattalarga murojaati orqali bildiradi. Kerakli yordamni nutqni qo'llash orqali oladi. Bu yerda kattalar bolaga qanday talablar qo'yishlari muhim o'rin tutadi. Kattalar agar bola bilan kam muloqotda bo'lsalar, uning nutqi rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj bolada o'z-o'zidan rivojlanmaydi, balki predmet faoliyati bo'yicha kattalarning muloqoti orqali o'sadi. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi ikki xil yo'l orqali amalga oshiriladi: kattalar nutqini tushunishi hamda bolaning shaxsiy faol nutqi shakllanishi orqali. Bola bilan onaning muloqoti faqatgina so'zlar bilan emas, balki mimika, imo-ishora, pantomimika, ohang va vaziyat kabilar orqali amalga oshiriladi. Bo'lar harakatga signal bo'lib xizmat qiladi. 2 yoshli bolalar oldida o'yinchoqlar turgan bo'lsa onasi unga "ber menga" deb o'yinchoqni ko'rsatsa darhol bola uni olib beradi. "Mumkinmas" degan so'z bolaning harakatlarini

to'xtashiga signal bo'lib xizmat qiladi. Masalan, rozetkaga qo'li tegayotganida, qizib turgan dazmolga qo'li yaqinlashayotganida, oyoq kiyimlarga qo'lini tekkazayotganida bu so'zni aytilishi bola harakatlarini to'xtashiga olib keladi.

3 yoshga to'lganda bola kattalar bilan munosabatlarga bemalol nutq orqali kirisha oladi. Bu yoshdagi bolalar hamma kiyimini o'zi kiyishga harakat qiladi. O'z ehtiyojlarini so'zlar orqali bayon qila oladi. Chunki nutqni to'la egallaydi. Bola kattalarning ko'rsatmasiga binoan hatti - harakatlarini to'g'ri yo'naltirishga o'rganadi. U kattalarning o'zaro muloqotini jon qulog'i bilan eshitadi, tushunishga harakat qiladi. Bu davrda bolalar ertak, hikoya, she'rlarni eshitishni juda yaxshi ko'radi. Bu bolaning tashqi olamni bilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. 1,5 yoshli bolalar 30-40 so'zdan 100 gacha bo'lgan so'zlarni egallaydi, holos. 2 yoshdan so'ng bolalar kattalarga juda ko'p savollar bilan murojaat qiladilar. "Bu nima?", "nimaga bunaqa?" kabi savollar bolaning nutqini o'sayotganidan dalolat beradi. 2 yoshni oxirigacha bola 300 ta so'zni o'rganadi. 3 yoshning oxiriga borib, 500-1500 gacha so'zni bilib oladi. Lekin bu yoshdagi bolalar nutqi avtonom bo'ladi, ular nonni "nanna", suvni "umma" kabi iboralar bilan ataydi. Asta-sekin kattalar bolalar bilan to'g'ri muloqotda bo'lsalar, bu avtonom nutq yo'qolib boradi, ya'ni bola har bir narsaning o'z nomi bilan ayta boshlaydi. Bolaning bitta aytgan so'zi uning aytmoqchi bo'lgan gapini ifodalab beradi. Masalan, "oyi" desa oyisi bolaga non berishi yoki suv olib berishi mumkin. Shu bilan bolaning ehtiyoji qondiriladi. Bolani muloqotga o'rgatish uning ruhiy jarayonlarini ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Bu davrdagi bolalar nimani xohlasa o'sha zahoti namoyon bo'lishi kerak. Lekin buni asta-sekin tarbiyalash orqali yo'qotish mumkin, ya'ni sabrli bo'lishni bolaga yoshlikdan o'rgatish lozim.

3 yoshli bolalarda birinchi "inqiroz" davri boshlanadi. Bu davrda bolalarda «hamma ishni o'zim qilaman», "men o'zim" degan tushunchalar shakllanadi. Ular qaysar, injiq bo'lib qoladilar. Ota-onalar bu yoshdagi bolalarga tarbiya berishda e'tiborliroq bo'lishlari lozim.

3 yoshdan so'ng bolalardagi krizis (inqiroz) davri sekinlashib qoladi.

Bolaning kattalar bilan bo'ladigan muloqotlari normallasadi. Bola bu yoshda ota-onaning diqqat markazida bo'lmaydi, chunki uning kichik ukasi bo'lishi mumkin. Hozirgacha u kattalarning diqqat-e'tiborida bo'lgani uchun endi uning fikricha ota-onasi faqat bir-biri bilan munosabatda bo'lib, unga e'tibor bermay qo'yishyapti. Unga tushunarli bo'lmagan narsalar haqida gaplashadilar. Bu unga yoqmaydi, natijada injiq bo'lib qoladi. Haqiqatda esa bola ancha mustaqil bo'lib qolgani uchun onasi undan ko'ngli to'lib, kamroq e'tibor beradi, bu esa bolaga yoqmaydi. Shuning uchun ota-ona bu davrdagi bolalarga e'tiborliroq bo'lishlari lozim. Shunday vaziyat ham bo'ladiki, oilada bola yo onasi bilan qoladi, yoki otasi bilan yashaydi. Ko'pincha bola balog'atga yetmaganligi uchun onasi bilan yashaydi. Bunday oila noto'liq oila deyiladi. Bunday oilada o'sayotgan bola avval otasi yo'qligini his qilmaydi, lekin birdaniga his qilib, u qo'zg'aluvchan, hissiyotga beriluvchan bo'lib qoladi. Bu paytda onasi qaysidir qarindoshidan iltimos qilib, otasi o'rniga bola bilan muloqotda bo'lishlarini so'rashi zarur. Ota-onalar farzandi uchun mas'uliyatlilikni his qilishlari lozim. Chunki bola ota-onasining munosabatlarida aybdor emas. Agar bola sog'lom o'ssa, uni bolalar bog'chasiga beriladi. U yerda bola yangi kishilar bilan, yangi tengdoshlari bilan yangicha munosabatlarga kirishadi.

Bu davrdagi bolalar o'yini ham o'ziga xos bo'ladi. Bolalar o'yinda turli rollarni o'ynaydilar. O'yin qoidalariga rioya qila boshlaydilar. Muloqot shakllari bola hali guruh bo'lib o'ynamasidan avval, ya'ni o'z- o'zi bilan o'ynaganidayoq shakllanadi. Bu davrda bola o'yin o'ynaganida ko'proq o'zining hatti-harakatlariga e'tibor beradi. O'zaro munosabatlar orqali bola boshqa bola bilan muloqotga kirisha boshlaydi. 4 yoshli bolalar esa ko'proq boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lishga harakat qiladilar. Bu bosqichda bolalar bir-birlari bilan o'yinchoqlarini almashtiradilar, bir-birlariga yordam bera boshlaydilar. Hamqorlikda o'ynaladigan o'yinda bolalar bir-birlarini tushunishga, bir-birlariga yordam berishga o'rganadilar. Endi bola o'zi o'ynamasdan boshqa bolalar bilan o'ynashga harakat qiladi. O'yin o'ynaganda bolalar ko'pincha boshliq bo'lishga harakat qiladilar.

Kim o'yinni tashkil qilsa u doimo boshliq bo'lgisi keladi. Shunda konflikt (nizolar) kelib chiqadi. O'yindan qoniqmagan bola "men o'ynamayman, sen bilan,"deb noroziligini bildiradi. O'yin vaziyati bolalarda nutq munosabatlarini rivojlantiradi. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z boyliklari o'yin faoliyati orqali ortib boradi. Mashg'ulotlar orqali bolalarda nutq rivojlanib boradi. Chunki mashg'ulotlarda bolalar she'r yodlaydilar, ertaklar eshitadilar.

O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar bolalar bog'chasida o'ziga xos xususiyatga ega. Bolalar bog'chasi bola uchun faqatgina tashqi olamni bilish, dunyoni hissiy baholash emas, balki o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish imkoniyatini beradigan joydir. Ayniqsa o'g'il bolalar bilan qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Bog'chada bolalar jamoasi shakllanadi. Ilk bolalik davrida bola o'g'il bola bilan qiz bolani ajrata olmaydi. O'rta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ajrata boshlaydilar. Kattalar bolaga o'g'il bola qanday bo'lishi kerakligi, qiz bola qanday bo'lishi kerakligi haqida tushuntiradilar. Masalan, o'g'il bola yig'lasa "yig'lama, sen erkak bo'lishing kerak", "qiz bolamisan?"deb, qizlarga esa "daraxtga tirmashma, sen qiz bolasan" kabi iboralar bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari bolalar katta erkak va ayollar xulq - atvorlariga qarab ham o'zlarini qanday tutishni o'rganadilar. O'yin faoliyatlarida erkak va ayollarga xos xususiyatlarni namoyon qiladilar. Demak, bu davrdagi bolalarda muloqotning shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda muloqotni rivojlantirish tarbiyachilarning mahoratiga bog'liq, ya'ni mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil qilinishi muhimdir.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar endi o'zlari mustaqil harakat qila oladilar. O'zlari yuvinadilar, qiyinadilar. Lekin baribir ular ota-onalarining erkalashlariga, diqqat-e'tiborida bo'lishga harakat qiladilar. Ota-onalar bola tarbiyasida quyidagi usullardan foydalanadilar:

1. Avtoritar uslub - boshqarish qattiqqo'llik asosida olib boriladi. Boladagi tashabbus ota-onalar tomonidan ta'qiqlanadi. Har bir hatti-harakati albatta jazolanadi. Bu usul orqali tarbiyalangan bolalar qo'rqqoq, jur'atsiz bo'lib qoladilar,

o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydilar. Chunki ota-ona unga sharoit yaratib bermaydi.

2. Liberal uslub - bu usulda ota-ona farzandiga befarq bo'ladi, u nimaga qiziqadi, nimaga layoqati borligiga qiziqmaydi. Bola nima yomon, nima yaxshiligini bila olmaydi. Natijada bolalar mustaqil va faol harakat qila olmaydilar.

3. Demokratik uslub - tarbiyaning mahsuldor usuli bo'lib, unda ota-ona farzandiga bor mehrini berib, uning qiziqishlari, imkoniyatlari bilan hisoblashadi. Bolaning erkin fikrlashini istaydi. Bu usul bolani to'g'ri tarbiyalash imkonini beradi.

Ayrim oilalarda bola yolg'iz farzand bo'lgani uchun ota-ona unga barcha mehrlarini berib, uni erkalatib, xudbin qilib qo'yishlari mumkin. Yoki bola ukalari tug'ilganda ham o'zini yomon his qiladi. Chunki ota-ona endi kichik farzandiga ko'proq e'tibor beradi. Bunday holatlarda kattalar bolaga u endi mustaqil ish qila olishi, aqlliligini tushuntirsalar, shunda u kichik ukalariga nisbatan mehrli bo'ladi.

Tarbiyachi guruhga uyda tarbiyalangan yangi bola kelib qushilganida boshqa bolalarga u bilan iliq munosabatda bo'lishlarini tushuntirishi lozim. Unga ko'proq e'tibor berish, yaxshi muomalada bo'lish kerak, shunda bola yangi muhitga tezroq ko'nikadi. Agar tarbiyachi yangi kelgan bolalarga mashg'ulotlar davomida yaxshi muloqotda bo'lsa, qolgan bolalar undan o'rganadilar. Tarbiyachi bolalar bilan do'st sifatida munosabatda bo'lsa, bunday guruh uyushgan bo'ladi, bir-birlari bilan iliq munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati orqali irodaviy sifatlari shakllanadi. O'yinda bolaning emotsional rag'batlantirilishi yaxshi natija beradi. O'yin faoliyati bolalarning bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ta'minlaydi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali bolalarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, o'yin orqali bolalarda boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik, to'g'ri munosabatda bo'lish, ehtiyojlarini qondirish amalga oshiriladi. O'yin faoliyatida bolalar o'yin qoidasiga rioya

qiladilar, “onasi unday qilmaydi”, “doktor bunday ukol qilmaydi” kabi fikrlari bilan bir-birlarini harakatlarini to‘g‘rilab turadilar. O‘yin bolaning kattalar hayotini to‘g‘ri tushunishlariga yordam beradi. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj o‘yinda qondiriladi. O‘yin qoidasini buzganda bola samimiylik bilan “endi bunday qilmayman”deydi. Demak, o‘yin bolani samimiylikka, his-tuyg‘ularini tarbiyalashga, boshqalarga yaxshilik qilishga, to‘g‘ri muloqotda bo‘lishga o‘rgatadi. O‘yin qoidasini buzadigan bolalar oxiri yakkalanib qoladilar, qolgan bolalar uni yoqtirmaydilar, u bilan o‘ynagilari kelmaydi, hatto u bilan muloqotda bo‘lishni ham istashmaydi. O‘yinni musobaqa tarzida tashkil qilishda tarbiyachi ehtiyotkor bo‘lishi lozim. Chunki o‘yinda yutqazgan bolalarda yutgan bolalarga nisbatan adovat tug‘ilishi mumkin. O‘yindan so‘ng ular nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Ular “u yig‘layapti”, “u yiqildi” kabi 3 - shaxs birligini qo‘llash orqali og‘zaki fikrini bayon etadilar. Maktab yoshiga yetgandagina bu holat yo‘qoladi. Bolalarning nutqi hali tarbiyalanmagan bo‘lgani uchun ular tarbiyachining fikrini oxirigacha eshitgilari kelmaydi. Ular o‘yin qoidasini eshitmasdan tezroq o‘ynagilari keladi. Bolalarga egotsentrik (o‘ziga qaratilgan) nutq xos bo‘ladi.

Bola bu davrda ham o‘yinga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. U yangi o‘yinchoqqa nisbatan “eski” o‘zining doim o‘ynaydigan o‘yinchog‘i bilan o‘ynashni yaxshi ko‘radi. qo‘g‘irchoq- sadoqat va refleksiyaning shakllanishida ajoyib vosita. Bolaning qo‘g‘irchoq‘i bilan bo‘ladigan muloqoti uning kattalar bilan bo‘ladigan muloqotiga taqlid qilishidir. +iz bolalar ko‘proq qo‘g‘irchoqlar, idish-tovoqlar (o‘yinchoq) bilan muloqotda bo‘lsalar, o‘g‘il bolalar esa turli o‘yinchoqlar (samolyot, koptoq, to‘pponcha, mashina, velosiped) bilan muloqotda bo‘ladilar. qiz bolalar o‘g‘il bola qo‘g‘irchoq o‘ynasa uning ustidan kuladilar, tanbeh beradilar. Demak, bolalar jinsga qarab o‘yinchoqlarni tanlaydilar. Maktab yoshiga yetganda ham bolalar o‘zlarining sevgan o‘yinchoqlaridan voz kechmaydilar.

Situatsion – ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi (nutqi) konkretpredmetli vaziyat bilan bog‘liq. Bu xolat shunda ko‘rinadiki, bolaning nutqida ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘p bo‘ladi. Sifat turkumidagi so‘zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlarning faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o‘lchami (barcha sifatlarning 96,4%)ni ifodalaydi. 98% fe’llar faqatgina aniq predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi.

Bolalarning nosituativ – bilishga yo‘naltirilgan (vaziyatga situatsiyagabog‘liq bo‘lmagan) muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalarhaqida axborot olishga bog‘liqlikdan ozod bo‘ladi. Asta sekin atrof-olamdagi narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi so‘zlar zaxirasi kengayib boradi. Jumladan, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga oid so‘zlar (11,25%) va emotsional xususiyatlarni ko‘rsatuvchi so‘zlar (5%) paydo bo‘ladi, irodaviy va intellektual harakatlarni anglatuvchi fe’l turkumidagi so‘zlar (6,24%) vujudga keladi.

Maktabgacha yoshidagi bola shaxsining rivojlanishi va psixodiagnosticsi

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi ko‘plab tadqiqotlar asosida o‘rganilgan. Tadqiqotchilar bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko‘ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkinligini ta’kidlashadi, jumladan :

birinchi davr - bu 3-4 yosh oralig‘ida bo‘lib, bola emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liqdir;

ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o‘z-o‘ziniboshqarish;

uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat’iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta’sirida o‘tadi va

mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtoov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtoovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari - bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o'yinlarida asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga intilishda, musobaqaga kirishishga, nima bo'lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko'rinadi.

Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq meyor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish meyorini egallaydilar. Bunday meyorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e'tiborli, mehribon bo'lish xususiyati ham shakllanadi. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3-3,5 yoshlar oralig'ida bolalar o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o'zlariga beradigan yuqori baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar

hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar.

O'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan "Men kichkina paytimda qanday bo'lgan edim?", "Men katta bo'lganimda qanday bo'laman?" singari savollarida ko'rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo'lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog'cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o'rnatishda olishida foyda keltiradi. Bolaning atrofidagi kishilar bilan bo'lgan munosabatlari, asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatleri, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi hislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalarling xayollari turli xil mashg'ulotlarda

ham o'sadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi ko'radilar, Ana shunday mashg'ulotlar bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar hakidagi turli ertaklarni eshittanlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari ko'p jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'aydi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarning burch hissi - «nima yaxshi-yu», «nima yomon»ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'rganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi.

Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon bo'lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi davrda jinsiy tarbiya. Jinsga mansublik, har bir oilada individual ravishda olib boriladi. Har bir xalqning o'z mentalitetini hisobga oladigan bo'lsak, o'zbeklarda jins tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Bolaga juda yoshligidanoq milliy liboslarga xos kiyinish, ya'ni qiz bola ko'ylak va lozim (o'z nomi bilan «lozim») kiyishi, o'g'il bolaga xos kiyimlarini kiymaslik, qiliqlarini qilmaslik, orastalik, muloyimlik va boshqa xarakter xislatlari singdirib boriladi. Bola bog'chadagi davrida o'g'il bolalar shortikda, qizlar yubkada yurishlari ko'pgina bog'chalarda saqlanib qolgan. Lekin afsuski milliylikka e'tibor

bola katta bo'lgan sari g'arb tarbiyasi ostida yo'qolib bormoqda. Bunday munosabat bola oilasida va uning atrofida qilarganda bo'lgan axloq andazalari ta'sirining natijasidir. Kattalar tomonidan to'g'ri, axloqiy va aqlli ko'rsatmalar bolada jinslar farqiga va aloqasiga sog'lom munosabatni shakllantiradi. Bola otasiga va tarbiyachiga jinslar farqi haqida, bolalar paydo bo'lishi yo'llari va hokazo haqida savollar berishi mumkin. Ko'p bolalar o'zaro bu savollarni muhokama qilishadi. Bunday savollarga bo'lgan tabiiy qiziquvchanlik kattalar tomonidan to'g'ri tushuntirilishi kerak. Shuning uchun bolalar berishi mumkin bo'lgan savollarga oldindan javob tayyorlash foydalidir. Katta yoshli odam bu muammoga shaxsning axloqiy tarbiyasiga bo'lgandek jiddiy munosabat bildirishi lozim. U bola bilan suhbatlasha turib, zaruriy odob saqlashi va har bir bolaning yoshini va psixologik xususiyatini inobatga olishi kerak. Bolaga haqiqatni uyalmasdan gapirish kerak, lekin bu unga kattalar ega bo'lgan bor ma'lumotlar zaxirasini ochish kerak degani emas.

Tarbiyachi ota-onalarning bolalarni jinsiy tarbiyalashga bo'lgan fikrini bilishi lozim va ular bilan, ayniqsa bu muammoga nisbatan xurofotga ega bo'lgan ota-onalar bilan ma'rifiy ishlarni olib borishi kerak. Bolaning o'z tanasini begona ko'zlardan tabiiy himoya qilish zaruriyatini kattalar hurmat qilishlari va bolaning uyatchanligini iloji boricha asrab qolishlari kerak.

Bolani jinsiy identifikatsiyasida kattalarning tutgan o'rni. Bolani o'z mohiyatini tushunishida uning kattalar bilan aloqasi katta ahamiyatga ega. Bu aloqa unda buyumlar dunyosiga, barcha tirik mavjudodlarga, odamlarga va o'ziga bo'lgan ma'lum munosabatga qaratiladi. Kattalar bola uchun o'zi haqidagi ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Ular bolaga o'zini qaysi jinsga mansubligini aniqlashda ham yordam beradilar.

Ilk yoshning oxirlarida bola o'z jinsini tushunadi, lekin hali «o'g'il» yoki «qiz bola» so'zlari qanday ma'noga ega ekanligini bilmaydi. Kattalar ongli yoki ongsiz ravishda, bolaga hamma qabul qilgan andaza tarzida o'g'il yoki qiz bola nima ekanligini tushuntiradilar. O'g'il bolalarga jahlni ko'proq namoyon qilishga ruxsat

beradilar, faollikni va tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlaydilar, qiz bolalardan samimiylik, emotsionallik va ta'sirchanlikni kutadilar. Bolada o'z jinsining ahamiyati haqidagi tushuncha asosan oilada hosil qilinadi. Har bir ota-ona o'z jinsining xususiyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Masalan, samimiylik, ta'sirchanlik va emotsionallik ayollarga xos fazilat; jasurlik, qat'iyatlilik, dadillik erkaklar ega bo'lgan fazilatlaridir.

Xalqlar madaniyatida bola tarbiyalashda qo'llaniladigan mustahkam qoliplar mavjud. Kichkina bolaga: «Yig'lama. Qiz bolamas, o'g'il bolasan» deyishadi. Shundan keyin bola ko'z yosh to'kmaslikni o'rganadi. Qizlarga: «Urishma, devor, daraxtlarga chiqma. Sen qiz bolasan» deb o'rgatishadi. O'yinqaroq qiz o'zini tiyishiga to'g'ri keladi, nima qilsa ham qiz bolada! Jinsga qarab xulq-atvor qoidalarini belgilash shundan boshlanadi.

Bevosita erkak va ayollar xulq-atvorini kuzatish orqali, va shuningdek, san'at orqali bola psixologiyasiga ayol va erkakning yurish-turish tarzi singib boradi. Birinchi navbatda bola ayol va erkaklarning kiyimida va o'zini tutishida tashqi farqni aniqlaydi. Insonning shaxsiy xususiyatlarini bola ba'zida ma'lum jins xislati deb qabul qiladi. Masalan, kuzatishlarda besh yoshli o'g'il bola tanish bo'lgan yosh erkak kishiga taqlid qila boshlaydi, bolaning bunga g'oyatda berilganini ko'rgan erkak kishi hazillashib: «Haqiqiy erkak, mana bunday qilishi kerak» deb chaqqonlik bilan va ko'z zo'rg'a ilg'aydigan harakat bilan boshini orqaga tashlaydi. Haqiqiy erkakni bunday fazilatidan hayratlangan bola boshini uzluksiz orqaga tashlaydigan bo'ladi.

Bola barcha narsaga taqlid qiladi: atrofdagilarga foyda keltiradigan axloq qoidalari turlariga, kattalar uchun andaza bo'lib qolgan ijtimoiy zararli odatlarga (so'kishlar, chekish va boshqalar). Bola hali bu «botirlik ramzlaridan» amalda foydalanmasada, ularni o'yin mundarijasiga kiritadi.

Jinsga mansublik va o'yinda rol tanlash. Maktabgacha yoshda o'g'il va qiz bolalarning o'zaro munosabatlarida farq paydo bo'ladi va rivojlana boshlaydi va o'z jinsiga mansub bolalarga nisbatan go'yo samimiy adolatsizlik aniqlanadi: o'g'il

bola o'g'il bolalarni tanlaydi, qiz bola qizlarni. O'zligini anglash rivojlanadi va uning asosiy tarkibiy qismi sifatida o'zini o'g'il bola – erkak yoki qiz bola – ayol sifatida his qilish paydo bo'ladi.

«Oila» o'yinini o'ynashda ham bolalar o'z jinslaridan kelib chiqqan holda rol tanlaydilar. O'yin paytida bolaning emotsionalligi namoyon bo'ladi va ayol yoki erkakka mos keluvchi yurish-turish tarzi o'rganiladi. Qiz bolalar yuzaga kelgan vaziyatga tezroq ko'nikadilar, yangi sharoitga xotirjamroq, tezroq va osonroq kirishadilar. O'g'il bolalar ko'p shovqin ko'tarishadi. Rolli o'yinlarda o'g'il bolalar kattalarga taqlid qilib, haydovchi, kosmonavt, harbiy askarlar rolini tanlaydilar, qizlar bo'lsa ona, shifokor, tarbiyachi rolini o'zlariga oladilar.

Tanlangan rollar har xil jinsdagi bolalarning ijtimoiy intilishlarini aks ettiradi. O'g'il bolalar qiziqishlari texnikaga, g'alabaga, yutuqqa va peshqadamlikka yo'naltirilgan musobaqa o'yinlariga qaratilgan. Kuchli, jasur va tashabbuskorlarni o'g'il bolalar lider deb qabul qiladilar. Oila muhiti o'yinlari ko'pincha qiz bolalar o'yinida aks etadi. Qiz bolalarning qiziqishlari ko'proq shaxslararo munosabatlarga qaratilgan. Qizlar yumshoq fe'lli, quvnoq va ko'ngilchan tengdosh qizlarni yoqtirishadi.

Jinsga mansublik va o'yinchoq tanlash. O'yinchoqlar o'yinning tayanch materiali bo'lib xizmat qiladi, o'yin sujetining rivojlanishiga yordam beradi va ularni tanlash bolalarning qaysi jinsga mansubligiga ko'ra amalga oshiriladi.

Maxsus tajriba vaqtida bolalarga to'rt xil to'plamdagi o'yinchoqlardan ikkitasini erkin tanlash sharti taklif qilindi. To'rt patnisda quyidagi o'yinchoqlar turi taklif qilindi: mashina, turli idish-tovoqlar, kubiklar, qo'g'irchoqlar. Boladan barcha o'yinchoqlarga nom berishni, ko'proq yoqtirgan o'yinchoqlar joylashgan ikki patnisni olishni va bu o'yinchoqlarni o'ynash so'raldi. Ularning barcha harakatlari yozib borildi. Oqibatda o'g'il va qiz bolalarda to'rt yoshdan boshlab, o'yinchoq tanlashda farq yuzaga kelishi aniqlandi. Mashina, kubiklar asosan o'g'il bolalar tomonidan, qo'g'irchoq va turli idishlar qizlar tomonidan tanlanishi ma'lum bo'ldi.

Maktabgacha davr oxiriga kelib bola jinsga mansublik abadiy ekanligini tushunadi va shunga qarab o'z xulqini shakllantiradi. Bu vaqtda bolalarda boshqa jinsdagilarga nisbatan o'ziga xos munosabat yuzaga keladi. Bunday munosabatlar har bir bolada o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Masalan, o'g'il bola tengdosh qizni yoki kattaroq yoshdagi chiroyli qizni ko'rganda, xursand bo'lishi, munosabatga intilishi mumkin. Kattalar bolaning his-tuyg'ulariga hurmat bilan qarashlari lozim. Bunday instinktlar kichik yoshdayoq ko'zga tashlanadi. Chiroyli qizlarni sochidan tortish, o'ziga yoqqan qizni himoya qilish, avaylash, mehr ko'rsatish kabilar tabiiy ravishda shakllanib boradi. Kattalarning «Guruhingda eng chiroyli qiz kim?» kabi savollari ham bunga turtki bo'ladi. Lekin bolaning qiziquvchanligini kuchaytirib yuborish ham to'g'ri emas, aksincha, uning e'tiborini boshqa narsaga, uning tuyg'ulari va xayolini yangi kuch bilan o'ziga jalb qila oladigan narsaga qaratish lozim.

Yosh bolalarga xos qiziquvchanlik, yoqtirish maylini kattalarning sevgi, uylanish va bolalik bo'lish haqidagi tushunchalaridan ajrata olish lozim.

O'z jinsini ajratish. Bolada bu yoshga kelib odam tanasiga va o'z tanasining tuzilishiga qiziqish paydo bo'ladi. O'zini qaysi jinsga mansubligini anglash «shaxs»ning tuzilishiga ulanadi. Kattalardan: «Sen o'g'il bolasan!» yoki «Sen qiz bolasan!» degan so'zlarni eshitgach, bola bunday tushunchalar uning jinsiy xislatlari bilan bog'liqligini anglay boshlaydi. Bola o'z tanasiga va jinsiy organiga nisbatan qiziquvchan bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ulg'aygani sari begona odamlar oldida yechinishda o'zlarini noqulay sezaдилar. Xijolatlik, uyat hissi tarbiyaviy ta'sir natijasidir.

Ko'p hollarda hozirgi bolalar qiz va o'g'il bola tanasiga xos bo'lgan belgini ancha erta o'zlashtirmoqda. Bundan tashqari ular kattalarning tanaga bo'lgan munosabatini ham o'zlashtirmoqdalar. Aksariyat kattalar kiyimsiz tanaga qarashni taqiqlaydilar, o'zlari esa bunday tomoshalarni bola oldida ko'raveradilar. Go'yoki bola hali hech narsani tushunmaydi deb o'ylaydilar. Agar ota-ona kiyim almashtirishda boladan xijolat tortsa, bu xislat bolaga ham o'tadi. Agar ota-ona

o'zini tabiiy tutsa, bola ham yalang'och tanani ko'rganda xijolat bo'lmaydi. Ammo bu holda hammaning o'z chuqur o'ylangan yondashuvi bo'lishi kerak. Jinsiy tarbiya erkin yo'lga qo'yilgan ba'zi oilalarda, shifokorlar, rassomlar, hayvonlar hayoti bilan tanish bo'lgan qishloq bolalarida ba'zan jinsiy organlarni rasmda aks ettirganlarini ko'rish mumkin. O'g'il bolalar hayvonlar va erkaklarni jinsiy organlarini qizlarga qaraganda ko'proq chizadilar. Bu holatni o'g'il bolalar o'z tanasining jismoniy ko'rinishiga o'xshatadilar. Ko'p maktabgacha yoshdagi bolalar odamlarning jismoniy ko'rinishidagi farqini nafaqat xa yollariga keltiradilar, balki bu farqni kiyimsiz naturaga qaraganda ham ko'rmaydilar.

Yirik bolalar psixologi V.S. Muxinaning tadqiqotlarining birida shunday maxsus tajriba o'tkazilganligi qayd etilgan. Har bir boladan kiyimsiz (o'g'il va qiz bola) qo'g'irchoqning rasmini chizish so'raldi. Ularni tana tuzilishi o'g'il va qiz bolalarning jismoniy tuzilishiga mos kelishi kerak edi. Ba'zi bolalar qo'g'irchoqqa qarab chizishga harakat qilishadi, lekin shunda ham ular jinsni farqlovchi xislatlarni shunchaki sezmaydilar. Ularning tasvirlarida o'g'il bola qo'g'irchoq va qiz bola qo'g'irchoq bir-biridan hech farq qilmaydi. Masalan, «Biz yaqinda bir qizni yuzini yasadik va chizdik. Lekin menimcha libosdagi qizni chizgandik. O'xshamasachi? O'g'il va qiz bolalar o'xshaydilar. Ular jingalak soch bo'ladilar va ayyorona jilmayadilar. O'g'il bola bilan qiz bolaning farqini topish kerakmi? O'g'il bolalar ko'z rangi to'q, qizlarniki och bo'ladi. Fe'li har xil bo'ladi: haqiqiy erkak yig'lamaydi. Boshqa farqni men ko'rmayapman». Ba'zi bolalar oilada jinsiy tarbiya haqidagi tushunchadan shunchalar «himoya qilinganlarki», kiyimsiz naturada jins farqiga e'tibor berib, to'g'ri chizishni so'rashganda ham, jins farqini ko'rmaydilar. Bolalarni boshqa qismi umrida birinchi marta kiyimsiz o'g'il bola va qiz bola qo'g'irchoqni ko'rib, darhol uning jismoniy qiyofasidagi farqiga e'tibor qaratadilar. Bunda bir xil bolalar xotirjamlik bilan o'g'il va qiz bolalarning tasvirini tushirishga, boshqalari esa, qo'g'irchoqni ko'rinishidan uyalib, ko'zlarini yashiradilar. E'tirof etish kerakki, bolalar ulg'aygani sari, ular orasida kiyimsiz qo'g'irchoqlarni ko'rganda uyat hissi kuchayadi. Bolalar qiqirlashni, teskari

qarashni, qo'llari bilan ko'zlarini yopishni boshlaydilar. Odatda bunday bolalar talab qilingan naturani hech ham chizishni xohlamaydilar. Shundan ham ko'rish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar ulg'aygan sari o'z jinsini anglay boshlaydi.

Maktabgacha yosh davrida o'quv faoliyati.

O'quv faoliyati muammosi — yosh va pedagogik psixologiyaning markaziy mummolaridandir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni o'qitishga va ularga ta'limiy mashg'ulotlar berishga bizning mamlakatimizda boshlang'ich maktab ta'limiga tayyorlov pog'onasi sifatida qaraladi. Shu sababli "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilanganidek, bog'chadagi ta'lim uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichidir. Nemis psixologi O.Kronning fikricha, uch yashar bola unga berilayotgan bilimni o'zlashtirishga, ya'ni ta'lim olishga qodir. V.Shtern esa qarama-qarshi nuqtai nazarni ilgari surdi. Uning fikricha, hayotining dastlabkiolti yilida bola olgan bilimlar o'ziga xos tarzda egallanadi. Bog'cha bolasi hali "o'qish uchun anglanilgan irodaga ega emas, maktab o'quvchisi uchun esa o'qish uchun berilgan materialni ongli tarzda o'zlashtirish niyati va bubilimlardan o'zining kelajagi uchun mulk sifatida foydalanish, butunholicha saqlab qolish istagidir." V.Shtern "bog'cha bolasi ayni buguni bilan shunchalik mashg'ulki, ertangi kun, kelajak uchun biror-bir narsani egallash istagidan uzoqdir", deydi. Uning o'qishi boshqa faoliyatning mahsuli hisoblanib, tevarak-atrofdan olgan taassurotlarni "ongsiz tarzda tanlash" asosida hosil bo'ladi.

J.Piaje bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida (yashash sharoitigamoslashish) intellekt operatsiyalari strukturasi rivojlanishi sodir bo'ladi, deydi. Tobora yuqori intellektual operatsiyalar ("konkret operatsiyalar", "formal operatsiyalar", "invariantlilik", "munosabatlilik"va boshqalar) paydo bo'lishi va rivojlanishi o'z qonuniyatlariga ega. Ta'lim faqat aqliy o'sishni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin, lekin unga tabiiy ta'sir etmaydi. J.Piaje va uning izdoshlari, masalan, agar bolada mantiqiy operativ tafakkur qaror topmagan bo'lsa, fikrlashga o'rgatishdan ma'ni yo'q, deydi. Ta'lim bola rivojlanishi qonuniyatlariga bo'ysunishi lozim.

L.S.Vigotskiy bog'cha bolasining psixologik xususiyatlarini pedagogikta'sir mohiyatining analizi bilan uzviy bog'liqlikda o'rganib bordi. Bog'cha davrida o'qitishning ahamiyatli tomonlaridan biri, deydi Vigotskiy. Shunday qilib, xorij va rus psixologlari maktabgacha ta'lim muassasalarida beriladigan ta'limga va ta'limiy mashg'ulotlarga katta e'tibor beradilar. O'quv faoliyati shakllanishining dastlabki xususiyatlari. Hayotning dastlabki uch yilida bola onasi yoki boshqa kishilar masalan, tarbiyachi dasturi bo'yicha emas, balki go'yoki o'zining dasturi bo'yicha o'qiydi. Bu davrda bolaning u yoki bu bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishi muhlatiga alohida talablar qo'yilmaydi. Ilk bolalik davrida tarbiya dasturi hali subyektiv tarzda bola uchun mavjud emas. Tizimli o'qishga layoqatli bo'lgunga qadar u tayyorlov bosqichini bosib o'tadi. Bu bosqichda chetdagi boshqa kishilarning bolaga nisbatan yangi talablari asta-sekin uning "o'z dasturiga" aylanishi lozim. Bog'cha yosh davrining oxirlariga boribgina, bola kattalar tomonidan ishlab chiqilgan "dastur bo'yicha" o'qiy boshlaydi va maktab talablariga asta amal qila boshlaydi. L.S.Vigotskiyning fikri bo'yicha bog'cha yosh davri ta'lim dasturi:

- 1) bolani maktab dasturiga yaqinlashtirishi, uning bilim doirasini kengaytirishi, predmetli ta'limga tayyorlashi;
- 2) bolaning o'z dasturi bo'lishi hamda uning qiziqishi va ehtiyojlariga javob berishi lozim.

Shuningdek, L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida, ta'limning yetakchi roli haqidagi qonunni ilgari surdi va aniq ifodaladi: ta'lim rivojlanishidan oldinda boradi va o'zining orqasidan uni etaklaydi. O'quv faoliyati bolalarni xursand qilishi, ularga zavq berib, qoniqish hissini uyg'otishi kerak. Ilk bolalik davridanoq bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Chunki bilishga itilishga inson faoliyatining ahamiyatli motivlaridan bo'lib, shaxs yo'nalganligining anglanilganligini aks ettiradi, barcha psixik jarayon va funksiyalarga ijobiy ta'sir etadi, qobiliyatni faollashtiradi, qiziqish mavjud holatida

barcha insoniy kuchlar qo'zg'aladi. Buni ayniqsa, bog'cha bolasining o'quv faoliyatini tashkil etishda inobatga olish kerak.

Pedagog va psixologlarning olib borgan tadqiqotlari o'qishga bo'lgan qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy sharoitini ajratish imkonini beradi:

1. O'quv faoliyati shunday tashkil etilishi kerakki, bola unda faol ishtirok etsin, yangi bilimlarni mustaqil tarzda qidirishi va "topishi"ga undalsin, muammoli xarakterga ega bo'lgan savollarni yechsin.
2. O'quv faoliyati turli xil bo'lishi kerak. Bir xillikka ega bo'lgan materiallar va bir xil usullar bolalarni tez zeriktirib qo'yadi.
3. Bola berilayotgan materiallarning kerakliligi va ahamiyatliligini tushunishi kerak.
4. Yangi berilayotgan material ilgari o'zlashtirilgani bilan yaxshi bog'langan bo'lishi kerak.
5. Juda yengil bo'lgan va o'ta murakkab material qiziqish uyg'otmaydi, o'quv topshiriqlari bog'cha yoshidagi bolalar uchun qiyin, lekin imkoniyati yetadigan darajada bo'lishi kerak.
6. Bolaning barcha yutuqlarini ijobiy baholash lozim. Ijobiy baho bilishga nisbatan faollikni rag'batlantiradi.
7. O'quv materiallari yorqin va emotsional bo'lishi kerak.

A.P.Usovaning ta'kidlashicha, o'qitilayotgan materialni idrok qila olmaslik hodisasi harakatning usul va vositalarida o'ta osonlik usuliga asoslangan, ilgari ko'rsatilgan noto'g'ri tarbiyaviy ta'sirning asorati natijasidir.

Ayni vaqtda ko'pincha ta'lim olishga tayyorlikning quyidagi tarkibiyqismlari ajratiladi:

1. Tafakkur qila olish kabi faoliyatning umumlashganligi.
2. Amaliy va so'z mantiqiy tomonlarining o'zaro muvofiqligini belgilovchi tafakkumiing anglanilganligi.
3. Tafakkur faoliyatining elastikligi.

4. Tafakkur faoliyatining barqarorligi.

5. Tafakkurning mustaqilligi hamda uning yordamga moyilligi.

O'quv faoliyati rivojlanishining asosiy xususiyatlari

A.P.Usova bog'cha yosh davridagi bolalar tomonidan o'quv faoliyati o'zlashtirilganligining aniq belgilarini ko'rsatadi. O'zlashtirishning uch saviyasi ajratilib, ular o'quv faoliyati rivojlanganligining turli darajalarini xarakterlaydi.

1 -darajasi. Bilish faoliyati barcha jarayonlarining mahsuldorligi va maqsadga qaratilganligi bilan o'qishga nisbatan faol va qiziquvchan munosabat, o'zining harakatlarini nazorat qilish va erishilgan natijalarini baholash qobiliyatiga egaligi bilan farqlanadi. O'zlashtirilganlar asosida bolalar amaliy va aqliy faoliyatida qurbi etadigan vazifalarni yecha oladi.

2- darajasi - kuchsizroq o'quv faoliyatini egallashning barcha ko'rsatkichlari yetarli rivojlanmagan. Lekin shu bilan birga bolalar ta'limidagi ba'zi bir ehtimoliy og'ishishlar ham bundan mustasno emas.

3- darajasi. Mashg'ulotlarda tashqi intizomning o'quv faoliyatishakllanishidagi boshlang'ich davr.

Tayyorlov guruh bolalari tafakkurini o'rganish metodikasi

Mazkur metodika maktabgacha yoshdagi bolalarda tushunchalar, turli obyektlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, o'xshashlik haqidagi tasavvurlarning shakllanganligini o'rganish uchun xizmat qiladi. U 20 ta savoldan iborat. Tarbiyachi-psixolog bolaga har bir savolni o'qib beradi va bolaning javobini qayd etadi. Har bir savoldan so'ng qavsdan to'g'ri javob keltirilgan. Savollar.

1. Ot kattami yoki itmi? (ot)

2. Ertalab nonushta qilamiz, peshindachi? (tushlik)

3. Kunduzi yorug', kechasi-chi? (qorong'u)

4. Osmon havo rangda, o'tlar – chi? (yashil)

5. Gilos, nok, olma, olxo'ri – bular nimalar? (meva)

6. Nima uchun hali poyezd o'tmasdan shlakbaum tushiriladi? (mashinalarni to'xtatib turish uchun)

7. Toshkent, Samarqand, Buxoro – bular nima? (shahar)
8. Soat necha bo'ldi? (bolaga soat ko'rsatiladi?)
9. Sigirning bolasi buzoq, itning bolasi kuchukcha, qo'yning bolasi-chi?(qo'zichoq)
10. It ko'proq tovuqqa o'xshaydimi yoki mushukkami? (mushukka)
11. Nima uchun avtomobillarda tormoz bor? (mashinani sekinlashtirish ma'nosidagi har qanday javob to'g'ri bo'ladi)
12. Bolg'a bilan bolta nimasi bilan bir - biriga o'xshaydi? (o'xshash vazifalarini bajaruvchi asboblarning mazmunidagi har qanday javob to'g'ri)
13. Olmaxon bilan mushuk nimasiga ko'ra o'xshaydi? (kamida ikkita o'xshash belgi sanab o'tilishi kerak)
14. Mix bilan vintning nima farqi bor? (mixning usti tekis, vint g'adir – budur, mix bolg'a bilan qoqiladi, vint burab kiritiladi)
15. Futbol, tennis, suzish – bular nimalar? (sport, fizkultura)
16. Qanaqa transportlarni bilasan? (kamida ikkita har xil transport sanab o'tilishi kerak)
17. Qari odam yoshdan nimasi bilan farqlanadi? (kamida ikkita muhim farqli belgi sanab o'tilishi kerak)
18. Odamlar nima uchun sport bilan shug'ullanadi? (sog'lom bo'lish uchun,baquvvat bo'lish uchun, kuchli bo'lish uchun, g'alaba qozonish uchun, chempion bo'lish uchun)
19. Odamlar ishlamasa nima bo'lishi mumkin? (narsalar yarata olmaydilar,narsalar sotib ololmaydilar, qiynalib yashaydilar kabi javoblar)
20. Odamni nima uchun qamab qo'yadilar? (yomon ish qilgani uchun mazmunidagi har qanday javob, boshqalarga zarar yetkazmasligi uchun degan javob to'g'ri).

Natijalarni qayta ishlash.

Agar bolaning javobi to'g'ri javobga mos kelsa, unga 0,5 ball, qisman to'g'ri kelsa 0,25 ball qo'yiladi. Javobni baholashdan avval bolaga savolni to'g'ri

tushuntirilganligiga ishonch hosil qilish kerak. Zarurat tug'ilganda psixolog ayrim so'zlarning ma'nosini izohlab berish lozim (masalan, shlakbaum so'zi izoh talab qilish mumkin).

Natijalarni baholash.

10 ball – juda yuqori darajada , 8 – 9 ball – yuqori daraja,
4 – 7 ball – o'rta daraja, 2 – 3 ball – past daraja,
0 – 1 ball – juda past daraja

Maktabga psixologik tayyorgarlik diagnostikasi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, chang'ida uchish, suzish singari harakatlarni ham bimalol bajarishlari mumkin. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda esa xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar.

6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, shuningdek, umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin.

Motivatsion tayyorgarlik. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi

mumkin. "Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman", "Maktabda uxlatishmaydi". Bunday motivlarni bolalarga odatda ota-onalar singdiradilar. Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy sabab bo'la olmaydi. Ota-onalar, pedagog, tarbiyachilar tomonidan bolalarga bilish, o'rganish motivlarini singdirilishi maktabda muvaffaqiyatli o'qish omili bo'lib xizmat qila oladi. "Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "Yozishni juda yaxshi ko'raman", "O'qishni o'rganaman", "Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman"- bunday motivlar to'g'ri motivatsion tayyorgarlikka misol bo'la oladi.

Aqliy tayyorgarlik. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'lib, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata olishidir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ham aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy, ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'rtog'ining salbiy xususiyatlarini ko'pchilik va begonalar o'rtasida bemalol ayta olish xususiyatiga ega bo'ladilar. Bu esa axloqi va odobi jihatidan tanqidga uchrayotgan bolani o'rtoqlari jamosiga qo'shilishdan bosh tortishiga yoki umuman maktabga kelishni istamasligiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sabab bolani o'rtoqlari va ustozlari tomonidan tanqidga uchramaydigan darajada axloq-odob qoidalariga o'rgatish ahamiyati jihatidan kam bo'lmagan axloqiy tayyorgarlik hisoblanadi. Bolani maktabga irodaviy tayyorgarligi uni yangi kun tartibiga amal qilishida, dars jarayonida qunt bilan bilimlarni o'zlashtirishida, uy vazifalarini bajarishida o'z yordamini ko'rsatadi. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim.

Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o'qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko'pincha bu yoshdagi bolalar o'qituvchini uzoq vaqt davomida tinglay olmaydilar, o'quv harakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada

ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning qonstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq meyorlari va qoidalar egallaniladi. Bu meyor va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA PSIXOLOGIK TAYYORLIK DARAJASI DIAGNOSTIKASIDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

“Grafik diktant” metodikasi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv topshirig'ini qabul qilish, o'quv amaliyotini bajarish, ya'ni ixtiyoriy (erkin) e'tibor rivojlanganligi darajasini aniqlashga mo'ljallangan. Quyida L.A.Venger metodikasi tavsiya etilmoqda. «Grafik diktant» bolaning o'quv topshiriqni qanday qabul qilishini, o'quv harakatlarini qanday bajara olishini aniqlashtiradi.

Metodika materiali. Topshiriq varag'i (katakli daftar varag'i), qalam yoki

ruchka

Metodikaning o'tkazish vaqti: 5-7 daqiqa

Metodikaning qo'llanilishi: Metodika har bir bola bilan yakka tartibda olib borilsa maqsadga muvofiq, bolaga quyidagi yo'riqnoma bo'yicha berilgan topshiriqni bajarish so'raladi.

Yo'riqnoma:

-Katakli daftar varag'idan olish va bolaga chiroyli naqshlar chizishni o'rgatishni taklif etish.

-Men senga chiziqni qanday tortishni aytaman, sen men aytgandek qilib chiz.

-Sen o'ng qo'ling qayerdaligini eslaysanmi?. To'g'ri, bu o'sha qalam ushlab turgan qo'ling. Qani uni yonga cho'zchi. Qayerni u ko'rsatib turibdi (eshikni va boshq).

-Demak, men qachon chiziqni o'ng tomonga tortinglar desam sen eshik tomonga qaratib chizasan.

-Chap qo'ling qayerni ko'rsatyapti? (derazani yoki boshq).

-To'g'ri. Men qachon chap tomonga, desam sen chiziqni deraza tomongan tortasan.

-Men faqat qaysi tomonga chiziqni chizishni aytmay, balki uning o'zunligiga qancha ya'ni, bir katak yoki ikki katak bo'lishini ham aytaman.


-Faqat men aytgan narsani chizinglar. Chiziq tortayotganingda to'xtab, kutib tur, qachon men yangi chiziqni qanday chizishni aytganimdan so'ng oldingisi to'xtagan joydan boshlash kerak.

Bolaga naqshni qayerdan boshlab chizishni ko'rsatish (varaqlarning ustki chap burchagidan, chekkasidan bierz joy tashlab) va aytib turish kerak:

1) bitta katakcha yuqoriga. 2) Bitta katakcha o'ngga. 3) Bitta katakcha pastga.
4) Bitta katakcha o'ngga. 5) Bitta katakcha yuqoriga. 6) Bitta katakcha o'ngga.
7) Bitta katakcha pastga. 8) Bitta katakcha o'ngga. 9) Bitta katakcha yuqoriga.
Endi o'zing xuddi chizganingga o'xshatib davom ettir.

«Diktant» to'g'ri bajarilgan holda quyidagi naqsh hosil bo'lishi kerak:


1-mashq



Agar bola xatoga yo‘l qo‘ysa, to‘zating: Bu naqsh mashq uchun edi. Bola uni chiza turib yo‘riqnomani tushunishi kerak. Mustaqil chizishni davom ettirayotganida uni oxirigacha yetkazish zarur. Naqsh oxiriga yetgach, bolaga navbatdagi naqshni qayerdan boshlash kerakligini ko‘rsating va aytib turing:


-Ikki katak yuqoriga. Bir katak o‘ngga. Bir katak yuqoriga. Ikki katak chapga. Ikki katak pastga. Bir katak o‘ngga. Ikki katak pastga. Ikki katak o‘ngga. Ikkita yuqoriga. Bitta o‘ngga. Bir katak yuqoriga. Ikkita o‘ngga. Bitta pastga. Bitta katak o‘ngga. Ikkita pastga. Naqshni chizishni o‘zing davom ettir.

2-mashq



Endi chizish jarayonida hech qanday qo‘shimcha ko‘rsatmalar berilmaydi va xatolar to‘zatilmaydi. Naqsh qatorini oxirigacha to‘liq chizib bo‘lingach, quyidagilarni aytib turishni boshlang: *-Ikki katak tepaga, ikki katak o‘ngga, bir katak pastga, bir katak chapga («chapga» so‘zini ovozda alohida ta’kidlash kerak). Bir katak pastga. Ikki katak chapga. Ikki katak tepaga. Ikki katak o‘ngga. Bir katak pastga. Bir katak chapga. Bir katak pastga. Chizishni o‘zing davom ettir*


3- mashq



Va, nixoyat oxirgi naqsh:

-Ikki katak tepaga. Bir katak chapga. Ikki katak tepaga. Bir katak o'ngga. Bir katak pastga. Ikki katak o'ngga. Bir katak pastga. Bir katak chapga. Ikki katak pastga. Uch katak o'ngga. Ikki katak tepaga. Bir katak chapga. Ikki katak tepaga. Bir katak o'ngga. Bir katak pastga. Ikki katak o'ngga. Bir katak pastga. Bir katak chapga. Ikki katak pastga. Chizishni o'zing davom ettir:

4-mashq



Har bir naqshning bajarilish darajasi. Naqshning aytib turilgandagisi hamda bola tomonidan mustaqil davom ettirilib bajarilgani alohida-alohida baxolanadi. Eng yuqori daraja, bu – naqshning xatosiz chizilishi. Uni 4 ball bilan baholash kerak. Agar 2-3 ta xatosi bo'lsa 3 ball qo'yiladi. Ko'p xatolari bo'lsa 2 ball. Agar to'g'ri chizilgan qismlardan, xato chizilgan qismlar ko'p bo'lsa, bu holda 1 ball beriladi. Va nihoyat agar birorta chizilgan qism bo'lmasa 0 ball qo'yiladi.

Bola naqshni aytib turilganda bajarib 0 dan (agar butunlay noto'g'ri bo'lsa), 12 ballgacha (agar uch asosiy naqsh xatosiz bajarilgan bo'lsa) umumiy ball yig'ishi mumkin.

Tashxisning aynan ushbu usulini tanlashimizning boisi – unda bolaning aqliy rivojlanishining barcha shakllari qamrab olinadi: Bilish jarayoni (solishtirish ko'nikmasi, umumlashtirish, taxlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish va boshq.), obrazli fikrlash, bolaning mantiqiy imkoniyatlari uning qanchalik aqliy rivojlanganligiga xolis baho beradi. «Grafik diktant» bolaning o'quv topshiriqni qanday qabul qilishini, o'quv harakatlarini qanday bajara olishini aniqlashtiradi.

Kern-Irasek uslubi bo'yicha tashxis o'tkazish.

Bolalarni tekshiruvdan o'tkazish 4 topshiriqdan iborat bo'lib, undan ko'zlangan maqsad ulardagi maktab uchun zarur bo'lan faoliyatlari rivojida,

jumladan, bosh miya chanog'ini analitik va sitetik vazifalari, motorikalaridagi yetishmovchilikni aniqlash.

Kern-Irasek metodi bo'yicha bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorligi darajasini aniqlash alohida yoki 10-15 boladan iborat guruh bilan bir vaqtning o'zida olib borilishi mumkin. To'rtinchi topshiriq esa har bir bola bilan alohida, maxsus ajratilgan xonalarda ajratiladi.

Bolaga (yoki guruhdagi 10-15 bolaga) oddiy qog'ozdan toza bir varoq beriladi. Qog'ozning yuqoridan o'ng burchagiga tadqiqot bilan qamrab olingan bolaning ismi, familiyasi, yoshi hamda tekshirish o'tkazilayotgan sana yozib quyiladi. Ish qog'ozi tagiga qattiq qog'oz quyiladi. Qalam bolaning oldiga shunday qo'yilishi kerakki, unga o'ng va chap qo'l bilan ham olish o'ng'ay bo'lsin.

Tashxis o'tkazish uch topshiriqdan iborat:

1. Odam rasmi.
2. Uch so'zidan iborat, chizilgan qisqa ibora (U osh yedi).
3. Chizilgan nuqtalar guruhi.

Varaqlarning yuz qismi birinchi topshiriqni bajarish uchun ajratiladi. Birinchi topshiriqqa qo'yidagi yo'riqnoma beriladi: «Bu yerga (har biriga qayergaligi ko'rsatiladi) biror-bir erkakning (tog'angning) rasmini bilganlaringizcha chizinglar». Shundan so'ng tushuncha (yordam) berish, rasmning kamchiligi va xatosi yuzasidan ogohlantirish taqiqlanadi. Boladan tushadigan har bir savolga quyidagicha javob berish lozim. «O'zing bilganingday qilib chiz». Agar bola ishni boshlay olmay tursa quyidagicha unga dalda berish kerak: «Ko'ryapsanmi, sen qanday yaxshi boshlading», «Chizishda davom et».

«Xola»ni chizsam bo'ladimi? Degan savolga barchamiz tog'ani chizyapmiz deya tushuntirish kerak. Agar bola ayol figurasini chiza boshlagan bo'lsa, uni oxirigacha yetkazishni kutib turib, keyin yonidan erkak kishining rasmini chizishni so'rash kerak.

Bola rasm chizishni yakunlagach, ish qog'ozi teskari ag'dariladi. Uning orqa tarafi ko'ndalang chiziq bilan teng ikkiga bo'linadi (buni oldindan qilish ham

mumkin).


2-topshiriqni bajarish uchun 10-15 ta kartochka (7-8sm ga 13-14 sm o'lchamda) kerak bo'ladi. Unga «U osh yedi» iborasi qo'lyozmada yozila (harflar o'lchami-1 sm, bosh harf-1, 5 sm).



Ibora yozilgan kartochka bolaning oldiga, ish qog'ozdan sal yuqoriroqqa quyiladi.

Ikkinchi topshiriq quyidagicha izohlanadi: «Qaranglar, bu yerda nimadir yozilgan. Sen hali yozishni bilmaysan. Shuning uchun buni chizishga xarakat qil. Yaxshilab ko'rib olgin, bu qanday yozilgan va varaqning yuqori qismiga (qayergaligini ko'rsating) xuddi shunday qilib yozing». Agar bolalardan birortasi qator o'zunligi xisobini ololmay uchinchi so'zni sig'dira olmasa, unga uchinchi so'zni pastdan yoki tepadan yozish mumkinligini aytish lozim.

Yuqoridagi o'lchamli kartochkalarni uchinchi topshiriqni bajarish uchun ham tayyorlab qo'yish kerak. Ulardan nuqtalar guruhi tasvirlangan bo'lib, ular oralig'i vertikal va gorizantal bo'yicha-1 sm, nuqtalar diametri-2mm:




Bola 2-topshiriqni bajarib bo'lgan birinchi kartochka undan olinib, o'rniga ikkinchi (nuqtalari bor) kartochka shunday quyiladiki, unda nuqtalar orqali tasvirlangan besh burchakli o'tkir burchagi pastga qaragan bo'lishi kerak.

Uchinchi topshiriqqa quyidagicha yo'riqnoma beriladi: «Bu yerda nuqtalar chizilgan. Xuddi shunday qilib varaqning pastki qismiga (qayergaligini ko'rsating) o'zing chizishga xarakat qil».

Natijani baholash. Har bir topshiriq ballar bilan baholanadi: 1-eng yaxshi baho, 5-

eng yomon baho. Besh ballik tizimda baholashning namunaviy mezonlari rasmlarda ko'rsatilgan. 1-topshiriq (odam rasmi)



1 ball-chizilgan figurada bosh, gavda va qo'l-oyoqlar bo'lishi lozim. Boshni gavdaga bog'lovchi bo'yin (u gavdadan katta bo'lmasligi kerak). Boshda soch bo'lishi (yoki do'ppi, telpak), qo'loq bo'lishi, yuzda ko'z, burun, og'iz bo'lishi kerak. Qo'l 5 ta barmoq bilan. Erkak kishi kiyimi belgilari.

2 ball-1balga qo'yilgan talablarning barchasi. Uch qismning tushib qolishi mumkin: bo'yin, soch, qulning bitta barmog'i, biroq yuzdagi hech bir a'zoning tushib qolishi mumkin emas.

3 ball-rasmdagi figurada bosh, gavda, qo'l-oyoqlar bo'lishi kerak. Qo'l va oyoqlar ikki chiziq bilan chizilishi lozim. Bo'yin, quloq, soch, qo'l panjalari bo'lmasligi mumkin.

4 ball-oddiy bosh rasmi qo'l-oyoqlar bilan. Qo'l va oyoqalar bir chiziq bilan tasvirlangan.

5 ball-gavda va qo'l-oyoqlarning aniq tasviri yo'q.

2-topshiriq (yozilgan matnni chizish)

U osh yedi
1. U osh yedi
2. U osh yedi
3. u osh yedi
4. U osh ye di
5. u osh yedi

1 ball-bola tomonidan chizilgan iborani chizish mumkin. Harflar namunadagiga nisbatan 2 baravar katta. Harflar uchun soʻzni hosil etgan, qatorlar toʻgʻri chiziqdan 300dan koʻp ogʻmagan.

2 ball-gapni oʻkish mumkin. Harflar kattaligi namunaga yaqin, ular tikligi shart emas.

3 ball-harflar kamida ikki guruhga boʻlingan boʻlishi lozim. Hech boʻlmaganda 4 ta harfni oʻqish mumkin.

4 ball- namunaga hech boʻlmaganda 2 ta harf oʻxshashi kerak. Barcha harflar guruhi hali yozuv koʻrinishiga ega emas.

5 ball- chiziqlar tasvirlanmagan, tushunarsiz.

3-topshiriq (nuqtalar guruxini chizish)



1 ball-berilgan namunaga qarab aniq bajarilgan. Nuqtalar chizilgan, aylanar emas. Gorizontal va vertikal bo'yiga simetriya saqlangan. Figuralar qanchalik kichik bo'lsa ham mayli, biroq katta bo'lsa yarim barobardan oshmagan bo'lishi kerak.

2 ball –simmetriyada unchalik ahamiyatli bo'lmagan kamchilik bo'lishi mumkin: bitta nuqta tikkasiga yoki eniga qolganlaridan chiqib qolgan yoki nuqta o'rniga aylana chizilgan bo'lishi ham mumkin.

3 ball-nuqtalar guruhi namunaga qo'pol ravishda o'xshash. Barcha figuralarda simetriya bo'zilgan bo'lishi mumkin. Beshburchakning o'xshash, uchi pastga yoki tepaga qaragan shakli saqlangan bo'lsa. Nuqtalar soni ko'p yoki kam bo'lishi mumkin (7 tadan kam emas, 20 tadan ko'p emas).

4 ball- nuqtalar to'p bo'lib joylashgan bo'lib, ular har qanday geometrik figurani eslatishi mumkin. Nuqtalar kattaligi va soni ahamiyatli emas.

5 ball –noaniq chiziqlar.

Bajarilgan alohida topshiriqlar ballari yig'indisi tekshirishning umumiy natijasini belgilaydi.

4 topshiriq (vig'ma fikrni tekshirish).

Maqsad: bolaning fikrlash amaliyoti, mantig'i, lug'at boyligi rivojlanganligi darajasi va boshqalarni aniqlash.

1. Qaysi hayvon katta: otmi yoki it.a) ot- 0 ballb) it-(-5) ball

2. *Ertalab biz nonushta qilamiz, kun yarmida (yoki tunda...)*

a) tushlik qilamiz... biz osh, go'sht yoki nimadir yeymiz - .0

b) peshinlik, kechki ovqat yeymiz, uxlaymiz va boshqalar – (-3).

3. *Kunduzi yorug' , kechasi...a) qorong'u – 0b) notug'ri javob – (-4).*

4. *Osmon ko'm-ko'k , o't...*

a) yashil – 0.

b) notug'ri javob – (-1).

5. *Gilos, nok, olxo'ri, olma- bular nima?*

a) mevalar – 1.

b) notug'ri javob – (-1).

6. *Nega poyezd o'tmasdan turib, uning yo'li yoniga shlagbaum to'siladi?*

a) poyezdning tagiga hech kim tushib ketmasligi, falokat yuz bermasligi uchun-0.

b) noto'g'ri javob-(-1)

7. *Toshkent, Samarqand, Chirchiq (tanish shaharlar aytiladi) nima ular?*

a) shaharlar-1.

b) bekatlar-0.

v) noto'g'ri javob-(-1).

8. *Soat necha (soatdan to'g'ri kelgan soatining 18, 15, 19, 55, 11, 5 minutlarini ko'rsating)? Bola soatini o'zi belgilasin.*

a) agar barcha javoblar to'g'ri bo'lsa-4.

b) agar bilmasa-0.

v) agar bir martaginasini to'g'ri bo'lsa-3.

9. *Kichik sigir-bu buzoqcha, kichik it- bu..., kichik qo'y-bu....*

a) kuchukvachcha, qo'zichoq-4.

b) ikkalasidan bittasi-0.

v) noto'g'ri javob-(-1).

10. *It ko'proq mushukka o'xshaydimi yoki tovuqqa?*

a) mushukka (nimasi bilan ular bir xil), chunki unda ham to'rt oyoq, jun, tirnoq bor (hech bo'lmasa bitta o'xshash joyini aytsa-0).

b) o'xshash belgilarisiz aytsa-(-1).

v) agar tovuqqa desa-(-3).

11. Nega barcha avtomobillarda tormoz bor?

a) tog'dan tushayotganda, burilishda uni sekinlatish uchun (ikkita sabab)-1.

b) bitta sabab-0.

v) noto'g'ri javob-(-1).

12. Bolg'a bilan bolta nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?

a) agar ikkita umumiy belgisi (taxta, temir, mix qoqish mumkin, asboblari, orqa tomoni yassi) aytilsa-3.

b) agar bitta belgisi aytilsa-2.

v) noto'g'ri javob-0.

13. Olmaxon bilan mushuk nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?

a) agar ikkalasining ham ikki umumiy belgisi (oyog'i, joni, daraxtga chiqib yurishi kabi) aytilsa-3.

b) agar bitta o'xshash jihati aytilsa-2.

v) noto'g'ri javob-0.

14. Mix nimasi bilan vintdan farq qiladi? Agar stolda, sening yoningda ikkalasi ham yotgan bo'lsa sen ularni qanday bilasan?

a) rezbasidan (bolaning tushuntirishi)-3.

b) vint buraladi, mix qoqiladi, vint gayka, mixda esa qalpoqcha bor-2.

v) noto'g'ri javob-0.

15. Futbol, suvga sakrash, tennis, so'zlash, gimnastika-bu nimalar?

a) sport jismoniy madaniyat-3.

b) o'yinlar, mashqlar, musobaqalar -2.

v) noto'g'ri javob-0.

16. Sen qanday transport vositalarini bilasan? Agar «u nima» deb so'rashsa «Bu minib harakatlantiriladigan narsalar» deb javob qaytarish kerak.

a) agar yerda yuradigan 3 ta transportni va samolyot, kemani aytsa-4.

b) agar faqat yerda yuradigan uchta transport vositasini aytsa yoki tushuntirishdan

so'ng barchasini sanab bersa-2.

v) noto'g'ri javob-0.

17. Keksa kishi nimasi bilan yosh kishidan ajralib turadi? Ular o'rtasida qanday farq bor?

a) uchta belgisi (ajinlar, yomon ko'radi yoki eshitadi, oq sochi va soqoli bilan)-4.

b) bir-ikki belgi uchun -2.

v) noto'g'ri javob-0.

18. Odamlar nima uchun sport bilan shug'ullanadilar?

a) ikkita sababga-4.

b) bittaga-2.

v) noto'g'ri javob-0.

19. Kimdir ishdan bosh tortsa nega bu axloqsizlik, noto'g'ri, yomon deyiladi?

a) qolganlar u uchun ishlashi kerak (mazmuni: kimdir jabr chekadi) yoki dangasalik qilyapti hech narsa sotib ololmaydi deyilsa -2.

b) noto'g'ri javob- (-2).

20. Nima uchun xatning ustiga marka yopishtiriladi?

a) xatni pochta orqali jo'natish uchun-5.

b) agar jarima to'lanish kerak bo'lsa-2.

v) noto'g'ri javob-(-2).

Natijalarni ishlash quyidagi sxemalar bo'yicha olib boriladi: ballarning summasi alohida savollar bilan aniqlanadi.

Yig'ma fikr rivojlanganligining birinchi darajasini +24 va undan baland.

Ikkinchi daraja +14 dan +23 gacha- o'rta yuqori.

Uchinchi daraja 0 dan +13 gacha – o'rta (meyor).

To'rtinchi daraja (-1) dan (-10) gacha – past.

Beshinchi daraja (-11) va undan past –juda yomon.

Shuningdek, bolaning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlovchi boshqa metodikalar va testlardan ham foydalanish mumkin. Faqat qo'llashda talab qilinadigan meyorlarga va o'tkazish tartibiga qat'iy rioya qilinishi shart. Olingan

natijalarni tahlil qilishda juda obyektiv yondoshish, birgina metodika natijasiga ko'ra qat'iy xulosa chiqarishga shoshmaslik lozim.

Maktabgacha yosh davri psixodiagnostikasining o'ziga xos jihatlari

Respublikamiz maktabgacha ta'lim tizimiga psixologik tashxis, psixolog maslahati va psixologik korreksiya kabi kategoriyalar kirib, mustahkam o'rnasha boshladi. Psixologik xizmatning bola shaxsi ravnaqi, uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va himoyalash uchun amalga oshirilishiga shak-shubha yo'q, albatta. Lekin, shu bilan birga, psixologiyaning psixologik tashxis kabi sohasi (bolaga ziyon yetkazishi mumkinmi? degan savol tug'iladi. Ha, agar ilmiy natijalarni amaliyotda qo'llash (psixologik tashxis esa fundamental ilmning amaliy qismi) yetarlicha tajribaga ega bo'lmagan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilsa, ziyon yetkazishi mumkin.

Masalan, psixologik tashxis metodikalar yordamida olingan ma'lumotlarga malakasiz foydalanuvchi tomonidan mutloq ma'no kasb ettirilishi o'z-o'zidan bolaning kelajagini belgilab beruvchi tashxisning qo'yilishiga olib keladi. Shu o'rinda Vigotskiyning «psixodiagnostikada tashxis qo'yilishi mumkin emas, psixologik diagnostika natijasi faqatgina tekshiriluvchining u yoki bu psixik jaryonini xususiyati bo'lishi mumkin» degan ta'kidini esga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, psixodiagnostikaga nisbatan umuman e'tiborsiz bo'lish kabi holatlar ham bor. Masalan, amaliy psixolog bola bilan faqatgina oila haqida olingan ma'lumotlargagina tayanib «ishlaydi». Yuqorida ko'rsatilgan har ikki holat ham psixologik tashxis metodikalaridan foydalanuvchi shaxsning ushbu sohada nomutasaddi hamda bilimi yetarlicha emasligidan dalolat beradi. Psixologik tashxis psixologiya fani sohasi bo'lib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi hamda o'lchovchi metodlarni ishlab chiqadi Psixologik tashxisdan mustaqil soha sifatida foydalanish o'tgan asrning 20-yillarida boshlangan. Psixologik tashxisning predmeti hamdayo'naltirilganligiga har xil mualliflar turlicha yondashganlar. Fundamental xarakterga ega bo'lgan ishlarda

umumiy psixodiagnostika psixologik-pedagogik qurollarning tuzilishi va psixologik-pedagogik xulosalar shakllanishining metodologik, nazariy hamda uslubiy tamoyillari sifatida gavdalanadi. Bu asosan nazariyaga oid vazifa bo'lib, testologiyani fan sifatida bilishni va, albatta, tekshiriluvchining ruhiyatini o'rganishni taqozo qiladi. Masalan, bolaning matematik masa-lalarni yecha olmayotganligi ota-ona hamda o'qituvchini xavotirga soladi. Bunday qiyinchiliklar nafaqat ma'lum bir mavzuni bilmaslik kabi pedagogik muammolarga, balki ko'proq psixologik sabablarga ega bo'lishi mumkin. Balki, bolada aqliy faoliyatning ichki rejalashtiriluvi yoki bor ma'lumotdan keragini ajrata bilish qobiliyati yetarlicha shakllanmagandir. Bu muammoni hal qilish uchun, avvalambor, testlar yordamida bolaning bilim olishida yuz berayotgan qiyinchiliklar sababini aniqlash joiz. Buning uchun psixolog yosh davrlari hamda pedagogik psixologiya, tafakkur psixologiyasi, testologiyani puxta bilishi va bu sohada professional bo'lishi kerak. Amaliy psixolog bo'lmoq bu nazariy bilimlarga ega bo'lmoq, test hamda maslahat o'tkazishni bilmoq demakdir.

Zamonaviy psixologik lug'atlarda tashxis tadqiqotlarning ikki turi ustida to'xtalib o'tiladi:

- a) *test o'tkazish psixik rivojlanish darajasining miqdoriy baholash muolajasi sifatida;*
- b) *test o'tkazish birinchi o'rinda, psixologik tashxis — tekshiruvchi farazlar, keyin esa subyektning psixologik modellariga sifat jihatidan tavsif beruvchi kompleks psixologik tadqiqot sifatida.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tashxis qilishda tadqiqot o'tkazuvchi mutaxassis bola bilan ishlash jarayonida o'zaro munosabat o'rnatish, diqqatni belgilangan vazifaga qaratish, bu yoshdagilarningtoliqishi va vaziyapa moslasha olmasligi, shu bilan birga, bolalar bilan test o'tkazish vaqtida hulq-atvor reaksiyasini kengligi kabi qiyinchiliklarga duch keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni va boshlang'ich sinf o'quvchilarini psixologik rivojlanishini aniqlashda shunday sharoitlar yaratish kerakki, unda bola o'zining

imkoniyatlarini eng yuqori darajada namoyon qilsin. Maxsus metodik usullar yordamida bolaning nafaqat psixik rivojlanishini muhim darajasi, balki uning yaqin kelajak taraqqiyot zonasini tadqiq qilish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, bolalar uyda, yaqinlari bilan muloqotda, o'yin paytida namoyon qiladigan imkoniyatlarni kamdan-kam hollarda tashxis tadqiqotlarda, vaqt tig'iz hollarda (boladan tez javob berishini talab qilishini sezganda) yoki begona muhitda namoyish etadilar.

Bolaning aqliy rivojlanish darajasini baholash uchun uning o'yin faoliyatini kuzatish juda foydali. 4-10 yoshli bola tekshirishga o'zining eng sevimli o'yinchog'i bilan kelishi mumkin, bunga to'sqinlik qilish kerak emas. Aksincha, psixologik tekshirishga kelgan bolaning sevimli o'yinchog'ini maqtab, uning iltifotiga osonroq erishish mumkin.

Tadqiqot jarayonida bolalar hulq-atvor reaksiyasining juda katta chegarasini ko'rsatadilar. Tadqiqotni o'tkazish jarayoniga psixofiziologik va ijtimoiy omillar bilan bir qatorda psixologning kasbiy ko'nikmalari ham ta'sir etadi. Maktabgacha muassasalarga qatnaydigan bolalar «katta yoshdagi begona kishiga» buysunishga o'rganib qolganlar va test o'tkazish jarayonida yaxshi natijaga erishadilar. Shunday holatlar ham bo'ladiki, «uy bolalari» psixolog-tashxischidan emotsional qulay holatni yaratib berishni talab qiladi.

Bolalar bilan ishlash jarayonida turmush sharoitlari omillaridan qorin ochish, chanqash, hojatga borish, burun qoqish va boshqalarni e'tiborga olish zarur. Ayrim bolalar bularni aytishdan uyaladi. Bunday holatlar bolada nafaqat jarayonga, hatto psixologga nisbatan ham qabul qilmaslik hissini yuzaga keltirishi mumkin.

Bu holatdan chiqish uchun tadqiqotni o'yin xonasida o'tkazish, bolalarni o'yinchoqlar bilan qiziqtirish kerak. Aslida bolani yangi xonaga, yangi odamlarga moslashtirish zarur bo'lganda, tadqiqot jarayonini o'tkazishda o'yin xonasidan foydalanish mumkin. Psixologik tadqiqotni qiziqarli o'yinchoqlar, rasmlar va bezaklar unchalik ko'p bo'lmagan joyda o'tkazish kerak. Xona yorug', qulay va shinam bo'lishi, lekin unda yorqin rangdagi, o'ziga jalb etuvchi predmetlar ko'p

bo'lmisligi kerak. Bola psixologning bunday xonasiga kirganda, uning ko'zlari har tarafga qaray boshlaydi va test vazifasini bajarishda diqqatini bir joyga jamlashi qiyin bo'ladi. Test vazifalarini bajarishda bolaga oson bo'lishi uchun foydalaniladigan metodikalar va testlar rangli, qiziqarli ma'lumotlar bilan to'ldirilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

4 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bola juda tez rivojlanadi va qisqa muddat ichida maktabgacha yosh davridan o'quvchilik davrigacha muntazam vazifalar yuklatilgan yo'lni bosib o'tadi. Biz 4-5 yoshli, 5-6 yoshli va 7-10 yoshli bolalarni tashxis qilishda, turlicha yondashishni tavsiya etamiz. 4-5 yoshli bolalarda hulq-atvorning ijtimoiy motivlari maktabga tayyorgarlikni boshlagan 6 yoshli bolalarga qaraganda unchalik rivojlanmagan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining faqatgina o'quv faoliyatida emas, balki hulq-atvorida ham o'z-o'zini nazorat qilish tizimi ma'lum darajasida shakllangan bo'ladi. Ayrim 4, hatto 5 yoshli bolalar birinchi marta tashxis tekshiruvdan o'tayotgan bo'lsalar, ota-onalaridan ajralishdan qo'rqadilar.

Masalan, agarda bola xonaga onasisiz kirgisi kelmayotgan bo'lsa, u holda onasining tashxisda ishtirok etishiga ruxsat berish kerak. Ona o'zining ishtiroki bilan bolani tinchlantiradi, uning qo'lidan ushlab turishi mumkin, lekin dastlab onani tekshiruv jarayoniga aralashmaslik haqida ogohlantirish kerak.

Ota-onalar 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorligini aniqlash maqsadida tadqiqot uchun olib kelganliklari bundan mustasno. Agar bola psixolog xonasiga ota-onasiz kirishga qarshilik ko'rsatsa, shuning o'zidan uning maktab ta'limiga tayyorgarligi yo'qligi haqida xulosa chiqarish mumkin, hatto ota-onalar o'z farzandlarini aqliy darajasi yuqori ekanligini ta'kidlasalar ham.

Har bir psixologik metodika va tavsiya etilayotgan testlar batafsil ko'rsatmalar bilan ta'minlangan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, psixologik tashxis jarayoni bir qancha qoidalarga rioya qilishni talab etadi, xususan:

1. Bolaga tavsiya etiladigan birinchi mashg'ulot qiziqarli va bajarish uchun oson bo'lishi shart.
 2. Test qoniqarsiz bajarilgan bo'lsa ham bolani qo'llab-quvvatlash va maqtash zarur.
 3. Agarda bolaning hulq-atvorida qiyinchiliklar bo'lsa yoki muloqotga kirishishga qiynalsa, ota-onalari bilan muloqotda bo'lish va qayta uchrashuvning tadqiqot strategiyasini ishlab chiqish zarur. Agar qayta uchrashuv o'ylagan natijani bermasa, bolaning tashxis tadqiqotdagi hulq-atvori sabablarini aniqlash uchun psixoterapevtik ish olib borish haqidagi masalalarni qo'yish kerak bo'ladi.
 4. 4-6 yoshli bolalarda psixologik tadqiqot 30 daqiqadan oshmasligi zarur.
 5. Agar birinchi uchrashuvdagi diagnostik ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, qayta tadqiqot o'tkazish zarur.
 6. Bola psixolog oldidan qiziqarli va qulay muloqotni his qilgan holda ketishi uchun psixologik tadqiqot har doim ijobiy holda tugatilishi kerak. Bog'cha bolasiga alohida berilgan vazifalarni bajarish uchungina emas, balki hulq-atvori vaziyatga munosabatining to'g'riligi maqtovga loyqlik ehtiyojini his qiladi. «Menga sen bilan birga mashg'ulot o'tkazish yoqdi!», «Sen hamma mashg'ulotlarni bajara olding!», deb aytish mumkin. Gap shundaki, maktabgacha yoshdagi bolalar aniq natijadan ko'ra mashg'ulotni bajarishga o'z kuchini sarflaganli-giga juda katta baho beradilar, shuning uchun ularni hulq-atvorlariga muvofiq baho qiziqtiradi. Bu holat bolaning psixolog bilan kelgusidagi uchrashuviga ijobiy munosabatni ta'minlaydi.
 7. Tadqiqot natijalari ota-onalar, bola vasiyi, maktabgacha tarbiya muassasa-si tarbiyachisi va boshqa maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari bilan muhokama qilinishi mumkin.
- Psixolog bola bilan tanishish istagini bildirishi, unga qiziqarli rasmlar va o'yinlar ko'rsatishi mumkin. Bolani tashqi ko'rinishini maqtash, kerak bo'lsa, tadqiqot jarayonida onasining ishtirok etishiga yoki eng sevimli o'yinchog'i bilan qolishiga qarshilik ko'rsatmaslik, bola psixologga yoqqanligini ko'rsatish juda katta

ahamiyatga ega. Bolaning onasiga test jarayoniga aralashmasligi haqida tushuntirish, tashxisning maqsadi bolaga baho qo'yish emas, balki uning imkoniyat darajasi qanchalik ekanligini aniqlashdan iboratligini tushuntirish lozim.

Bolaga birinchi tavsiya etiladigan vazifa u bajara oladigan, qiziqarli va oson bo'lishi kerak. Birinchi metodikani oson tushunish kerakligini esda tutgan holda unga «Kesma rasmlar», «To'rtinchisi ortiqcha» metodikalarini tavsiya qilish mumkin. Bu metodikalarni to'liq berish shart emas. Bitta yoki bir nechta vazifalarni tanlab olib, ularni bajarish darajasini aniqlab olish mumkin. Agar birinchi vazifa bola uchun juda oson bo'lsa, bundan xavotirlanish kerak emas. Psixolog nafaqat uni to'g'ri va aniq bajarganini, balki bajarilgan vazifani sifat darajasini va bolaning oson vazifaga ta'sirini baholaydi. Oson vazifani bajarib bo'lgan bog'cha bolasi har doim o'zini erkin seza boshlaydi. Ayrim bolalar shunday izoh beradilar: «Shunday oson! Men buni bir zumda bajara olaman». Agar ularning izohlari bajarilgan vazifani yuqori sifati bilan to'g'ri kelsa, bolaga murakkabroq vazifani taklif qilish kerak. Bunday usul tez aloqa o'rnatishga, kerakli tashxis ma'lumotlarni, masalan, bola vaziyatni baholash darajasini tushunishi, munosabatlarning sababi natijalarini tushunishi, tuzilgan hikoyaning sifatini va hokazolarni aniqlashga yordam beradi. Bolada ortiqcha jiddiylikni chaqirmasdan, psixolog o'zini qiziqtirgan savollarni berishi mumkin

Odatiy psixologik tadqiqot bola bilan suhbatdan boshlanadi. Bog'cha bolasi bilan suhbat qisqa bo'lishi kerak, chunki tadqiqot boshlanmasdan oldin bola toliqib yoki zerikib qolmasligi lozim. Shuning uchun suhbatni tadqiqot jarayonida uslubiy ma'lumotlarni tushuntirish bilan olib borish kerak. Suhbatning asosiy maqsadi bolaning ma'lumotlardan xabardorligi va shaxsiy xususiyat darajasining umumiy taassurotlari haqida ma'lumot olishdan iborat bo'lish kerak.

Bola shaxsiga nisbatan iltifotli bo'lish, uning qobiliyatlari va xohishlarini e'tiborga olish bolaning ishonchini qozonishning asosiy omili hisoblanadi.

Tadqiqot o'tkazishda bolaning e'tiborini o'ziga jalb etish uchun tadqiqotchi kiyimiga (odatda to'g'nag'ich taqadigan joyga) kichik hajmdagi qiziqarli

o'yinchoqni taqib qo'yishi yoki o'yinchoqni cho'ntagiga solib, masalan, uning tumshug'ini chiqarib qo'yishi mumkin. Shunday yo'l bilan bolaning e'tiborini o'ziga tortish mumkin

Quyida maktabgacha yoshdagi bolalar psixik taraqqiyotini aniqlash va rivojlantirish maqsadida qo'llash mumkin bo'lgan tashxis materiallaridan namunalar keltirilmoqda.

Mayda qo'l motorikasini rivojlantiruvchi mashq.

Ushbu metodika maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'l motorikasini, tafakkuri, idrokini rivojlantirishga qaratilgan. Unda bola rasmdagi nuqtalarni qalam bilan birlashtiradi hamda tugallanmagan shaklni davom ettiradi. Metodika 5-6 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan.

Metodika quyidagicha o'tkaziladi: Bolaga avval


A) variantda berilgan aylanalarni qalam bilan birlashtirish taklif etiladi. Bajarilish vaqtida nuqtalarni birlashtirishdagi nuqsonlar kuzatib boriladi. Chizish uchun 5 daqiqa vaqt ajratilgan. Bola topshiriqni qay darajada bajarganiga qarab unga keyingi

B) ya'ni barglarning rasmini chizish beriladi. Buning uchun bolaga 8 daqiqa vaqt beriladi.


S) variantdagi topshirig'imiz murakkabroq berilgan bo'lib, unda tafakkur va idrok jarayonlarining qay darajada rivojlanganligi aniqlanadi. Konvertlarni chizish uchun 5-8 daqiqa vaqt beriladi.

Ko'rsatma: Siz hozir quyida keltirilgan rasmlarni qalam bilan birlashtirib chiqasiz. Faqat buni shoshmasdan, belgilangan nuqtalardan tashqariga chiqmasdan chizishga harakat qiling.

A)



B)



S)



Natijalar tahlili: Agar bola berilgan rasmlarni o‘z vaqtida, tartib bilan birlashtirsa 9 ball beriladi. Agarda vaqtidan biroz o‘tib, ba’zi joylarida belgilangan nuqtalarda chiqib ketsa 6 ball beriladi. Belgilangan muddatdan ancha o‘tib, notekis, bo‘yab birlashtirsa 3 ball beriladi.

Rivojlanganlik darajasi:

9 ball - meyorda rivojlangan.


6 ball - biroz sustroq. Qo‘llarni mashq qildirib turish lozim.

3 ball - yaxshi rivojlanmagan, qo‘l motorikasini rivojlantirish uchun korreksion rivojlantiruvchi mashshg‘ulotlar talab etiladi.

Qarama- qarshi juftliklarni birlashtir metodikasi

Metodika diqqat, idrok, mayda qo‘l motorikasi, fazoviy tasavvur, tafakkurni rivojlanganlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Metodikani bajarish davomida boladan qarama qarshi juftliklarni topish va ularni qalam bilan birlashtirish taklif etiladi.


Ko‘rsatma: Quyidagi rasmdagi qarama qarshi juftliklarni topib birlashtiring.



Nuqtalarni birlashtiring metodikasi

Ushbu metodika maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqati, idroki, tafakkuri, mayda qo'l motorikasini o'rganishga mo'ljallangan. Unda bolarasmning chap tomoniga qarab o'ng tomondagi nuqtalarni birlashtirishi kerak. Metodikani bajarish uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Ko'rsatma: Quyidagi rasmni chap tomoniga mos tarzda o'ng tomonidagi nuqtalarni birlashtiring.



Natijalarni baholash:

8-10-ball- bola barcha nuqtalarni belgilangan vaqt mobaynida chap tomondagi rasimga mos tarzda birlashtirdi.

6-7 ball- bola belgilangan vaqt mobaynida 3 ta rasmdagi nuqtalarni birlashtirdi.

4-5 ball- bola belgilangan vaqtdan o'tib 2 rasmdagi nuqtalarni birlashtirdi.

2-3 ball- bola belgilangan vaqt mobaynida 1 ta rasmdagi nuqtalarni birlashtirdi.

0-1 ball- bola belgilangan vaqtdan o'tib nuqtalarni notekis, noto'g'ri birlashtirdi.


Rivojlanganlik darajasi:

8-10 ball- juda yuqori, 6-7 ball- yuqori, 4-5 ball- o'rta, 2-3 ball- past, 0-1 ball- juda past.

Shakllarni o'chiring metodikasi

Quyidagi metodika 5-6 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, diqqat, idrok, tafakkurni rivojlanganlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Metodika davomida bola namunada keltirilgan shakllarni jadvaldan topib o'chirishi kerak. Topshiriqni bajarish uchun 6 daqiqa vaqt ajratilgan.

Ko'rsatma: Namunada keltirilgan shakllarni quyidagi jadvaldan toping va o'chiring.



Natijalarni baholash:

5-6-ball- bola barcha shakllarni belgilangan vaqt mobaynida topdi vao‘chirib chiqdi.

3-4 ball- bola belgilangan vaqtdan o‘tib shakllarni topdi va o‘chirdi.

1-2 ball- bola belgilangan vaqtdan o‘tib namunada keltirilgan shakllarni barchasini topa olmadi, topshiriqni yakunlamadi.

Rivojlanganlik darajasi:

5-6 ball- juda yuqori, 3-4 ball- yaxshi rivojlangan, 1-2 ball- pastrivojlangan

“Qo‘g‘irchoqni top” mashqi 1,5 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun.

Bolaga ma’lum bir qo‘g‘irchoqni qayerda turganini ko‘rib olishi aytiladi,so‘ng bolani teskari qaratib turib qo‘g‘irchoqni joyi almashtiriladi. Bolaga qo‘g‘irchoq avval qaysi joyda turganini ko‘rsatish taklif qilinadi.

“Kim ko‘proq eslab qoladi?” 2 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun.

Bolalarga turli rasmlar ketma ketlik bilan ko‘rsatib boriladi. So‘ng ular nimalarni eslab qolganlarini aytib berishlari kerak. Kim ko‘p narsani eslab qolgan bolsa shu bola g‘olib bo‘ladi.

Diagnostic vositalar bilan ishlash texnologiyasi

Hozirda maktabgacha yoshdagi bolalar psixik taraqqiyotini diagnostika qilish uchun diagnostik vositalar ya'ni test-topshiriq, test-proyektiv topshiriq yoki o'yinlar, test-o'yinlar, pazllar(predmetli, syujetli), test-topishmoq, lego topshiriqlar, turli metodikalar mavjud. Ular ota-onalar uchun mo'ljallangan kitoblarda, bolalar uchun jurnallarda, tarbiyachi-pedagoglar uchun jurnallarda, hattoki internetning ijtimoiy tarmoqlarida keng tarqalgan. Bu bir tomondan yaxshi, hamma o'qib o'rganib o'z farzandini, tarbiyalanuvchini u yoki bu jihatlarini tashxis qilish imkoniyatiga ega, ikkinchi tomondan esa tavsiya etilayotgan diagnostik vositalardan foydalanishda maxsus psixologik bilim va yetarli malaka talab etilishi sabab hohlagan kishi maktabgacha yoshdagi bolani tashxis qilish yaramaydi deyish mumkin.

Ko'pincha psixolog lavozimida psixologik ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar faoliyat ko'rsatadi. Ushbu muammoni hal etish yo'llaridan biri sifatida mutaxassis-amaliyotchi psixologlarga test o'tkazishni o'rgatish bilan birga test natijalarini «o'qish», anglash hamda uni tahlil asosida tekshiriluvchilarning korreksion dasturini rejalashtirishni o'rgatish tavsiya qilinadi.

Tajribali amaliyotchi psixolog psixologik sezgi va kasbiy uquvningfaqatgina tajriba orqali orttirilishini tasdiqlaydi. Bu psixologik tashxisni, test o'tkazishni o'rganish predmeti test o'tkazish jarayonini, test natijalarini tahlil qilish usullarini, olingan natijalar asosida psixologik tavsif jadvallarini shakllantirishni hamda korreksion ishlarning rejalashtirilishini qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tashxis qilishda tadqiqot o'tkazuvchi mutaxassis bola bilan ishlash jarayonida o'zaro munosabat o'rnatish, diqqatni belgilangan vazifaga qaratish, bu yoshdagilarningtoliqishi va vaziyapa moslasha olmasligi, shu bilan birga, bolalar bilan test o'tkazish vaqtida hulq-atvor reaksiyasini kengligi kabi qiyinchiliklarga duch keladi.

Motivatsiyalar va ish munosabatlarini o'rnatishga differensiatsiyali yondashish lozim. Psixolog tashxis tadqiqot maqsadlarini inobatga olishi zarur. Masalan,

agarda bola bog'chaga qabul qilinayotgan bo'lsa, unga ta'sir etuvchi ota-onalarda uchraydigan nevroz holatlarini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Afsuski, bog'cha yoshidagi bolalarni baholovchi jarayonga noto'g'ri tayyorlaydigan ota-onalar ham uchrab turadi. Gohida shunday vaziyatlar bo'ladiki, ota-onalar o'z farzandlarini tinchlantirish maqsadida ularga: «Qo'rqma, u yerda hech qanday qo'rqinchli narsa bo'lmaydi» kabi jummalarni takrorlayveradilar. Ayrim hollarda ota-onalar o'z farzandlarini tekshiruvdan oldin qo'rqitib, agar yomon natija chiqsa, jazolashlarini aytadilar yoki butun oilaning baxti va tinchligi tadqiqot natijalariga bog'liq ekanligi haqida uqtiradilar. Har qanday holatlarda ham psixolog tashxisni bajarishgacha bo'lgan vaqtda va uni o'tkazish jarayonida ota-onalar tomonidan bolaga bo'ladigan salbiy ta'sirlarni e'tiborga olishi zarur

Maktabgacha yoshdagi bolalarni va boshlang'ich sinf o'quvchilarini psixologik rivojlanishini aniqlashda shunday sharoitlar yaratish kerakki, unda bola o'zining imkoniyatlarini eng yuqori darajada namoyon qilsin. Maxsus metodik usullar yordamida bolaning nafaqat psixik rivojlanishini muhim darajasi, balki uning yaqin kelajak taraqqiyot zonasini tadqiq qilish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, bolalar uyda, yaqinlari bilan muloqotda, o'yin paytida namoyon qiladigan imkoniyatlarni kamdan-kam hollarda tashxis tadqiqotlarda, vaqt tig'iz hollarda (boladan tez javob berishini talab qilishini sezganda) yoki begona muhitda namoyish etadilar.

Psixologik tadqiqotning markaziy masalasiga tayangan holda bola bilan aloqani o'rnatgach, psixolog tadqiqotning asosiy qismiga o'tadi. Bolaning psixik rivojlanishini faqat bitta jihatga qarab baholash mumkin emas, tadqiqotning ayrim ma'lum bir urg'ularini joylashtirish xaqida gapirish mumkin. Agar markaziy masala aqliy rivojlanishni baholash bo'lsa, unda asosiy e'tibor mos metodikalar yig'indisiga qaratilishi kerak. 2-3 ta metodika va testlar uyg'unligi, bir tomondan, qo'yilgan tashxis savollarga javob bersa, ikkinchi tomondan aniq kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiy xususiyatlarini tadqiq qilish uchun kuzatish metodikasidan foydalanish zarur. Psixolog har doim bolaning muloqotga kirishishining xarakter xususiyatlari, uning berilgan mashqlarga qiziqishi, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarga munosabatini belgilab oladi. Psixolog maktabgacha yoshdagi bolaning berilgan topshiriqlar yuzasidan sharhlarini, uning psixolog bilan muloqotini davom ettirish yoki to'xtatish xohishini tahlil qiladi.

Bolaning diqqatini va ish qobiliyatini baholash. Bolaning diqqati va ish qobiliyatining xususiyatlarini aniqlash uning psixologik metod va testlarni bajarish xarakterini kuzatish orqali amalga oshiriladi. Agar bola yo'riqnomani diqqat bilan tinglamasa, boshqa narsalarga va boshqa gaplarga quloq solib o'tirsa, toliqishning aniq alomatlari ko'rinadi (stolga boshini qo'yadi, stolni quchoqlaydi yoki qo'llarini stolga tirab o'tiradi va boshqalar). Keyinchalik bu holatning sabablarini aniqlash uchun tadqiqot bayonnomasida ularni qayd qilish zarur. Tadqiqot o'tkazishdan avval bola yaqin orada hech qanday somatik yoki infeksiyon kasalliklar bilan kasallanmaganmi, bugungi tekshiruvga yaxshi dam olib kelganmi, psixologga kelishidan oldin kayfiyati buzilmaganmi yoki jazolanmaganmi kabi bir qator jihatlarga e'tibor qaratish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqati va ish qobiliyati buzilganligini intellektual mashqlarni bajarish jarayonida aniq ko'rish mumkin.

Individual xususiyatlar va orqada qolishni diagnostika qilishga zarurat ko'p uchraydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishida individual xususiyatlar keng tarqalgan bo'ladi. Psixologik tadqiqotning maqsadi bola psixik rivojlanishining individual xususiyatlarini baholash yoki uning psixik rivojlanishida mavjud orqada qolishlarni aniqlashdan iborat.

Psixologik tadqiqot va psixologik xususiyatlar tahlili rivojlantiruvchi yoki korreksion psixologik ishning boshlanishi bo'lib xizmat qilishi kerak. U bolaning o'zi bilan, lozim bo'lganda, uning oila a'zolari, tarbiyachilari, vasiylari va boshqalar bilan o'tkaziladi.

Yosh rivojlanish meyorlarida orqada qolish yoki bolada o'z salohiyatini amalga oshirishga halaqit beruvchi (masalan, nevrotik ta'sirlar) xususiyatlar aniqlanganda, psixologik korreksiya dasturlari tuziladi.

Psixologik xulosa, tashxis va aniq qaror qabul qilishning zarurati juda muhim. Psixologik tadqiqot tugatilgach, bolaning psixik rivojlanish xususiyatlari haqida yakuniy ma'lumot, uning kelgusidagi ta'limi va tarbiyasi yuzasidan tavsiyalar, uning psixologik-pedagogik va tibbiy yo'nalish bo'yicha hay'at yoki mutaxassislariga maslahatga olib borish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek, korreksiya ishlarini olib borish bo'yicha xulosa chiqarish zarur.

Tekshiruvdan o'tgan bolaning zehni, xotirasi, ish qobiliyati va shaxsiy tavsifini baholashda psixolog bolaning tekshiruv vaqtidagi psixik rivojlanishining asosiy xususiyatlarini ajrata bilishi kerak. Test natijalariga tayangan holda bolaning hissiy va shaxsiy o'zgarishlari batafsil tavsiflanishi zarur. Agar psixolog ularni psixologik metodlar (oilasi bilan ishlash, psixologik korreksiya) yordamida tuzatish mumkin, deb hisoblasa, u holda kerakli tavsiyalarni beradi. Agar bolada vazifani bajarishda qiyinchiliklar tug'lsa, psixolog o'zining xulosasida kerakli mutaxassislardan maslahat olish zarurligi haqida tavsiya beradi.

Agar psixolog bolada past intellektual rivojlanish kuzatildi, degan xulosa chiqarsa yoki bolada jiddiy sensor, nutq, hulq-atvordagi kamchiliklarni aniqlasa, bunda otalarga yoki vasiylarga maxsus maktabgacha tarbiya muassasalariga maslahat uchun murojaat qilish tavsiya etiladi. Bunda qo'shimcha tekshiruvdan so'ng maktabgacha yoshdagi bolaga adekvat psixologik-pedagogik va tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Psixolog albatta diagnostik vositalarni saralash va tanlashda bir qancha tomonlarni hisobga olishi kerak, jumladan

- 1) Bolaning yosh xususiyatlarini o'ziga xosligini
- 2) Bolaning bilim darajasi va muloqotmandlik ko'nikmasini
- 3) Bola uchun topshiriqning qiziqarli bo'lishligini

- 4) Metodikani o'zi juda yaxshi bilishi va qiynalmasdan natijalarni tahlil qila olishini
- 5) Tanlagan diagnostik vositalar mutaxassislar tomonidan foydalanishga tavsiya etilganligiga e'tibor aratilishi lozim.

Quyida bir qancha diagnostik vositalar tavsiya etilmoqda.

“OILA RASMI” TESTI. *Oila bola ko'zi bilan*

Pedagoglar va psixologlar oila muammolarini, uning an'ana va udumlarini, bola shaxsining shakllanishida oilaning ta'sirini o'rganishda juda ko'p ishlar qilmoqdalar.

Bola ota – onaning faqatgina tarbiyaviy ta'sir etish mahsuli emas. U o'z oilasini o'zicha tushunadi va qabul qiladi. Oiladagi o'z o'rnini o'zaro aloqada belgilaydi va oilada o'zini o'zicha anglaydi. Bolalar ro'y berayotgan hodisalarga kattalarga nisbatan boshqacha baho beradilar. Biz qachonki atrofimizdagi olamni bola ko'zi bilan ko'rishga o'rganib olganimizdan so'nggina, ularni to'g'ri tushunamiz, hayajonlariga, qayg'ulariga yordam bera olamiz. Eston psixologi G.Xementaskas tomonidan ishlab chiqilgan mashxur «Oila rasmi» testi kattalarga dunyoni bola ko'zi bilan ko'rishga yordam beruvchi vositadir. Bu test bolaning o'z oilasiga bergan shaxsiy bahosi haqida, oila a'zolari bilan bo'lgan munosabatlari, bola nimalarni idrok qila olmasligi, nimalarni kuchli xayajon bilan his qilishi haqida tushuncha beradi. Nimalar bolani ongsiz ravishda xavotirga solsa, xuddi shu narsalar bolalarning rasmlarida ifodalanadi.

Oila rasmi bola shaxsining psixologik portretidir. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin. Psixologlar bu testdan bolaning oiladagi «Men»ini o'rganish maqsadida foydalanadilar. Bu testni o'tkazish pedagogik va psixologik amaliyotda qulay va ommabop. Bu testni o'qituvchilar, maktab psixologlari va ota – onalar o'tkazishlari mumkin.

Tadqiqotni o'tkazish uchun: 21 x 29 sm hajmidagi oq qog'oz, o'chirg'ich kerak. Bolaga: «Iltimos, o'z oilang rasmini chizib ber» - deb aytiladi. Lekin «oila» nima ekanligi haqida tushuntirilmaydi, chunki tadqiqot o'tkazishning maqsadi o'zgaradi. Topshiriqni o'tkazish uchun vaqt chegaralanmaydi. Topshiriqni bola bajarayotganda quyidagilarga e'tibor berish kerak: tarkiblarni chizish ketma – ketligi, tarkiblarni o'chirilishi, bolaning izohlarga, his – hayajonga berilishi va h.k.

Topshiriq bajarib bo'lgandan so'ng bolaga quyidagi savollar beriladi: 1) Aytchi, sen bu rasmda kimlarni chizding? 2) Ular qayerdalar? 3) Ular nima qilyaptilar? 4) Ular xursandmilar, yoki biron narsadan zerikkanmilar? 5) Ulardan qaysi biri baxtli? Nimaga? 6) Ulardan qaysi biri juda baxtsiz? Nimaga?

«Oila rasmi» testini tahlil qilish uchun a) bolaning yoshi, b) oila a'zolarining sonini v) aka, uka, opa, yoki singillarining yoshini bilish kerak.

Oila rasmining tahlili

1) Bolaning haqiqiy oilasi uning chizgan oila rasmi bilan taqqoslanadi. Oiladagi o'zaro munosabatlar va undagi muhit ijobiy bo'lsa, bola oiladagi barcha a'zolarining rasmini chizadi. Agar rasmda oila a'zolarining birontasi chizilmagan bo'lsa, demak oilaviy vaziyat mukammal emas.

2) Agar rasmda oilaga taalluqli bo'lmagan odamlarning rasmi chizilgan bo'lsa: a) e'tiborsizlik, yolg'izlanib qolish, b) kuchli katta xavotirlanish darajasi.

3) odatda bolalar oilaning qaysi bir a'zosi bilan nizoli muammo vujudga kelgan bo'lsa, shuni chizishni unutib qo'yadilar. Ko'p hollarda aka, uka yoki opa, singillarning rasmini chizmaydilar. Bu bilan bola oilada o'zining ustunligini, ota va onasining mehriga to'ymaganligini ifodalaydi. Masalan, bola o'zini ota va onasining o'rtasida chizib ko'rsatgan, kichik ukasi yoki singlisini esa umuman chizmagan.

4) Agar bola o'z rasmini chizmagan bo'lsa yoki oilasining o'rniga faqat o'zinigina chizsa, demak bu holda oilada umumiy birlikning yo'qligidan dalolat beradi.

5) Agar oilasining o'rniga bola hayvonlar va qushlarni chizsa, demak bolaga e'tibor va hissiy muloyimlik yetishmaydi.

6) Agar bola oila a'zolarining rasmini qo'llari tutashgan va bir qatorda chizgan bo'lsa, demak bu oiladagi psixologik iqlim yaxshi. Agar unday bo'lmasa, demak aksincha.

7) Agar oila a'zolari guruh – guruh bo'lib chizilgan bo'lsa, demak bu oilada kichik guruhlar borligini bildiradi. Masalan, 9 yoshli o'g'il bola o'zini otasi bilan, onasi va opasini esa alohida guruhda chizgan.

8) Oila a'zolarining kiyimlarida ko'p tarkiblarning borligi, rangligi oilaviy munosabatlarning ijobiyligini ko'rsatadi va aksincha oilaviy munosabatlarda adovat bo'lsa, oila a'zolarining gavdalari to'liq bo'lmay, kiyimsiz yoki tugatilmay chiziladi.

9) Bolalar odatda otasi va onasini juda katta qilib chizadi. Demak, oiladagi munosabatlar tenglik asosida, bola o'zini oilada kattalardek xis qiladi.

10) Agar bolalar o'zlarini otasi va onasidan ham katta qilib chizsa, demak bolani o'z – o'zini baholash darajasi juda ham yuqori.

11) Agar bola o'zini boshqa oila a'zolariga nisbatan juda kichik ota – onasi tomonidan g'amhurlik talab qiladi.

12) Agar bola o'z rasmini qo'llarini yuqoriga ko'targan holda, barmoqlarini uzun qilib chizgan bo'lsa, bu uning tajovuzkorligidan xabar qiladi. Ba'zan bunday rasmlarni yuvosh bolalar ham o'zining atrofidagi odamlarga nisbatan tajavuzkorona ruhda ekanligi, lekin bu holat yashirinligi ma'lum bo'ladi hamda bola kuchli va o'zgalar ustidan xukmron bo'lish hohishi borligini bildiradi.

13) Agar bola oila a'zolarining qo'llarini mushtcha tugilgan holda, barmoqlari uzun holatda chizsa, demak u shu oila a'zosining o'ziga nisbatan tajovuzkorligini his qiladi.

14) Agar bola o'zining tishlarini katta qilib chizgan bo'lsa, demak unda tishlash, baqirish, qo'pollik qilishga moyillik kuchlidir. Agar bola boshqa oila a'zolarini shunday holatda chizsa, ana shu oila a'zosiga nisbatan qo'rquv va dushmanlikni his qiladi.

15) Oila rasmi testi bolaning yosh xususiyatlari bilan bog'liqdir. 3 – 4 yoshdagi bolalar odam gavdasini chiziqlar bilan to'liq bo'lmagan holda chizadilar. 7 – 8 yoshli bolalarning rasmi esa ancha boyroq bo'lib, gavda tuzilishlari to'liq, rasmlar tugallangan bo'ladi.

Misol uchun 12 yoshli qizchaning chizgan oila rasmiga murojaat qilamiz. Qizning oilasi onasidan, buvisidan va o'zidan iborat. Qiz rasmda o'zini,

onasini va otasini chizgan. Otasi anchadan beri ular bilan yashamaydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: bola oiladagi umumiy birlikni his qilmaydi, buvisiga nisbatan tajovuzkorlik bor. Onasi bilan o'zining orasida hissiy iliqlik yo'q. Rasmda bola otasi bilan birga yashash hohishi borligini yashirincha bildirgan. Bola o'zini oilada yolg'iz, yakkalangan holda, hamma tomonidan tashlab qo'yilganday his qiladi. Ikkinchi misol, 10 yoshli bola o'z oilasini tasvirlagan. Rasmda barcha oila a'zolari bir – birining qo'llarini ushlagan holda tasvirlanganlar. Bola o'zini rasmning markazida chizgan. Rasmni tahlil qilar ekanmiz, oiladagi psixologik iqlim yaxshi ekanligini bilib oldik. Bola o'zini oilada kerakligini, ota–onasining va oila a'zolarining mehrini his qiladi. Shunday qilib, bola o'zini oilada qanday xis qilishni bilishini hohlasangiz, unga toza oq qog'oz bering va oila rasmini chizib berishini iltimos qiling.

Oila kinetik rasmining alomatlari majmui

Alomatlar majmui	№	Alomat	Ball
I. Qulay oilaviy vaziyat	1	Oiladagi barcha a'zolarining umumiy faoliyati	0,2
	2	Rasmda odamlarning ko'pligi	0,1
	3	Oiladagi barcha a'zolarining ko'pligi	0,2
	4	Oilada yakkalanib qolgan a'zolarining yo'qligi	0,2
	5	Shtrixovkaning yo'qligi	0,1
	6	Chiziqning yaxshi sifati	0,1
	7	Adovat ko'rsatkichlarining yo'qligi	0,2
	8	Varaqda odamlarning o'xshash tarzda taqsimlanishi	0,1
	9	Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	
II. Xavotirlanish	1	Shtrixovka	0,1,2,3
	2	Asos chizig'i – jins	0,1
	3	Rasm ustidagi chiziq	0,1
	4	Kuchli bosib chizilmagan chiziq	0,1
	5	O'chirish	0,1,2
	6	Detallarga e'tiborni kuchaytirish	0,1
	7	Narsalarning ko'pligi	0,1
	8	Qo'shaloq yoki uzuq – uzuq chiziqlar	0,1
	9	Ayrim detallarni ta'kidlash	0,1
	10	Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	0,1
III. Oiladagi kelishmovchilik vaziyati	1	Shaxslar o'rtasidagi to'siqlar	0,2
	2	Ayrim shakllarning o'chirib tashlanishi	0,1,2
	3	Ayrim shakllarda gavdaning ba'zi bir qismlarining yo'qligi	
	4		0,2

	5	Ayrim shakllarni ajratib ko'rsatish	0,2
	6	Ayrim shakllarni yakkalab qo'yish	0,2
	7	Ayrim shakllarning o'xshash bo'lmagan kattaligi	0,2
	8	Tashqi tasvir bilan rasmning mos kelmasligi	0,1
	9	Narsalarning ko'pligi	0,1
	10	Rasmda oila a'zolaridan ayrimlarining yo'qligi	0,2
	11	Orqasi bilan turgan oila a'zosi	0,1
		Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	
IV. Oilaviy vaziyatda mukammal emaslik tuyg'usi	1	Rasm muallifi nomutasosib ravishda kichik	0,2 0,2 0,1 0,2 0,1 0,1 0,2 0,1
	2	Shakllarning qog'ozning quyi qismiga	
	3	joylashtirilishi	
	4	Chiziq zaif, uzoq – yuluq	
	5	Muallifning boshqalardan ajralib qolishi	
	6	Kichik shakllar	
	7	Muallif shaklining boshqalarga nisbatan	
	8	harakatsizligi	
	9	Muallifning yo'qligi	
		Muallif orqa o'girib turibdi	
		Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	
V. Oilaviy munosabatlarda adovat	1	Bitta shakl boshqa varaqda yoki varaqning orqa tomonidan	0,2
	2	Shakllning tutgan tajovuzkor yo'li	0,1
	3	O'chirib tashlangan shakl	0,2
	4	Qiyofasi o'zgartirilgan shakl	0,2
	5	Teskari profil	0,2
	6	Qo'llar ikki tomonga yoyilgan	0,1
	7	Barmoqlar uzun, ta'kidlab ko'rsatilgan	0,1
	8	Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	

1. “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-4312-сон қарори(08.05.2019)
2. Абрамова Г.С. Возрастная психология.учебное пособие для студентов вузов-М.,“Изд-во” 2001.- 621с
- 3.Виготский Л.С. Детская психология.Кн.в 6-ти т.т.4. М.,Просвещение,1989
- 4.Воҳидов М.. Болалар психологияси. – Тошкент. «Ўқитувчи» – 1982.
5. Графические методы в психологической диагностике/ Сост.Е.С.Романова, О.Ф.Потемкина. М.,1992.-256 с.
- 6.Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология. Т,ТДПУ,2004
7. Дўстмухаммедова Ш.А.,Нишонова З.Т., Жалилова С.Х., Каримова Ш.Т., Алимбоева Ш.Т. Ёш даврлари ва педагогик психология Т.,2013
- 8.Марцинковская Т.Д. История детской психологии.М.,Издательство,1998
9. Мухина В.С.Психология дошкольника. М.,1999
10. Немов Р.С. Психология . книга 3.М. Владос. 2004.-631 с
11. Нишанова З., З.Қурбонова, С.Абдиев. Психодиагностика ва экспериментал психология (ўқув қўлланма) Тошкент, “Тафаккур бўстони”, 2011- 2756
12. Норбошева М.О. Болалар психологияси. Т.,2003
13. Норбошева М.О. Мактабгача таълимда психодиагностика (услубий қўлланма), Термиз, Сурхон нашр ,2015 -656
14. Норбошева М.О. Гўдаклик ва илк ёш давр психологияси. Термиз, Сурхон нашр, 2015-276
15. Расулов А. Экспериментал психология(ўқув қўлланма) Т, ЎзМУ, 2006
16. Худик В.А. Психологическая диагностика детского развития: Методы исследования. - К:Остива. 1992 -220 с
- 17.Ғозиев Э “Онтогенез психологияси”. Тошкент, Noshir, Т.: 2010
18. Ғозиев Э., Ш.Самарова . Болалар психологияси. Т.,ЎзМУ 2012
19. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. – 496 b.

ILOVALAR

Uch yoshgacha bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy yangi o'zgarishlar

Yosh davrlari	Bilishi	Harakati	Muloqoti
3 yosh	Nutqning shakllanishi. Obrazli tafakkurning dastlabki nishonalari. Atrof muhitdan o'zini ajratishi. qat'iylikni anglashi	Qo'l predmetli harakatlarning rivojlanganligi o'z xatti-harakatlarini irodavii boshqarishning ko'rinishlari	O'z-o'zini anglashni yuzaga kelishi. Dastlabki axloqiy qoidalarini egallashi
2yosh	Faol nutqini tushunishi va o'zida yuzaga kelishi	Qo'l va oyoq funksiyalarining aniq belgilanishi	Xarakter asoslarini shakllanishi
1yosh	Nutqning tushunishning dastlabki belgilari	Mustaqil holda tik turishva yurish	Nutqni qo'llashning dastlabki belgilari
10 oylik			Bog'liqlik reaksiyasini yuzaga kelishi, begona muhit va begonalar orasida havotirlik
8 oylik	Sensamator intellektning yuzaga kelishi	Tayanib yurish	Jest, mimika va pantomimika yordamida noverbal muloqot
7 oylik		Yordam bilan turishi	
5 oylik		Yordam bilan o'tirishi	
3 oylik	Ko'rish qobiliyatini shakllanishi	Yon tomoniga o'girilishi	Onaning jilmayishiga javob qaytarishi
2 xafta	Onaning tovushini boshqa tovushlardan farqlashi		
1 xafta	Harakatlarni kuzatishi		

O'zbekistonda psixodiagnostika va eksperimental psixologiyaning rivojlanishi

Dastlabki pedagogik va psixologik fikrlar markazi 1918-yili Toshkent va keyinchalik Chimkent shahrida tashkil qilingan. Pedagogika muzeyi va pedagogik laboratoriya universal o'quv tarbiya muassasasi bo'lib ta'lim- tarbiya bilan bog'liq bo'lgan hamma vazifalarni qamrab oladi. Buning natijasida yordam ta'lim metodlari ishlab chiqarilgan, shu yerning o'zida sinalgan va respublikaning boshqa o'quv muassasalariga tarqatilgan. Ishning bunday tashkil qilinganligi tadbiriq qilishga imkon bergan. Pedagogik laboratoriya haqida Nizomda bu joy pedagogik fikr va ishning markazi bo'lishi lozim. Shuning uchun bir tomondan psixologik ishning har bir yangilik o'qitishda laboratoriyada to'plangan boy tajribadan foydalanish imkoniyati berilishi kerak, bu imkoniyat bevosita maktablarga joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Boshqa laboratoriya va kabinetlar bilan bir qatorda pedagogik laboratoriya va pedagogik muzeyda eksperimental psixologik laboratoriyasi ham mavjud bo'lib, bu erda turli xil psixologik tajribalar amalga oshirilgan 1919-yili 1 aprelda Kavman Xorvat maorif komissariga xat yo'llab, davlatning ko'zi ojiz, gung, ruhiy kasal va psixologik taraqqiyoti hamda psixikasi muvozanatsiz bolalarni o'z tarbiyasiga olishi zarurligini ta'kidlagan. Xuddi shu maqsadda butun bir maxsus muassasalar tizimini tashkil etishni taklif etgan. Xorvatning taklifi bir necha yo'nalish bo'yicha diqqatga sazovordir. Birinchidan, bu kompleks xarakterdagi ish bo'lib, biron-bir psixonevrologik kasallik nazardan chetda qolmagan. Ikkinchidan, bu rejada ketma-ketlikdan bir necha bosqich nazarda tutilgan:

1. Kasallik diagnostikasi (tadqiqot darajasi). 2. Kasallarni davolash (amaliy tibbiy darajasi). 3. Kasallarni tarbiyalash va ta'lim berish (amaliy ta'lim darajasi). Birinchi darajani psixologik laboratoriya, ikkinchi darajani davolash maxsus muassasasi, uchinchi darajani maktablar amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Turkistondagi muassasalardan biri "O'zbek davlat ilmiy tadqiqot instituti", hozirgi Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti 1929-yili tashkil qilingan bo'lib, hozirgi kunga qadar bu institut o'qitishning pedagogik

konsepsiyalari maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim-tarbiya nazariyasini yaratuvchi yagona markaz hisoblanadi. 1930-yillar boshlarida institut tarkibida quyidagi kabinetlar mavjud bo'lgan: 1. Ijtimoiy gigiena kabineti. 2. Iqtisod kabineti. 3. Pedagogik-psixologiya kabineti. 4. Psixologik laboratoriya kabineti. Institut tashkil bo'lgan vaqtdan boshlab milliy mentalitetni va ijtimoiy muhitni chuqur tadqiq qilish bolalarning psixologik ijtimoiy-madaniy xususiyatini hisobga olgan holda darslarni yaratish bilan shug'ullandi. Institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi. 1. Ilmiy ekspedisiyalar uYushtirish. 2. Bolalar xarakterini o'rganish. 3. Pedagogik kadrlar tayyorlash. Ushbu institutning faoliyati Bendrikov, Leventuev, Zavarova, Yusupov, Tokanaev, Debenzov, Mirsharipov, Muxiddinov kabi olimlarning nomlari bilan chambarchas bog'liq. 1930-yillarda bu institutda jahon psixologiya faniga katta hissa qo'shgan olimlardan biri Aleksandr Romanovich Luriya ishlagan. U o'z institut doirasida o'tkazgan tadqiqotlari asosida keyinchalik "Ob istoricheskome razvitiye poznatelnykh jarayonov" – "Bilish jarayonlarining tarixiy taraqqiyoti haqida" degan asarini nashr qildi. O'zbekistonda psixologiya fanining shakllanishiga katta hissa qo'shgan olimlardan yana biri P.Ivanov hisoblanadi. 1927-yil Samarqanddagi o'zbek pedagogika institutida (pedakademiya) eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil qilgan. 1940-yilda u pedagogika institutlari talabalari uchun psixologiyadan birinchi o'quv qo'llanmasini nashr qilgan. Keyinchalik 1934-yili Samarqand pedagogika institutining o'zbek davlat universitetiga aylantirishi munosabati bilan P.Ivanov o'z laboratoriyasi bilan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga ko'chib o'tadi. Pedagogika o'quv muassasalarida ilmiy pedagogik potensialning etishmasligi tufayli dastlabki psixologiya darslari tarjimonlar yordamida olib borilgan, keyinchalik bu tarjimonlarning o'zlari mustaqil ravishda psixologiyadan o'zbek tilida ma'ruzalar o'qiy boshlashgan. Aliaskar Usmonov, Toxiriyxon Askarxo'jaev, Bayburova, Raxmatova va boshqalar o'zbek tilida dars o'tuvchi psixologiya o'qituvchilari bo'lishgan. P.Ivanovning (1891-1968) psixologiyaga oid 75 dan ortiq ilmiy ishlari nashr

qilingan. Uning 1927-yilda nashr qilingan “Umumiy pedagogika” bo‘yicha qisqa ocherk, “Maktabshunoslik” tarbiyaning umumiy metodlari 1940-yillar va 1954-yillarda “Umumiy psixologiya”, 1962-yilda “Ta’limning psixologik asoslari” kabi asarlari O‘zbekistonda psixologiya fani rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shdi. SH.A. Boyburova, Usmonov kabilar bevosita uning rahbarligida faoliyat ko‘rsatishdi. 1959-yil uning rahbarligida M.G.Davletshin, Bekboev, Muzaffarovlar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishdi. 1963-yil O‘zbekistonda psixologiyadan birinchi bo‘lib Krasnoboiev Ilya Berovich (1896-1963) Toshkent Davlat universiteti filologiya fakulteti logika va psixologiya kafedrasini mudiri “Yuqori sinf o‘quvchilarida e’tiqod, axloqiy tushunchalarni shakllanishi” mavzusidagi doktorlik ishini himoya qildi. Krasnoboievni ilmiy faoliyati 20-yillarda O‘zbekistonda tadqiqotlar bilan bog‘liq uning rahbarligi ostida logika va psixologiya kafedrasini azolari: 3. Mo‘minova, V.Ya.Maros, A.Abdusattorov, V.I.Sofer, A.Gulyamov, R.V. Galyamov, A.A. Erstifirovlar turli xil ob’yektlarda psixologiya va logika bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarini olib bordilar. Bu tadqiqotlar O‘zbekistonda xalq ta’limi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga yordam berdi. M.Voxidov (1927-1989) 1955-yilda Leningradda nomzodlik ishini himoya qilgan. Dastlab Andijon pedagogika institutida, so‘ngra Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy tadqiqotlar institutida ishlagan. 1966-yil Toshkent Davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri etib saylangan. 1973-yili Ministrlar Soveti topshirig‘iga binoan tarix fakulteti tarkibida tashkil etgan. P.S.Zimin, L.I.Sofer ishtirokida va markazning iste’dodli olimlari yordamida bu erda o‘quv eksperimental laboratoriya tashkil qilingan. M.Voxidov tomonidan maktabgacha pedagogika bilim Yurtlari uchun, pedagogika institutlari uchun darsliklar yozilgan, oxirgi yillarda M.Voxidov, A.Petrovskiy tahriri ostidagi “Umumiy psixologiya” darsligini tarjima qilingan va ayni paytda milliy va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘zbek tilida darslik yaratish bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Davletshin Muhammad Gabdulgalimovich 1923-yilda tug‘ilgan. Toshkent Davlat pedagogika universitetining psixologiya kafedra mudiri psixologiya fanlari doktori,

1957-yilda “5-7 sinf o‘quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllanishi” mavzusida, 1971-yil “O‘quvchilarning texnik qobiliyatlari psixologiyasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1968-yildan 2005-yilgacha Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining “Umumiy psixologiya” kafedrasida mudirlik qildi. M.G.Davletshin rahbarligida uning bevosita maslahatlari yordamida O‘zbekistonda 100 dan ortiq nomzodlik va doktorlik ishlari himoya qilingan. O‘zbekistonda psixologiyaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘pgina olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, O‘zbekistonga psixologiya fanini, ya’ni psixologiya tushunchasini olib kirib, to‘lalgicha ochib berdilar. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham psixologiya tarmoqlari rivojlanib bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda etishib chiqqan barcha olimlarimiz o‘zbek psixologiyasini chet mamlakatlar psixologiyasi kabi Yuqori cho‘qqiga chiqishida o‘zlarini hissalarini qo‘shib, kelmoqdalar. Odamlar ongiga esa milliy psixologiya asosida, ya’ni milliylik ruhida tarbiyalash, ularni ongiga psixologiyani singdirmoqdalar. O‘zbekistonda psixologiya fanining hozirgi ahvoli ilgorigidan ancha rivojlangan. Chunki bu fanni o‘qitish uchun tayyorlov kurslari va markazlar ochilib kishilarning ongiga etib bormoqda. Bundan tashqari, psixologiya tarmoqlari bo‘yicha turli xil muammolarni echishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu fan rivojlanishida o‘zbek psixologlari M.G.Davletshin, M.Voxidov, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G‘.G‘oziev, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, J.Azimov, R.Gaynutdinov, Sh.R.Baratov, Z.T.Nishonova, K.Mamedov, N.S.Safaev va boshqa olimlarning hissasi katta. Hozirgi kunda psixologiya fanining turli tarmoqlari, jumladan psixodiagnostika ham rivojlanmoqda.

BU QIZIQ

Yangi zelandiyalik Nayjel Latta zamonaviy bolalar psixologiyasi bo'yicha eng kuchli mutaxassis. Latta o'n yildan oshiq vaqt davomida muammoli bolalar va o'smirlar bilan ishlagan. Undagi bebaho tajriba va bilim nafaqat tarbiyasi og'ir bolalar ota-onalari, balki ota-ona bo'lishni rejalashtirgan barcha uchun ham kerakdir

Bolalarga chegara qo'ying! Bolalarni chegaralanmaslikning sabablari ko'p. Ular olamni mustaqil anglashlari lozimku, axir. Biroq bolalarni yo'lqovlikdan cheklamasangiz, tarbiyani o'zi bo'larchilikka tashlab qo'ygan bo'lasiz. Ularni chegarasiz, hech qanday qoidalarsiz tarbiyalab bo'lmaydi. Bola biror cheklovga duch kelmagunicha harakatlanaveradi. Sababi nimaningdir mumkin emasligi tushunchasi ularning tabiatida mavjud emas.

Asosiysi — bu muomala. Bu eng asosiy qoida va buni hech bir ota-ona nazardan chetda qoldirmasligi kerak. Bola — kichkina odamgina emas, alohida shaxs hamdir. Shuning uchun uni izzat qilish, muloqot mobaynida hurmatni izhor etib turish zarur. Siz ota yoki ona sifatida shaxsiy namunangiz yordamida boshqa insonlar bilan muloqot qilishni o'rgating. Samimiyatsiz insoniy munosabat o'rnatib bo'lmaydi. Bu yerda nazorat haqida gap ketmayapti. Bolalarni nazorat qilish, ayniqsa, kichik yoshdagilarini cho'chitib qo'yadi. Siz faqat qo'rqitish yordamida “o'zingni yaxshi tut”, desangiz u bu nega zarurligini tushunmaydi. Bundan tashqari, katta bo'lganida bola sizdan qo'rqadigan bo'ladi

Bolaga simpatiya (xush ko'rish) bilan munosabatda bo'ling. Bolalar ota-onalari ularni yaxshi ko'rishiga qattiq ishonishadi. Bu tug'ma hissiyot. Hatto bolaga yetarli e'tibor qaratilmagan yoki ularni jazolagan paytda ham ular ota-onasining mehr-muhabbatiga ishonishadi. Biroq yoqimlilik, xush ko'rish bilan gapirish, mehr ko'rsatish umuman boshqa narsa. Ko'plab bolalar sovuq va loqayd munosabatni darrov payqab qolishadi. Ota-onalik muhabbati tabiiy hissiyot, instinktdir. Unga simpatiyani uyg'unlashtirsangiz, bola tarbiyasidagi katta yutuqni qo'lga kiritasiz.

Bolalarga juda ko‘p e‘tibor zarur. Barcha bolalarga e‘tibor kerak. E‘tibor esa hech qachon ko‘plik qilmaydi. Farzandlar ikki nafar bo‘lsa, ular barcha e‘tiborni o‘zlariga qaratish uchun inijlik qilishadi. Ha, go‘daklar e‘tiborni qozonish uchun barcha imkoniyatdan foydalanishadi. Bu holat bolalarda instinktiv mavjud. Ota-onaning ko‘z-quloq bo‘lib turishi ular uchun xavfsizlikni anglatadi.

TOPSHIRIQLAR

Psixik rivojlanish haqidagi nazariya va ta‘limotlar

1-Vazifa: Psixik taraqqiyotning turli jihatlarini bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘yidagi tushunchalar qaysi olimlarning ilmiy qarashlarida markaziy o‘rin tutishini ko‘rsating. Bunda tegishli tushuncha keltirilgan jadval satrlari va muayyan olim ismi sharifi ko‘rsatilgan ustun o‘zaro kesishgan joyga biror belgi qo‘yish talab qilinadi.

№		Olimlar						
		A.Adler	D.B.Elkonin	J.Piaje	Z.Freyd	L.Kolberg	E.Erikson	L.S.Vigotskiy
1	Egotsentrizm							
2	Edip kompleksi							
3	Taraqqiyotning eng yaqin zonasi							
4	Yetakchi faoliyat							
5	Dekalyaj							
6	Kemtiklik kompleksi							
7	Psixologik himoya							
8	Yosh inqirozi							
9	Ijtimoiy-psixologik identifikatsiya							
10	Ahloqiy dilemma							

2-Vazifa: Z.Freyd tomonidan psixik rivojlanishni davrlashtirish bo‘yicha ilgari surilgan g‘oyaga ko‘ra turli yosh bosqichlari bir-birini qanday ketma ketlikda

almashtirishini belgilab chiqing. Bunda har qaysi yosh bosqichi umumiy tizimda nechanchi o‘rinni egallasa, qo‘yida keltirilgan jadvalda bu bosqichga mos tartib raqamidan boshqa raqamlarni o‘chirish talab qilinadi.

Psixik taraqqiyot bosqichlarining nomi va umumiy tasnifdagi tartib raqami																								
Genital bosqich					Fallik bosqich					Oral bosqich					Latent bosqich					Anal bosqich				
1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5

3-Vazifa: E.Eriksonning inson psixik rivojlanishi davlari haqidagi nazariyasiga muvofiq har bir davrda qaysi psixik holat va xususiyatlar o‘zaro ziddiyatga kirishib psixologik inqirozni vujudga keltirishini ko‘rsating. Bunda qo‘yidagi jadvalda aralash holda keltirilgan va o‘zaro zid juftlikni hosil qiluvchi psixik holat hamda xususiyatlarning umumiy ro‘yxatdagi tartib raqamlarini jadval ostidagi ikki satr (javoblar maydoni) ning yuqori va past darchalariga juft-juft qilib kiritish talab qilinadi

№	Psixik holat va xususiyatlar	№	Psixik holat va xususiyatlar
1	Atrof olamga ishonch	9	O‘ziga berilishlik
2	Tashabbuskorlik	10	Rollarning chalkashishi
3	Hayotiy faollik	11	Uyalish va ikkilanish
4	Yaqin munosabatlarga intilish	12	Aybdorlik hissi
5	Ego-integratsiya	13	Atrof olamga ishonchsizlik
6	Mustaqillik hissi	14	Kemtiklik hissi
7	Ego-identifikatsiya	15	Yolg‘izlanishga harakat qilish
8	Mehnatsevarlik	16	Afsuslanish

Javoblar maydoni							

4-Vazifa: J.Piaje ajratgan intellekt taraqqiyoti bosqichlarining har biriga xos xususiyatlarni belgilang. Bunda quyida sanab o‘tilgan intellektual faoliyat xususiyatlarining tartib raqamini tegishli bosqich nomi keltirigan satrdagi javoblar ustuniga yozish talab qilinadi.

№	Intellektual faoliyat xususiyatlari
1	Bolaning o‘zini muayyan harakat ishtirokchisi sifatida anglay boshlashi
2	Bolaning narsa-buyumlarni faqat bir belgisiga muvofiq tasniflay olishi
3	Bolaning mantiqiy fikrlashga va taxminlarni tizimli tekshirishga qodir bo‘lishi
4	Bolaning narsa-buyumlarni muayyan so‘z va obrazlar orqali ifodalay olishi
5	Bolaning maqsadli harakatni amalga oshirishga qodir bo‘lishi
6	Bolaning miqdor, hajm va vazn saqlanishi qonunlarini tushuna olishi
7	Bolaning nazariy, mafkuraviy muammolar bilan, kelajak bilan qiziqqa boshlashi
8	Bolaning narsa-buyumlarni biror belgisi bo‘yicha tartiblashtirishga qodir bo‘lishi

№	Intellektual taraqqiyot bosqichlari	Javoblar maydoni	
I	Sensomotor intellekt bosqichi		
II	Operatsiyalargacha bo‘lgan bosqich		
III	Konkret operatsiyalar bosqichi		
IV	Formal operatsiyalar bosqichi		

5-Vazifa: Psixik rivojlanishning ilk bosqichlariga xos xususiyatlarni aniqlang. Bunda quyidagi jadvalda tegishli xususiyat va yosh bosqichining nomi kiritilgan satr bilan ustun kesishgan joyga belgi qo‘yish talab qilinadi.

№	Psixik rivojlanishning muayyan davriga xos xususiyatlar	Psixik rivojlanish davrlari		
		Chaqaloqlik	Go'dalik	Ilk bolalik
1	Bolada ko'rgazmali-obrazli tafakkur shakllana boshlashi			
2	Bolaning ko'zguda o'z aksini kattalar yordamisiz tanishni boshlashi			
3	Bola tug'ulganidayoq mavjud bo'lgan shartsiz reflekslarning ko'pchiligi yo'qolib ketishi			
4	Bolada turli jinsdagi kishilarga nisbatan har xil reaksiya kuzatila boshlanishi			
5	Bolaning tovushlarni balandlik va tembr xususiyatlariga ko'ra farqlay boshlashi			
6	Bolaning atrofdagi odamlar nutqida diqqatni jamlay boshlashi			
7	Bola nutqi rivojlanishida "so'z-gap" bosqichining boshlanishi			
8	Bolada hamdardlik qilishga xos ilk xatti-harakatlarning kuzatilishi			
9	Bola yuzida shaklan tabassumga o'xshash harakatlarning ilk bora kuzatilishi			
10	Bolada muayyan narsa-buyumlar o'ziga tegishli ekanini qayd etish xususiyati shakllanishi			

3-5 yoshgacha bo'lgan kichik maktabgacha yoshidagi bolalarga quyidagi o'yinlarni tavsiya etish mumkin

“Uchinchi ortiqcha”

1.Kattalar uchta so'z aytishlari kerak. Masalan, “burgut”, “chumchuq”, “yo'lbars”. Bola aytilgan so'zlarning barchasi jonli ekanligini, lekin burgut va chumchuq-qush, yo'lbars esa hayvon ekanini aytishi kerak.

2.Bolaga “sut”, “sharbat” va “pechenye” so'zini aytishingiz, bola esa bularning barchasi yegulik ekanini, lekin sut va sharbat ichilishini, pechenye yeyilishini aytishi lozim. Boshida bola bu o'yinga uncha tushunmasligi mumkin, lekin siz unga yordamlashib nima jonli, nima jonsiz, yeyiladigan, ichiladigan va hokazolar to'g'risida ma'lumot berib o'tishingiz kerak. Birinchi o'yinda u bir narsani,

ikkinchisida esa ikkita narsani bilib oladi. Natijada bolalar nafaqat aytilgan predmetlarning qanday va nima maqsadda ishlatilishinigina emas, balki mantiqiy fikrlashni ham o'rganadi.

Bu yoshdagi bolalarni harakatli o'yinlar bilan ham o'zingizga jalb etishingiz mumkin. Masalan, samolyot qanday qanot yozib uchishini, qanday tovush chiqarishini, ayiq polvon ham qanday yurishini, ovozining yo'g'onligini ko'rsatib, bolalar bilan xona bo'ylab yuring.

“Xotira o'yini”.

1.Stol ustiga bir necha predmetni qo'yib qo'ying. Ular olti-yettitadan oshmasligi kerak. Bolalar bu predmetlarni ko'rib olishiga bir necha daqiqa vaqt beringda, predmetlarni ustini yopib qo'ying. Bolalar stol ustida qanday predmetlarning borligini bir necha soniyadan keyin aytishi kerak.

2.Bolalar predmetlarni bir necha daqiqa ko'rib bo'lgach, ko'zini yumib turing va bir predmetni olib, qolganlarining joyini almashtirib qo'ying. Bolalar olib tashlangan predmetning nomini aytib berishi lozim bo'ladi.

3.Stol ustidagi predmetlarning birin olib tashlamasdan, aksincha, yana bir predmetni qo'shib qo'ying. Bu o'yin bolalarning nafaqat diqqatini oshirishga, balki xotirasini ham rivojlantirishga yordam beradi. Qiziqarli tamoni shundaki, bu o'yin usuli bilan nafaqat bolalarning, balki kattalarning ham diqqat-e'tibori, xotirasini tekshirish mumkin.

Kechqurun barcha oila a'zolari bir joyga to'planganida kattalar diqqatini, xotirasini ularning kichkintoylari ham tekshirishlari ular uchun juda maroqli bo'ladi.

“O'rningni top! ”. 1. Bu o'yin bolalarni predmetlarni qayerga tegishli ekanini aniqlashlariga yordam beradi. Buning uchun siz qoshiq, kitob, daraxt, likopcha, doska, qalam, porfel, javon, lampa va hokazolarning kichikroq rangli suratlari va kattaroq qilib chizilgan oshxona, tabiat va maktab suratlarini yonma-yon qo'yib chiqishingiz kerak. Shundan so'ng bolalar kichikroq hajmdagi predmetlar qayerga tegishli ekanligini topishi kerak.

2. Bolalarga bundan ham qiziqarliroq bo'lishi uchun o'rmon va hovlili uy-joy hamda uy va yovvoyi hayvonlar tasvirlangan suratlarni chizing. Barcha rasmlarni aralashtirib chiqing. Bolalar hayvonlar uyda boqiladimi yoki o'rmonda yuradimi, shuni topib o'rniga qo'yishlari kerak. Bu o'yin o'ynalayotganda o'rmonda va uyda yana qanday hayvonlar bo'lishi mumkinligi haqida aytib o'ting va iloji boricha ularning rasmlarini chizib ko'rsating. Keyingi safar yana shu o'yinni o'ynayotganingizda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning qanday ovoz chiqarishi, qanday yurishi haqida ham gapirib bering. Bu o'yin-mashg'ulot bolalarning hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlarini oshiradi.

“Bu nima?”. 5 yoshli bolalarga unchalik murakkab bo'lmagan shakllarni nuqtalar yordamida chizib chiqing. Bolaga esa bu nuqtalarni birlashtirish kerakligini tushuntiring. Bola nuqtalarni birlashtirib bo'lgandan so'ng uning nima ekanligini aytadi va ichini bo'yab chiqadi. Rasmni bo'yashdan oldin uning rangi qanday bo'lishi kerakligi haqida ham ma'lumot berib o'ting. Chizilgan shaklni u o'zi istagan ranglarda bo'yashiga ham imkoniyat bering. Muhimi, u turli ranglardan foydalanishi kerak.

“Doira” o'yini - bolalar doira bo'lib o'tirib oladilar. Bunda har bir bola doiradagi qolgan bolalarni ko'rib turishi lozim. Tarbiyachi: “Ana endi hech kim chekkada qolib ketmaganligini bilish uchun, bir-birimiz bilan ko'zlarimiz yordamida salomlashib chiqamiz. Men birinchi bo'lib boshlayman. Men hamma bilan salomlashib bo'ganimdan so'ng mening qo'shnim salomlashishini boshlaydi”. Tarbiyachi har bir bola bilan salomlashib bo'lgach, yonidagi bolaning yelkasini qiqq qo'yadi. Shundan so'ng keyingi ishtirokchi salomlashishini boshlaydi. O'yin shu tariqa oxirigi bolagacha davom etadi.

“Ko'zgu” o'yini – tarbiyachi: “Menimcha, harr biringizning uyingizda ko'zgu bo'lsa kerak, shundaymi? Ko'zgusiz ko'rinishimiz qandayligini bilish qiyin kechadi. Xo'sh agar qo'l ostingizda ko'zgu bo'masa nima qilish kerak? Kelinglar, bugun sizlar bilan ko'zglar o'yinini o'ynaymiz. Hozir har biringiz o'zingizning

juftingizni topib, bir-biringizga qarab turib olasiz. Kim odam, kim ko'zgu rolini bajarishini aniqlab oling. Keyin esa rollaringiz bilan almashasiz. Ko'zgu odamning har bir harakatini aniq takrolasin. Chunki noaniq harakat qiluvchi ko'zgular bo'lmaydi. Tayyormisiz? Qani bir harakat qilib ko'raylikchi! ”.

Tarbiyachi o'ziga sherik topib o'yinni qanday o'ynash kerakligini bolalarga ko'rsatadi. Shundan so'ng bolalar mustaqil harakat qila boshlaydilar. Tarbiyachi esa bolalarning harakatlarini kuzatibboradi. Qiynalayotgan juftliklarga yordam beradi.

“Shamol” o'yini – bolalar doira bo'lib stullarga o'tirib oladilar. Boshlovchi: “Kiyimida qizil rang bo'lganlarga shamol esmoqda”- deydi. Shunda kiyimida qizil rangi bo'lgan bolalar o'rinlaridan turib, joylarini almashishlari kerak. Aynan shu paytda boshlovchi o'ziga bo'sh stul topib o'tirib oladi. Stulsiz qolgan bola boshlovchilik qiladi. Barcha bolalarni turg'azib yuborish uchun “Bo'ron boshlandi” deyish mumkin.

“Sovg'a” o'yini – tarbiyachi: “Bolalar, kim sovg'a olishni yaxshi ko'radi? Siz nimani yaxshi ko'rasiz? Bugun siz bilan o'ylab topilgan sovg'alar berish va olish o'yinini o'ynaymiz. Tasavvur qiling, siz xoxlagan sovg'angizni do'stingizga taqdim etishingiz mumkin. Do'stingizga qarang, unga nima sovg'a qilgan bo'lar edingiz? Keling, doira bo'ylab bir-birimizga sovg'alar taqdim etamiz. Sovg'a olgan kishi minnatdorchilik yuldirishni unitmasin”. Bolalar bir-birlariga sovg'a berib bo'lganlaridan keyin, qaysi sovg'a eng yoqimlisi bo'ldi, sovg'a berish yoqimlimi yoki olishmi savollari bilan bolalarga murojat qilish mumkin.

“Nima dumalaydi?” – bu o'yin bolalarni narsalarning shakli bilan tanishtiradi. Bolalar bilan quvnoq o'yin-musobaqa uyushtiring, kim o'z shaklini pol yoki stolga o'rnatilgan o'yoinchoq darvozadan tezroq dumalatib o'tkazadi. Dumalatish uchun sharcha va kubni taklif eting. Avvaliga bolalar uun darvozaga nimani dumalatib ikritishning farqi bo'lmas, lekin bir necha urinishdan so'ng u sharchani tanlagan

odam yutoyotganini tushunib qoladi. Xuddi shu payta – nega aynan sen shu shaklni, sharni dumalatmoqchisan? – deb so‘rang. Unga o‘z xatti-harakatini asoslash, xulosa chiqarishiga yordamlashing. “Sharcha dumalaydi, kubik dumalamay to‘xtab qoladi”. Bola e‘tiborini kubdagi o‘tkir qirralarga qarating. Sharning tekisligini, qirralari yo‘qligini ko‘rsating. Shar va kub tasvirini chizib ko‘rsating. Rasmda ular oddiygina doira va to‘rtburchak shaklida namoyon bo‘ladi. Bolaga shar va kub rasmini chizishni taklif qiling.

“Pochta qutisi” – bu qutichani o‘zingiz qo‘lbola yasashingiz mumkin. Buning uchun avval shakllarni tayyorlashingiz kerak: kub, silindir (yoki shar), uchburchakli prizma, to‘g‘ri to‘rtburchakli g‘o‘lacha va hakoza. Har bir shakldan 2-3 donadan bo‘lgani ma‘qul. So‘ng qalinroq karton qutichani olib, qopqog‘ida siz tayyorlagan shaklga o‘xshash darcha kesing. Shunga e‘tibor beringki, kvadrat sharchaga shar sig‘masin, to‘g‘ri to‘rtburchakli darchaga esa kvadrat to‘g‘ri kelmasin.

Endi o‘yinni boo‘lasangiz ham bo‘ladi. Bola pochta qutisiga xat-shakllarni tashlasi kerak. Shakllarning qaysisini darchadan solishni aytib turmang. Uning o‘zi izlab bir necha bor urinib topgani yaxshi. Sizning vazifangiz bola shakllarni darchadan zo‘rlab o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Bola hamma xat-shakllarni qutichaga solib bo‘lgach, uni rag‘batlantirib, harakatli o‘yin uyushtirishingiz mumkin.

“Qo‘g‘irchoqni kiyintiramiz” – kichiktoy narsalar kattaligi bilan tanishishda turli o‘lchamdagi bir xil predmetlarni taqqoslashdan foydalanadi. Unga 2 ta qo‘g‘irchoq (katta va kichik) va ikkita kiyim-kechak to‘plamini tavsiya eting. Qaysi kiyim qaysi qo‘g‘irchoqqa tegishli ekanligini aniqlash bolaga havola etiladi. Qo‘g‘irchoqlar sovuq yeyotgani, ularni kiyintirish lozimligini ayting. Agar bola kiyimlarni taqsimlashda xato qilsa, hechqisi yo‘q. Kiyimlar qo‘g‘irchoqqa katta yoki kichik kelganini bolaga ko‘rsating. Topshiriq to‘g‘ri bajarilgach, bolani rag‘batlantirib: - katta qo‘g‘irchoqqa katta ko‘ylak, kichik qo‘g‘irchoqqa kichik ko‘ylak kiydirdik – deb ayting.

Agar sizda kerakli o'lchamda qo'g'irchoq va kiyim bo'lmasa, uni boshqa narsalar bilan almashtirish mumkin. Karton qog'ozdan yasalgan qo'g'irchoqqa qog'ozdan qirqilgan kiyim-kechak tayyorlab berish mumkin. Topshiriqni bir oz murakkablashtirish uchun 3 ta qo'g'irchoq va ular uchun kiyim-kechak tayyorlash kifoya.

“Sichqonchani yashir” – bolalar narsalarnig rangiga e'tibor qilishni o'rganishlari uchun turli rangdagi qog'ozlardan katta to'g'ri to'rtburchaklar tayyorlang, har bir shakl o'rtasidan darcha qirqing. Tagiga sichqon rasmi chizilgan oq qog'ozni yopishtiring. Sichqon derazadan qarab turgan bo'ladi. Derazadan kattaroq o'lchamda to'rtburchakli eshik tayyorlang. Bolaga o'yinchoq mushukni ko'rsatib u sichqon ovlagani ketayotganini ayting. Har bir sichqonchani yashirish uchun derazani shu rangdagi eshik bilan yopish kerak. Shunda mushuk derazani payqamay qoladi. Mushuk uxlayotganda bolaga sichqonchalarni yashirish imkonini bering. Keyin mushukni ovga chiqaring. Agar bola topshiriqni noto'g'ri bajargan bo'lsa mushuk sichqonchani olib ketadi. Agar bu hol bolani xafa qilsa, xatosini to'g'rilashga imkon bering.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar.

3 yoshli bolalar uchun.

“Rangli gilamchalar” (rang)

“Doirachalar” (o'lcham)

“Figuralar” (shakl)

“Namuna bo'yicha tuzish” (ko'rgazmali-harakatli tafakkur)

Tekshirish psixolog tomonidan o'tkazilib, bitta bola uchun 5-7 minut ajratiladi.

“Rangli gilamchalar”-ko'ruv idrokining xususiyatlarini aniqlash, asosiy ranglarni ajratish

Materiallar: 6 ta rangli kartochka (qizil, ko'k, sariq, yashil, havorang, jigarrang. Bolaga navbat bilan rangli (qizil, ko'k, sariq, yashil) kartochkalarni tanlash taklif etiladi. So'ngra tarbiyachi kartochkalarni bolaga ko'rsatib ularning rangini aytib

berishni soʻraydi. 3 yoshli bola uchun 3 ta yoki 4 ta rangni aytib berishi meyor hisoblanadi. 4 yoshli bola 4-6 ta rangni ajrata bilishi kerak boʻladi.

“Doirachalar” - predmetlarni oʻlchamini idrok qilish xususiyatlarini aniqlash. Bolaga bir xil rangdagi 3 ta doira koʻrsatilib, eng kattasi va eng kichigini aytib berishi soʻraladi. Uch yoshli bola mustaqil ravishda vazifani bajarishi meyor hisoblanadi.

“Figuralar” predmetlarning shaklini idrok qilish xususiyatlarini aniqlash

Materiallar: bir xil rangdagi geometrik shakllarning (doira, kvadrat, oval, uchburchak, toʻgʻri toʻrtburchak) 2 ta komplekti.

Bolaning oldiga beshta shakldan ixtiyoriy ikkitasi qoʻyiladi. Soʻngra ikkinchi komplektdan bitta shakl koʻrsatilib, uning qoʻlidagi shaklning qaysi biri oʻxshashligini aytib berishi soʻraladi. Masalan, bolaning oldiga birinchi komplektdan doira va kvadrat qoʻyiladi, soʻngra ikkinchi komplektdan kvadrat va hok.

Uch yoshli bola oval va doirani, kvadrat va toʻgʻri toʻrtburchakni adashtirishi mumkin hisoblanadi.

“Namuna boʻyicha tuzish” fazoviy va koʻrgazmali-harakatli tafakkurning xususiyatlarini aniqlash. Materiallar: 2 ta nusxada turli shakldagi qurilish detallari. Tekshiruvchi bolaga qurilish detallaridan biror bir narsani yasab beradi, soʻngra xuddi shunday yasab berishi soʻraladi.

Uch yoshli bola mustaqil ravishda vazifani bajarsa qoniqarli hisoblanadi.

4 yoshli bolalar uchun.

“Piramida” -oʻlchamini, koʻrgazmali-harakatli tafakkurni idrok qilish.

Material: 5-7 ta elementdan iborat piramida.

Tekshiruvchi bolalarga piramida koʻrsatadi va bolaning diqqatini u qanday yasalganiga qaratadi. Soʻngra bu piramidani qismlarga ajratadi va bolaga qaytadan avvalgidek yasab berish topshirigʻi beriladi. Agar bola vazifani bajarishga qiynalsa, yordam beriladi.

Bola vazifani birinchi urinishidayoq mustaqil bajarsa bolada o'lchamni idrok qilish yuqori darajada rivojlangan.

“Shakllar qutisi”- shaklni va fazoviy munosabatlarni idrok qilish. Ushbu vazifa boladan shakllarni idrok qilishnigina talab etmasdan, shakllarni fazoda to'g'ri harakatlantirishni ham talab etadi.

Material: doira, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, ko'pburchak shakllardagi o'yiqchalardan iborat quticha. Bolaning oldiga turli shakllar, quticha qo'yiladi va quyidagicha topshiriq beriladi: “Bizda g'ayrioddiy pochta qutisi va o'zgacha xatlar bor. Har bir xatning o'z o'rnini bor. Xatlarning o'rnini topib ularni joylashtirib chiq” Agar bola shakllarni ko'z bilan chamalab o'yiqchalarga joylashtirib chiqsa unda fazoviy idrok yuqori darajada rivojlangan bo'ladi.

